



УДК: 811.411.21’373.611/.612:340

Лазиза АБДУЛКАСИМОВА,

Тошкент давлат шарқиунослук университети мустақил изланувчиси

E-mail: laziza.abdulkasimova@gmail.com

ТДШУ профессори, фил.ф.д. Ш. Шомусаров тақризи остида

CONVERSION AND AFFIXATION: AS A MORPHOLOGICAL METHOD OF TERM FORMATION

Abstract

The article analyzes the morphological formation of the terms of criminal law in modern Arabic language. Affixation and conversion are widely used in criminal law terms as productive types of morphological method of term formation. A striking example of this is the active use of all types of verbs and their derivatives, as well as; the process of transition from one grammatical category to another. The terms of criminal law, formed by the method of affixation and conversion, are analyzed on the example of articles of the Criminal Code of the United Arab Emirates.

Key words: morphology, conversion, affixation, substantivization, adjectivization, models.

КОНВЕРСИЯ ВА АФФИКСАЦИЯ: КАК ВИДЫ МОРФОЛОГИЧЕСКОГО СПОСОБА ТЕРМИНООБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье анализируется морфологическое формирование терминов уголовного права в современном арабском языке. Аффиксация и конверсия широко используются в уголовно-правовых терминах как продуктивные виды морфологического способа терминообразования. Ярким примером этого является активное использование всех парод глаголов и их производных, а также процесс перехода из одной грамматической категории в другую. Термины уголовного права, образующийся методом аффиксации и конверсии, анализируются на примере статей Уголовного кодекса Объединенных Арабских Эмиратов.

Ключевые слова: морфология, конверсия, аффиксация, субстантивация, адъективация, модели.

КОНВЕРСИЯ ВА АФФИКСАЦИЯ: ТЕРМИН ЯСАШНИНГ МОРФОЛОГИК УСУЛИ СИФАТИДА

Аннотация

Мазкур мақола доирасида ҳозирги араб тилида жиноят ҳуқуқига оид терминларнинг морфологик усулда шаклланиши таҳлил қилинади. Аффиксация ва конверсия морфологик усул ёрдамида термин ясашнинг маҳсулдор турларидан бири сифатида жиноят ҳуқуқи терминлари орасида кенг қўлланилади. Бунга барча феъл боблари ҳамда уларнинг дериватларини фаол қўллаш, шунингдек бир грамматик туркумдан бошқасига қийинчиликсиз ўтиш жараёни яққол мисол бўла олади. Аффиксация ва конверсия усули орқали ҳосил бўлган жиноят ҳуқуқи терминлари Бирлашган араб амирликларининг жиноят кодексида келтирилган моддалар мисолида ёритиб берилган.

Калит сўзлар: морфология, конверсия, аффиксация, субстантивация, адъективация, моделлар.

Кириш. Араб тилида терминлар асосан морфологик усул орқали ҳосил бўлади, бунда терминлар ички манбалар ҳисобига бойида ва тил ривожланади. Шу боис термин ясашида морфологик усул етакчи роль ўйнайди, чунки бу усул қадимги араб тилшуносларига ҳам маълум бўлган, кейинчалик эса замонавий олимлар томонидан такомиллаштирилган. Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, бугунги кунда араб адабий тилида янги лексик бирликларни шакллантиришда қадимги араб ва замонавий олимларнинг манбаларида келтирилган далиллардан фаол фойдаланилади. Морфологик усул орқали термин яратиш жараёнида сўз ясовчи моделлар ёки сўз ясовчи воситалар янги лексик бирликларнинг асосий манбаи саналади. Морфологик усул араб тилини янги лексик бирликлар билан бойитиш воситалари орасида энг самарали ва кенг тарқалган усуллардан ҳисобланади. Аммо бугунги кунда араб лексикологлари томонидан ҳозирги араб тилидаги соҳага доир терминлар етарли даражада ўрганилмаган. Шу боис мазкур мақолани ёзишдан қўзланган асосий мақсад – ҳозирги араб тилида жиноят ҳуқуқига оид терминларнинг морфологик усул орқали шаклланишини ўрганиш бўлиб, бунинг учун қуйидаги вазифаларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади:

араб тилида терминларнинг шаклланиши доирасида терминолог-олимларнинг илмий қарашларини

ўрганиш ва бу борада мавзуга оид илмий адабиётларни ўрганиш ва таҳлил қилиш;

термин ясашда маҳсулдор усуллардан бири – морфологик усул орқали термин ҳосил қилишни ҳозирги араб тилидаги жиноят ҳуқуқига оид атамалар мисолида ўрганиш;

термин ясашнинг морфологик усули таркибига қирувчи конверсия ва аффиксация орқали термин ҳосил қилишни чуқурроқ таҳлил қилиш;

конверсия ва аффиксация усуллари орқали ясалган жиноят ҳуқуқи терминлари борасида илмий хулосалар бериш.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили (Literature review). Ҳар бир тил ва ҳар бир терминологик тизимнинг ўзига хослиги борасида, шунингдек, морфологик усул орқали термин ясаш масалалари ҳамда терминологиянинг қўлаб муаммолари бўйича терминолог-тадқиқотчилар орасида турли фикрлар мавжуд. Биз жиноят ҳуқуқига доир терминларни шакллантиришнинг сермаҳсул турларини аниқлаш мақсадида баъзи арабшуносларнинг морфологик сўз ясаш усуллари оид тадқиқот ишларини ўрганиш ҳамда ушбу усулларнинг турлича акс этганини гувоҳи бўлдик.

Б.М.Гранде сўз ясашнинг уч турини ажратиб кўрсатади: а) аффикслар – суффикс, префикс, инфикслар ёрдамида; б) ички флексия ёрдамида –сўз таркиби ва

ундаги унлиларнинг ўзгариши; в) сўзнинг ички имкониятлари ёрдамида ўзгариши [1].

В.М.Белкин эса сўз ясалишининг бошқа уч турини келтиради: а) тилда мавжуд моделлар асосида ички флексия орқали ҳосила сўзнинг морфологик тузилишини қайта шакллантирувчи деривация; б) сўз ясовчи аффиксация ва айниқса, суффиксация (шаклландуви ўзакнинг морфологик тузилишини бузмасдан); в) ўзак қўшиш (основосложение) ва турли хил сўзлардан баъзи элементларни ажратиш олиш орқали ўзакли асосни яратиш (нахт) [2].

Г.Ш.Шарбатов сўз ясалишининг а) суффиксация; б) ички флексия; в) инфиксация; г) инфикса-суффиксал; д) префиксация каби турларини кўриб чиқади [3].

Замонавий давр арабшунос олимларидан эса В.В.Терещенко, И.В.Скворцова, М.Е.Недоспасова, А.А.Мустафаева кабилар морфологик усул орқали ҳосил бўладиган терминларнинг классификациясига доир масалалар билан шуғулланганлар. Жумладан, В.В.Терещенко, араб тилидаги ҳарбий ва ҳарбий-техникага оид терминларни тадқиқ қилиб, морфологик деривациянинг қуйидаги турларини аниқлайди: а) аффиксация; б) сўз туркумлари конверсияси; в) ўзак қўшиш; г) араб тилида мавжуд сўзларнинг семантик ўзгариши ҳисобига янги сўзларнинг ҳосил бўлиши [4].

И.В.Скворцова араб тилидаги иктисодиёт соҳасига оид терминларни ўрганиб, морфологик сўз ҳосил қилишнинг янада маҳсулдор турларини кўрсатган: а) суффиксация; б) префиксация; в) суффиксация билан префиксация; г) лексикализация; д) конверсия [5].

А.А.Мустафаева эса замонавий араб тилидаги информатика соҳасига оид терминларни тадқиқ қилиб, улар икки морфологик усул – аффиксация ҳамда лексикализация асосида ясалишини айтади [6].

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Тадқиқот мавзусининг ёритилишида тавсифий, таснифий, контекстуал таҳлил, тизимлаштириш каби тадқиқот ва таҳлил усуллари қўлланилган.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). Терминларнинг ясалишига доир қатор тадқиқот ишларини назарий жиҳатдан таҳлил қилиш ҳамда замонавий араб тилидаги жиноят ҳуқуқига оид терминларни ўрганиш натижасида биз жиноят ҳуқуқи терминлари морфологик термин ясашнинг аффиксация ва конверсия усули орқали шаклланишини аниқладик.

Араб тилида сўз ясалиши узок тарихга (VIII-IX) эга бўлиб, бу йўналишда аниқ тизим шаклланган. Шу тизим асосида, аниқроғи сўз ясалишининг қоидалари асосида янги терминлар ҳосил бўлади. Буюк мутафаккир ал-Фаробий ўзининг «Китаб الحروف» асарида «...агар бу халқда диалектика ёки софистика пайдо бўлса, бундай ҳолатда ушбу миллат вакиллари аввал уларга маълум бўлмаган ўша ғояни ўз тилларига бир сўз билан ўзлаштириш учун зарурият сезишса, ўзлари янги сўз ўйлаб топар эдилар... Одамлар ўз тилларини бошқа тиллардан химоя қилар эдилар (яъни бошқа тилларнинг

лексикаси кириб келишидан)» дея таъкидлаб ўтади [6]. Араблар бошқа тилларнинг лексикасини ўзлаштиришга шошмай, балки тилнинг ички имкониятларидан фойдаланган ҳолда, моделлар асосида янги сўз ясашга интилганлар.

Н.Юшмановнинг сўзларига кўра, «араб тилининг грамматикаси худди алжабрдан нусха олгани сингари сўз ясовчи тип ва моделларга бойлиги билан бошқа тиллардан фарқ қилади» [7].

Сўз ясаш деганда тилда мавжуд бўлган лексик ва грамматик воситалар ёрдамида янги сўзлар ҳосил қилиш тушунилади. Араб тилшунослигида сўз ясаш ёки сўз ҳосил қилиш «الإشتقاق» атамаси билан юритилади. Бунга сўз маъносининг ўзгаришига олиб келувчи турли хил морфологик ўзгаришлар киради. «الإشتقاق» атамаси икки хил маънога эга [2]:

Биринчиси – сўзнинг маъносини тушуниш ҳамда бир ўзақдан ясалган сўзлар билан генетик алоқаларни ўрнатиш учун унинг ўзакли асосини аниқлай олиш, этимологиясини топишдир.

Иккинчиси – янги лексик маъноларга эга бўлган сўзларни ясаш, бунда шакл ва маъно бўйича туб ва ясама сўз ўртасидаги алоқани сақлаган ҳолда бир сўздан бошқа сўз ясашдир.

«الإشتقاق» сўзини биринчи марта араб лексиколог Ибн Жинний қўллаган ва у сўз ясашнинг тўрт турини ажратиш кўрсатган [2]. Замонавий араб филолог олимлари ҳам бугун ушбу тўрт тур асосида ясаладиган сўзларни қуйидагича таснифлайдилар [8]:

а) «الاشتقاق الصغير» – «кичик ёки умумий сўз ясаш» дир. Бу усул «الاشتقاق العام» – «умумий сўз ясаш» ёки «الاشتقاق الأصغر» – «энг кичик сўз ясаш» деб ҳам юритилади. «الاشتقاق الصغير» – Кичик ёки умумий сўз ясаш деганда, бир сўзнинг ўзақдаги ундошларини ва уларнинг тартибини сақлаган ҳолда бошқа сўз ясаш тушунилади. Сўз ясашнинг бу тури ҳамма феъл боблари, масдарлар ва сифатдошлардан фойдаланган ҳолда янги сўзлар яратиш учун кенг имконият яратади.

б) «الاشتقاق الكبير» – «катта сўз ясаш» ёки «лексик субституция» – «الإبدال اللغوي» деб аталади. Бу шаклга мансуб бўлган сўзларда бир сўзнинг бир ундош харфи ўзгариши орқали иккинчи сўз ясалади, бунда ундошларнинг сўздаги тартиби сақланади ва унли товушлар ўзгармайди, маънолари ҳам бир хил бўлади. Бундай сўзларнинг талаффузи бир-бирига ўхшайди.

в) «الاشتقاق الأكبر» – «энг катта сўз ясаш» ёки лексик метатеза, яъни «القلب اللغوي» деб ҳам аталади. Лексик метатеза усули орқали ясалган сўзларда ундошлар тартиби ўзгаради, аммо маънолари сақланади.

г) «الاشتقاق الكمال» – «энг кўп сўз ясаш» ёки «النحت», яъни «қисқартириш» номи билан ҳам аталади. Бундай сўзлар икки ёки ундан ортик сўзларнинг тилда мавжуд қолипларга асосланиб бир-бирига қўшилиши натижасида ясалади ва бундай ҳолатларда бир ёки ундан ортик ҳарфлар тушиб қолади.

Биз сўз ясалишини қуйидагича таснифладик:

Сўз ясаш шакллари	Кўшимча номлари ва таржимаси	Таърифи	Мисоллар
الاشتقاق الصغير	الاشتقاق الأصغر الاشتقاق العام Кичик ёки умумий сўз ясаш	бир сўзнинг ўзақдаги ундошларини ва уларнинг тартибини сақлаган ҳолда, шаклини ўзгартириш орқали бошқа сўз ясаш	عقاب عقوبة
الاشتقاق الكبير	الإبدال اللغوي Катта сўз ясаш	бир сўзнинг бир ундош харфи ўзгариши орқали иккинчи сўз ясалади, бунда ундошларнинг сўздаги тартиби сақланади ва унли товушлар	جذب جذب

		Ўзгармайди, маънолари ҳам бир хил бўлади.	
الاشتقاق الأكبر	القلب اللغوي Энг катта сўз ясаш	бир сўздан ундошлар тартибини ўзгартирган ҳолда бошқа сўз ясаш, аммо маънолари сақланади	جبر رجح
الاشتقاق الكبار	النحت Энг кўп сўз ясаш	икки ёки ундан ортик сўзлардан тилда мавжуд қолипларга асосланган ҳолда сўз ясаш (бундай ҳолатларда бир ёки ундан ортик ҳарфлар тушиб қолади)	يسمل

Араб тилида жиноят ҳуқуқига оид атамалар орасида «الاشتقاق الصّغير» усули орқали ясалган терминлар мавжуд, буни бир неча мисолда кўриб чиқамиз. Жумладан, араб тилидаги «عَقَبَ» 1-боб феъли «кимса ёки нарсанинг изидан бормоқ» деган маънони ифодалайди. Ушбу феълдан «عُقُوبَةٌ» - «жазо» маъносини англатувчи масдар шаклланган.

«عَقَبَ» 1-боб феълидан «عاقَبَ» - «таъкиб қилмоқ, жазоламоқ» 3-боб феъли ҳам ясалган, шу феълдан эса 3-бобнинг аниқ даража сифатдоши «مُعاقَبٌ» - «жазолайдиган» ҳамда мажхул даража сифатдоши «مُعاقَبَةٌ» - «жазоланадиган» ва масдари «عِقَابٌ» - «жазо» терминлари ҳосил бўлган.

Юқоридаги мисолларга таянган ҳолда шуни айтиш ўринлики, биргина «عَقَبَ» 1-боб феълидан бешта янги сўз ҳосил бўлган.

Жиноят ҳуқуқига оид атамалар орасида юқорида келтирилган сўз ясалишининг 2,3,4-турларига мисоллар учрамади.

Терминларни морфологик усул орқали шакллантиришда ўзак ва аффикслар (суффикс, префикс, инфикс) энг фаол қўлланиладиган воситалардан бўлиб, уларнинг ўзгариш жараёни аффиксация деб аталади. Жиноят ҳуқуқига оид терминларни тадқиқ қилиш жараёнини енгиллаштириш мақсадида лингвистик мактабларда кенг тарқалган усуллардан бири – моделларни аниқлаш усулини қўллашимиз. Ушбу усул уч ўзакли ундош ҳарфларни (ف، ع، ل) феъл бобларида қўллашдан иборатдир. Феъл араб тили грамматикасида мавжуд учта сўз туркумининг бири ҳисобланади. Маълумки, араб адабий тилида 15 та феъл бобларининг 10 таси фаол қўлланилади. Жиноят ҳуқуқи терминларига келадиган бўлсак, 10 та бобнинг 9 таси фаол қўлланилади:

I боб	فَعَلَ	حَكَمَ	хукм қилмоқ
II боб	فَعَّلَ	عَفَى	кечирмоқ; авф этмоқ
III боб	فَاعَلَ	عَاقَبَ	жазоламоқ
IV боб	أَفْعَلَ	أَخْفَى	яширмоқ; сир тутмоқ; бекитмоқ
V боб	تَفَعَّلَ	تَسَبَّبَ	айбдор бўлмоқ; сабабчи бўлмоқ
VI боб	تَفَاعَلَ	تَوَافَقَ	рози бўлмоқ (қарор шартларига)
VII боб	اِنْفَعَلَ	اِنضَمَّ	қўшилмоқ (жинойи гуруҳга)
VIII боб	اِنْفَعَلَ	اِرْتَكَبَ	содир этмоқ (жиноят)
IX боб	اِفْعَلَ	—	—
X боб	اِسْتَفْعَلَ	اِسْتَعْلَى	фойдаланмоқ (ўз мавқеидан)

Шуни қайд қилиш мумкинки, арабча жиноят ҳуқуқи терминлари орасида 9-бобдан ташқари барча феъл боблари фаол қўлланилади. Бундай фикрни И.В.Скворцованинг диссертациясида ҳам учратиш мумкин. У ҳам араб тилидаги интисодий терминларни ўрганиб, 9-бобдан умуман фойдаланилмагани ҳақида ёзади [5]. 9-боб ранг-тус ва ташқи кўриниши акс эттиргани сабабли ушбу соҳа терминларида

қўлланилмагани мумкин. Аммо А.А.Мустафаева араб тилидаги информатика соҳасига оид терминлар орасида 10 та бобфеълларининг барчаси мавжуд дея таъкидлайди, ҳаттоки 9-боблар ҳам, масалан: «اسْتَوْدَ» - «йўғон бўлмоқ (шрифтга нисбатан)» маъносини ифодалайди [6].

Жиноят ҳуқуқига оид феъл бобларини ўз навбатида кўп қўлланиладиган, камроқ қўлланиладиган ва жуда кам қўлланиладиган феълларга ажратиш мумкин.

Жиноят ҳуқуқига оид энг кўп қўлланиладиган феъл боблари:

I боб	حَكَمَ	хукм қилмоқ;
	حَطَفَ	тутиб олмоқ, ушлаб олмоқ (жиноятчини)
	عَشَّ	қалбакилаштирмоқ,
	قَتَلَ	ўлдирмоқ;
IV боб	حَازَ	қўлга киритмоқ (жиноят кетидан мулкни қўлга киритмоқ, эгалламоқ);
	أَخْفَى	яширмоқ, сир тутмоқ, бекитмоқ;
VIII боб	أَعْفَى	авф этилмоқ, озод этилмоқ (жазодан);
	أَفْسَى	тарқатмоқ, маълум қилмоқ (сирни);
	أَثَبَتْ	исботламоқ;
IX боб	اِرْتَكَبَ	содир этмоқ (жиноят);
	اِسْتَرَقَ (~ السمع)	яширинча қулоқ солиб эшитиб олмоқ;
	اِنْتَفَى	рад этилмоқ, бекор қилинмоқ (жиноят);
X боб	اِعْتَدَى	қасд қилмоқ, суиқасд қилмоқ

Камроқ қўлланиладиган феъл бобларига мисоллар:

III боб	عَاقَبَ	жазоламоқ;
	خَاوَلَ (إِعْتَاءً)	ҳаракат қилмоқ (суиқасд қилишга ҳаракат қилмоқ);
	خَالَفَ (شُرُوطَ الْمُرَاقَبَةِ بِالْحَبْسِ)	бузмоқ (қамокдаги кузатув ҳолатини);
	صَنَاعَتَ (عُقُوبَةً)	кўпайтирмоқ, қийинлаштирмоқ (жазони кўпайтирмоқ);
X боб	جَاهَرَ	ошқора айтмоқ;
	إِسْتَوْدَعَ (بِالسَّرِّ)	ишонмоқ (сирни);
	إِسْتَبَقَى	ушлаб туриш (шахсни);
	إِسْتَعْمَلَ (مَتَفَجَّرَات)	портловчи моддаларни ишлатиш;

«عَاقَبَ» - «таъкиб қилмоқ, жазоламоқ» феълга тўхталадиган бўлсак, ушбу феълнинг ўзи энг кўп қўлланилган термин-феъллиги маълум бўлди. Агар БААнинг Жиноят кодексига муурожаат қилсак, кодекснинг аксарият моддалари айнан шу феъл билан бошланишини гувоҳи бўламыз. БААнинг Жиноят кодексидан 368-моддани мисол тариқасида келтириш мумкин:

[9] يعاقب بالسجن المؤقت كل من اعتاد ممارسة الفجور أو الدعارة.

Таржимаси: Бузуқлик ва фоҳишабозлик билан доимий тарзда шуғулланадиган ҳар бир шахс вақтинчалик қамок жазоси билан жазоланади.

Жиноят ҳуқуқига оид феъл бобларининг таҳлил натижалари 2,5,6,7- боб феъллари жуда кам қўлланилишини кўрсатди:

II боб	سَجَّلَ	ёзиб олиш (хуфиёна);
	هَدَّدَ	тахдид солмоқ;
	حَدَّدَ	аниқламоқ, белгиламоқ (қонун);
V боб	تَوَفَّرَ (ظُرُوفَ مُشَدَّدَةٍ)	мавжуд бўлмоқ (оғирлаштирувчи ҳолатларнинг мавжуд бўлиши);
	تَعَدَّى	қонун бузмоқ, зўравонлик қилмоқ;
VI боб	تَنَاولَ (مَوَادَّ مُخَدِّرَةً)	истеъмол қилмоқ (наркотик моддаларни)
VII боб	إِنطَبَقَ	қўлланилмоқ (ҳукм, қарор);

Араб тилида сўз яшашнинг юқоридаги шакллари билан бир қаторда сўз яшаш моделлари, яъни қолиплар асосида ҳам сўз ҳосил қилиш усули мавжуд бўлиб, унга асосан «неологизмлар» ясалади. Мазкур қолиплар янги сўз яшашда ҳал қилувчи вазифани бажаради ва тилдаги 75% сўзлар қолиплар асосида ҳосил бўлган [10].

Араб тилидаги сўз яшаш моделлари сўз яшашнинг энг кўп тарқалган ва маҳсулдор усулларидандир. Мисол тариқасида сўз яшашда қўлланиладиган бир неча парадигмаларни кўрсатиш мумкин, масалан «فَعِيلٌ» модели асосида «وكيلٌ» - «клиент, агент» сўзлари ясалган.

Араб тилида ўрин-пайт номлари мавжуд бўлиб, улар «مَفْعَلَةٌ مَفْعَلٌ, مَفْعَلٌ» улар ҳаракатнинг бажарилиш ўрни ва пайтини билдирувчи сўзлар ўрин ва пайт номлари дейилади. Бу икки тушунча араб тилида бир вазн асосида ясалади ва у бир вақтнинг ўзида ҳам ўринни, ҳам пайтни билдириб келади [11]. Жиноят ҳуқуқига оид терминлар орасида ҳам ўрин ва пайтни билдирувчи сўзлар мавжуд, масалан, «مَحْكَمَةٌ» - «суд, трибунал».

Морфологик усулда термин яшашнинг кейинги тури конверсия бўлиб, бунда сўзнинг бир туркумдан ёки бир грамматик гуруҳдан бошқасига ўтиши тушунилади. Араб жиноят ҳуқуқи терминлари орасида конверсиянинг икки тури, биринчиси, аниқ ва мажхул даража сифатдоши ва масдарнинг субстантивацияси – бир грамматик туркумдан бошқасига ўтиб от вазифасини бажаради, иккинчиси, адъективация – аниқ ва мажхул даража сифатдошининг сифат сўз туркумига ўтиши кузатилади.

Субстантивация жараёнида жиноят ҳуқуқига оид кўпгина масдарлар ўзининг аввалги функциясини йўқотган ҳолда от вазифасини бажаради. Масалан, жиноят ҳуқуқидаги «إِعْدَاءٌ» - «ўлим жазоси» термини ҳаракат номи сифатида асосий маъноси «йўқ қилиш» бўлиб, «أَعْدَمٌ» - «мажхул қилмоқ, йўқ қилмоқ» маъносини билдиради:

يعاقب بالإعدام كل من حاول أو شرع بالقوة في قلب نظام الحكم أو الإستيلاء عليه..

Таржимаси: Ким бошқарув тизимини ағдарилш ва уни эгаллаш мақсадида қучларни йўналтирса ёки шунга ҳаракат қилса, ўлим жазоси билан жазоланади.

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, жиноят ҳуқуқига оид терминлар орасида аниқ ва мажхул даража сифатдошларининг ҳам субстантивация ҳолатига учраши кўп кузатилади. Масалан, 1-бобнинг аниқ даража сифатдоши «حَانٌ» - «терган, йиққан (ҳосилни)» сўзи жиноят ҳуқуқи термини сифатида «حَانٌ» - «айбдор, жиноятчи», деб қўлланилади. Араб тилида деярли барча аниқ даража сифатдошлари бирон-бир иш-ҳаракатни бажарувчи шахс ёки предметни билдиради ва от сўз туркумига қиради ва баъзи ҳолатлардагина, яъни адъективацияга учраганда сифат ўрнида келиши кузатилади. Бу ҳолатга мақоланинг қуйи қисмида мисоллар мавжуд.

Мажхул даража сифатдошларининг субстантивацияси ҳам араб тилида самарали қўлланилади. Бунга 285-моддадаги терминни яққол мисол сифатида келтириш мумкин:

يعاقب بالحبس مدة لا تزيد على خمس سنوات كل من أمد مقبوضاً عليه بأسلحة أو بآليات للاستعانة بها على الهرب.

Таржимаси: Ҳибсга олинган кишини қурол-аслаҳа ёки унга қочишида ёрдам берувчи асбоб билан таъминлаган шахс беш йилдан ортиқ бўлмаган муддатга озодликдан мажхул қилиш билан жазоланади.

«مَقْبُوضٌ» - «олинган» маъносини ифодаловчи 1-бобнинг мажхул даража сифатдоши «قَبْضٌ» - «ушламоқ» феълдан ясалган, «مَقْبُوضٌ عَلَيْهِ» жиноят ҳуқуқи термини эса «ҳибсга олинган киши, қамокқа олинган шахс» деб таржима қилинмоқда. Фикримизча, «مَقْبُوضٌ عَلَيْهِ» - «ҳибсга олинган киши» ва «مَخْخُومٌ عَلَيْهِ» - «мажхул» каби терминлар аксарият ҳолларда бирон-бир иш-ҳаракат натижасини

ифодалайди, бундай ҳолатда субстантивация жараёни юз беради ва юқорида келтирилган «مَقْبُوضٌ عَلَيْهِ» ва «مَخْكُومٌ عَلَيْهِ» жиноят ҳукуки терминлари мажхул даража сифатдоши бўлишига қарамай от вазифасини бажаради.

Шу йўсинда, масдар ва сифатдошларнинг субстантивацияси натижасида баъзи жиноят ҳукуки терминлари ўзининг «иш-ҳаракат бажарувчиси» (аниқ даража сифатдоши), «бажарилган иш-ҳаракат» (мажхул даража сифатдоши), шунингдек, «ҳаракат номи» (масдар) грамматик катериялари билан алоқасини йўқотади ҳамда гапта от вазифасида келади.

Араб тилида жиноят ҳукукига оид терминлар орасида аъдетивацияга учраган мажхул даража сифатдошларига қатор мисоллар келтириш мумкин: «السَّجْنُ» - «умрбод қамок жазоси», «السَّجْنُ الْمُؤَقَّتُ» - «қиска муддатли қамок жазоси», «الْجَزَائِمُ الْمَنصُوصُ» - «келтирилган жиноятлар (яъни, шу моддада келтирилган жиноятлар...)».

Аъдетивация – конверсиянинг бир тури сифатида субстантивация билан бир қаторда термин ясада кенг қўлланилади, хусусан жиноят ҳукуки терминлари орасида ҳам. Араб тилида аниқ даража сифатдоши билан бирга мажхул даража сифатдоши ҳам қўлланилишини эътиборга олган ҳолда, биз учун сифатдошларнинг икки турини ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлади. Аъдетивация ҳолатига учраган аниқ даража сифатдошлари орасида қуйидагилар аниқланди: «الْجَزَائِمُ الْوَارِدَةُ» - «учраган, мавжуд бўлган жиноятлар». Ушбу сўз бирикмасидаги 1- бобнинг аниқ даража сифатдоши «وَارِدٌ» аслида «وَرَدٌ» мавжуд бўлмоқ феълидан ясалган. «وَارِدٌ» сифатдоши «جَزَائِمٌ» отига мослашиб кўп компонентли жиноят ҳукуки терминини ташкил қилади. Мисол,

كما يعاقب بذات العقوبة كل من توسط في ارتكاب جريمة من الجرائم الواردة بهذه المادة.

Таржимаси: Ушбу моддада мавжуд бўлган жиноятлардан бирини содир этишда воситачилик қилган ҳар бир жиноятчи жазоланади.

Аниқ даража сифатдошига «صَادِرٌ» - «чиқарилган» сўзини ҳам мисол тариқасида келтириш мумкин. Ушбу сифатдош «صَادِرٌ» - «келиб чиқмоқ» феълидан ҳосил бўлган. Мазкур термин қуйидаги мисолда «حَظْرٌ» сўзига мослашиб, «الْحَظْرُ الصَّادِرُ» - «чиқарилган таъқиқ» кўп компонентли жиноят ҳукуки терминини ифода этади. Бундан қуйидаги мисолда кўришимиз мумкин:

كل من طار فوق مناطق من إقليم الدولة على خلاف الحظر الصادر من السلطات المختصة...

Таржимаси: Ким ваколатли органлар томонидан чиқарилган таъқиқни бузган ҳолда давлат ҳудуди устидан учиб ўтса...

Бизнинг олиб борган тадқиқотларимизга кўра, мажхул даража сифатдошлари аниқ даража сифатдошларига нисбатан камроқ аъдетивация ҳолатига учрайди. Бунга қуйидаги мисолни келтириш мумкин:

وإذا أفضى الفعل إلى موت المجني عليه كانت العقوبة الإعدام أو السجن المؤبد ويعاقب بالعقوبة المقررة للفاعل الأصلي كل من توسط في ارتكاب أية جريمة من الجرائم المشار إليها في هذه المادة، وكذلك كل من أخفى شخصا.

Таржимаси: Агар қилмиш жабрланувчининг ўлимига олиб келса, ўлим жазоси ёки умрбод қамок жазоси тайинланади, юқорида келтирилган жиноятларнинг бирортасини содир этишда воситачилик қилган асосий ҳуқуқбузарга муқаррар жазо тайинланади, шунингдек, қим ҳибсга олинган шахсни яширса ҳам.

«مَخْطُوفٌ» - «қўлга олинган» 1-боб мажхул даража сифатдоши «خَطْفٌ» - «қўлга олмоқ» феълидан ясалган, «شَخْصٌ مَخْطُوفٌ» жиноят ҳукуки термини эса «ҳибсга олинган киши, қамокқа олинган шахс» деб таржима қилиниб, синтактик жиҳатдан таҳлил қилсак, «مَخْطُوفٌ» сўзи «شَخْصٌ» сўзига нисбатан мослашган аниқловчи, морфологик нуқта назардан сифат вазифасида келмоқда.

Хулоса ва тақлифлар (Conclusion/Recommendations). Аъдетивация ва конверсия морфологик усул ёрдамида термин яшанинг маҳсулдор турларидан бири сифатида жиноят ҳукуки терминларида кенг қўлланилади.

Бунга барча феъл боблари ҳамда уларнинг дериватларини фаол қўллаш, шунингдек бир грамматик туркумдан бошқасига қийинчиликсиз ўтиш жараёни яққол мисол бўла олади.

Ушбу мақолада тадқиқот манбаси сифатида Бирлашган араб амирликларининг Жиноят кодексига қўлланилган жиноят ҳукукига оид терминлар назарий таҳлил қилиниди ҳамда мисол сифатида келтирилди. Келгусида араб давлатларининг нафақат жиноят ҳукукига оид терминлари, балки жиноят процессуал ҳукуки, конституцион ҳукуки, фуқаролик ҳукуки ва бошқа қонун доирасидаги ҳужжатларни эътибор билан ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлади, чунки ҳорижий давлатларнинг қонунларини ўрганиш, мамлакатимиз қонунлари билан таққослаб таҳлил қилиш қонун тилимизнинг янада мукамал бўлишига хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Гранде Б.М. Введение в сравнительное изучение семитских языков. – М.: Восточная литература, 1998.
2. Белкин В.М. Арабская лексикология. – Изд-во Московского университета, 1975.
3. Шарбагов Г.Ш. Современный арабский язык. – М.: Наука, 1961.
4. Терещенко В.В. Лексико-грамматические особенности образования многокомпонентных военных и военно-технических терминов в арабском языке: дис. ... канд.фил.наук: 10.02.20. – М., 2001.
5. Скворцова И.В. Особенности экономической терминологии современного арабского литературного языка: на материале арабской прессы начала XXI века: дис. ... канд.фил.наук: 10.02.22. – СПб., 2009.
6. Мустафаева А.А. Современная арабская терминология: формирование и проблемы перевода (на материале терминологии информатики): дис. ... док.филос (PhD): 6D020900. – Казахстан, 2011.
7. Юшманов Н.В. Грамматика литературного арабского языка. – М.: Наука, 1985.
8. علم القاسمي. علم المصطلح: أسسه النظرية وتطبيقاته العملية. – القاهرة: مكتبة لبنان ناشرون، 2008.
9. قانون العقوبات لدولة الإمارات العربية المتحدة. حقوق النشر محفوظة لدائرة القضاء. أبوظبي - 2018.
10. Кариев. У.З. Словообразование имён существительных и прилагательных в современном арабском литературном языке. Автореф. канд. дис; М, 1966.
11. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси 1-жилд – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997.



Shohruh ABDIRAIMOV

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: www.samshab@mail.ru

TDO' TAU professori, filologiya fanlari doktori Mengliyev B.R. taqrizi asosida

TASK METHODOLOGY USED IN ASSESSMENT OF READING SKILLS

Abstract

The article discusses the methodology of the tasks used in the assessment of reading comprehension in the native language, gives examples of the tasks used in the assessment, analyzes the test tasks and draws conclusions. Recommendations on effective methods of assessment of reading comprehension with the help of test tasks, methods of assignments are given.

Key words: Reading comprehension, assessment, test, test assignment methodology

МЕТОДОЛОГИЯ ЗАДАЧИ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ДЛЯ ОЦЕНКИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ

Аннотация

В статье обсуждается методика выполнения заданий, используемых при оценке понимания прочитанного на родном языке, приводятся примеры заданий, используемых при оценивании, анализируются тестовые задания и делаются выводы. Даны рекомендации по эффективным методам оценки понимания прочитанного с помощью тестовых заданий, методика выполнения заданий.

Ключевые слова: понимание прочитанного, оценка, тест, методика тестовых заданий.

O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI BAHOLASHDA FOYDALANILADIGAN TOPSHIRIQLAR METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada ona tilidagi matni o'qib tushunish ko'nikmasini baholashda foydalaniladigan topshiriqlar metodikasi haqida to'xtalangan, baholashda foydalaniladigan topshiriqlardan namuna keltirilib, test topshiriqlari tahlilga tortilgan, xulosalarga kelingan. O'qib tushunish malakasini test topshiriqlari yordamida baholashning samarali usullari, topshiriqlar metodikasi borasida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: O'qib tushunish, baholash, test, test topshiriqlari metodikasi

Ma'lumki, testologiyada baholash jarayonining eng muhim qismi o'quvchining bilim, ko'nikma va malaka(BKM)larini tekshirish uchun topshiriqlar ishlab chiqarish jarayonidir. Negaki, baholashning maqsadi aniq belgilanib, spesifikatsiyasi ishlab chiqilgan taqdirda ham testolog topshiriq tuzish metodikasi va mazmuniga yetarli darajada e'tibor qaratmasa, ehtiyotkorlik va mulohazakorlik bilan yondashmasa, ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. Shuning uchun test tuzishdan oldin topshiriq tuzish metodikasiga va mazmuniga alohida e'tibor berish shart. Baholash nazariyasida test tuzish metodikasi ham yillar sayin yangilanib, tadrjijiy rivojlanib bormoqda. Test topshiriqlari maqsadi, qo'llanilish o'rnini, shakli va boshqa jihatlariga ko'ra bir qancha turlari bor. O'zimizdagi testologik manbalarda qayd etilishicha test topshiriqlari shakliga ko'ra ikkiga ajratilgan:

– yopiq turdagi testlar (taklif qilingan javoblardan to'g'risini topishga yo'naltirilgan);

– ochiq turdagi testlar (test topshirig'iga test topshiruvchi yozma ravishda javob kiritadi) [2:40].

Boshqa manbalarda esa bu test turlari ifodalanishiga ko'ra ham bir-biridan farqlanishini qayd etiladi. Xususan, rus olimasi S.A.Semenovskaya o'zining ilmiy ishlarida yopiq turdagi testlarning 6 ta turi borligini keltiradi:

1. To'g'ri javobi bitta bo'lgan testlar.

2. To'g'ri javobi bir nechta bo'lgan testlar.

3. Muvofiglikni aniqlovchi testlar.

4. Ketma-ketlikni aniqlovchi testlar.

5. Gradual testlar (barcha javoblari to'g'ri, shular ichida eng to'g'risini tanlanadigan testlar (A.Sh.)).

6. Alternativ testlar[4:52].

O'zbek olimlardan testolog K.Jalilov esa "Baholash nazariyasi asoslari" o'quv qo'llanmasida yopiq testlarning quyidagi turlarini keltiradi:

– muqobil javobli test topshirig'i;

– to'g'ri – noto'g'ri shaklidagi test topshirig'i;

– moslashtirish testlari;

– ketma-ketlikni topish testlari.

Mazkur manbada ochiq test topshiriqlariga ham to'xtalib, uning esa uch turini qayd etadi:

– qisqa javobni talab qiladigan test topshiriqlari;

– kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshiriqlari;

– amaliy test topshirig'i[1:26].

M.Sh.Zakirova, N.N.Ermatova tomonidan tuzilgan "Test tuzish metodikasi va ekspertizasi" uslubiy qo'llanmasida esa test topshiriqlarining turlari haqida batafsil to'xtalib, ochiq turdagi testlar haqida ham ma'lumot berib o'tadi. Mazkur manbada ochiq turdagi topshiriqlar ikki turga ajratilishi keltiriladi:

– qisqa javobli test topshirig'i;

– javobi keng yoritiladigan test topshirig'i[3:42].

Umuman olganda, barcha baholash nazariyasiga oid ilmiy va uslubiy manbalarda test topshiriqlariga batafsil to'xtalangan. Mazkur qarashlarni umumlashtirgan holatda ona tilida matni o'qib tushunish malakasini baholash uchun quyidagi test topshiriqlarining turlaridan foydalanishni ma'qul deb topdik.

Yopiq testlar:

– "binar" test topshirig'i (hukmni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tasdiqlovchi javob variantlaridan iborat bo'ladi);

– bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i;

– bir nechta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i;

– moslashtirishni talab qiladigan test topshirig'i.

Ochiq testlar:

– qisqa javobni talab qiladigan test topshirig'i;

– ochiq qoldirilgan o'rinlarni to'ldirishni talab etadigan test topshirig'i;

– kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i;

– moslashtirishni talab qiladigan test topshirig'i.

Quyida testologiyadagi tajribalarni umumlashtirib, o'qib tushunish malakasini baholash yuzasidan o'tkazgan-tajriba sinovlarimizda foydalanilgan, o'zimiz tomonimidan turli metodikada tuzilgan test topshiriqlarini keltiramiz va o'ziga xosliklarini izohlaymiz.

Shu o'rinda shuni ta'kidlashimiz kerakki, o'qib tushunish malakasini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlari, turli mavzudagi muayyan matn asosida tuziladi. Kontest asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar o'quvchining berilgan matnni qay darajada tushunganligini tekshirishga xizmat qiladi. Test topshiriqlari tuzilgan matnlarni dissertatsiya talabiga binoan ishimizning ilova qismida berganmiz.

Avvalo, yopiq turdagi test topshiriqlari metodikasi to'xtalsak.

Binar test topshiriqlari. Mazkur test topshirig'i yopiq test topshiriqlari sirasiga kiradi. Unda ikkita javob varianti o'rqali o'quvchining bilim va ko'nikmalari tekshiriladi, rivojlantiriladi. Quyida shunday topshiriqlardan numunalarni tahlil qilamiz.

Quyidagi hukmlarni matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

2. 1991 yilda tug'ilish ko'rsatgichi hozirgi ko'rsatgichdan ancha yuqori bo'lgan.

A. To'g'ri B. Noto'g'ri

3. Mustaqillikdan keyin to 2000 yillargacha tug'ilish soni pasayishi kuzatilgan.

A. To'g'ri B. Noto'g'ri

Mazkur test topshiriqlari binar (ikkita javobli) turdagi test topshirig'i bo'lib, bu topshiriqlar matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarni tushunish; matndagi chizma va diagrammalarda berilgan vizual ma'lumotlarni o'qish; matndagi verbal va vizual ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunish; matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar baholanmoqda, tekshirilmoqda. Ilk tajribalarimizda xuddi shu uslubdagi testlar orqali o'quvchilarning vizual axborotlarni o'qiy olishini tekshirganimizda, test topshiruvchilarning aksariyati vizual axborotni o'qish ko'nikmasi rivojlantirilgani uchun to'g'ri javobni topa olmagan edi. Tajriba-sinovimizda ishtirok etgan o'quvchilarda bu ko'nikma yaxshi rivojlanganini guvohi bo'ldik. Endi xuddi shu uslubda rasmiy matnlar asosida tuzilgan testlarni tahlil qilamiz.

Quyidagi hukmlarni matn mazmunidan kelib chiqib to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

1. Sanjarning ota-onasi onasining axloqi yomonligi sababli ajrashib ketishgan. U otasi bilan yashaydi, ammo onasini ham sog'inadi. Kunlardan bir kuni onasi Sanjarni ko'rgani keldi. Otasini ularni ko'rishtirmadi. Shu to'g'rimi?

A. To'g'ri B. Noto'g'ri

2. Sanjar dunyoga keldi. Otasi Soatov, onasi esa Temurov. Unga ota-onaning kelishuviga binoan onasining familiyasi Temurov familiyasi berildi. Shu to'g'rimi?

A. To'g'ri B. Noto'g'ri

Mazkur topshiriqlar ham binar testlar hisoblanadi. Bu topshiriqlar orqali o'quvchining rasmiy matnni o'qib tushuna olishi, matnda yashirin ifodalangan ma'lumotlarni tushunishi, matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash, matndagi axborotni tatbiq e'ta olish, matnni o'qib, tushunib, real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kabi ko'nikmalari tekshirilgan.

Dastlabki tajriba sinovlarimizda rasmiy matnni o'qib tushunish ko'nikmasini mazkur metodikadagi testlar bilan tekshirganimizda yaxshi natija olmagan edi. Tajriba guruhlarida bu ko'rsatgich ham sinov oxirida yaxshiladi.

Umuman olganda, binar testlar yordamida o'qib tushunish ko'nikmasini baholash samarali. Ayniqsa, bunday topshiriqlar, o'quvchining matnni o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda foydalanilsa, o'quvchida haqiqiy mazmunni anglash, kinoya, piching kabi tagma'nolarni fahmlash, umuman, nutqiy vaziyatlarni idrok etish kabi ko'nikmalar shakillanadi. Shuningdek, ma'lumotlar nihoyatda ko'p bo'lgan ayni davrda jadallashgan zamon talabi bilan axborotni ixcham ifodalash ehtiyoji paydo bo'lgan. Natijada turli ma'lumotlar va axborotlar har xil infogrammalarda taqdim qilinmoqda. Bu esa bunday ma'lumotlarni o'qib tushunish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Yuqorida keltirilgan metodikadagi topshiriqlar orqali o'quvchilarda vizual axborotni o'qiy olish ko'nikmasi ham yaxshi shakillanadi.

Bitta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i. Mazkur testlar ham yopiq testlar qatoriga kiradi. Bunda savol va bir nechta (asosan to'rt yoki beshta) javob varianti beriladi. To'g'ri javob bitta bo'ladi. Bunday testlardan Davlat test markazi tomonidan oliy ta'limga kirish test sinovlarida foydalaniladi. Ushbu uslubdagi testlar keng tarqalgan bo'lsa-da, u yordamida o'quvchining bilimni haqqoniy tekshirish mumkin, ya'ni bilimli va bilimsizni to'g'ri ajratib bera oladi, deyish qiyin. Negaki o'quvchi uchun javob varianti berilgani uga to'g'ri javobni tasodifiy imkoniyatini beradi. Shunday testlar natijasida o'quvchilar bilim, ko'nikmalari o'rtasidagi nozik farqlar sezilmaydi. Shu bois ham testologiya va pedagogik o'lchovlar bilan shug'ullanuvchi markazlar hisobotidan ma'lumki, bunday testlarda javob varianti qanchalik ko'p berilsa, distraktorlar bir-biriga yaqin bo'lsa, tasodifiy topish foizi kamayadi. Quyida o'quvchilarning o'qib tushunish kompetensiyasini tekshirishda foydalanilgan testlarni tahlil qilamiz.

Matnda ajratib ko'rsatilgan "shuningdek" birligi matnda qanday mazmunni ifodalayapti?

A. Oldingi fikr kiyingi fikrni xulosasi ekanligini ifodalayapti.

B. Keyingi fikr oldingi fikrning dalillayotganli ifodalayapti.

D. Oldingi fikr kiyingi fikrni tasdig'i ekanligini ifodalayapti.

E. Keyingi fikr oldingi fikrning davomi ekanligini ifodalayapti.

Mazkur topshiriq orqali matn qismlarini bog'lovchi vositalar ma'nosi va ularning matndagi vazifasini tushunish; matnning grammatik qurilishini anglash; matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash; matnning qismlarining umumiy ma'nosini tushunish, matnni mazmuniy bloklarga ajratish ko'nikmalari tekshirilmoqda. Mazkur metodikadagi test topshiriqlaridan o'quvchining matnda ishlatilgan leksik birliklarning ma'nosini tushunishini tekshirish maqsadida foydalanilganda shuni hisobga olish kerak: distraktorlar – muqobil javob variantlar o'zaro mazmuniy yaqin, hajmiy teng bo'lishi, shuningdek, ona tilidagi matnni o'qib tushunish tekshirilganida leksik birliklarning kontekstdagi okkazonal ma'nosi so'rallishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda faol qo'lanuvchi leksik birliklarning o'z ma'nosini topish so'ralsa, test topshiruvchilarning aksariyati javobni topa olishi ma'lum bo'ldi. Shu bois ham ona tilidagi matnni tushunishda leksik birliklarning o'z ma'nosini so'rashni tavsiya etmaymiz. Jumladan, quyidagicha topshiriqlarni berish maqsadga muvofiq emas.

Ichkarida qizdirilayotgan doira chalindi. Mazkur jumlada ajratib ko'rsatilgan so'zining ma'nosi toping

A) kuy ijro etilmoq

B) eshitilmoq

- D) duchor bo'Imoq
E) tovush chiqarmoq

Bu usuldagi test topshiriqlari imkoniyati ancha keng. Turli kontruktarni mazkur test uslubida tekshirish mumkin. Umuman, bunday testlar yordamida matnda ishlatilgan leksik birliklarning ma'nolarini tushunish; matndagi ibora, maqol, hikmatli so'zlar ma'nosini tushunish; matnda ochiq va yashirin ifodalangan ma'lumotlarni tushunish; matndagi verbal va vizual ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklarni

tushunish; matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash; matnning yoki uning qismlarining umumiy ma'nosini tushunish kabi turli ko'nikmalarini baholash mumkin.

Quyida bitta to'g'ri javobli muqobil javobli test topshiriqlarining boshqacha uslubdagi namunasini tahlil qilamiz.

Quyidagi parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlardan xato qo'llanganlarini aniqlang. Barchasi to'g'ri qo'llangan bo'lsa, D variantni belgilang.

1.	Xalqimizning eng noyob[A] fazilatlaridan biri uni [B] bir tan, bir jon bo'lib yashashida ko'zga tashlanadi[E].	D) xatolik mavjud emas
2.	Shu sababli bizda hech kim yaxshi kunda ham[A], yomon kunda ham yakka qo'yilmaydi[B]. Xalqimiz "yaxshilik qilgan, mehr-muruvvatli, oqibatli[E]. odam hech qachon kam bo'lmaydi" degan aqida bilan yashaydi	D) xatolik mavjud emas

Ushbu topshiriq yordamida so'z ma'nolarini tushunish va grammatik shakllarini farqlash, ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalari tekshirilmoqda. Bu kabi topshiriqlardan ona tili ta'limida foydalanish o'quvchilarning so'zdan to'g'ri foydalanish ko'nimasini rivojlantiradi.

Bir so'z bilan aytganda, bunday metodikadagi testlardan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda foydalanish sermahsul bo'lib, o'quvchida bog'liqliklarni fahmlash, haqiqiy mazmunni anglash, nutqiy vaziyatlarni idrok etish, voqelikka munosabat bildirish, o'quvchining avvaldan mavjud bilimi hamda matndan olingan ma'lumotning ma'lum darajada integrasiyalash, matn bilan ishlayotganda o'zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalana olish kabi ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bir nechta to'g'ri javobga ega muqobil javobli test topshirig'i. Bu testlar ham yopiq testlar qatoriga kiradi. Unda savol va bir nechta (besh va undan ko'p) javob varianti beriladi. Hamda ikki yoki undan ko'p to'g'ri javob bo'ladi. Quyida xuddi shunday testlarni o'qib tushunish malakasini baholash jarayonida qaysi kunsturklarni tekshirish uchun samarali ekanligini, o'ziga xosligini tahlil qilamiz.

O'zbekiston aholisining o'sishiga ta'sir qilgan omillarni aniqlang.

ESLATMA. Bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin.

A. Xorijdan ko'plab aholining O'zbekistonga ko'chib kelishi.

B. Turmush darajasining ko'tarilishi.

D. Umr davomiyligi ko'rsatkichining turg'unlashuvi.

E. Tibbiyot sohasidagi islohatlar.

F. Yurtimizga ko'plab investirlarning kirib kelishi.

Verbal ma'lumotlar	Vizual ma'lumotlar
1. 2000 yilda erkaklarning o'rtacha umr davomiyligi _____	A. 73.2 yosh
2. 2000 yilda ayollarning o'rtacha umr davomiyligi _____	B. 70.8 yosh
	D. 68.4 yosh

Mazkur topshiriq moslashtirishni talab etadigan ochiq test hisoblanadi. U yordamida grafik tasvirda vizual ifodalangan ma'lumotni ilg'ash, o'qiy olish tekshirilyapti. Mazkur test topshirig'iga ham ilk tajriba-sinovimizda aksariyat o'quvchilar to'g'ri javob bera olmagan. Boisi ushbu uslubdagi testga ilk marotaba duch eklisgani desak, xato

bo'lmaydi. Xuddi shunga o'xshash boshqa bir testimizni ham tahlil qilamiz.

Berilgan ma'lumotlar va unga aloqador tushunchalarni o'zaro moslashtiring.

ESLATMA! Javob variantlarida ortiqchasi bor.

Ma'lumotlar	Tushunchalar
1. Bosh miyaning bu qismi jarohat olsa, o'pka va yurak faoliyati to'xtaydi. Inson nobud bo'ladi. _____	A. Oraliq miya
2. Bosh miyaning bu qismi jarohat olsa, Inson ko'rish va tinglab tushunish va yoza olish qobiliyatlarini yo'qotadi. _____	B. O'rta miya
3. Bosh miyaning bu qismi jarohat olsa, inson mushaklari faoliyatida buzilish paydo bo'ladi va tik tura olmay yiqilib tushadi. _____	D. Miya ko'prigi
	E. Uzunchoq miya
	F. Miyacha

Ushbu o'zaro moslashtirishni talab etayotgan test topshirig'ida matn tarkibidagi tushunchalar bilan bog'liq yashirin ifodalangan ma'no-mazmunni anglash, matn qismlarini tushunish, matnni mazmuniy bloklarga ajratish

ko'nikmalari tekshirilmoqda. Endi esa moslashtirishni talab etadigan yopiq turdagi testlarni tahlil qilsak.

Matnning bosh g'oyasidan kelib chiqib, asosiy va yordamchi ma'lumotlarni toping hamda moslashtiring.

a) asosiy ma'lumotlar;	1. Tog' tasviri.
	2. Ikki aka-uka voqeasi.
b) yordamchi ma'lumotlar.	3. Daryoning tasviri.
	4. Onaning mehribonligi tasviri.

A) a-1,4; b-2,3

B) a-2,4; b-1,3

D) a-4; b-1,2,3

E) a-2; b-1,3,4

Ushbu test orqali o'quvchilarning matnning yoki uning qismlarining umumiy ma'nosini tushunish; matndagi mazmuniy bog'lanishlarni anglash; matn mazmunini tushunishi va talqin qila olish kabi ko'nikmalari tekshirilmoqda. Umuman olganda, o'quvchining tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, tatbiq qilish va baholay olish kabi kognitiv ko'nikmalari baholanmoqda.

Demak, moslashtirishni talab etadigan test uslubi ancha samarador, hamda yuqori kognitiv darajalarni tekshirish imkonini berishi bilan alohidalik kasb etadi. Ushbu metodda tuzilgan testlardan o'quvchilarning o'qib tushunishini rivojlantirishda foydalanilsa, ularda o'qilgan matnni yuqori darjada tushunishini rivojlantiradi. Shuningdek, o'quvchida matn bloklari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni fahmlash, haqiqiy mazmunni anglash, nutqiy vaziyatlarni idrok etish, voqelikka munosabat bildirish, o'quvchining avvaldan mavjud bilimi hamda matndan olingan ma'lumotning ma'lum darajada integrasiyalash, o'quvchilar ziddiyatlar sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash ko'nikmalarini shakllantiradi, desa xato bo'lmaydi.

Qisqa javobni talab qiladigan test topshirig'i. Mazkur topshirig' ochiq turdagi test bo'lib, matn mazmunidan kelib chiqib, aniq mazmunli, qisqa javobni talab etadigan test topshirig'i hisoblanadi. Bu kabi testlarning imkoniyati nihoyatda keng bo'lib, lo'nda javobni talab etadigan barcha ko'nikmalarni tekshirish mumkin. Shuningdek, bu topshirig'ning eng xarakterli belgisi haqiqiy bilimlilarni, yuqori kognitiv darajaga ega talabgorlarni aniqlab bera oladi. Bu topshirig' orqali tasodifiy topish imkoniyati nol(0)ga teng. Shu bois ham testologlar tomonidan kichik guruhlarda olinadigan testlarni faqat ochiq testlardan foydalanish samarali ekanligi ta'kidlanadi. Quyida xuddi shunday testlardan tahlil qilib ko'ramiz.

2018 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholi soni bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinda turadi?

Javob: _____

Mazkur topshirig' yordamida matnda aniq ifodalangan ma'lumotni qidirib topa olish va tushunish ko'nikmasi tekshirilmoqda. Bunday topshirig'lardan o'quvchining o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda foydalanilsa, ularda kerakli ma'lumotni axborotlar ichidan qidirib topa olish layoqatini shakllantiradi.

Xuddi shunga o'xshash boshqa testni tahlil qilamiz.

Hikoyada yomonlikni o'ylamaydigan, hammaga Ollohdan insof tilaydigan, doim yaxshilikni ko'zlaydigan bir so'zli qahramonni toping.

Javob: _____

Mazkur test topshirig'i orqali o'quvchining asar obrazlariga tavsif berish, matnning yoki uning qismlarining umumiy ma'nosini tushunish ko'nikmasi baholanmoqda. Asardagi har bir qahramonning asar syujetidagi o'rni, o'ziga xosligini uning xatti-harakati, nutqidani ishlatilgan jumlarlar, shaxslar bilan munosabatidan fahmlay olishi tekshirilmoqda.

Umuman, qisqa javobni talab qiladigan test topshirig'laridan o'qib tushunishni rivojlantirishda foydalanilsa, matnda aniq ifodalangan ma'lumotni qidirib topa olish va tushunish; o'quvchining avvaldan mavjud bilimi hamda matndan olingan ma'lumotning ma'lum darajada integrasiyalash; matn bilan ishlayotganda o'zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalana olish; matndagi ma'lumotlarni tashqi ma'lumotlar bilan bog'lab tahlil qila olish; matndan olingan ma'noni o'zining borliq haqidagi tasavvurlari bilan bog'lash kabi yuqori darajagi kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish mumkin.

Ochiq qoldirilgan o'rnlarni to'ldirishni talab etadigan test topshirig'i. Mazkur topshirig' ham ochiq testlar sirasiga kiradi. Bu uslubdagi test topshirig'lar yordamida so'z darajasidagi ma'lumotni tushuna olishi tekshiriladi. Quyida xuddi shunday testlardan ayrimlari bilan tanishamiz, tahlil qilamiz.

Matnda ajratib ko'rsatilgan o'ringa quyida berilgan so'zlardan mazmuniy va grammatik jihatdan eng mosini qo'ying.

HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASI

Birinci avtomobil Germaniya ko'chalarida paydo bo'ldi, lekin haydovchilarning _____ [1] tufayli tez-tez ko'ngilsiz voqealar ro'y bera boshladi. Shunda Germaniyada _____ [2] jurnallardan biri shunday taklif kiritadi. Unga ko'ra polisiya mashina egasiga guvohnoma berishdan oldin uning mashina haydashni bilish-bilmasligini tekshirib ko'rishi va shundan so'nggina guvohnoma berishi kerak bo'ladi. Dunyoda birinci haydovchilik guvohnomasi shu tariqa Germaniyada 1910-yildan boshlab joriy etilgan.

hushyor bo'lmagan, iste'dodsiz ekanligi, tajribasizligi, beso'naqay ekanligi, chop etiladigan, yoziladigan, taqdimot qilinadigan, berilgan

Ushbu topshirig' so'z ma'nolarini tushunish va grammatik shakllarini hal qilish, ularni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalari tekshirilmoqda. Umuman, matnni, unda qo'llangan birliklarni leksik va grammatik jihatdan to'g'ri hal etish baholanmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu metodikadagi topshirig'lardan o'quvchilarning matnni o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda foydalanish ularda so'zni to'g'ri qo'llay olish, ma'nodosh so'zlarning o'rtasidagi nozik ma'noviy farqlarni his qila olish, so'zga hisobdorlik, so'zdan tanlab foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Kengaytirilgan javobni talab qiladigan test topshirig'i. Mazkur topshirig' ham ochiq testlar sirasiga kiradi. Bu uslubdagi test topshirig'lar yordamida matn darajasidagi ma'lumotni tushuna olishi hamda anglash tekshiriladi. Ushbu uslubdagi test topshirig'lar metakognitiv darajani tekshirishga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatli. Quyida xuddi shunday testlardan ayrimlari bilan tanishamiz, tahlil qilamiz.

Muallif hikoyada "O'zbekning soddasi" deb kimni nazarda tutyapti? Bu soddalikmi?

ESLATMA. Fikrlaringizni lo'nda, ixcham ifodalang, 20 ta so'zdan oshib ketmasin.

Javob: _____

Mazkur test topshirig'i orqali o'quvchining matn g'oyasini anglash; o'quvchining avvaldan mavjud bilimi

hamda matndan olingan ma'lumotning ma'lum darajada integrasiyalash; matn bilan ishlayotganda o'zlarining shaxsiy fikrlari va tajribalaridan foydalana olish; matndagi ma'lumotlarni tashqi ma'lumotlar bilan bog'lab tahlil qila olish; matndan olingan ma'noni o'zining borliq haqidagi tasavvurlari bilan bog'lash; matnni o'qib tushunib hayotiy muammolarni hal qila olish, unga yechim topa olish; matnni o'qib, tushunib, real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kab ko'nikmalarini baholayapti. Tajriba-sinov natijalaridan shu ma'lum bo'ldiki, bunday uzun javobni ta'lab qiladigan topshiriqlarni minglab talabgorlar ishtirokida o'tkaziladigan summativ baholashda foydalanish o'quvchilarning javoblarini tekshirishda o'ziga xos muammolarni yuzaga keltiradi. Shu bois bu topshiriq metodikasida summativ baholashda kam foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo kam sonli, muayyan bitta sinfda olinadigan sinovlarda qo'llash juda o'rinli va sermahsul bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda ushbu uslubdagi topshiriqlardan ona tili ta'limida foydalanish o'quvchida real

hayotni anglash, hayotdagi har bir voqelikning mohiyatini idrok eta olish, voqelikka munosabat bildiradi olish, o'quvchining avvaldan mavjud bilimi hamda matndan olingan ma'lumotning ma'lum darajada integrasiyalash, o'quvchilar ziddiyatlar sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash hamda o'z g'oyalari taqdim eta olish, sabab-oqibat munosabatini fahmlash kabi ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning ona tilidagi matnlarni o'qib tushunish malakasini baholash jarayonida foydalaniladigan topshiriqlar mazmuni va metodikasi alohida e'tibor berish shart. Mazmunga mos topshiriq metodikasini tanlash o'quvchining kognitiv darajasini to'g'ri tashxislash, baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, ona tili ta'limida o'quvchilar til o'rganuvchisi emas, balki yetkazuvchisi, til sohibi bo'lganligi bois topshiriq metodikasi to'g'ri tanlanmasi, yetarli darajada e'tibor berilmasa, teskari natija berishi – matnni o'qib tushunish zerikarli va juda oddiy yumushga aylinishi mumkin. Bu esa ta'limga salbiy ta'sirini o'tkazadi.

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K., Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2020, 252 bet.
2. Mirvaliyev Z.Z., Pedagogik o'lchovlarda test topshiriq turlari. – Toshkent, 2018. 40 b.
3. Zakirova M.Sh., Ermatova N.N. Test tuzish metodikasi va ekspertizasi. – Toshkent, 2018. 48 b.
4. Baratov A.A., Pedagogik o'lchovlar nazariyasi asoslari. Toshkent, 2018. 41 b.
5. С.А.Семеновская. Основы тестологии. Учебное пособие. – Саратов: Саратовский государственный университета, 2015. – 58 с.



Зоҳида АМИРОВА,
Қарши давлат университети ўқитувчиси

Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) П.А. Курбонов тақризи асосида

КОГНИТИВ СЕМАНТИКАДА КОНЦЕПТНИНГ "ЭМОЦИОНАЛЛИГИ" ВА "ЛИНГВОМАДАНИЙЛИГИ" ТУШУНЧАЛАРИ

Annotatsiya

ЮРАК концепти юзасидан шундай савол пайдо бўлади: ушбу концептни физиологик концептлар (юрақнинг орган сифатида фаолият кўрсатиши ҳақидаги билимлар), анатомик (юрақнинг тўзилиши), тиббий (юрақ касалликлари масалалари) ёки эмоционал (юрақ ҳис-тўйгулар ёки сезгилар органи сифатида) ё бўлмаса культурологик концептлар қаторига киритиш керакми? В. И. Карасик ва Г. Г. Слишкин «Лингвомаданий концепт тадқиқот бирлиги сифатида» номли мақолада лингвомаданий концепт «фаннинг турли соҳаларида қўлланиладиган бошқа ментал бирликлар (масалан, когнитив концепт, фрейм, сценарий, скрипт, тушунча, образ, архетип, гештальт, мнема, стереотип) дан асосий диққат-этиборнинг қадриятли элементга қаратилиши билан фаркланади», деб таъкидлашади (Карасик. Слишкин 2001: 77).

Key words: Гипостазлаш, Тилда ифодаланган, Лингвомаданий концепт, когнитив концепт, фрейм, сценарий, скрипт, тушунча, образ, архетип, гештальт, мнема, стереотип.

THE CONCEPTS OF "EMOTIONALITY" AND "LINGUOCULTURALISM" OF A CONCEPT IN COGNITIVE SEMANTICS

Abstract

The question arises as to the concept of the HEART: physiological concepts (knowledge of the heart as an organ), anatomical (heart structure), medical (heart disease issues) or emotional (heart as an organ of feelings or sensations) or culturological concepts to add to the list? V. I. Karasik and G. G. In his article "Linguocultural Concept as a Research Unit," Slishkin argues that the linguocultural concept "draws attention from other mental units used in various fields of science (e.g., cognitive concept, frame, script, script, concept, image, archetype, gestalt, mnemonic, stereotype). differs in its focus on the element "(Karasik. Slishkin 2001: 77).

Key words: Hypostasis, Linguistically expressed, Linguocultural concept, cognitive concept, frame, script, script, concept, image, archetype, gestalt, mnemonic, stereotype.

ПОНЯТИЯ «ЭМОЦИОНАЛЬНОСТЬ» И «ЛИНГВОКУЛЬТУРАЛИЗМ» КОНЦЕПТА В КОГНИТИВНОЙ СЕМАНТИКЕ

Аннотация

Возникает вопрос, основывается ли концепция СЕРДЦА на физиологических концепциях (знание того, как сердце функционирует как орган), анатомических (структура сердца), медицинских (проблемы с сердцем) или эмоциональных (сердце как эмоциональный или сенсорный орган).) или культурологические концепции. добавить в список? В. Я. Карасик и Г. ГРАММ. В своей статье «Лингвокультурная концепция как исследовательская единица» Слишкин утверждает, что лингвокультурная концепция «привлекает внимание других ментальных единиц, используемых в различных областях науки (например, когнитивная концепция, фрейм, сценарий, сценарий, концепция, изображение, архетип, гештальт). , мнемоника, стереотип). отличается своей нацеленностью на элемент »(Карасик. Слишкин 2001: 77).

Ключевые слова: ипостась, выраженная в языке, лингвокультурная концепция, когнитивная концепция, фрейм, сценарий, сценарий, концепция, образ, архетип, гештальт, мнемоника, стереотип.

Kirish. Концепт ва тушунча, В. 3. Демьянковнинг таъкидлашича, — тарихий дублетлардир (Демьянков 2001), бироқ улар турлича тарзда ишлатилади. Айрим тадқиқотчилар концептни кўпроқ лингвистика соҳасига, тушунчани эса — Мантик соҳасига киритишади, бошқа олимлар эса концептнинг ноилмий билимга, тушунчанинг — назарий билимга мансублиги тўғрисида гапиришади (Болдирев 2000). Бошқа олимлар концепт ва тушунчани бир йўсиндаги моҳиятлар сифатида кўриб чиқишади, лекин концептни кенгроқ маънода олишади, чунки у «сўзнинг ҳамма — ушбу маданият эгаларининг турли-туман ассоциатив алоқаларда олинган сўз англатадиган ходисанинг туси ҳақидаги тасаввурларини ифодалайдиган ҳам денотатив, ҳам когнитив маъносини ўз ичига қамраб олади» (Чернейко 1995:75).

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Мамлакатимиздаги тилшунослик адабиётларида

концептларнинг ҳар хил турлари: маданий (Воркачев 2003; Степанов 2004, Бабушкин 1996, 1997), шахсга оид (Попова, Стернин 2001; Бабушкин 1996, 1997), эмоционал, тилга оид (Кошелёв 2000), лингвомаданий (Воробьев 1997; Карасик 2003; Солдатова 2003) ва бошқа турларини ажратиш кўрсатиш юзасидан катъий тенденцияни кўзатиш мумкин. Маълумки, маданият табиатда мавжуд бўлган нарсалардан фарқи равишда инсон яратган ҳамма нарсани ўз ичига қамраб олади, яъни «маданият табиий бўлмаган жамики нарсаларнинг иборат бўладигани, бунда барча концептлар маданий бўлиб ҳисобланади» (Кравченко 2005). Шунингдек, ҳар қандай инсоний фаолият, маданият деб ҳисобланадиган жамики нарсаларнинг тилда яратилиши на фақат тил амал қилиши туфайли мавжуд бўлишини ҳам ҳисобга олиш лозим.

Тадқиқот методологияси. У ёки бошқа концепт қандай белгиларига кўра маданий, эмоционал ёки

лингвомаданий турга киради? Асосий диққат-эйтиборнинг қадриятли элементга қаратилиши деганда тилдаги яхши, ёмон каби ва бошқа баҳоловчи предикатларининг мазкур ходисага нисбатан қўлланувчанлиги тушунилади. У ижобий ёки салбий – *tertium pop datur* - бўлиши мумкин, ижобий ёки салбий таъсир тарзида идрок этилмайдиган таъсир умуман қабул қилинмаслиги ҳам мумкин: у организм учун ҳеч қандай аҳамиятга эга бўлмайди. Атроф муҳит эса фақат жисмоний ва юксак ривожланган тирик тизимлар учун айни бир пайтда ҳам жисмоний, ҳам маданий бўлиши мумкин (Zlatev 2002). Маданий соҳада ижобий ва салбий таъсирларнинг оппозицияси жуда яққол ифодаланмаслиги ва кўпгина маданий ходисаларнинг ҳар доим ҳам фақат бирдек ижобий ёки салбий бўлмаслиги – бу бошқа гап. Шуниси муҳимки, «холис (нейтрал)» деб ҳисобланадиган қадриятнинг ўзи бўлмайди (Льюис 1983).

Таҳлил ва натижалар. Эмоционал жиҳатдан олганда ҳам худди шундай ҳолни қўриш мумкин: инглиз ва рус тилларида шу кунда ҳам ўлат (чума) сўзини ўз ичига оладиган қўйидаги каби ифодалар мавжуддир: ўлатдан қочган каби қочиш, ўлатдан қурққанидек қўрқиш, to avoid like/as the plague.

Мантик нуқтаи назаридан олганда, тушунча – бу характерли белгилар мажмуи плюс бундай белгиларга эга бўлган жамики предметлар ҳажмидир. «Тушунчада алоҳида предметларнинг барча хусусиятларидан холи қилиниши ҳисобига эришиладиган умумийлик ажратиб кўрсатилади...» (БСЭ 1974). Айни бир пайтда илмий тушунчалар ва ноилмий (ҳаётий) тушунчалар ажратиб кўрсатилади. Масалан, кишлок фуқароси чўчка ҳақида гапирар экан бу ҳайвоннинг қўштўққиллар гуруҳига чўчкалар оиласига кириши ва бошқа жиҳатлари ҳақида бош қотириб ўтирмайди. Бундай белгилар чўчка боқадиган дехқон учун эмас, балки назарий тадқиқотлар билан шуғулланадиган олим учун қизиқарлидир.

Шундай қилиб, агар тушунчанинг предметларнинг барча хусусиятларидан холи қилиниши ҳисобига эришиладиган умумийлик сифатидаги яъни, Мантик учун анъанавий бўлиб ҳисобланадиган таърифига амал қилинадиган булса (БСЭ, 1974), унда тушунчани қўплаб тадқиқотчилар фикрлайдигани каби концептнинг бир қисми сифатидаги тушунча, деб ҳисоблаш мумкинми (Апресян 2001; Карасик 2002. Кубрякова 1992. Лихачёв 1993. Телия 1996. Чернейко 1997 ва бошқа қўплаб тадқиқотчилар).

Агар биз тушунча билан концептни ажратиб кўрсатадиган булса унда улар қай тарзда амал қилади ва ўзаро бир-бирига қандай муносабатда бўлади? Чўчка сўзи олим чўчкачилик фермаси ветеринари, чўчка тасвирини фақат Dosis маркали кир ювиш воситаси қутиларида кўриб турадиган шаҳарлик фуқаро учун бутунлай бошқа-бошқа маъноларни касб этади. «Чўчка — ҳаром ҳайвон», деган таъкидни кунига неча марталаб эшитадиган мусулмон учун эса бу сўз мутлоқо ўзгача маъно англатади. Бундай атама фақат мусулмонлар эмас, балки тирик чўчкани умрида кўрмаган, лекин исқирт ва кир-чир бўлиб юрадиган қимсаларни чўчкага қиёслайдиган одамлар учун ҳам долзарб аҳамиятга эгадир. Чўчка ҳақидаги тушунчанинг ноилмий маънодаги варианты юқорида кўрсатиб ўтилган шахсларнинг ҳаммаси учун ягона бўлиб, чўчка концепти — турлича бўладими? Ниҳоят, тушунчаларнинг онтологияси, ҳақидаги савол кўндаланг бўлади: тушунчалар қандай ҳосил бўлади? Икки яшар болақайлар оддий бир расмдаги тўғри чизиқлар билан чизилган мушук тасвирини осонликча билиб олишади, биз эса мабодо мушукнинг панжалари тўртта эмас, учта бўлиб, у юнгсиз ёки думсиз булса-да, яъни мушукка хос бўлган белгиларисиз ҳам унинг мушук эканлигини биламиз (Аллахвердов 2003). Биз мушук

ҳақидаги тушунчага эгамиз, дея оламизми? Агар шундай булса, унда нима учун бундай тушунчани баён қилиш, ҳатто мушукни тушунча сифатида, яъни «умуман мушук» ни тасаввур қилишга қодир эмасмиз?

Билим тузилмаси сифатидаги концептни ўрганишга нисбатан ёндашув билими инсоннинг «концепт — бу ҳар доим фреймларда тузилмаларга солинган билимдир», деган концептлар шаклида тузадиган субстанция тарзида кўриб чиқади (Телия 1996: 96). Фреймлар назариясининг яратувчиси Марвин Минский (Minsky 1974) фрейм деганда маълумотлар тузилмасини тушунади — data-structure: бу назария кибернетикада сунъий интеллектга доир тадқиқотлар билан бир қаторда ишлаб чиқилган ва фрейм маълумотларни тақдим этиш тузилмаси сифатида сунъий тус касб этади (Шенк 1994).

Лингвистикага фреймлар назарияси Ч. Филморнинг фреймлар семантикаси соҳасидаги тадқиқотлари билан бирга кириб келган (Fillmore 1975. 1982) ва мамлакатимиз олимлари ишларида ҳам ўз ривожини топган (Беляевская 1994: Болдирев 2004; Красних 2004; Кронгаўз 2001; Озонова 2003; Ҳаритончик 1992 ва бошқалар).

Концептга бағишланган ҳозирги тадқиқотлар на мақолаларда луғатлар маълумотларига ҳам тегишлича ўрин ажратилади. Бунда тадқиқотчи ошқора ёки билмасдан ҳам концепт тилда, унинг лексик таркибида мавжуд бўлади (тақдим этилган бўлади), деган қоидага асосланади. Бироқ инглиз тилидаги мисол тилининг бирлиги концептлар бирлигини англатмаслигини кўрсатади.

Мавҳум тушунчаларнинг вужудга келиши табиатини изоҳлаб бериш янада мушкулроқдир: «масалан, тажрибада ҳеч қачон иккита бир хил нарсанинг учрамаслиги маълум. Яхши биламизки, ҳатто бир дарёга икки марта бирдек тушиш мумкин эмас, лекин, барибир, бизда тенглик тушунчаси амал қилади. Агар биз тажрибада бундай тушунчаларни умуман ололмайдиган булса, унда улар қай тарзда пайдо бўлади (Горский 1961)? Биз аслида ўзимизнинг реал ҳаётимизда ҳеч қандай потенциал ва долзарб чексизликларга дуч келмаган булса ҳам негадир улар ўртасидаги тафовут ҳақида жиддий фикр юритаверишимиз мумкин. Ҳатто Платон ҳам тушунчаларнинг ҳеч қандай аниқ нарсаларнинг инъикоси эмаслигини ва, шубҳасиз, бундай була олмаслигини яхши тушуниб етган» (Аллахвердов 2003).

Xulosa va takliflar. Шундай қилиб, тушунчалар тил туфайли ҳосил қилинади, лекин уларнинг вужудга келиши жараёнини биз идрок эта олмаемиз: ҳаётий тушунчани изоҳлашга доир уриниш ҳеч қандай самара бермайди: тушунча «мантикий» тус олади, яъни ўзининг синфий мансублигини юкотади. Биз ҳозирча ўз онгимизнинг ҳаётий тушунчалар деб аталадиган тушунчалар билан айни қай тарзда иш олиб боришини (агар шундай иш олиб борадиган булса) билиш имкониятига эга эмасмиз. Мантикий тушунча – бу фикрлашдаги шартли оператив бирликдир, деб таъкидлаш бутунлай тушунарли сабабларга кўра олдиндан била кўра чиқарилган нотўғри хулосадир. Концептни тадқиқ этиш учун, ўз моҳиятига кўра, семантик ва дистрибутив таҳлил услублари қўлланиладиган асарларда ҳам концепт бундай бирлик бўла олмайди. Умуман олганда, когнитив лингвистикада тушуниладиган концептнинг таърифи гипостазлаш ҳақида мушоҳада юритишга ундайди — концептга ривожланган тузилмага эга, эволюцион ўзгаришларга мойил бўладиган мустақил моҳият хусусиятлари ҳосил, деб билинади, концептлар ўзини ўзи ташкил этиш ва ўзи ҳосил қиладиган концепт соҳаси таркибида ўзаро баҳамжиҳат амал қилишга қодир, деб ҳисобланади. Бундай англашилмовчилик оқибатлари анча

оғир бўлиши мумкин, биз мавҳум илмий тушунчанинг гипостазлашга мойиллиги сабабли унга реал моҳият хусусиятлари хос деб билинадиган концепт мисолида бунга ишонч ҳосил қиламиз. Концепт-минимум — бу концептга мос келадиган реалликни сиртки ҳол сифатида биладиган оддий тил эгасининг сўз маъносини нотўлиқ эгаллашдир. Концепт-максимум — сўз маъносини тўлиқ эгаллашдир (Вежбицкая. 1996). Бунда муаллиф бундай талқиннинг ноаниқлиги ва кўп вариантлилигини қайд қилади.

Ж. Ф. Ришар концептни «мазмунни биз ишлатадиган сўз билан боғлашга имкон берадиган базавий когнитив моҳият» сифатида кўриб чиқади (Ришар 1998: 15). Келтирилган таърифдан кўрииб турганидек. Ж. Ф. Ришар мазмун, сўз ва концептнинг алоҳида ҳолда амал қилишини эътироф этади, лекин улар барибир боғланган бўлиб чиқади ва бу ёндашувдаги методологик мушғулотларни келтириб чиқаради: биз мазмун нима, у

концепт билан қандай боғланади, мазмун ва концепт қандай қилиб ва қаерда амал қилади, деган саволларга жавоб беришимиз лозим бўлади.

Концепт, шубҳасиз, анъанавий тарзда ажратилган моҳият ва мазмун чегараларига сиғмайди: концепт миқдорий атамаларда (минимум ва максимум) баён қилиниши мумкин бўлган мазмундир, деган койда тилга ўхшаб мавжуд нарса концентри (концептлар тизими)нинг индивидуал онгдаги индивидуал табиатини назарда тутадик (Бақсанский 2005; Борухов 1991: Casad 1999; Langacker 1999). бундай ҳолда ижтимоий (миллий, жамоавий, лисоний (Никитина 1989) онг концептини қандай талқин қилиш керак бўлади?

Нихоят, агар концептни фақат мазмун ёки моҳиятдан иборат дейиладиган булса, унда концепт тушунчаси амал қилишининг мақсадга мувофиқлиги, унинг кераклиги ёки керак эмаслиги ҳақидаги савол кўндаланг бўлади.

АДАБИЁТЛАР

1. Апресян Ю.Д. Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира // Семиотика и информатика - М., 1986. – Вып. 28. –С. 5-33.
2. Апресян Ю.Д. Образ человека по данным языка: попытка системного описания // ВЯ. -95, -№1, - С. 37-67.
3. Арутюнова Н.Д. Истина: фон и коннотации // Логический анализ языка. Культурные концепты. – М.: Наука, 1991. – С. 21-30.
4. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. Антология. М., 1997. – С. 268.
5. Бульгина Т.В., Шмелев А.Д. Концепт долга в поле долженствования // Логический анализ языка. Культурные концепты. –М.: Наука, 1991. – С. 14-2
6. Словари
7. Англо- русский словарь: 53000 слов -22 изд. стереотип. М.: Рус. из. -1988. -848 с.
8. Англо- русский медицинский энциклопедический словарь // Гл. ред. А.Г. Чучалин, науч. ред. Э.Г. Улумбеков, О.К. Поздеев –М.: ГЭОТАР, 1995. -800 с.
9. Кубрякова Е.С. Демянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. Под общей ред. Е.С. Кубряковой. М.: Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1996. -245 с.
10. Кузьмин С.С. Шадрин Н.Л. Русско-английский словарь пословиц и поговорок: 500 единиц. –М.: Рус. яз., 1989. - 352 с.
11. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. –М., 1956. 1453с



Oqila BAYJANOVA,
PhD student,
Uzbekistan State World Languages University
E-mail: oqilabayjanova89@gmail.com

ЎзДЖТУ доценти, филология фанлари доктори Самигова Х.Б тақризи асосида

USE OF TERMINOLOGY, CLISHES IN THE OFFICIAL DIPLOMATIC STYLE OF THE ENGLISH LANGUAGE

Abstract

Diplomacy is a key part of foreign policy, it includes strategic systems as well as political agreements that cover a wide range of political and diplomatic relations with countries and states. In particular, this term is often used in political documents. The main purpose of this article is to help you find ways to choose the appropriate, adequate translation of terms, abbreviations and contents of diplomatic documents. In addition, in our study, English and Uzbek diplomatic terms and abbreviations are given with examples and compared. Overall, diplomacy is a way to build trust between two countries.

Keywords: Diplomatic Agent, Diplomatic Corps, Diplomatic Immunity, Diplomatist, Attaché.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕРМИНОЛОГИИ, КЛИШЕ В ОФИЦИАЛЬНОМ ДИПЛОМАТИЧЕСКОМ СТИЛЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Дипломатия является ключевой частью внешней политики, она включает в себя стратегические системы, а также политические соглашения, которые охватывают широкий спектр политических и дипломатических отношений со странами и государствами. В частности, этот термин часто используется в политических документах. Основная цель этой статьи - помочь вам найти способы выбрать подходящий, адекватный перевод терминов, сокращений и содержания дипломатических документов. Кроме того, в нашем исследовании английские и узбекские дипломатические термины и сокращения приводятся с примерами и сравниваются. В целом дипломатия - это способ укрепить доверие между двумя странами.

Ключевые слова: Дипломатический агент, дипломатический корпус, дипломатическая неприкосновенность, дипломат, атташе.

RASMIY DIPLOMATIC TERMINLAR VA QOCHIRMA (CLISHE) GAPLARINING INGLIZ TILIDA IFODALANISH USHLUBLARI

Аннотация

Diplomatiya tashqi siyosatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, u mamlakat va davlatlar bilan o‘zaro siyosiy, diplomatik aloqalarni keng qamraydigan, strategik tizimlar shu bilan bir qatorda siyosiy bitimlarni ham o‘zida mujassam etadi. Jumladan, siyosiy hujjatlarda aksariyat hollarda ko‘p uchraydigan narsa bu termindir. Ushbu maqolamizning asosiy maqsadi diplomatik hujjatlarda uchraydigan terminlarni, qisqartma so‘zlarni aniq, londa, va mazmunini saqlab qolgan holda (adekvat) tarjima tanlash usullarini ochishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, tadqiqot ishimizda ingliz va o‘zbek diplomatik terminlari va qisqartma so‘zlarini misollar yordamida berilgan va qiyosiy chog‘ishtirilgan. Umuman olganda, diplomatiya ikki mamlakatning bir-biriga o‘z ishonchini mustaxkamlash sulxidir.

Калит сўзлар: Diplomatik agent, Diplomatik korpus, Diplomatik immunitet, Diplomati, Attashe.

Shavkat Mirziyoyev in his speech of June 15 in Tashkent conference dedicated to issues of ensuring social justice, preserving the true essence and significance drew special attention to issues of educating the younger generation. As the head of our state noted, one of the most important issues always worrying us, concern the moral image of our youth, their worldview. Time is rapidly changing today. By our president it was underscored that national self-consciousness can be achieved only through upbringing, upbringing and upbringing [1].

Diplomatic style is essentially one of the vectors of the official business style. According to L.B. Shevnina, "an official business style is a combination of language means, whose function is to serve the sphere of official business relations arising between state bodies, organizations and their divisions, organizations and individuals in the process of their production, economic, diplomatic and legal activities. Common to all varieties of diplomatic style is the presence of various kinds of reductions, abbreviations, concise words.

MP (Member of Parliament) – Parlament a‘zosi, HM (His Majesty) – Hazrati Oliylari, gvt (government) –

Hukumat, pint (Parliament) – Parlament, UN (United Nations) – Birlashgan Millatlar, EU (European Union) – Evropa Ittifoqi

A large number of such reductions are found in diplomacy documents. Here, these abbreviations and acronyms intended not only to achieve brevity, but are considered to be code

P.C. – Used in written social correspondence, "pour condoler" (to express sympathy). P.F. – Used in written social correspondence, "pour féliciter" (to extend congratulations). P.M. – Used in written social correspondence, "pour memoire" (to remind). P.P. – Used in written social correspondence, "pour présenter" (to introduce). P.P.C. – Used in written social correspondence, "pour prendre congé" (to say goodbye).

The language of diplomatic documents is characterized by the traditional means of expression, which accelerates the process of forming stable turns in the form of phraseological units typical of this style. The traditional means of expression underlie another feature of the style of English official documents, namely the presence of a significant number of archaic words and expressions. In any diplomatic document we can find the use of such words as: Sustainable

momentum and individual words - the terms can be found in reports, statutes, laws, notes, and each region has its own specific terminology: for example: In diplomatic terminology:

High contracting parties- shartnoma tuzuvchi tomonlar, Ratify an agreement- Shartnomani tasdiqlash, Diplomatic memorandum - Diplomatiik memorandum, Diplomatic note, memo - Diplomatiik nota, Memorandum – Memorandum, Pact- Pakt (Hujjatlar), Pact-contract- bitim shartnoma, Plenipotentiary representative- muxtor vakil. One of the features of the phrases highlighted above is that they are standard and can be used in multiple layouts such as negotiations, various documents, messages from presidents, etc. The communication process in diplomacy is more complex and responsible. Accordingly, diplomats and other factors - communicators in international relations and diplomacy should be knowledgeable and trained in the basics and all the subtleties of communicative activity [2]. The art of negotiation with sovereign princes is extremely important; the fate of the greatest states depends on good or bad negotiation, on the abilities of the ministers who carry them out. Communicants can be human individuals and public institutions - diplomats, diplomatic agents, ambassadors, and diplomatic missions.

There are words and terms often used in diplomatic clerical work, but to some extent, differing in semantic parameters even within a single language. This process has its own regulations

Diplomatic Ranks (in order of precedence), Ambassador Extraordinary and Plenipotentiary – Favqulodda va Muxtor Elchi, Ministers Plenipotentiary – Vakolatli vazirlar, Ministers – Vazirlar, Chargé d'Affaires ad hoc or pro tempore – Vaqtinchalik muvaqqat ishlar vakili, Chargé d'Affaires ad interim – Vaqtinchalik muvaqqat ishlar vakili, Minister-Counselors – Vazir-maslahatchi, Third Secretaries and Assistant Attachés – Uchinchi kotiblar – yordamchi atashelar. Translation of terms represents a serious process aimed at creating an adequate equivalent. Proceeding from this, it is necessary to mention such concept as adequacy of translation, without which the translation of terms is not possible. Namely, the correct translation of terms as key units of texts on diplomacy is a necessary condition for the accuracy of the translation of the entire procedure [3].

Lexico-Semantic Modifications of Diplomacy Units in Translation

Among the lexico-semantic modifications of units of language in the translation of texts of diplomatic communication are the following groups of translation features:

1. Exact translation of a lexical unit from the original language to the target language via replacement. For example: "Crisis mode seems to be the current aggregate state of the world". - Crisis mode - Inqiroz rejimi

2. Translation of established language units with a partial change in the content of the original lexical unit. This category includes this kind of transformation in translation, where one of the elements of the phrase is translated taking into account the inherent expressions of the translating language. For example: "In general, across the full range of bilateral relations with the United States and our cooperation on major regional issues there is hope for the restoration of the appropriate level of contacts and cooperation with Washington".

full range of bilateral relations- keng ko'lamli ikki tomonlama munosabatlar

major regional issues- yirik mintaqaviy muammolar contacts and cooperation- aloqalar va hamkorlik

3. Translation with the extension of the original lexical unit via addition and concretization

"Will Germany support the project in Brussels?" "Germaniya hukumati Bryusselda loyihani qo'llab quvvatlaydimi?"

In translation the German government is a more correct name for a group of people.

Using the examples of the above translations of statements by diplomats, it can be concluded that the expansion of the meaning occurs because the word in the translation language has a greater degree of information uncertainty. The tactics of translation using the lexical extension of the source unit of text is determined by the task of making the recipient more aware of the situation in which the translation was made.

4. Descriptive translation (discrepancy of values of lexical units). Descriptive translation is often used in cases where in the language of translation there are no necessary concepts, or if the structures of the source language do not coincide with the language of translation at the grammatical level. For example the collocation

Government Diplomacy - davlat amaldorlari va xalqlar o'rtasidagi muzokaralar va munosabatlar.

Diplomatic attaché - elchi yoki diplomatiik vakolatxona boshlig'i, diplomat yoki xizmat ko'rsatuvchi xodim sifatida xizmat qiluvchi rasmiy shaxsning vakolatiga ega

5. Explanatory approach is used for non professionals who are not aware of the specific words in the different fields, for example in the sphere of diplomacy. For example the collocation diplomatic démarche

Diplomatic démarches are delivered to the appropriate official of the government or organization. Démarches generally seek to persuade, inform, or gather information from a foreign government. Governments may also use a démarche to protest or object to actions by a foreign government.

An Ambassador is the highest ranking diplomat accredited to a country.

A diplomat is anyone in the Foreign Service posted to another country. A diplomat is still just a public servant.

An Ambassador, however, has a status closer to a minister and is more than a public servant.

6. Translation with a restriction of meaning (with the omission of the original lexical unit). For example in translation into Uzbek the word actual is omitted)

"The actual requisition of objects that are state property and have diplomatic immunity is available."

Davlat mulki bo'lgan va diplomatiya daxlsizligiga ega ob'ektlarni talab qilib olish mumkin.

The key principle of the translator is the transparency of the translation and the exact transfer of the meaning of the source text sent by the addressee. In this case, the lack of translation of elements of the source text can be perceived as a mistake by the translator or his incompetence. It should be noted that we are talking about a translation in which semantic losses are simply unacceptable. On the other hand, on the translator of diplomatic documents lies a certain responsibility associated with the representation of state interests. After all, a diplomat, as we have noted earlier, represents the interests of the state and at the same time maintains its image in the international arena.

Lexical substitution or putting one word in place of another. It often results from the different semantic structures of the source language and target language words. Thus the word chancery is not always translated as ish yuritish; rather, it depends on its word combinability: head of the political section, charged with coordinating the substantive and administrative performance of the embassy.

Deliberate substitution as a translation technique can be of several subtypes:

Specification or substituting words with a wider meaning with words of a narrower meaning: for example – Consul and Honorary. A host-country national appointed by a foreign state to perform limited consular functions in a locality

here the appointing state has no other consular representation. The underlined English words have larger scopes of meaning than their Uzbek counterparts and their particular semantics is recognized from the context.

HONORARY – faxriy, hurmatli, izzatli, muhtaram, aziz, taniqli and etc

In December, the union was invited to be a member of the honorary consul of the newly initiated Alliance for a New Humanity.	Dekabr oyida uyushma tashkil etilgan yangi Ittifoqning faxriy konsulligiga taklif qilindi
The Committee recommends that the State party ensure that the Consultative Honorary Council be assigned stable and adequate financial and human resources in order to fulfil its mandate of policy coordination for the promotion of the rights of children.	Qo'mita ishtirokchi davlatga maslahat faxriy kengashiga bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha siyosatni muvofiqlashtirish vazifasini bajarish uchun barqaror va munosib moliyaviy va inson resurslarini berishni tavsiya qiladi.
Honorary councils and offshore business partners	Hurmatli konsullar va offshor dengiz orti hamkorlar
An Organizing Committee was created together with the Presidential Council of honorary members including well-known government and public figures, diplomats, scientists, Nobel Prize laureates, and journalists from different countries.	Taniqli davlat va jamoat arboblari, diplomatlar, olimlar, Nobel mukofoti laureatlari va turli mamlakatlardan kelgan jurnalistlar bilan birgalikda tashkiliy qo'mita tashkil etildi.
Honorary President of the Council of State of Luxembourg	Lyuksemburg Davlat Kengashi raisi, muhtaram prezident

Generalization or substituting words of a narrower meaning with those of a wider meaning: Envoy and Excellency. If we compare the semantic structure of the English and Uzbek nouns, we can see that the English Envoy specifies the senior diplomat. The specific meaning in the Uzbek sentence can be expressed by the noun Elchi. Another reason for generalization in translating can be that the particular meaning expressed by the source language word might be irrelevant for the translation receptor.

Differentiation is a rather rare technique of substitution. It takes place when we substitute a word by another one with parallel meaning, denoting a similar species: Letters of Credence and Credentials - Ishonch maktubi

Compensation is a deliberate introduction of some additional element in the target text to make up for the loss of a similar element in the source text. The main reason for this transformation is a vocabulary lacuna in the target language. Diplomatic texts often pre-empt the argument of a partner in defense of their point of view. Assumptions relate to arguments that a partner can make in favor of their point of view, i.e. kind of warn the weight of the arguments of the partner, to weaken their influence. But for this the diplomat needs to know the point of view of the opposite side well, to be able to predict the counterarguments. At the same time, arguments are being made as a pre-emption, against which it is almost impossible to object [4].

The language of a diplomat is a professional language. Professionalism here is manifested primarily in the fact that often events and phenomena are not called directly. There are many similar clichés in the language of diplomacy. And it is precisely to them that the diplomat resorts during the periods of the most acute international conflicts.

Personal note is usually sent on issues of importance and fundamental importance, or contains information about any major event. A note is drawn up in the first person on behalf of the person signing the note, and begins with the appeal. The most common form is the use of the following references:

Dear Mr. Minister, Dear Mr. Ambassador - Hurmatli janob vazir, Hurmatli janob elchi

The tone of personal notes may be more or less warm. If the note begins with the words Mr. Minister, Mr. Ambassador and ends with respect (without the use of definitions sincere or deep), then the author's intention is to make the text of the note restrained.

The intention here is to give the note a warm, friendly character. Other kinds of compliments to the Minister of Foreign Affairs or to the Ambassador may be used in such a way:

I ask you, Mr. Minister, Mr. Ambassador, to accept the assurances of my highest consideration; or

Mr. Minister, Mr. Chargé d'affaires, I ask you to accept the assurances of my highest consideration.

Janob Vaziri, janob Elchi, men sizdan eng yuksak hurmat-ehtimimni qabul qilishingizni so'rayman.

In some cases, depending on local practice and on the basis of mutual respect, before the name of the person to whom a personal note is sent, the title is used:

His Excellency Mr., Ambassador Extraordinary and Plenipotentiary of the Republic of Singapore

Hurmatli janob, Singapur Respublikasi Favqulodda va Muxtor Elchisi

The note verbale is the most common diplomatic text nowadays which can show us the diplomatic style. Foreign ministries and embassies conduct diplomatic correspondence mainly by sending notes of verbal notes. Verbal notes are used to review and address a wide range of issues. The political, economic, scientific, technical and other problems of both bilateral and multilateral nature can be outlined. Notes are also request visas, traffic accidents involving embassy staff are reported, representative information is provided to embassies about organizing trips of the diplomatic corps around the country, inviting diplomats to events on the national holiday of the country, excursions to industrial enterprises and scientific institutions.

Verbal notes begin and end with a compliment. The note begins with the full name of the sender and recipient: for example

The Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan expresses its respect to the Embassy of the Republic of Bulgaria and has the honor to inform ...

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Bolgariya Respublikasining elchixonasiga hurmat-ehтиrom ifodasini bildiradi va ...

The final compliment in the notes verbale contains the abbreviated name:

The Ministry takes the opportunity to renew to the Embassy the assurances of its highest consideration

Vazirlik, imkoniyatdan foydalangan holda elchixonaga mustahkam ishonchni qayta ta'kidlaydi

The language of diplomacy is characterized by emotional and expressive coloring. This brings the language of diplomatic communication closer to the language of political communication, for example:

We will consider with great interest all the issues identified in the protocols.

Biz protokollarda bayon etilgan barcha masalalarni katta qiziqish bilan ko'rib chiqamiz

Or another example

"I am pleased to note the ongoing development of friendly Uzbek-Korean relations. The accumulated experience of cooperation is a solid foundation for the revitalization of the entire range of bilateral relations, including political dialogue, cooperation in trade, economic, cultural and humanitarian spheres.

"Men do'stona O'zbek- Koreys munosabatlarning rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etmoqdaman. Hamkorlikning to'plangan tajribasi ikki tomonlama munosabatlarning barcha sohalarini, jumladan, siyosiy muloqot, savdo-sotiq, iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni mustahkamlash uchun mustahkam asosdir.

Thus, a number of conclusions can be made. The language of diplomatic communication is the language of communication of states. A diplomatic text is a special kind of text, subject to its laws. The language formulas of diplomatic texts are a set of specific expressions that mitigate the severity of the statement, which is why the language of diplomatic communication differs from the language of political communication. Language formulas of diplomatic texts can not be perceived as a set of stamps. The work of a diplomat is manifested primarily in the ability to creatively use diplomatic stylistics and express own thoughts. "Ambassadors have neither ships, nor heavy artillery, nor fortresses. Their weapons are words and opportunities" [5].

It should be noted that for diplomatic documents, including publications in the language of translation on the websites of foreign ministries, it is important to convey information correctly and unambiguously, including for representatives of other states. Often, dictionaries do not give

a clear definition of whether a particular term belongs to a specific terminological system of the sphere of activity, which indicates a blurring of the boundaries between them. In the written diplomatic activity there is no category such as professional jargon. The oral diplomatic communication is characterized by the use of professionalism.

The term is a single, independent unit by having a complex internal semantic structure. The term is a unit of any particular source or target language (word, phrase, abbreviation, symbol, combination of words and letters), which has a special terminological meaning as a result of spontaneously formed or special conscious collective agreement, which can be expressed either in verbal form or in one or another formalized form and accurately and fully reflects the basic, essential at this level of development of science and technology, units with responsible concepts. The term is a word, necessarily correlated with a certain unit of the corresponding logical-conceptual system in terms of content.

LITERATURE

1. Mirziyoyev Sh.M. (2017). Speech of June 15 in Tashkent conference "Youth Education is one of the most important issues"
2. Newmark P. (1991). "About Translation"- Multilingual Mats, UK, (14-15)
3. Minyar- Beloruhev. (1996). Theory and Methods of Translation: Moscow, (9-13).
4. Могилев И.Л. (2006). Теория дипломатической работы. (45).
5. Demosthenes, Greek statesman and orator of ancient Athens
6. Abbreviations Dictionary — www.acronymfinder.com
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2008). 5 жилдли Ўзбекистон миллий энциклопедияси,
8. English-Russian Diplomatic Dictionary. (2005).
9. Russian-English Diplomatic Dictionary. (2001). Russian language
10. Internet Sources
11. www.ziyonet.uz.
12. www.phenomen.ru.
13. www. google.com



Одилшоҳ БОБОКАЛОНОВ,
Бухоро давлат университети ўқитувчиси
E-mail : odilchoh@yahoo.fr

Бухоро давлат университети доценти(PhD) Ахмедова М.Б. тақризи асосида

ШИФОБАХШ ЎСИМЛИК НОМЛАРИНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация

Мазкур мақолада шифобахш ўсимликларнинг лексик-семантик жиҳатлари тўғрисида сўз боради. Шифобахш ўсимликларнинг лексик-семантик гуруҳларга бўлиб ўрганиш, бу гуруҳлар ўз ичида яна кичик гуруҳларга бўлиниши тўғрисида фикр юритилади.

Калит сўзлар: дарахтсимон, бутасимон, яримбутасимон, ўтсимон, афсонак, анжир, анжабор, аччикмия, эшшакмия, йўғон дуккакли ўсимлик.

LEXICO-SEMANTIC PROPERTIES OF MEDICINAL PLANT NAMES

Abstract

This article discusses the lexical-semantic aspects of medical plants. The study of medical plants into lexical-semantic groups suggests that these groups are further subdivided into smaller groups.

Key words: trees, semi-shrubby, herbaceous, afsonak, fig, anjabor, achchikmiya, eshshakmiya, thick legume.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА НАЗВАНИЙ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ

Аннотация

В статье рассматриваются лексико-семантические аспекты лекарственных растений. Изучение лекарственных растений на лексико-семантические группы позволяет предположить, что эти группы подразделяются на более мелкие группы.

Ключевые слова: деревья, полкустарниковые, травянистые, афсонак, инжир, анжабор, аччикмия, эшшакмия, густые бобовые.

Кириш. Тилшуносликнинг назарий ва амалий масалалари билан шуғулланувчи барча олимлар тилнинг инсоният тажрибалари ва билимларини тўплаб кейинги авлодларга етказувчи вазифасини бажаришини (унинг аккумулятив функциясини) инкор қилмайди. Чунки тил қадимги даврлардан ҳозиргача инсониятнинг доимий ҳамроҳи, унинг барча тараққиёт босқичларида ягона ҳамкори ва ижтимоий ҳаётининг очикдан-очик ишончли гувоҳидир. Бу ҳолат тилда инсон ҳаётининг барча иқричқирлари ойнада акс этганидек, акс этишини тасдиқловчи далиллардан биридир. Айниқса, бу инсон турмушининг маълум ҳаётий тармоқлари ҳисобланган соҳалар лексикасида ёрқин кўзга ташланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Тилнинг луғат бойлигини тизим (система) сифатида ўрганишда лексемаларнинг гипо-гиперономик муносабатларига таяниш муҳим аҳамиятга эга: у табиат ва жамиятдаги нарса-предметларнинг, воқеа-ҳодисаларнинг тилдаги номлари бўлган лексемаларнинг маъноларини ва шу маънолар орқали борлиқдаги нарса-ҳодисаларнинг ўзлари ҳақидаги тушунча-тасаввурларни умумлаштириш ва фарқлаш имконини беради.

Шу боис, ўзбек тилидаги ўсимлик номларини ҳам тизим (система) сифатида тадқиқ этиш мақсадга мувофиқдир ва уларни қуйидаги лексик-семантик гуруҳларга бўлиб ўрганиш: а) дарахтсимон; б) бутасимон; в) яримбутасимон; г) ўтсимон.

Бу гуруҳлар ўз ичида яна кичик гуруҳларга бўлинади ва улар шифобахш ўсимлик номларининг турларини билдиради.

Анжир - бўйи 8 метргача етадиган мевали дарахт. Унинг барги йирик, умумий кўриниши думалок тухумсимон, уч – беш бўлаккли, узун банди билан пояда кетма – кет ўрнашган. Гуллари майда, меваси ноксимон ёки ясси, тўқ кизил, сариқ рангли, сершира мевадир.

Халқ тиббиётида анжирнинг меваси балғам кўчирувчи ва йўтал қолдирувчи дори сифатида ишлатилади. Шунингдек, докани меванинг иссиқ дамламасида намлаб, ярага қўйилади, томоқни чайиш учун ишлатилади.

Тадқиқот методологияси. Анжабор – бўйи 15- 60 см га етадиган, пояси бир неча тик ўсувчи, барги йирик тишсимон қиррали, бандсиз пояси билан шохларида кетма-кет ўрнашган кўп йиллик ўт ўсимлик . Уни яна “ ёронгул”, “тепалик ёронгули” номлари билан ҳам аталиб келинади.

Табоатда унинг илдизидан қайнатма тайёрлаб, ошқозон касалликларида, ич кетганида, қон кетишини тўхтатишда, ревматизм касаллигида, суяк синганида ва турли матоларни бўяшда ишлатилади.

Афсонак – пояси кам шохли, бўйи 20-50 см га етадиган, панжасимон уч баргдан иборат, гуллари сариқ рангли дуккақдошларга ўхшаш, дуккак мевали кўп йиллик ўт ўсимлик. Афсонак яна “термопсис” номи билан ҳам аталиб келинади.

Тиббиётда афсонакнинг дамламасидан кўп касалликларни даволашда фойдаланилади. Афсонакнинг шифобахшлиги шундаки, у шамоллаш, грипп, бронхит, бош оғриғи ва бошқа касалликларни даволашда ишлатилади.

Аччикмия – кўп йиллик, оқ – яшил рангли, бўйи 30 -70 см асос қисмдан бошлаб шохланган ўсимлик ҳисобланади. Барги тоқ патли, гуллари оч сарғиш рангли, меваси қўнғир рангли, тўнғачасимон шаклда ва пишган вақтда очилмайдиган йўғон дуккакли ўсимлик. Аччикмия халқ тилида “эшакмия”, “ талхак “, “ йўғон мевали аччикмия” каби номлар билан аталиб келинади.

Аччикмиянинг янчилган уруғи халқ тиббиётида иштаҳа очиладиган дори сифатида фойдаланилади.

Шунингдек, аччиқмия гушт ва тери касалликларини даволашда ҳам фойдаланилади.

Тиббиётда афсонакнинг дамламасидан кўп касалликларни даволашда фойдаланилади. Афсонакнинг шифобахшлиги шундаки, у шамоллаш, грипп, бронхит, бош оғриғи ва бошқа касалликларни даволашда ишлатилади.

Аччиқмия – кўп йиллик, оқ – яшил рангли, бўйи 30 -70 см асос қисмдан бошлаб шохланган ўсимлик ҳисобланади. Барги тоқ патли, гуллари оч сарғиш рангли, меваси қўнғир рангли, тўнғачасимон шаклда ва пишган вақтда очилмайдиган йўғон дуккакли ўсимлик. Аччиқмия халқ тилида “эшакмия”, “ талхак “, “ йўғон мевали аччиқмия” каби номлар билан аталиб келинади.

Аччиқмиянинг янчилган уруғи халқ тиббиётида иштаха очиладиган дори сифатида фойдаланилади. Шунингдек, аччиқмия гуш ва тери касалликларини даволашда ҳам фойдаланилади.

Бозулбанг – бўйи 30 -40 см га йетадиган, пояси тик ўсувчи, тўрт қиррали, шохланган ёки шохланмаган. Барглари уч – беш бўлакка бўлинган, поясига қарама – қарши жойлашган. Гуллари поясининг юқори қисмида жойлашган, меваси эса тўртта ёнғоқчадан иборат. Бозулбангни яна “гангитувчи бозулбанг” номи билан ҳам аташади.

Табобатда ундан бурундан, бавосилдан қон кетганда тўхтатувчи, яхши тинчлантирувчи восита сифатида фойдаланиб келишади.

Далачой – далачойлар оиласига мансуб бўлган кўп йиллик ўт ўсимлик бўлиб, пояси битта ёки бир нечта бўлиб тик ўсувчи, бўйи 20 – 75 см га йетадиган, юқори қисми шохланган, силлиқ, икки қиррали . Барглари чўзиқ тухумсимон бўлиб, поя ва шохларида бандсиз қарама – қарши жойлашган . Меваси уч хонали бўлиб, кўп уруғли кўсакча саналади . Бу ўсимликни яна “қизил пойча”, “оддий далачой “ номлари билан атаб ҳам келишади.

Далачойдан табобатда ич кетишида, ошқозон - ичак касалликларининг яллиғланишида, жигар ва қовуғ касалликларини даволашда ишлатилади. Шунингдек, у қон тўхтатиш, гижжа ҳайдашда тавсия этилади. Ундан қилинган дахлама оғриқ қолдирувчи, тинчлантирувчи, бош оғриғини қолдирувчи ва бод касаллигида яхши натижа беради[1].

Еркаламбир – қарамдошлар оиласига мансуб, кўп йиллик ўт ўсимлик. Илдизи йўғон, етли, шохланган ва оқиш бўлиб, пояси битта ёки бир нечта, тик ўсувчи . Бўйи 50 – 150 см га йетадиган, меваси икки хонали кўзоқ . Уни “хрен “, “оддий еркаламбир “ номлари билан ҳам аташади.

Табобатда еркаламбирдан синга касалини даволашда, иштахани очишда, балғам кўчиришда, оғиз ва томоқ яллиғланишида, ўгриқ қолдиришда ишлатилади [2].

Етмак – чиннигулдошлар оиласига мансуб бўлган, кўп йиллик ўт ўсимлик. Бўйи 50-80 см бўлиб, илдизи ер остида чуқур жойлашган . Пояси бир нечта, тик ўсувчи, кизғиш ёки оқиш рангли, юқори қисмидан шохланган. Барги чизиксимон бўлиб поясига қарама –қарши жойлашган . Гуллари оқ, пушти рангда бўлиб, тўпгулга жойлашган . Унинг меваси эса шарсимон кўсакча шаклида. етмак сўзлашув тилида “тифсофилсимон бўритиканак”, “бўритиканак“, “беҳ “ ва “ерсовун “ номлари билан ҳам аталиб келинади.

Касаллигида балғам кўчирувчи, турли хил яраларни устига кўювчи малҳам сифатида фойдаланилади.

Жағ - жағ – бўйи 20-40 смга йетадиган бир йиллик ўт ўсимлик бўлиб, илдизолди барглари бандли, чўзиқ . Поядаги барглари текис қиррали бўлиб, бандсиз кетма-кет жойлашган .Унинг гуллари майда, оқиш рангли ва тўрт

бўлакли шингилга тўпланган [3]. Меваси тескари учбурчаксимон – юракча шаклда жойлашган . Жағ –жағни халқ шеваларида “очамбити “, “оддий жағ – жағ “ номлари билан атаб келишади.

Халқ табобатида жағ- жағнинг дамламасидан қон тўхтатувчи, сийдик ҳайдовчи восита сифатида фойдаланиб келинади. Ундан ташқари жағ- жағнинг дамламасидан ошқозон яллиғланишида, бавосил касаллигида, ичбуруғ касалликларини даволашда ишлатилади.

Жумрут – бўйи 3-8 метр бўлиб, шохларининг учи тиканли . Унинг барглари оддий, эллипсимон бўлиб, ўткир учли, қиррали, банди билан қарама-қарши жойлашган. Гуллари майда, яшил рангли бўлиб, ярим соябон гул тўпламини ҳосил қилади.Жумрут сўзлашув тилида “итжумрут”, “тоғ жумрут” номлари билан ҳам аталади.

Жумрут табобатда сурғи воситаси сифатида фойдаланиб келинади [4].

Зубтурум – зубтурумдошлар оиласига мансуб бўлиб, кўп йиллик поясиз ўт ўсимлик. Барглари узун бандли кенг тухумсимон кенг текис қиррали. Унинг узунлиги 6 -21 см, кенглиги 4-14см атрофида бўлади. Гуллари майда кўримсиз бошоқсимон туб гулагга жойлашган. Меваси кўп уруғли тухумсимон кўсакча шаклида. Зубтурум халқ сўзлашув тилида “баргизуб”, “катта зубтурум” номлари билан аталиб келинади.

Зубтурумдан халқ тиббиётида кўкйўтал, сил, нефрит касалликларини даволашда, тинчлантирувчи, қон босимини пасайтиришда ва уйқусизликни даволовчи восита сифатида ишлатилади.

Испарак – айиқтовонлилар оиласига мансуб бўлган, кўп йиллик ўт ўсимлик. Пояси тик ўсувчи, шохланган ёки шохланмаган. Баландлиги 70 смгача бўлади, барглари бешта қисмга бўлинган, узун ва қисқа банди ёрдамида поя ва шохларида кетма-кет жойлашган. Поя ва шохлари ичида сариқ гуллари кўк гулли ғоваксимон шингилга тўпланган [5]. Меваси уч қиррали баргча бўлиб, май -июн ойларида гуллаб, июн ойида меваси йетилади . Ўсимликнинг ҳамма қисми захарли ҳисобланади. Унинг “ балаңд испарак “, “ чилкаш испарак”, “юмалоқбарг испарак” каби турлари мавжуд.

Халқ табобатида испаракнинг қайнатмасидан безгак, грипп, кўкйўтал касалликларини даволашда ишлатилади.

Таҳлил ва натижалар. Кендир – кендирдошлар оиласига мансуб бўлиб, бўйи 100 -150 см бўлиб, кўп йиллик ўт ўсимликдир . Пояси тик ўсувчи, яшил ва тўқ кизил рангли бўлади. Барглари ништурсимон ёки чўзиқ тухумсимон, ўткир учли, текис қиррали бўлиб, пояси ва шохлари қисқа банд билан қарама –қарши ўрнашган [6]. Кендир пишган вақтда мевасидан баргча очилади, июн – август ойларида гуллайди, меваси сентябрь- октябрь ойларида пишади. Кендир халқ сўзлашув тилида “қандир”, “нашасимон кендир” номлари билан аталади.

Кендир халқ табобатида юрак касалликларида кенг ишлатилади, аммо даволанишда шифокор назорати остида фойдаланилади .

Маймунжон – раъно гулдошлар оиласига кирувчи ўсимлик бўлиб, бир йиллик пояси ёйсимон қайрилиб ўсади[7]. Поялари цилиндрсимон тиканли шохланган бўлиб, узунлиги 60-150 см га йетади. Барглари уч қисмли, мураккаб бўлиб, пояси ва банди узун, шохларида кетма-кет жойлашган . Унинг гуллари қалқонсимон оқ рангли ва беш бўлакли, меваси данаги кўп, ҳўл мева ҳисобланади . Маймунжон халқ сўзлашув тилида “ парманчак”, “зангори маймунжон” номлари билан юритилади.

Халқ табобатида маймунжоннинг дамламасидан қон кетиш, шамоллаш ва ҳар хил тери касалликларини даволашда ишлатилади [8]. Маймунжоннинг барги ўт, тер ҳайдовчи восита сифатида ҳам кенг фойдаланилади. Шунингдек, ундан оғиз ва томоқ яллиғланиш ҳолатларида чайилса, яллиғланишга қарши таъсир қилади.

Торон – торондошлар оиласига мансуб бўлиб, кўп йиллик ўт ўсимлик. Тороннинг бўйи 30-100 смга йетадиган, пояси тик ўсувчи, битта ёки бир нечта бўғимли, шохланмаган. Барглари поясига кетма-кет ўрнашган, гуллари майда, пушти рангли бўлиб, цилиндрсимон бошоққа жойлашган. Унинг меваси уч қиррали, ялтироқ ёнғоқча шаклга эга. Торонни сўзлашув тилида “илонсимон торон”, “еркўноқ”, “аччиқ торон”, “сув қалампери”, “сувзамчи”, “келин тили”, “шафтоли барг торон”, “қуш торон”, “қизил тасма”, “чумчуқ тили” номлари билан атаб келинади [9].

Торон халқ табобатида ошқозон ва ичак яллиғланганда, ичдан қон кетганда бавосил касаллигида, сурги сифатида, сурункали гастрит, синга касалликларини даволашда ишлатилади.

Чакамуг – бўйи 20 -80 смга йетадиган, пояси тик ўсувчи, юқори қисми шохланган, кўп йиллик ўсимлик. Барглари бандсиз поясидаги шохларга тўп-тўп бўлиб жойлашган [10]. Гуллари сариқ рангли, майда бўлиб, ярим соябонлардан ташкил топган рўвакка жойлашган. Унинг меваси иккита ёнғоқчадан иборат. Чакамуг яна “Помир – Олой чакамуги”, “қумриўт”, “илашувчи чакамуг” номлари билан ҳам юритилади.

Халқ табобатида чакамуг буйрак ва сийдик йўллари даволовчи, яраларни даволашда ишлатилади.

Чаконда – жийдадошлар оиласига мансуб бўлиб, бўйи 4-6 метрга етадиган ўсимлик. Барги оддий, чизиксимон, текис қиррали, яшил бўлиб, банди билан поясига кетма-кет жойлашган. Чаконданинг гуллари бир

жинсли, кўримсиз, майда, калта бошоқчага тўпланган. Меваси думалоқ, тўқ сариқ ёки қизғиш рангли, данакли, серсув мева ҳисобланади [11]. Уни сўзлашув тилида “чирканок”, “жумруцимон чаконда” номлари билан ҳам аталади. Яраларни тузатишда, синга касалликларини даволашда ишлатилади. Шунингдек, чаконда ревматизм касаллигида оғриган жойларга суртилганда, оғрик қолдирувчи восита сифатида ишлатилади.

Читранғи – қарамдошлар оиласига мансуб бўлган, захарли ўт ўсимлик. Читранғининг поялари битта ёки бир нечта бўлиб, тик ўсувчи ўсимлик ҳисобланади. Илдизолди барглари узун, сийрак тишсимон қиррали, бандлари поясига кетма-кет жойлашган [12]. Майда, сариқ рангли гуллари шингилга тўпланган. Читранғининг меваси кўп уруғли, тўрт қиррали кўзоқ шаклда. Читранғи халқ сўзлашув тилида “еризимум”, “шаббўй читранғи” каби атамлар билан ҳам юритилиб келинади [13].

Читранғи – тиббиётда юрак хасталиклари касалликларида, юрак фаолиятини яхшилашда, юрак уришини биров қисқартиришда, қон томирларини камайтиришда, бадандаги шишларни камайтиришда ва бошқа касалликларни даволашда ишлатилади.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса қилиб айтганда, ўзбек тилшунослигида тармоқлар терминологиясини ўрганиш бўйича етарли тажрибалар тўпланган, қатор соҳалар терминлари илмий таҳлилдан ўтказилган ва уларнинг ўзбек адабий тилидаги ўрни, мавқеи тасвири бериш берилган. Аммо мазкур соҳадаги барча тадқиқотлар поёнига етган, унга хос барча муаммолар тўла ўз ечимини топган деган хулосага олиб келмайди. Айниқса, соҳавий лексиканинг ҳар хил ҳудудлардаги кўринишлари, характери, уларнинг турли тиллар таъсиридаги ҳолати масаласи ҳали ҳам ўз ечимини қутаётган илмий тадқиқотлар олиб бориш мумкин бўлган қатта масалалардан биридир.

АДАБИЁТЛАР

1. Рубцова О.Г. Названия лекарственных растений в разноструктурных языках (на материале русского, марийского, немецкого и латинского языков): дисс. ... канд. филол. наук. Йошкар-Ола, 2015. 218 с.
2. Шанский Н.М., Иванов В.В., Шанская Т.В. Краткий этимологический словарь русского языка. Пособие для учителя / Под редакцией С.Г.Бархударова – Издание 2-е, исправленное и дополненное – М.: Просвещение, 1971 – 542 с.
3. Тажибаев, К. (2020). Мева ва сабзавотчиликда агрокластерларни ташкил этиш самарадорлиги. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(3), 238-242.
4. Jo'raeva, M. M. Fransuz va o'zbek tillarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. DSc thesis.–Т., 2017.
5. Bobokalonov, O. (2020). Linguo-Cultural Peculiarities of the Phraseological Units with Pharmacophytonyms Components. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 23(2), 232-235.
6. Bobokalonov, R. O. (2021, March). International medical terms from French to Uzbek language. In E-Conference Globe (pp. 136-144).
7. Bobokalonov, O. Specific features of phraseological units.
8. de Foucault, B. (1993). Les plantes et leurs noms: essai de phytonymie structurale. Dissertationes botanicae, 201.
9. Juraeva, M. M. (2016). The national, cultural and linguocognitive peculiarities of modality of the french and uzbek fairytales. GIF. LangLit. An International Peer-reviewed Open Sccess Journal, 3(2), 81-86.
10. Jurayeva, m. m. (2021, april). Scientific and theoretical views on cognitive linguistics. In E-Conference Globe (pp. 407-412).
11. Medelice, J. E. (2003). Motivation sémantique et phytonymes. Géolinguistique, (9), 57-58.
12. Muhamadovna, J. M. (2019). Theoretical views of concept, frame, tale-concept, tale-frame in cognitive linguistics. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 8(5 Special Issue 3), 392-395.
13. Pazltdinova, N. (2017). The Linguistic Status of Phytonyms. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 6(9), 109-116.



Адиба ДАВЛАТОВА,
Тошкент вилояти Чирчиқ
Давлат педагогика институти доценти
E-mail: adiba.davlatova79@gmail.com

ТДЎТАУ профессори Н.Жабборов тақризи асосида

ANALYSIS OF THE BALLAD OF ABDULLA ORIPOV

Abstract

The article analyzes the ballads of the national poet of Uzbekistan Abdulla Aripov. Ballads reflect various themes of human and social life. The experience of lyric characters in the poet's work, creative biography, social life and attitude towards people are studied.

Key words: ballad, artistic analysis, image, poet, poetic thinking, biographical method.

АНАЛИЗ БАЛЛАД АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Аннотация

В статье анализируются баллады народного поэта Узбекистана Абдуллы Арипова. Баллады отражают различные темы человеческой и общественной жизни. Изучаются переживания лирических героев в творчестве поэта, творческая биография, общественная жизнь и отношение к людям.

Ключевые слова: баллада, художественный анализ, образ, поэт, поэтическое мышление, биографический метод.

АБДУЛЛА ОРИПОВ БАЛЛАДАЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Аннотация

Ушбу мақолада Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Орипов ижодига мансуб балладалар таҳлил қилинган. Балладаларда инсон ва жамият ҳаётидаги турли мавзулар акс эттирилган. Шоир асарларидаги лирик қахрамон кечинмалари, ижодкор биографияси, ижтимоий-маиший ҳаёт ва одамларга муносабати ўрганилган.

Калит сўзлар: баллада, бадий таҳлил, образ, шоир, поэтик тафаккур, биографик метод

Кириш. Янги ўзбек адабиёти бир томондан халқ оғзаки ижоди, мумтоз анъаналар ва жаҳон адабий дурдона асарлари билан тўйинган адабиётдир. Муайян замонавий ижодкор асарларини таҳлил қиладиган бўлсак, улар мазмунида мана уч жиҳатни яққол кўришимиз мумкин. XX аср бошлари жадид зиёлилари бошлаб берган янгиланиш нафақат ижтимоий-сиёсий, балки адабий-маданий жараёнга ҳам ўз таъсирини кўрсатди. Вазн янгиланиши, лирик қахрамон ва образларнинг мутлақо янги тасвири, драма, роман, қисса, сонет, баллада каби янги жанрларнинг кириб келгани бу давр адабиётининг асосий белгиларидан ҳисобланади.

Баллада[1] дастлаб француз адабиётида майдонга келган. Кейинчалик инглиз ва бошқа европа адабиётида ҳам баллада намуналари яратила бошланган. Балладага таъриф берилганда, унинг сюжети кўп қиррали бўлишига аҳамият қаратилади. Масалан, у ўзида инсон ва жамият ҳаётидаги турли мавзуларни қамраб олиши мумкин. Гарчанд айнан атама нуқтаи назаридан баллада деб аталмаган бўлса-да, ўзбек мумтоз адабиётидаги баъзи асарлар мазмунидан келиб чиқиб баллада намунаси сифатида келтирилади.

-Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). Замонавий шеърятда поэтик тафаккурнинг шакл, мазмун ва образдаги талқини масалалари жаҳоннинг етакчи фан ва таълим марказларида, хусусан, Ankara Universitesi, Istanbul Universitesi (Туркия); Oxford, Kembridj университетлари (Буюк Британия); Aligarh Muslim University, Delhi University (Ҳиндистон); Azərbaycan Milli elmler akademiyasi Nizami adina adabiyat instituti (Озарбайжон); Институт восточных рукописей в Санкт-Петербурге (Россия); Институт Востоковедение АН Украины им. А. Крымского (Украина); Институти забон, адабиёт,

шарқшиносӣ ва мероси хаттии ба номи Рўдакӣ (Тожикистон); ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, Ўзбекистон Миллий университети, Тошкент давлат Шарқшунослик университети, Самарқанд давлат университети, Бухоро давлат университети, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетида олиб борилмоқда[2].

Дунё адабиётшунослигида глобаллашув муаммоларининг бадий талқини ва замондош образи тасвири, глобал ахлоқий-фалсафий муаммоларнинг киновий танқиди каби масалаларнинг ижодкор поэтик тафаккур тадрижга таъсири юзасидан назарий тадқиқотлар олиб борилмоқда (Оксфорд университети, İstanbul Üniversitesi, Gazi Üniversitesi, Azərbaycan milli elmler akademiyasi Nizami adına ədəbiyyat İnstitutu, Институти забон, адабиёт, шарқшиносӣ ва мероси хаттии ба номи Рўдакӣ, Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, Тошкент давлат шарқшунослик институти, Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети).

-Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Ўзбек адабиётшунослигида шоир ижоди ҳақида кўплаб илмий мулоҳазалар, тадқиқот ва мақолалар эълон қилинган. Абдулла Орипов ижодга кириб келган илк даврлардаёқ шоир лирикаси юзасидан Ўзбекистон Қахрамони Озод Шарафиддинов, академик Матёкуб Қўшжонов, Ўзбекистон Қахрамони Иброҳим Ғафуров, филология фанлари доктори Сувон Мели сингари олимлар алоҳида тадқиқотлар олиб борган[3].

-Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). Янги ўзбек шеърятда ҳам баллада жанрида асарлар яратилди. Масалан, Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Орипов ижодида бир неча балладалар учрайди. Шоир дастлаб, 1973 йилда “Қасоскор ҳақида баллада”сини яратган. Ушбу асар “Қорақум” фильми таъсирида ёзилган.

Лекин шеър фильмнинг баёни эмас, мутлақо янги мазмун ва асосга эга мустақил асар. Шоир бу ерда одамлар ниҳоятда ўч бўлган ёмон туйғу ва ҳаракат қасос ҳақида ёзади:

Сахро оташида қоврилар гуллар,
Чарх урар бошида маҳзун булбуллар,
Гулшанга қаҳрингиз сочманг, эй, чўллар,
Сизнинг ўзингизни ёндирар қасос[4].

Дастлабки тўрт бандда шоир гул ва чўл тушунчаларини қаламга олар экан, гўзалликнинг нобуд бўлишига сабаб саҳродан ёзғиради. Шоир қасос оловли оташдан ҳам, чўлдан ҳам устун эканлигини таъкидлайди. Чўлнинг қайноқ тафтини гулнинг қасоси учун янада ёниб кетганини чиройли ўхшатиш қилади. Кейинги бандларда эса ярадор оҳунинг воласи лирик қаҳрамон қалбига кўчади.

Қон йиғлар яралди оҳу боласи,
Фалакка чирмашар ғамгин воласи.
Ҳаққа етганида унинг ноласи,
Сайёдни қонига қондирар қасос.

Митигина кийикнинг ов домига тушиб яшаш завқидан айрилишига жим қараб тура олмайди. У ҳам тирик жон, унинг фарёди ҳам осмонга, Ҳаққа етиб боришига шоир албатта ишонади. Унинг қасоси Ҳаққа ҳавола қилинган, бу эса сайёд тақдирида албатта рўй беришини қатта ишонч билан ёзади. Кейинги бандларга келиб муружаат инсонга қаратилади. Лирик қаҳрамон замондошини қасос эмас, энг аввало, номус ва ор учун жангга киришга ундайди. Бахшининг қўлидаги ғамгин соз ва нола адашган одамзот ҳасратидан, қонга тўлган саҳролар, фарёд тўла даштлар тарихидан сўйламаслигига умид қилади. Боболар ҳатоларини тақрорламасликка, ажал шамширларини тутмасликка, муҳаббат гулларини сўлдирмасликка чорлайди.

Абдулла Ориповнинг яна бир балладаси “Бир танишим ҳақида баллада” деб номланиб, 1976 йилда ёзилган. Асар эпик мазмунга эга бўлиб, лирик қаҳрамон биографияси, кечинмалари, ижтимоий ҳаёт, одамларга муносабатини ифодалашда муҳим ўринга эга. Яъни асар ретроспектив усулда бошланиб, то ҳозирги замонни ҳам ёритади. Лирик қаҳрамон дастлаб бола киёфасида пайдо бўлади. Унинг болалик йиллардаги хотираси қайта жонланиб, баллада бадийий ғояси замон ва маконда бирлашади.

Эслайман, болалик чоғимда бир кун
Безори тош отди менга бесабаб.
Йиғладим бир четда бағрим бўлиб хун,
Атрофга кўз тикдим ночор, мўлтираб.

Бу ерда шоир бадийий вақт бирлигига қайтиб, ҳимоясиз қунни ёдга олади. Бадийий асардаги вақт бирлигининг бу каби тасвирини жаҳон адабиёти мисолида кўп кузатганмиз. Бу ерда муаллиф бир инсон мисолида руҳиятида, ўтмишида кечган воқеликларни асар мантиғига кўра жойлаштиради. Яъни асарда ижодкор таъкидлаган вақт бирлиги унинг нуқтаи назарига кўра ифодаланади. Баллада шоирнинг вақт тушунчасига доир қараши лирик қаҳрамон ва муаллиф муносабати орқали акс этади. Демак, балладада хотира, бадийий вақт шоир ва лирик қаҳрамон кечинмалари фонида берилди. У олис болалигини эсга олар экан, кучлининг кучсизлар устидан зулм қилишини алам билан хотирлайди. Ана шундай тушкун ҳолатда нотаниш, лекин меҳрибон, мадакор кишининг пайдо бўлиши ҳаёт фақат бадбин, зулмкор кимсалардан иборат эмас деган хулосага олиб келади. Тасодифий бу меҳр бола қалбини тўлқинлантириб юборади, беихтиёр бобоси айтиб берган Хизр шу бўлса керак деган ўй-хаёлларга ҳам боради.

Майли, Хизрманми ё Хизр эмас,
Ҳар нечук турибман қошинга аён.

Бирор ноҳўя иш рўй бердим, бас,
Кимдир ажрим қилса – ўша мен, ўғлон.

Ҳаётда бу каби инсонларга рўбару келиш албатта ҳазрати Хизрга йўлиқиш билан тенг албатта. Бу воқеа шоир умр йўлининг ибтидосидаги бир кўнгилсизлик ҳолос. У кейинчалик “қатта”ларнинг “кичик”лар устидан зулмига кўп бора дуч келди. Шундай дамларда Ҳақиқат тимсоли бўлган таниш инсонга эҳтиёж туғилаверади. Шоир уни реал инсон сифатида кўп ахтаради, ҳатто тушларида ғойибдан дийдорлашади.

Бир кун забтга олиб тасаввур изми,
Тушда кўрдим уни аниқ ва яққол.
Арзим баён ётдим биратўласи,
Нега келмайсиз деб тутдим сўроққа.

Шоир туш вақти орқали бадийий вақтнинг поэтик имкониятларидан фойдаланиб, Бугун ва Келажакни бир пайтда юзлаштиради, бугуннинг зулми, келажак умиди уни некинлик билан асарни ниҳоялашга олиб келади.

Абдулла Ориповнинг яна бир балладаси “Шошмаслик ҳақида баллада” деб номланади. Бу асар бир қараганда фалсафий, иккинчи томондан эса миллат ва Ватан ҳақидаги хулосалари билан кўп қиррали асар ҳисобланади. Шоир ҳаётий тажрибага эга, оқу қорани таниган инсон сифатида ёшларга, фарзандларга насиҳат қилади. У гулларни узишда, заминга оёқ қўйишда, мазор ёнидан ўтганда, ажодлар ҳақида фикр юритганда, ҳукм чиқаришда, дўст излашда, ёр танлашда шошилмасликка ундайди. Лекин шундай бир ҳолат бўладики, уни сония қадар куттириш мумкин эмас. Агар эл мадад сўраб инграганда, гулларни, шайдо кўнгилларни унутиб, отни эгарланган чақмоқдай шайлаб, унга томон шошилиб юзланишга даъват этади.

“Меҳру оқибат ҳақида баллада” деб номланган асари эса киновий руҳда ёзилгани билан ажралиб туради. Лирик қаҳрамон меҳрни, оқибатни аввало инсон ўз-ўзига кўрсатиши керак, кейин бошқалардан кутиш мумкин дейди. Лекин қидирилатган туйғуни ҳарчанд уринса-да топа олмайди.

“Ёлғончи ҳақида баллада”, “Ўғрилар ҳақида баллада”, “Нодонлар ҳақида баллада” каби асарлари 2015 йилда шоир АҚШ да даволанаётган кезларида ёзилган. Учта мустақил асар, лекин ғояси, ижодкор руҳиятидаги қарама-қаршиликлар ифодаси нуқтаи назардан бир-бирига ниҳоятда яқин туради. “Ёлғончи ҳақида баллада” асари бошдан охирига қадар муружаат руҳида ёзилган. Шоир балки замондоши, балки фарзанди, балки шогирдига муружаат қилар экан, нима бўлганда ҳам рост сўзлашга чакиради. Ёлғонни дин ҳам, дённат ҳам қабул қилмаслигини, Аллоҳ даргоҳида энг ёмон гуноҳлардан бири ёлғон эканини ёзади. Қўйиб берса суяксиз тил нималар демайди, бўлмаганни бўлдириб, ўлмаганни ўлдирадиган ҳам тилдир.

Шу чиқдим камтарин жондан,
Шайтонликда ўтдинг шайтондан.
Худодан кўрк, кўрккин иймондан,
Ёлғон айтма, садағанг кетай.

Шоир муружаат қилар экан, донишманд инсонга хос вазмин йўлини тутади. Койиганда ҳам эркалаб, авайлаб “садағанг кетай” ёлғонни бас қил деб ўзига хос услубни танлайди. “Ўғрилар ҳақида баллада” ҳам юқоридаги каби киновий характерга эга. Шоир ўғри замондошларини киёфасини чизар экан, беозор ҳажв қилади. Ўғри образи мазкур балладада янгича тарзда ифодаланади. Ўғри деганда кўз ўнгимизда эгни боши бетартиб, киёфаси бироз саросимали кимса намён бўлишига одатланиб қолганмиз. Бу асарда эса ўғри башанг кийинган, туфлисига гард ҳам юкмаган, имзо қўйиб одамлар тақдирини ҳал қилишга қодир шахс тарзида ифодаланади. “Нодонлар ҳақида баллада” да эса

жамият учун энг зарарли жиҳатлардан бири нодонлик илллати қаттиқ кораланади. “Ҳақиқий санъат асари ҳамиша ўқувчи кўз ўнгида мўъжизалар дунёсини очишга қодир. Бунга эса фақат актуал, умуминсоний ғояларни қўтариб чиқиш орқали эмас, балки ана шу ғояларни ва ҳатто ҳаммага маълум идеаларни бадиий инкишоф этиш орқали эришилади”[5].

-Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations). Хулоса қилиб айтганда, Абдулла Орипов ўз даврининг жонкуяр қаламкаши, миллат ва халқ тақдирига қайғурган шахс сифатида ижод қилди. Балладаларида қайси мавзу қаламга олинмасин, барчасида Инсон камолати, миллат эртаси, Ҳақ ва Ҳақиқат мотивлари устунлик қилади. Узини миллатнинг бир бўлаги ҳисоблаган шоирдан бошқача руҳни кутиш ноўрин албатта.

АДАБИЁТЛАР

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/sayfi-saroyi-uz/>
2. <https://arts.unimelb.edu.au/nceis>; <https://www.westernsydney.edu.au>; <https://sllc.umd.edu/persian/about>; <http://nelc.uchicago.edu>; <https://nelc.osu.edu>; <http://ut.ac.ir>; <http://www.um.ac.ir>; <https://www.amu.ac.in>; <http://www.du.ac.in/du>; <http://www.istanbul.edu.tr/tr>; <https://www.ankara.edu.tr>; <http://gazi.edu.tr>; <https://www.orientalstudies.az/ru>; <http://literature.az/lang=aze>; <http://www.kaznu.kz/ru>; www.iaas.msu.ru; <https://www.ivran.ru>; <https://spbu.ru>; www.orient.spbu.ru/ru; <http://www.orientalstudies.ru>; <http://orientalstudies.org.ua/uk/home>; <http://zoa.dmt.tj>; <http://iza.tj/ru/institutyazyka-literatury-vostokovedeniya-i-pismennogo-naslediyaim-rudaki>; <http://tashgiv.uz/ru/>; <http://navoiy-uni.uz/uzk>; <http://www.samdu.uz> ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.
3. Шарафиддинов О. Талант халқ мулки. // Шарқ юлдузи. 1979 й.; Шарафиддинов О. Инсон қалбининг манзаралари. // ЎзАС. 1981 й. 23 октябр.; Шарафиддинов О. Шеърят қалб ёлкини // Ҳаёт билан ҳамнафас.- Тошкент, 1983. – Б.155-168; Қўшжонов М. Онажоним шеърят.- Тошкент, 1984; Ғафуров И. Шеърят-изланиш, курашчанлик демакдир.-Тошкент, 1984. Қўшжонов М., Сувон Мели. Абдулла Орипов.- Тошкент: Маънавият, 2000; Сувон Мели. Ҳангома зимнида панднома. Абдулла Орипов шеърятида тўртлик. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2021 й, №3/21. 30-36 бет.
4. Орипов А. Танланган асарлар. Биринчи жилд.Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Т.:2000, 431 б.
5. Ғаниев И., Афоқова Н. Абдулла Орипов фалсафаси. “Muharrir nashriyoti”, -Т.:2021. 308 б.



Dilnoza JUMAYEVA,

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti dotsenti

E-mail: jumayevadilnoza@mail.ru

ToshdO‘TAU professori, fil.f.d. N.A Jabborov taqrizi asosida

“YUSUF VA ZULAYXO” DOSTONLARIDA BADIY SAN‘ATLAR

Аннотация

Ushbu maqola “Yusuf va Zulayxo” dostonlarining bir necha asrlardan beri o‘zgarib kelayotgan g‘oyaviy taraqqiyotiga bag‘ishlanadi. Maqolada Abdurahmon Jomiy, Durbek va Olim Devona, Andalib va Xolislarining ushbu mavzudagi dostonlari tahlilga tortilgan. Dostonlar turli davrlarda yaratilgan. Mavzu va g‘oyalari ham o‘zgarib borgan. Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” dostoni sof ishqiy va tasavvufiy mavzuda yaratilgan bo‘lsa, Durbekning “Yusuf va Zulayxo”si o‘zbek adabiyoti tarixida dunyoviy hayotni o‘zida birmuncha mujassamlashtirgan, zamon ruhini o‘zida aks ettira olgan dostonlar qatorida turadi. Ushbu dostonlarda xilma-xil badiiy san‘atlar mohirona qo‘llangan. Ushbu maqolada dostonlarda qo‘llanilgan badiiy san‘atlardan namunalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Doston, qissa, alayhissalom, ishqiy, lafziy, syujet, sura, badiiy san‘at, diniy, g‘oya, kitob.

ПОЭТИЧЕСКОЕ ИСКУССТВО В ПОЭМЕ «ЮСУФА И ЗУЛАЙХО»

Аннотации

Статья посвящена многовековому идейному развитию эпосов Юсуфа и Зулайхо. В статье анализируются былины Абдурахмана Джамии, Дурбека и Олима Девона, Андалиба и Холиса на эту тему. Были созданы в разные периоды. Изменились также темы и идеи. В то время как «Юсуф и Зулайхо» Джамии основаны на чисто романтических и мистических темах, «Юсуф и Зулайхо» Дурбека - один из немногих эпосов в истории узбекской литературы, воплощающий светскую жизнь и отражающий дух времени. В этих эпосах умело использованы самые разные искусства, в статье приведены примеры искусства, использованные в эпосах.

Ключевые слова: эпос, новелла, романс, риторика, сюжет, сура, искусство, религия, идея, книга.

FINE ART IN THE EPICS OF «YUSUF AND ZULAIKHO»

Annotations

The article is devoted to the centuries-old ideological development of the epics of Yusuf and Zulaikho. The article analyzes the epics of Abdurahman Jami, Durbek and Olim Devon, Andalib and Kholis on this topic. They were created in different periods. The themes and ideas have also changed. While Jami's Yusuf and Zulaikho is based on purely romantic and mystical themes, Durbek's Yusuf and Zulaikho is one of the few epics in the history of Uzbek literature that embodies secular life and reflects the spirit of the times. In these epics, a variety of arts are skillfully used, the article provides examples of art used in the epics.

Key words: epic, short story, romance, rhetoric, plot, surah, art, religion, idea, book.

Kirish. Sharq poetikasiga doir asarlarda nasr va nazmda qo‘llaniladigan badiiy san‘atlardan 120ga yaqini haqida ma‘lumotlar beriladi. Ushbu badiiy san‘atlar mumtoz poetikaga doir qo‘llanmalarda ikki guruhga (lafziy va ma‘naviy san‘atga), faqat ayrim tadqiqotlardagina uch guruhga (musharak san‘atlarga ham ajratilgan) taqsimlangan. Biz tadqiq etayotgan Yusuf va Zulayxo dostonlarining barchasida ana shu uch guruhga mansub she‘riy san‘atlardan mohirona foydalanilgan va ular har bir misraga o‘zgacha jilo hamda joziba baxsh etgan.

“Yusuf va Zulayxo” dostoni mualliflari she‘riy san‘atlardan asarda ilgari surilayotgan g‘oyani ochishda, qahramonlarning ichki olamini tasvirlashda, voqealar oqimini mantiqan rivojlantirishda va eng muhimi, asar tilining jozibadorligini ta‘minlashda yuksak mahorat bilan foydalanadilar. Shuningdek, har bir ijodkor badiiy san‘atlar zahirida olam va odam haqidagi mushohadalari, odob-axloqqa oid mulohazalari hamda dunyoviy-ilohiy hodisalarga o‘zining munosabatini izhor etadi.

Durbek dostonida qo‘llangan she‘riy sa‘atlarga diqqat qilaylik:

Dedi og‘osiki: – ne kulmak turur?

Senga bu hasrat ila o‘lmak turur.

Dedi: – ko‘runur menga sun‘i iloh,

Sizni dedim o‘zuma pushtu panoh.

Tengrini unutub o‘shal lahza pok,

Ushbu gunoh uzra bo‘lurmen halok.

Ijodkor bu o‘rinda savol-u javob san‘atidan foydalanib, yosh Yusufning tilidan insonning insonga suyanishi nojoizligi, “pusht-u panoh” bo‘lishlik yolg‘iz Allohga xos xususiyat ekanini uqtiradi. Durbekning ta‘kidiga ko‘ra, Tangridan o‘zgani iloh deb bilish, u qolib boshqalardan najot izlash insonni halokatga olib keladi.

Lek bu base mehnat-u javr-u jafu,

Chekkumizu ko‘rgumiz oxir vafo.

Bu yerda esa tazod san‘ati orqali shoir sinov va mashaqqatlarga bardoshli bo‘lish, sabr qilish, insonga oxir-oqibat yaxshilik keltirishiga ishora qilgan. Uning fikricha, kamolotga erishish, saodatga yetishish uchun insondan yuksak matonat, kuchli sabr-bardosh talab etiladi. Sabr qilgan kishining, albatta, murodi hosil bo‘ladi.

Yana bir o‘rinda shoir shunday bayt keltiradi:

Sabr bila tengri berur komi dil,

Sabr qil-u sabr qil-u sabr qil.

Shoir takrir san‘atini qo‘llash orqali yana o‘quvchi diqqatini sabrga qaratadi. Baytga ko‘ra, sabr-qanoat qilgan kishilargina bu dunyoda xotirjamlikka erishadi, halovat topadi. Shoir ko‘ngilning taskin topishida, eng avvalo, sabr birlamchi ekanini qayta-qayta uqtiradi.

Abdurahmon Jomiy dostonining Ogahiy tomonidan qilingan tarjimasida ham qator she‘riy san‘atlarning go‘zal namunalarini uchratish mumkin. Ishaqiy-tasavvufiy ruhda

bitilgani bois dostonida asosan oshiq va ma'shuq iztiroblari tasviri, qalb tug'yonlari, kechinmalari, quvonchu tashvishlari, orzu-intilishlari ko'proq aks etgan. "Zulayxonning sifat va nasabiga jamoli oftobi bila mag'rib mashriq bo'lg'oni, balki ming daraja ondin o'tgoni" bobida Ogahiy Zulayxonning husnu jamolini vasf etadi va unda bir necha she'riy san'at namunalarini yuksak mahorat bilan qo'llaydi. Shoir dastavval Zulayxonning nasl-nasabi haqida qisqacha to'xtaladi va uning hadsiz go'zallik sohibasi ekanini mubolag'a orqali bayon etadi:

Sochi el boshig'a solib qaro shom,
Yoyib jonlar qushi qasdig'a ham dom...[1].

Shoir Zulayxo suratini kitobat (xat) san'ati orqali yuksak mahorat bilan ta'riflaydi:

Hamul lavh ustida ham yozdi vojun,
Ajab bay'at bila mushkin ikki nun.
Ul iki nunning ostida ikki sod,
Yozibdur sun'i kilki birla ustod.
Hamul nun haddidin to halqai mim,
Alif chekti burundin xo'b ta'lim.
Alifga kelturub sifrin damonning,
Birin o'n aylab oshubi jahonning.
Labi xandondin aylab jilvagar sin,
Tili ila mim aqdin ochti tahsin.

Ogahiyning mahoratli shoir ekani uning bir baytda bir nechta she'riy san'atlarni qo'llay olganida ham ko'rinadi:

Beli noziklik ichra o'ylakim qil,
Demay, nozik erur qildin dog'i, bil.

Mazkur baytda shoir ikki xil: birinchi misrada tashbeh, ikkinchi misrada, bayt to'liq o'qilganda unda ruju' san'atidan foydalangani ko'rinadi. Natijada nozik ma'noni go'zal badiiy tasvir orqali beradi. Bu kabi holatlar dostonning juda ko'p o'rinlarida mavjud.

Sharq she'riyati rang-barang badiiy san'atlarga boy. Ulardan foydalanish tilimizning so'z boyligi, ayni paytda, ijodkorning o'ziga xos mahoratini ham ko'rsatadi. "Ravzai asror" ham Olim Devonaning poetik mahorati, uning yuksak ijodkorlik salohiyatga ega shoir ekanini ko'rsatuvchi asardir. O'z fikrini o'quvchiga ishonarli yetkazish maqsadida xalqimizga ma'lum bo'lgan tarixiy nomlarga ishora qilish Olim Devona asarida ko'p o'rinlarda uchraydi:

Layliparvar Qays, lek etsang shior,
Shirin aytar: Ko'hkan o'lsang nigor.

Yana bir misol:

Kishvar ma'nida qilib hukmron,
O'ylaki bir Xusravi sohibqiron.

Baytlarda talmeh san'ati qo'llanilgan bo'lib, unda adabiyotning haqiqiy ishq-muhabbat egalari, tarixning mashhur kishilari o'ziga xos badiiyat bilan tavsif etilgan.

"Ravzai asror"da Sharq she'riyatida qo'llanilgan an'anaviy san'atlardan yana biri tajnisdir. Ma'lumki, tajnis (yoki jinos) san'ati turkiy adabiyotda juda qadimdan qo'llanilgan bo'lib, u muayyan bir fikr yoki obrazni ta'sirchan ifodalashning vositasi hisoblanadi. Dostonning quyidagi misralarida ham buning yorqin misolini uchratish mumkin:

Borcha Zulayxo boshida toshurub,
Aytur edi toshlarig'a tosh urub.

Shoir Zulayxo portretini chizishda tashbehning o'ziga xos namunalarini yaratishga muvaffaq bo'lganini quyidagi misra tasdiqlaydi:

Borcha parichehra, gulandom ham,
Zulfi qaro erdi, bodom ham.

She'riy misralarda maqol yoki uning mazmunini keltirish ham ijodkor g'oyaviy-estetik niyatini ochishga xizmat qilgan. Irsoli masalga xos xususiyat shuki, u ifodalayotgan fikrni isbotlash, quvvatlash uchun keltiriladi. Olim Devona ham ushbu mumtoz san'atdan aynan shu maqsadda foydalanadi. Shoirning bu san'atga murojaat qilishi

o'quvchiga asar mutolaasida zavq bag'ishlaydi, ya'ni kitobxon asar voqealarini jonli tasavvur qiladi:

Telba erur ul ki, bu so'z anglamas,
So'z bu ki, sulton so'ngakin xorlamas.

Olim Devona oshiq qahramon – Zulayxonning yoqimli qiyofasini benuqson chizib, jonli ifodalashdan erinmaydi. Chunki bu ish ijodkorga zavq bag'ishlaydi. Quyidagi misolda shoir bu borada kitobat san'atidan foydalanganini ko'rish mumkin.

Bo'yla og'zi ramzidin ko'nglumda mavzui fikr erur,
Ruxsor uzra xolu xat "Nun" surasidek zikr erur.

Ma'lumki, arab alifbosi to'g'ri va egri, yoysimon va doirasimon shakllardagi harflardan tashkil topgan. Olim Devona ham ana shu shakllarga qiyos usuli bilan yondashib, o'z qarashlarini ifodalashda kitobat san'atini qo'llaydi.

Kokilining torig'a yuz jon asir,
Jon demakim, din ila iymon asir.

Uzoq asrlar davomida ijodkorlar tomonidan goh nazmda, goh nasrda kuylangan va qalamga olingan qur'oniylar mavzuning Olim Devona asarida o'z ifodasini topishi adabiyotimiz xazinasi uchun diqqatga sazovor hodisadir. Iste'dodli shoirning dostoni shu mavzuda yozgan boshqa ijodkorlar asarlaridan o'ziga xosligi, badiiy tasvir vositalarining betakror qo'llanishi bilan farq qiladi.

Andalib qissasida ham she'riy san'atlar o'ziga xos o'ringa ega. Ijodkor qissani to'laligicha nazmda yaratmagan bo'lsa ham, asar ichiga kiritilgan har bir she'rda badiiy san'atlarining go'zal namunalarini uchratish mumkin.

Ma'lumki, Andalib qissani sodda, xalqona tilda yaratgan. Shu bois unda qo'llangan san'atlar asarga boshqalarnikiga o'xshamagan o'zgacha bir samimiyat, xalqona ruh bag'ishlagan. Masalan, quyidagi she'rda qo'llangan tashbih (o'xshatish) san'atiga diqqat qilaylik:

G'ofil o'lub karvonimni ko'churdum,
Qo'limdagi shunqorimni uchurdum,
Ayrolig'ni sharobini ichurdum,
Diydor qiyomatga qoldi naylayin... [2].

Yoki:

Nola qilib yuragimni kuydirma,
Xazon urub xirmanimni yel oldi...

Albatta, bu kabi xalqona, bu kabi sodda o'xshatishlar asosida yozilgan asar o'quvchining dilidan chuqur joy olishi shubhasiz edi. Qissaning boshqa o'rinlarida ham shoir ana shunday tashbihlardan samarali foydalanadi.

O'g'lining boshiga tushayotgan ko'rguliklardan azob chekayotgan, shunday bo'lsa-da, farzandini ertangi yorug' kunga ishonitirishga urinayotgan onaning qiyofasini chizishda husni ta'lil san'atidan foydalanadi:

Bo'lmag'il dunyoda g'amboda, erursan oftob,
Ko'rgali chun orazing oylar tutar yuzga niqob...

Anvar Hojjahmedov ta'rificha, husni ta'lil adabiy asarlarda tasvirlanayotgan hodisaga shoirona sabab ko'rsatishdir [3]. Ushbu muxammasda onai zor ko'ngli cho'kkan, g'amboda o'g'lining ko'nglini ko'tarib, uni oftobga o'xshatadi. Chunki oftob o'zining iliq mehri bilan butun tabiatni jonlantiradi. Qolaversa, shoir bu qiyos orqali uning go'zallikda tengsiz ekanini yana bir bor eslatib o'tayapti. To'qqiz falakning rashkiga esa aynan Yusufdagi mana shu xususiyatlar sabab bo'lmoqda.

Shoir Zulayxonning otashin ishqini, uning qalb kechinmalarini tasvirlashda mubolag'adan foydalanadi:

Yonib ishq otashi kuyirdi, ayb etmang Zulayxoni,
Umidim vaslidan andog', yana fasli bahorim bor.

Andalib o'z she'rilarida irsolu masaldan foydalanishning o'ziga xos uslubini kashf etgan. Buni quyidagi misolda ko'rish mumkin:

Otamiz Odamdin qolg'on bir so'z bor –
"Ko'rdugung o'rt, ko'rmading so'zlama"... [4].

Yuqoridagi maqol mazkur g'azalning har ikkinchi misrasida takrorlanib keladi. Bu orqali shoir o'quvchi diqqatini inson boshqalarning ishonchiga sazovor bo'lish uchun eshitganini emas, faqat o'z ko'zi bilan ko'rib, ishonch hosil qilgan hodisalarnigina gapirishi zarurligiga qaratadi.

Ijodkor she'rlarini yozishda rang-baranglikka, ya'ni turli-tuman she'riy san'atlardan foydalanishga intiladi. Quyidagi keltiradiganimiz mukarrar san'atiga misoldir. "She'r san'atlarini bilasizmi?" kitobida aytilishicha, juft so'zlarni qo'llash asosida hosil qilinadigan ushbu san'atdan hazrat Navoiy o'z ijodlarida samarali foydalangan ekanlar [5]:

Yusuf aytur: omon-omon, Zulayxo,

Bilmasunlar yaxshi-yomon, Zulayxo... [6].

Andalib asarning ohangdorligi, musiqiyiligini mukammal darajada ta'minlash maqsadida qofiya san'atiga katta e'tibor bergan. Uning quyidagi g'azali fikrimiz isbotidir:

Tamosho aylasam dunyo, ko'ngul anda bo'lur shaydo,
Og'olarim qilar parvo, mening husnu kamolimg'a...

Yusuf bechorag'a fursat, otojonim bering ruxsat,
Og'olarim manga ulfat, xabardor o'lsa jonimg'a.

Ushbu g'azal orqali shoir misraning ikki o'rnida qofiyadosh so'zlarni keltirib, mahjub qofiyani yuzaga keltirgan. Andalib qissa tarkibidagi she'rlarda qofiyaning bu usulidan juda ko'p o'rinlarda foydalanganini ko'rish mumkin.

Badiiy san'atlarni qo'llash borasida Xolis ayrim o'rinlarda Andalibga ergashadi. Biroq Xolis o'sha san'atni aynan ko'chirmaydi, balki uni qayta ishlab, rivojlantiradi. Quyidagi iqtibosda buning yaqqol misolini ko'rish mumkin:

Budur odam atomizni ayg'onlari,
Yaxshi anglang so'zlarini siz o'g'lonlari,
Barchamizga sunnat erur qilg'onlari,
Ko'rgoningni ayt ko'rmaganing so'zlama...

Yuqorida ta'kidlanganidek, irsolu masal san'ati qo'llangan shunga o'xshash she'r Andalib qissasida ham mavjud edi. Andalib uni g'azalda qo'llagan bo'lsa, Xolis ushbu maqolni murabba' janridagi she'riga kiritadi. Shoir ushbu maqolni Andalib kabi ta'kidlab, ya'ni har ikkinchi misrada aynan takrorlab emas, balki turlicha tarzda keltiradi:

Bilganingni ayt bilmaganing so'zlama...
Qilg'oningni ayt qilmaganing so'zlama...

Topganing ayt topmaganing so'zlama...

So'rg'oningni ayt so'rmaganing so'zlama.

Xolis ham qissa boshida talmeh san'atidan foydalanib, asarning mohiyatini, uning g'oyasini o'quvchiga avvaldan o'z ishora qiladi:

Kezib olamni Majnun Laylisiga yetmayin o'ldi,
Edi Farhod ish boshiga Shirin uchun o'ldi.

Eshiting Vomiqu Uzro alar ham bu yurug' bo'ldi,
Ayo do'stlar, alarni barchasi oxir pano bo'ldi.

Mazkur misralardagi nomlarni ko'rgan o'quvchi Yusuf va Zulayxonning ishq ham ularniki kabi muhtasham, ularniki kabi ulug'vor ekanini darhol anglab yetadi. Qissa tarkibida tazod san'atining ham o'ta jozibali, boshqalarnikiga o'xshamagan, o'ziga xos variantini uchratish mumkin. Uning o'ziga xosligi shundaki, shoir ushbu san'at orqali qator hikmatlar shodasini mohirlik bilan tizib chiqqan:

Ki, muhabbat so'ngidin rohat kelodur,

Faqirlik so'ngidin davlat kelodur.

Yig'ini oqibat bir kulmog'i bor,

Kimki g'amgin bo'lsa shod o'lmog'i bor.

Sabr qilmoq dedi rahmon ishidur,

Vale shoshmak hama shayton ishidur.

Boshqa o'rinda esa shoir takrir va tajnis san'atlarini birgalikda qo'llab, chiroyli so'z o'yini qilishga muvaffaq bo'ladi:

Bir-biri bilan turgon quchushib,

Yana lablaridin bir-bir o'pushib.

Ushbu baytning har ikki misrasida juft so'zlarning ishlatilishi, birinchi navbatda, takrir san'atini vujudga keltirgan. Aynan o'sha so'zlarning ikki ma'noda qo'llanishi esa tajnis san'atiga misoldir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, turkiy adabiyot maydonida vujudga kelgan ushbu qissa-dostonlar o'zining har jihatdan yetuk asarlar ekani bilan alohida ajralib turadi. Ular qay bir tomondan tadqiq etilmasin, o'zining yangi qirralarini namoyon etaveradi. Shu bois bu kabi durdona asarlar necha asrlardan buyon unutilmasdan davrimizgacha yetib keldi va bundan so'ng ham ular tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR

1. Ogahiy, Muhammad Rizo. Yusuf va Zulayxo. – O'zR FASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. № 1338. –B. 12a (Keyingi iqtiboslar shu manba asosida keltirildi).
2. Nurmuhammad Andalib. Yusufu Zulayxoi turkiy. O'zR FASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. № 360. –B.10a
3. Hojjiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 7
4. Andalib, Nurmuhammad. Yusufu Zulayxoyi turkiy. Toshbosma – Tashkent: "Aziya" litografiyasi, 1915 yil. B. 8
5. Hojjiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 20
6. Nurmuhammad Andalib. Yusufu Zulayxoi turkiy. O'zR FASHI qo'lyozmalar fondi. Inv. № 360. – B. 36a



Nuriya JUMANIYOZOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail: jumaniyozovanuriya@gmail.com

Filologiya fanlari doktori, professor X.D. Paluanova taqrizi asosida

STRUCTURAL ANALYSIS OF LEGAL DISCOURSE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES (IN AN EXAMPLE OF SIMPLE SENTENCES)

Abstrakt

It is known that the legal discourse is activated by its participants and their speeches. The implementation of the structural analysis of this very discourse requires, first of all, the identification of the types of speech by the participants. The paper examines the peculiarities of the structure of the speeches of the judge, prosecutor, defense attorney, witness and defendant. There is no doubt that speech, which is the real expression of language, is made up of sentences. Accordingly, research observations revealed the use of different simple sentences in the structure of those speeches.

Key words: legal discourse, sentence, simple sentence, structural analysis, language, legal speech, participants.

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ ЮРИДИЧЕСКОГО ДИСКУРСА НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ (В ПРИМЕРЕ ПРОСТЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ)

Аннотация

Известно, что юридический дискурс активизируется его участниками и их выступлениями. Осуществление структурного анализа этого самого дискурса требует, прежде всего, определения типов речи участников. В статье рассматриваются особенности структуры выступлений судьи, прокурора, защитника, свидетеля и подсудимого. Нет никаких сомнений в том, что речь, которая является реальным выражением языка, состоит из предложений. Соответственно, исследовательские наблюдения выявили использование различных простых предложений в структуре этих речей.

Ключевые слова: юридический дискурс, предложение, простое предложение, структурный анализ, язык, юридическая речь, участники.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA YURIDIK DISKURS STRUKTURAL TAHLILI (SODDA GAPLAR MISOLIDA)


Annotatsiya

Ma'lumki, yuridik diskurs ushbu diskurs qatnashuvchilari va ularning nutqi orqali faollashadi. Mazkur diskurs struktural tahlilini amalga oshirish esa, dastavval, ishtirokchilar nutq turlarini aniqlashni taqozo qiladi. Ishda asosan sudya, prokuror (qoralovchi), advokat (himoyachi), guvoh va sudlanuvchi nutqlari tuzilishidagi o'ziga hosliklar tadqiq etildi. Shubhasiz, tilning real ko'rinishi, realizatsiyasi bo'lgan nutq gaplardan hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, kuzatishlar davomida e'tirof etilgan nutqlar tuzilishida turli xil sodda gaplar qo'llanilishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: yuridik diskurs, gap, sodda gap, struktural tahlil, til, yuridik nutq, ishtirokchilar.

Kirish. Sodda gap ma'lum fikr, maqsadni ifodalovchi, grammatik va ohang tomonidan shakllangan sintaktik birlikdir [1]. Bunday turdagi gaplar monopredikat asosga ega va shu jihati bilan polipredikativ birlik sanaluvchi qo'shma gaplardan

farqlanadi. Sodda gaplar struktura jihatidan ham bir nechta turlarga bo'linadi va ingliz va o'zbek yuridik diskursida quyidagi sodda gap turlarini uchratishimiz mumkin:



Sodda gaplar bosh va ikkinchi darajali bo'laklar ishtirokiga ko'ra yig'iq va yoyiq gaplarga bo'linadi, ya'ni faqat bosh bo'lak (ega va kesim) dan tashkil topgan gaplar sodda yig'iq gap, bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ishtirokida qurilgan gaplar esa sodda yoyiq gap

hisoblanadi. Qiyoslanayotgan ikkala tilda ham bu turdagi gaplardan foydalanilish kuzatilgan:

Sudya: O'tiring. Sud tergovida taraflardan dalillarni tekshirish navbati bo'yicha fikr bildirishingizni so'rayman. (Ch. Normo'minov ishi);

Advokat: E'tiroz bildiraman, hurmatli sudya. Davlat ayblovchisi fuqaroviy masala bo'yicha savol beryaptilar. Bu savolni olib tashlashingizni so'rayman (G. Yo'ldoshova ishi).

Berilgan misollarda o'tiring va e'tiroz bildiraman gaplari sodda yig'iq gap shaklida, qolgan gaplar esa sodda yoyiq gap ko'rinishida keltirilgan. O'zbek yuridik diskursida sodda yig'iq gaplar nihoyatda kam miqdorda qo'llanilishi aniqlandi, chunki yuridik diskursda aniqlik, mantiqiy izchillik va to'g'rilik tamoyillari ta'minlanishi lozim. Tilshunos olim Sh. Ko'chimov ham o'z nomzodlik ishida qonun tilida sodda yig'iq gaplarning deyarli ishlatilmasligi haqida shunday yozadi: "Qonun tilida sodda yig'iq gaplar, ya'ni faqatgina ega va kesimdan tashkil topgan gaplar deyarli qo'llanilmaydi, chunki qonun tilida berilayotgan axborotning chuqur mantiqiy qurilganligi, bu axborotning to'liq va tugal bo'lishi sodda yig'iq gaplarning ishlatilishiga yo'q qo'ymaydi" [2]. Shuning uchun ham sodda yoyiq gaplar mazkur diskursda salmoqli o'rin egallagan. Xuddi shunday, ingliz yuridik diskursida ham sodda yig'iq gaplar kam miqdorni tashkil qilib, ular ko'p hollarda direktiv formada keladi:

Clerk: All rise!

Judge: Ok ladies and gentlemen, Miss Jensen has up to about 30 minutes if she wants to respond. Does anybody need a comfort break? Miss Jensen, you may proceed (Ashley McArthur's Trial);

Chief Justice Roberts: Thank you, counsel. The case is submitted (Case 18-481, the Food Marketing Institute versus the Argus Leader -- versus Argus Leader Media).

-Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'kidlash joizki, gapda o'zaro teng aloqada bo'lgan, bir xil sintaktik vazifa bajaruvchi, teng bog'lovchilar bog'lanuvchi yoki bog'lanishi mumkin bo'lgan, sanash intonatsiyasi bilan talaffuz qilinuvchi va odatda bir xil so'z turkumi yoki grammatik shakl bilan ifodalanuvchi bo'laklar uyushiq bo'laklar sanalib [3], o'rganilayotgan diskursdagi sodda yoyiq gaplar tarkibida bunday konstruksiyalar talaygina:

Advokat: Sudning hukmi qonuniy, asosli va adolatli bo'lishi shartligi O'zR JPK ning 455-modda talabidir. Sohibquron Amir Temur: "Kuch adolatdadir", deb aytgan edi. Bu hozirgi kunda ham o'z mohiyati, ma'nosi va mazmunini yo'qotgan emas. Qonunlarimiz kuchi ham, qudrati ham adolatparvarligidadir. Sud ishida qatnashayotgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish shart degan tamoyilga tayanib ish ko'radi (O'AHN, 20-b);

Prosecutor: March 28 2019 was supposed to be a celebration. Samantha Josephson and friends for gathering together is a celebration of life. They are getting together to relive a few of those kind and fun moments of college.....She'd been stabbed multiple times from the bottom of her feet throughout her torso, throughout her face, her neck and her head.... I am Byron Gibson. I am the solicitor here and along with deputy solicitor Daniel Goldberg, deputy solicitor April Sampson and assistant solicitor Amanda Gaston, we represent the state of South Carolina against the defendant Nathaniel David Rowland now (Nathaniel Rowland's Trial).

-Tadqiqot metodologiyasi. Sodda gaplar ega va kesimdan, ega va kesim sostavidan iborat bo'lishi mumkin yoki bu elementlardan birining bo'lmasligi mumkin; shunga qarab, sodda gaplar bir sostavli va ikki sostavli gaplarga ajratiladi. Birgina sostavdan iborat bo'lgan gaplar bir sostavli gaplar bo'lib, ularda subyekt va predikat ayrim-ayrim ifodalangan bo'ladi [4]. Ammo bir sostavli gaplarni ega yoki kesim sostavidan iborat bo'ladi deb tushunmaslik kerak, chunki ularda formal jihatdan kesim mavjud bo'lsa-da, ega sostavini ajratib bo'lmaydi. Hozirgi o'zbek tilida bunday gaplar quyidagi turlarga ajratiladi: shaxsi noma'lum gap, shaxsi umumlashgan gap, shaxssiz gap, nominativ gap, infinitiv gap va so'z-gaplar [5]. Ingliz tili grammatik

adabiyotlarida esa bir sostavli gaplar asosan nominativ va infinitiv gaplarga bo'linadi [6]. Shuningdek, imperativ gaplar va so'z-gaplar ham bir sostavli gaplar sifatida qaraladi [7].

Ish bo'yicha olib borilgan izlanishlar shaxsi noma'lum gaplar o'zbek yuridik diskursida deyarli qo'llanilmasligini ko'rsatdi. Sababi, bunday turdagi gaplar tilshunos olim I. Rasulov tomonidan badiiy asarlarga hos stilistik vosita sifatida baholangan. Shaxsi umumlashgan gaplarda esa shaxsi noaniq gaplardan farqli o'laroq ish-harakat mazmunan hammaga, umunga qaratiladi va ular asosan maqol ko'rinishida bo'lib, ko'proq advokatlar nutqidagi ta'sirchanlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun advokatlar himoya nutqlarida xalq maqollari, hadislar namunalari uchraydi [8]: Xalqimizning "Tuzsiz xamir tandirda turmaydi" yoki "Soyani hargiz qilich bilan chopsang ham, tuproqqa ko'mib bo'lmaydi" degan dono naqlari bor (O'AHN, 108-b).

-Tahlil va natijalar. Shubhasiz, yuridik nutqning o'ziga hos jihatlaridan biri shaxssizlikdir, ya'ni yuristlar nutqida majhul nisbat formasi ifodalangan shaxssiz gaplar faol qo'llaniladi. Odatda o'zbek yuridik diskursida shaxssiz gaplardan quyidagicha foydalaniladi:

Aniqlik, buyruq mayli va majhul darajadagi fe'llar bilan: Jinoyat ishlari bo'yicha Chilonzor tuman sudining 2015-yil 20-apreldagi ajrimi bilan V. Bozorov "Davri" MCHJ ning bosh hisobchisi lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi majburlor chorasini qo'llash rad etilgan (Jinoyat ishlari bo'yicha sud hujjatlari, 115-b); Komission sud-tibbiy ekspertizasining 00.00.0000 yildagi 47-K-sonli xulosasida aniqlangan skelet suyaklari D.X ga tegishli ekanligi ko'rsatilgan (Ayblov nutqidagi); Sudlanuvchi Jo'ramurodov Shohjahon Saitmurot o'g'li O'zbekiston Respublikasi JK 295-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni qasddan sodir qilganlikda aybdor deb topilsin (Jinoyat ishlari bo'yicha Kitob tumani sudi raisi A.X. Kuramatov hukmi).

Harakat nomlariga kerak, lozim, darkor, mumkin, mumkin emas so'zlarining qo'shilishi bilan: Himoyachi: Jabrlanuvchining advokati guvohning advokati bo'lishi mumkin emas (F. Hushvaqto'v ishi); Ushbu holatning o'zidan ham kim haqiqatni gapirayotganligini tushunib yetish mumkin (O'AHN, 89-b); Bunday tajovuzni to'xtatish maqsadida pichoq bilan yetkazilgan jarohatni ehtiyotsizlik oqibatida sodir bo'lgan, deyishning o'zi mantiqsizdir. Shuning uchun, bu qaror sud hay'ati tomonidan bekor qilinmog'i lozim (O'AHN, 43-b).

Ma'lumki, (a) tipdagi konstruksiyalar ingliz yuridik diskursida ham anchagina: Defense attorney: The people interviewed included 450 children and 150 adults. Also, 49 photo lineups were prepared, bank account records were seized and examined. Eighty-two locations were photographed; one church was investigated. Three churches were implicated, two food markets, two car washes, two airports, and one national park. Thousands of pornographic photographs and movies, confiscated by police, were examined in a search for pictures of the McMartin children. (McMartin Preschool Abuse Trial); Witness: I do want to say that and I know this is that I was there when Taylor came into this world and I'm here today and I just want you to know that our family has lost so much. Taylor was taken too early and she was not taken through an act of God or through illness. She was taken through human behavior that was very cruel and I could go on but it's just such a tragic story but I wanted to thank you and I'm glad that we came to this decision today (Ashley McArthur Trial).

Mazkur nutqlarda keltirilgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarda Past Simple Passive Voice (was/were + Past Participle) shakli keng qo'llanilgan. Shunday bo'lsa-da, ingliz yuridik diskursida nutqning aniqlik, informativlik va jonliligini ta'minlashda majhul nisbatga

qaraganda aniq nisbatning ishlatilishi maqsadga muvofiq sanaladi [10].

Bosh bo'lak, yetakchi so'z, infinitiv bilan ifodalangan gaplar o'rganilgan nutq turlaridan qisman advokat nutqida qonun yoki qarorlardan namuna tarzida keltiriladi: Chunonchi, JK ning 103-moddada 1-qismida: "Moddiy tomonidan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lmagan shaxsga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha'ni va qadru qimmatini muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o'zini-o'zi o'ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish" bilan bog'liq jinoiy xatti-harakatni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan (O'AHN, 93-b); Advokat: "“Olot baraka teks” Su MCHJ Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 27.04.2007 yildagi PK 630-sonli qaroriga asosan butunlay tugatish, davlat reestridan chiqargan holda xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risidagi ma'lumotni tuman statistika bo'limi, tuman DSI, tuman IIB, tuman Bandlikka ko'maklashish markazi, tijorat banklarning ma'lumotlar bazasidan chiqarish uchun xabardor qilish" belgilangan (U. Turdimatov ishi).

Lekin, ingliz yuridik diskursida bu turdagi gaplar juda kam holatlarda uchraydi: Now, to talk to the non-inconsistent piece, here, I think the inconsistency is pretty glaring (Parker Drilling Management Services, Ltd. v. Brian Newton).

Biror bir narsa yoki predmetlarning hozirgi zamonda mavjudligini tasdiq yo'li bilan ko'rsatadigan nominativ gaplar esa o'zbek yuridik diskursida kuzatilmadi. Ingliz yuridik diskursida esa bunday gaplar ba'zan advokat nutqi ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi: Defense attorney: Zero. It just will not happen. It's also the number of times you will hear anyone over at this table say she is to blame for what happened to her. Zero. It is not her fault and I want to make that perfectly clear today and I submit to you by the time this trial is all said and done and you have heard all the evidence in this case (Nathaniel Rowland Trial); Defense attorney: What you would expect to find in the wig shop would be the killer's fingerprints. Fingerprints were not found in the wig store. There are unknown fingerprints. Unknown fingerprints. Unknown palmprints. (Goldberg v. State).

Maxsus ohang bilan talaffuz qilinib, bir yoki bir turdagi so'zdan iborat bo'lgan, turli his-tuyg'ular ifodalayotgan fikrga turli munosabat bildiruvchi so'z-gaplar (semantik-funksional shakllangan gaplar) o'rganilayotgan ikkala diskursning ham asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. Ayniqsa, yuridik diskurs turlaridan biri hisoblangan sud diskursida bunday holat juda ko'p kuzatiladi, chunki ushbu diskursdagi tergov va surishtiruv jarayonlari dialog ko'rinishida namoyon bo'lib, so'z-gaplarning ko'proq qo'llanilishini taqazo etadi. Shunday qilib, kuzatilayotgan diskurslarda so'z-gaplarni quydagicha tahlil qilish mumkin:

Tasdiq bildiruvchi so'z-gaplar:

Himoyachi: Mana siz raislik qiluvchining qanday bozor degan savoliga buyum bozori deb aytdingiz, shu javobingizni tasdiqlaysizmi?

Guvoh: Ha, albatta (Otabek Sattoriy ishi);

Prosecutor: Did he still have the shotgun with him when he chased her out of the house?

Witness: Yes (Ronnie Oneal Trial)

Inkor so'z gaplar:

Sudya: Tushunarli, demak, ko'rsatuvlarini tasdiqlamaysiz, shundaymi?

Yo'ldosheva: yo'q-yo'q (G. Yo'ldosheva ishi);

Prosecutor: After that time in 2010, were you able to see Imani very often?

Witness: No (Tiffany Moss Trial).

Salomlashish, xayrlashish, tashakkur, kechirim, taklif kabi ma'nolarni ifodalovchi his-tuyg'u so'z-gaplar:

Guvoh: Assalomu alaykum!

Sudya: Vaalaykum assalom. Ism-sharifingiz? (F. Hushvaqov ishi);

Sud kotibi: Sudlanuvchi va uning himoyachisi, tuman prokurori yordamchisi, guvohlar Lapasov, To'rayevlar keldi.

Sudya: Rahmat! Marhamat, guvohlar o'ringizdan turishingizni so'rayman. Sizlarni so'roq qilmagunimizga qadar sud majlisi zalida bo'lishingiz mumkin bo'lmaganligi uchun hozirda sud zalidan chiqib turasiz keyin chaqirib so'roq qilaman. Marhamat! (Ch. Normo'minov ishi);

Mr. Justice Forbes: Or to your instructing solicitor. I will give whatever assistance is required.

Mr. Wright: Thank you (The Shipman Inquiry);

Clerk: All rise!

Legal Advisor (magistrate court): Good morning, your worships! Your worships, the first case on your list this morning is number two - one Reichenbach limited.

Legal Advisor: Sorry, just whilst we're here you keep saying "We". If you could just restrict yourself to your evidence, please? I'm sure we'll hear from your colleague in due course and lastly officer there's a lot of jargons. I'm not entirely sure what you're talking about. So if you could just restrict the use of jargon please? Sorry, Mr. Lestrade (<https://www.youtube.com/watch?v=QF46W6LvHY4>).

Bundan tashqari, egasi ifodalalmagan buyruq maylidagi gaplar ham ingliz tili grammatik o'quv adabiyotlarida bir sostavli gaplar deya talqin qilinib, ingliz yuridik diskursida ko'plab bunday gaplarga duch kelish mumkin:

General Francisco: They told him that....

Justice Kagan: Please finish (Case 18-966, the Department of Commerce versus New York);

Justice Sotomayor: No, no, go ahead.

Mr. Feigin: If I could reserve the balance of my time (Case 18-431, United States versus Davis).

Xulosa va takliflar: Shunday qilib, ish bo'yicha struktural tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek yuridik diskursida sodda yoyiq uyushiq bo'lakli gaplar; bir sostavli gaplarning tarkibiy qismlari hisoblanuvchi shaxssiz gaplar va so'z-gaplar; to'liq va to'liqsiz bo'lgan ikki sostavli gaplar faoldir. Shuningdek, ingliz yuridik diskursida bir tarkibli imperativ va nominativ gaplar ham ko'p qo'llaniladi. Infinitiv gaplar esa miqdoran kam bo'lsa-da, kuzatilayotgan ikkala diskursda ham ishlatilishi aniqlangan.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis). -Toshkent: "O'qituvchi", 1996. -B. 10.
2. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili. Filol.fan.nomz.diss. - Toshkent, 1995. -B.91.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. -Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1966. -B. 167-168.
4. G'ulomov A.G'.. Sodda gap. Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar. -Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1955. - B. 89-90.
5. O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis. -Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1976. -B. 184.
6. V. Kaushanskaya and others. A Grammar of the English Language. L., 1971. -P. 268.
7. Krilova I.& Gordon Y.A. Grammar of Present-Day English. -M., 2003.
8. Mo'yidinov Q.A. O'zbek tili sud nutqi leksikasi. Filol.fan. nomz...dis. - Toshkent, 2019. -B. 123-124.
9. Iriskulov A. Theoretical Grammar of English. -Tashkent, 2006. -P. 48.



Bibish JO'RAYEVA,
BuxDU filologiya fanlari doktori
Marjona JUMAYEVA,
Buxoro davlat universiteti magistranti
E-mail:jumayeva7@mail.ru

BuxDU f.f.doktori, professor Y.S.Saidov taqrizi asosida

THEORETICAL STUDY OF LINGUOCULTUROLOGY

Abstract

The article describes the stages of formation of the field of linguoculturology, the scientists who theoretically completed this field of science, the work done in the field of linguoculturology during the years of independence.

Keywords: linguoculturology, lingvokulturrema, culture, phenomenon, anthropocentric linguistics, linguoculturological analysis, polysemous metaphor.

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Аннотация

В статье описаны этапы становления области лингвокультурологии, ученых, теоретически завершивших эту область науки, работу, проделанную в области лингвокультурологии за годы независимости.

Ключевые слова: лингвокультурология, лингвокультурема, культура, феномен, антропоцентрическая лингвистика, лингвокультурологический анализ, многозначная метафора

LINGVOKULTUROLOGIYANING NAZARIY TADQIQI

Аннотация

Maqolada lingvokulturologiya sohaning shakllanish bosqichlari, bu fan sohasini nazariy jihatdan to'ldirgan olimlar, istiqol yillarida lingvokulturologiya sohasida qilingan ishlar haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, lingvokulturrema, madaniyat, fenomen, antroposentrik tilshunoslik, lingvokulturologik tahlil, polisemiya metafora.

Kirish. O'tgan asrdan boshlab til va inson munosabati-ga, mohiyatni anglashda so'zlovchi omilini birlamchi mavqega ko'tarish masalasiga urg'u berila boshlandi."Antroposentrik tilshunoslik" bag'riidan turli yo'nalishlar o'sib chiqdi. XX asrning 90-yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi – lingvokulturologiya shakllandi.Olimlar fanning ildizlarini, dastlabki tadqiqotchini V.fon Gumbold [23] nomi bilan bog'lashadi. Rus olimlari V.Babayeva[4], V.Maslova[10], ingliz olimi L.E. Vilms [19], N.F.Alefirenko [1, 2, 3]larning ishlarida til madaniyat fenomeni asosida tadqiq qilingan. Qayd etilgan ishlarda lingvokulturologiyaning tadqiqot usullari, shakllanish bosqichlari, madaniyatning inson tafakkuri bilan munosabati, konsept tushunchasi, uning tushuncha bilan farqli va o'xshash jihatlari yoritilgan. Rus olimi V.Maslova lingvokulturologiyaning shakllanishini 3 bosqichga bo'lib o'rganadi[10]. V.N. Teliya esa lingvokulturologiyaning sotsiolingvistika va etnolingvistika bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab, bu sohani etnolingvistikaning bir qismi deya qayd etadi[15].

– **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** O'zbek tilshunosligida ham bu sohada qator ishlar amalga oshirilmoqda. Til va madaniyatning o'zaro mushtarakligi, tilga madaniyatning fenomeni sifatida qaralgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", "O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli", D.Xudoyberganovning "Matnning antroposentrik tadqiqi" nomli monografiyasi, Sh.Usmonovanning "Lingvokulturologiya" nomli darsligini, Sh. Maxmaraimovanning "O'zbek tili metaforalarning antroposentrik tadqiqi" nomli doktorlik dissertatsiyasini, B.Jo'rayevanning "O'zbek xalq maqollari shakllanishining

lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasini", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini keltirish mumkin.

–**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab" nomli maqolasida antroposentrik tilshunoslik, lingvokulturologiya, lingvokulturologiyaning oldida turgan vazifalari va muammoari haqida fikr yuritilgan [9]. Olimning "O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli" nomli maqolasida esa o'zbek tilidagi o'xshatishlarning "milliy obrazi tafakkur tarzini namoyon etadigan birliklar" sifatida ta'riflanadi va ularning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratadi [8].

D.Xudoyberganova lingvokulturrema o'xshatishlar asosida ham yuzaga kelishini ta'kidlab quyidagi fikrni bildiradi: "Lingvokulturologiyada metaforalar tilning asosiy lingvomadaniy birliklari hisoblangan maqollar, iboralar, o'xshatishlar bilan bir o'ringa qo'yiladi. Olima ishda presedent birliklarni presedent birliklar, presedent nomlar, presedent matnlar kabi turlarga ajratadi [22].

Sh.Maxmaraimovanning "O'zbek tili metaforalarning antroposentrik tadqiqi" nomli doktorlik dissertatsiyasida ham metaforalarning falsafiy, mantiqiy, psixologik, lingvistik turlari haqida fikr yuritiladi."Metaforaning ontologik va oriensatsion turlari inson tushunchaviy tizimini tashkil etuvchi tushunchalarga tayanadi.Metaforik ifodaning o'zi esa shaxsiy mazmun, so'zlovchi intensiyasidan darak beradi".Olima ishda lingvokulturologiyada metaforalarning o'rni beqiyosligini ta'kidlab o'tadi [11].

Lingvokulturremalar bevosita matnda yanada oydinlashadi. Z.I.Saliyevanning nomzodlik ishida o'zbek va

fransuz tilidagi axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlar milliy-madaniy xususiyatdan kelib chiqib tahlil qilingan. Tadqiqotchi ishda madaniylikni tashiydigan so'zlar asosida ikki tilning lingvokulturologik xususiyatini chog'ishtiradi, o'zbek va fransuz tilidagi matnlar tahlilida nafaqat etnik, balki diniy tushunchalarning ham ahamiyatli ekanligini ta'kidlab o'tadi [13].

Lingvokulturologiyaning maqsad va vazifalari, obyekti, oldiga qo'ygan vazifalari yoritilgan "Lingvokulturologiya" nomli darslik Sh.Usmonovning lingvokulturologiya sohasida qilgan yana bir tadqiqotidir. Olima ishda o'zidan oldin sohaga oid aytilgan fikrlarni yig'ib ular haqida mufassal ma'lumot beradivalakuna hamda uni bartaraf etish yo'llari, turli lingvomadaniyatlardagi ramzlar va stereotiplar qiyosi haqida bayon etadi. [18].

– **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Til – serqirra. Tadqiqot yo'llari, tahlil usullari, metodlar xilma-xil. OLIMLAR tomonidan lingvokulturologiya ham turli aspektlarda o'rganilgan va tadqiq qilingan. Shunga ko'ra bu sohada qilingan ishlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin.

Lingvokulturologiyaning metafora asosida o'rganish.

Lingvokulturologiyaning konseptual o'rganish.

Dastlabki usulda tadqiq etilgan ishlar markazida metafora o'zida milliy mohiyatni aks ettirishi bilan lingvomadaniy ahamiyatga ega ekanligi, borliqni inson tafakkuri, ma'naviyati va madaniyati bilan bobasta aks ettirish haqidagi tushunchalar turadi.

D.Xudoyberganovning "O'zbek tili badiiy matnlarning antroposentrik talqini" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi matnlarning yaratilishi va uning mazmuniy persepsiyasiga xos xususiyatlar kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan, lingvomadaniy birliklarning matn yaratishdagi o'rni ochib berilgan. Ishning lingvokulturologiyaga bag'ishlangan bobida metaforalar asosida shakllangan lingvomadaniy birliklar, lingvokulturemalar haqida bayon etilgan [22].

Sh.Maxmaraimovning "O'zbek tili metaforalarning antroposentrik tadqiqi" nomli doktorlik dissertatsiyasida esa metaforalarda nominatsiya masalasi tahlilga tortilgan. Metafora va nom masalasi ilmiy tadqiq obyekti sifatida o'rganilgan. Metaforalar antroposentrik talqinda tekshirilgan, kognitiv va konseptual tahlilda metaforalarning o'rni va ahamiyati, ular orasidagi ziddiyatlar va o'xshash tomonlar xususida fikr yuritilgan [11].

Sh.Usmonovning "Metafora va uning tarjima ifodalanishi" nomli maqolasida o'zbek tilidagi metaforalarning polisemiya munosabati va madaniylik xususiyati tahlil etilgan [17].

Lingvokulturologiyaga oid ishlar orasida konseptual tahlil ham alohida salmoqqa egaligi bilan ahamiyatlidir. N.A. Bagdasarovning tadqiqotida rus va ingliz tilida mavjud inson his-tuyg'ularini ifodalovchi birliklar tahlilga tortilib tadqiqot davomida nafaqat lingvokulturologiya, balki fanning boshqa tarmoqlariga doir fikr-mulohazalar ham bayon etiladi. Fanning shakllanishida boshqa fanlarning va sohalarning o'zaro ta'siri va aloqasi haqida to'xtalib o'tiladi [5].

L.E. Vilms rus va ingliz tillarida ifodalanuvchi "muhabbat" semasining lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etgan. Dissertatsiya 3 bobdan iborat bo'lib, olim dastlabki bobda "muhabbat" terminining lingvistik aspektida

o'rganilishi masalasiga diqqatini qaratadi. Inson mavjud ekan, bu konseptning mavjudligi va barhayotligi haqida fikr bildiradi. Keyingi boblarda rus va ingliz tillarida "muhabbat" termining qanday semalarda reallashuvi, uning ta'lim, san'at, ilmiy jarayonlardagi ahamiyati, xalq maqollarida va etnolingvistikada mavjudligi haqida ma'lumot beriladi [19].

E.V. Babayevaning tadqiqotida "shaxsiy mulkka munosabat" tushunchasining lingvokulturologik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotning dastlabki bobida bu tushunchaning iqtisoddagi ahamiyati, pragmatolingvistika bilan kesishgan o'rinlari haqidagi qarashlar bayon qilingan bo'lsa, ikkinchi bobda rus va nemis xalqlarining ijtimoiy hayotida bu tushunchaning o'rni, lingvokulturologik ahamiyati, bu xalqlarda nominatsiya jarayoni bilan bog'liq jihatlari tilga olingan [4].

S.V. Nikitinaning tadqiqotida rus va ingliz tilidagi materiallar asosida sanoatga oid reklamalar nafaqat lingvokulturologik, balki pragmatolingvistik, kognitiv, ekstralingvistik, struktur va semantik tahlil qilingan. Reklama matnlari lingvistik aspektida o'rganilishi bilan birga 49 xil reklama matni analiz qilingan holda modellashtirilgan [12].

F.O. Smirnovning ingliz va rus tilidagi elektron aloqaning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish. Tadqiqotda elektron aloqaning tushunilishi, internetning kommunikatsiya jarayonidagi o'rni, aloqa jarayonidagi yuqori hissiy holatlar, ingliz va rus tillarida elektron aloqadan foydalanishdagi xususiyatlar bayon qilingan [14].

Manzura Xaytboyevaning "Xarakter-xususiyat asosidagi metaforalarni o'rgatish usullari (o'zbek va ingliz tili materiallari asosida)" nomli ishida metaforalarning bir nechta turlari sanalib, uning xarakter-xususiyat yasashdagi o'rni ochib berilgan [21].

B. Jo'rayevaning "O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasining to'rtinchi bobi "O'zbek xalq maqollarida faol hayvon nomlarining ijtimoiy shartlanganlik ma'nolari"ga bag'ishlanadi. Tadqiqotda hayvon nomlaridagi nutqiy ma'nolarit, ot, qoramol, tuya, qo'y, echki, eshak, parranda, hasharot LMG asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarining ijtimoiy shartlangan ma'nolari ochib berilgan [7].

D. Toshevaning "Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasining ikkinchi bobi to'liq zoonim komponentli maqollarning konseptual tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotda bo'ri, arslon, it, ot, tuya, qushlar nomi ishtirok etgan maqollar konseptual tahlilga tortilgan. O'zbek tafakkurida, ongida yuqorida nomlari sanalgan zoonimlarning qanday shaklda ifoda etilishi, lingvokulturologik semani olgan kulturemaning maqollar tarkibida qanday mazmun anglatilishi ochib berilgan [16].

– **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Bugun antroposentrik tilshunoslik bag'rida shakllangan lingvokulturologiya sohasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar va shu kunlarda mavzuga doir tadqiqotlar olib borayotgan tilshunoslarning mehnatlari evaziga fanning yutuqlari yangilanmoqda. Zero, til va madaniyat mushtarakligini o'rganish, tadqiq qilish ota-bobolarimiz aytmoqchi bo'lgan fikrlarni yaxshiroq uqishga va til imkoniyatlarni kengroq tushinishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Alefirenko N.F. Linguocultural nature of mentality // Язык. Словесность. Культура. 1/2010. -224.
2. Alefirenko N.F. The cognitive base of lingvosemantics. Praesens Verlag, Wien (Austria). 2005. – P. 395.
3. Alefirenko, N.F. The synergetics of lingvokulturology as a methodical problem. Bratislava. 2005. – P. 310.

4. Бабаева Е.В. Культурно-языковые характеристики отношения к собственности (на материале немецкого и русского языков) Волгоград, Ленина, 1997.-125б.
5. Багдасарова Н.А. Соотношение вербализованных эмоций в русском и английском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. М.: Теория языка, 2004.- 182 с.
6. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1984. -400 б.
7. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. - Т.: Академнашр, 2019. - 221 б.
8. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар - образли тафаккур маҳсули// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2011. № 3. Б-4
9. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йулларини излаб//Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. № 5.Б. 3-16.
10. Маслова В.А. Введения в лингвокультурология. - М.:Наследие, 1992.-208с.
11. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларнинг антропоцентрик тадқиқи. Самарқанд -2020, 82-б.
12. Никитина С.В. Национальная специфика текста промышленной рекламы (на материале русскоязычных и англоязычных периодических изданий по вычислительной технике): Дисс. ... канд. филол. наук. Воронеж, Ленина, 1998.-173 с.
13. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально - культурная специфика предложения в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Т.; 2010.–366 б.
14. Смирнов Ф.О. Национально-культурные особенности электронной коммуникации на английском и русском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. Ярославль, 2004. - 206 с.
15. Телия Н.В. Дипы языковых значений. Связанное значение слова в языке.-М.: Наука, 1981. -286с
16. Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари. – Т.: Фан, 2018. -130 б.
17. Усмонова Ш. Метафора ва унинг таржимада ифодаланиши //Таржима масалалари. Илмий мақолалар тўплами. 3-кисм. –Т.; 2015. –Б. 14-20.
18. Усмонова Ш. Лингвокультурология. Дарслик. – Тошкент: Университет, 2014. -224б.
19. Вильмс Л.Е. Лингвокультурологическая специфика понятия “любовь” (на материале немецкого и русского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. Волгоград: Мир науки. 1997.-140б.
20. Воробьев В.В. Лингвокультурология: (теория и методы). Монография. – М.: Изд-во РУДН, 2008. -240с.
21. Хайтбойева М. Хarakter-xususiyat asosidagi metaforalarni o'rgatish usullari. Bitiruv ishi. – Toshkent, 2018. -66 б.
22. Худайберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. - Тошкент: Фан. 2013. – 136 б.
23. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. - М.: Прогресс, 1985. -120б.



Gulnoza JURAYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti
E-mail: axmatovnagulnoza@gmail.com

F.f.d., professor Q.Qahramonov taqrizi asosida

EXPRESSION OF NATIONAL-CULTURAL AND SOCIAL-EDUCATIONAL EXPERIENCES IN CHILDREN'S HUMOUR

Abstract

The article discusses the role of children's literature in Uzbek literature and the role of humour in literature. Of course, when we say humorous poetry, we don't mean light poetry that makes people laugh. Especially if it is written for children, the humour will have certain tasks. The stigma attached to the concepts of children's literature and children's reading in recent years may also be due to the fact that these tasks have not been fulfilled.

Key words: children's literature, humour, satire, humor, literary criticism, lyrical hero, formal research, semantic research, image, humorous character.

ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО И СОЦИАЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ОПЫТА В ДЕТСКОЙ ЮМОР

Аннотация

В статье рассматривается роль детской литературы в узбекской литературе и роль юмор в литературе. Конечно, когда мы говорим юмористические стихи, мы не имеем в виду легкую поэзию, которая заставляет людей смеяться. Особенно, если она написана для детей, у юмор будут определенные задания. Стигма, которой в последние годы подвергаются концепции детской литературы и детского чтения, может быть также связана с тем, что эти задачи не были выполнены.

Ключевые слова: детская литература, сатира, юмор, литературоведение, лирический герой, формальное исследование, смысловое исследование, образ, юмористический персонаж.

BOLALAR HAJVIY SHE'RIYATIDA MILLIY-MADANIY VA IJTIMOY-MA'RIFIY TAJRIBALAR IFODASI

Annotatsiya

Maqolada bolalar adabiyotining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni hamda hajvning adabiyotdagi o‘rni ahamiyati haqida so‘z boradi. Hajviy she‘riyat deyilganda faqat kulgi uyg‘otadigan, insonlarga tabassum ulashadigan yengil she‘riyatni tushunmaslik kerak, albatta. Ayniqsa, u bolalar uchun yozilgan bo‘lsa, hajv zimmasiga ma‘lum vazifalar qo‘yilishi kerak bo‘ladi. Keyingi yillarda bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligi tushunchalariga nisbatan qo‘yilgan “sayoz” lik tamg‘asi ham balki aynan shu vazifalar bajarilmagani sababli bo‘lishi ham mumkin.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, hajviya, satira, yumor, adabiy tanqid, lirik qahramon, shakliy izlanish, mazmuniy izlanish, obraz, hajviy xarakter.

Kirish. Hajviy she‘riyatning vazifalari hajvdan kelib chiqadi. Hajv aslida fojia, u shunday bir tanqidki, o‘sha fojiani davolashga qaratilgan achchiq malham. Hajviy asar tanqidiy va kulgi uyg‘otadigan badiiy asar hisoblanib, mazmuni va shakliga ko‘ra satirik va yumoristik ruhda bo‘ladi[4]. Bolalar uchun yaratilgan badiiy adabiyot namunalarini ham mazmun va shakliga ko‘ra ikkiga bo‘lish mumkin:

satirik ruhda yaratilgan bolalar she‘riyati namunalarini;
yumoristik ruhda yaratilgan bolalar she‘riyati namunalarini.

Satirada ayovsiz tanqid bo‘lgani uchun ham bu bolalar adabiyotida kam uchraydi. Shoir bolalar tarbiyasi, xulqidagi ayrim nuqsonlarni boshqa jismlar, hayvonlarga ko‘chirish orqali yengil kulgi vositasida ularni tanqid qiladi. Aslida, dramatik turga mansub komediya janrining asosida ham tanqid-fojialar ustidan kulish, ularni keskin qoralash yotadi. Lekin buni jamiyat har zamonda ham tushunvermagan, shu sababli ham kulgi vositasi adabiyotdagi eng nozik, shu bilan birga eng o‘tkir va elita qurol hisoblanadi. Bu vositaning mohiyatini katta adabiyotda ham tushunish mushkul, asl mazmun anglanmaydi ko‘p hollarda, bolalarga uning asliyatini yetkazib berish ikki karra murakkab. Chunki bola psixikasi, ruhiyati hali yosh, u ko‘rgan va eshitgan narsasiga ishonadi, kesatq, piching kabi so‘zlashuv vositasidagi tanqidlarni ham yaxshi anglamaydi, iboralar, tasviriy ifodalarning ham bosh

mazmunini so‘zma-so‘z qabul qiladi. Asardagi hajvning bosh mohiyatida kimningdir ustidan kulish emas, balki unga o‘xshab qolmaslik, o‘sha holatni yoki odatni tark etish kerakligi kabi da‘vatlar yotganini to‘la yetkazib bera olish, asar yakunida xulosa tarzida to‘g‘ri hukm berish shoirning mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Aniqki, bu mazmuni ifoda etishda muallif bir qancha tasvir vositalaridan foydalanadi, so‘z o‘yinlari qiladi. Satira va yumorda qo‘llangan tasvir vositalari haqida maktab darsliklarida ham ma‘lumotlar uchraydi. Ammo bolalar adabiyotida va aynan hozirgi bolalar adabiyotida milliy-madaniy va ijtimoiy-ma‘rifiy tajribalar qay darajada degan savollar, tajribalardagi kamchiliklar, shakliy izlanishlar, mazmun yangilanishlari – barcha-barchasi bugungi kunda tadqiq etilishi talab etilayotgan alohida mavzu.

Bugungi kunda bolalar uchun barakali ijod qilib kelayotgan Muazzam Ibrohimova ijodida havj unsurlari, uni ifodalashda qo‘llangan tasvir vositalarida birmuncha shakliy va mazmuniy izlanishlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, shoira ijodida mavzu yangilanishlari ham bor. Masalan, “Quloqsiz quloqcha” nomli she‘rga profilaktik she‘r maqomining berilishi undagi mazmuni aniqroq tushunishga yordam beradi va mazmunan yangiligini isbotlaydi. Qolaversa, shoira ijodida jonlantirish, intoq, sifatlash, mubolag‘a singari tasvir vositalaridan o‘rinli foydalaniladiki, ularning barchasi mazmuni ochib berishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda, ijodkorning badiiy maqsadi tasviriy vositalarning soniga ahamiyat berib, maqsadni unutilib qo'yish bo'lmasligi kerakligini alohida ta'kidlash kerak. Vositalar doim asosga xizmat qilishi kerak, ular birinchi darajali bo'lmaydi. Har bir tasviriy vosita muayyan ma'no-mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. Yuqoridagi she'rda "quloqsiz" so'zi aslida ko'chma ma'nodagi so'z ekanligiga ishorani sarlavha orqali ko'radigan bo'lsak, she'rda quloqsiz quloqchani kichik sarguzashti, uning qo'lga buyrug'i va yakuniy xulosa didaktik xarakterga ega. She'rning mana shu tarbiyaviy ahamiyati bir qancha tasviriy vositalar ko'magida amalga oshgan. Quloqni jonlantirish orqali unga "quloqsiz" deya sifat berilishi bilan she'rning estetik qimmatini oshgan bo'lsa, unga nutq berib, bolalarning tasavvurini kengaytirish, ularning ko'z oldiga voqealarni yaqqol olib kelish mumkin. Bolalardagi vizualizatsiya texnikasi eng tezkor va tafakkurga, tasavvurga bevosita ta'sir qiluvchi mexanizm hisoblanadi. Ijodkor o'zi qo'llagan tasvir vositalari orqali bolalardagi mazkur texnikaga ta'sir o'tkazgan. Vizualizatsiya juda bolalarbop sanaladi, chunki u bolalarning shusiz ham o'ta faol tasavvuridan foydalanadi va uni ijobiy o'zanga yo'naltiradi. Gap imtihon topshirish haqida ketadimi yoki yangi do'st orttirish haqidami – farqi yo'q, bu texnika hayratlanarli natijalar beradi. Bolalarda tasavvur juda kuchli, shu sababli vizualizatsiya g'oyasini ular yengil qabul qiladilar[7]. Bolalar tashqi axborotlarning katta qismini ko'zlari orqali qabul qiladilar. Jonlantirish tasviriy vositasidan she'rda aynan shu maqsadlarda foydalanish mumkin, qolaversa, bolaning o'z tengqurlari misolida emas, ko'chma obrazlar, majoz va ramzlar misolida o'zidagi kamchiliklarni ko'rishi, anglashi didaktik maqsadlarga ham xizmat qiladi. Hajviy asarlarda qo'llangan sifatlash tasviriy vositasi ham qator maqsadlarga xizmat qiladi. Sifatlash bolaning nutqini o'stiradi, so'z boyligini oshiradi, yozma va og'zaki savodxonlikni shakllantiradi. Ayniqsa, yuqorida keltirilgan she'rda qo'llangan "qirchillama qish" singari o'ynoqi sifatlashlar bolalar uchun qiziqarli bo'ladi. Shu o'rinda, shoir qirchillama qish bobo deya "qirchillama", "qish" va "bobo" so'zlarini birgalikda qo'llash orqali qirchillama so'zining turli ma'nolarni bildirishiga ham ishora qilib ketadi. Ya'ni qirchillama va bobo so'zlari yonma-yon kelganda, uslubiy g'alizlikdek tuyulishi mumkin, chunki bunda qirchillama so'zining bosh ma'nosi (Qirchillama: 1 Kuch-quvvatga to'lgan, yetilgan. Qirchillama yigit. Hu, ana oldinroqda yoshi ellikdan oshganiga qaramay, haliyam qirchillama yigitday daroz bo'yini tik tutib, To'lamat mo'ylov ketyapti.

S. Anorboev, Oqsoy. ...qirchillama yoshning besh-o'n yili shunga sarf bo'ldi. M. Qo'shjonov, Diydor)dan biroz siljish bo'lib, bolaga so'zning ikkinchi ma'nosini ham o'rgatadi. Ikki so'zning orasiga tushgan qish so'zi esa "masala"ning boshqa tomonini ochib beradi, ya'ni bolani so'zning navbatdagi ma'nosi bilan tanishtiradi: 2. ko'chma avjiga chiqqan, kuchaygan, qahriga olgan, qattiq (sovuq yoki qish haqida). Shunday qirchillama sovuqda cho'lga kelish zarurmi? Y. Muqimov, Matonatli kishilar. Qirchillama qish pallasi uni qishloqqa olib borish ham qiyin edi. O. Husanov, cho'lda... qish bo'lganda ham qirchillama kunida... tug'ilgan. Sh. Xolmirzaev, Saylanma [10].

Muazzam Ibrohimova ijodida ko'zga tashlanadigan yana bir narsa – ijodkorning so'zga botirligi, u hajviy mavzuda yozadimi yoki didaktik xarakterli she'r bo'lsin, unda neologizmlar, qisman she'rga yot bo'lgan so'zlardan foydalanishga qo'rqmaydi, cho'chimaydi. Shoir so'z mas'uliyatini his qiladi, albatta. Qo'rqmasdan zamonaviy so'zlar, kompyuter sohasiga oid atamalar yoki yuqoridagi she'rda keltirilganidek, Ronaldo, Messi kabi she'r mazmuniga oid so'zlarni qo'llaydi, bular bolalarni qiziqtiradi, o'ziga tortadi. Ijodkorda bayonchilik bor. Ijodida bayon uslubidan foydalangani sabab ham she'rlar biroz cho'zilib ketadi.

Bolalar psixologiyasiga ko'ra, ular tez zerikib qoladilar. Bolalar uchun asar yozayotgan qalam sohibi zimmasida ulkan mas'uliyat bo'ladi. Bolani tabiiylik bilan kuldurish juda qiyin, u soxtalikni darrov sezadi. Lekin undagi hayratni so'zlarda ifodalash uchun she'r ming chig'iriqdan o'tishi kerak bo'ladi.

Demakki, bolalarni tarbiyalashda adabiyotning kuchidan – didaktik qimmatidan foydalanish samarali. Asarning didaktik, ma'rifiy g'oyalar tashishi esa unga ijodkorning qanchalar teran mazmun yuklay olishiga, uning mahoratiga bog'liq bo'ladi. Adabiyotga muhabbatni insonda shakllantirishdagi ilk vosita o'laroq bolalar adabiyotiga e'tibor berish, uning ahamiyatini chuqur anglab yetish bugungi bolalar adabiyotini tadqiq qilishdan boshlanadi.

Shoira ijodida jonlantirish, intoq, sifatlash kabi tasvir vositalaridan keng foydalanadi. Aslida bolalar tasavvurini boyitish, ularning so'z boyligini oshirishda sifatlashlardan foydalanishning ahamiyati nihoyatda katta. Shoira she'rlaridagi jonlantirish asosida bolalarga pand-nasihat qiladi, tarbiyalaydi. Intoq san'ati bilan go'zal estetik she'rlar yaratadi. Sifatlash orqali ma'rifiy g'oyalarga – bolalarga bilim berishga harakat qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Muazzam Ibrohimova asl kasbi shifokor bo'lgani sababli ham uni qiziqtiradigan masala – bolalarning salomatligi masalasi. Shu sabab ham she'rlaridagi obrazlar tishlar, inson tanasining a'zolari va hokazo. Shoir obrazlardan so'z mas'uliyatini his qilgan holda foydalanadi. Yangilikka intiladi, bu yo'lda tajribalar qilishdan tap tortmaydi. Shoira bolalar oldidagi asl vazifalarini teran anglaydi. Ularga nima tortiq qilmoqchi ekanini anglagan holda ishga kirishadi.

Bolalar she'riyati yo'nalishida ijod qiluvchi shoirlar ko'pchilikni tashkil etmaydi. Ayniqsa, yosh ijodkorlar safida ular barmoq bilan sanoqli. Mana shu omil ham bolalar uchun ijod qilish qanchalik mashaqqatli ekanidan dalolat berib turibdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va "Ijod" jamoat fondi tomonidan saralangan yosh ijodkorlarning she'riy, nasriy kitoblari "Birinchi kitobim" ruknida 10–20 ming nusxada chop etib kelinadi. Bir necha yillar davomida chop etilayotgan to'plamlar orasida bolalar she'riyati yo'nalishida atigi 3 ta kitob nashr qilingan: Tursunboy Adashboev muharrirligi ostida Zulfira No'monovanning "Osmonning fanori", Tursunboy Adashboev va Zahro Hasanova muharrirligi bilan Azamat Xudoyberganov, Dilnoza Tillaboevaning "Uyalchang chugalchang" va Dilshod Rajab muharrirligi ostida Naima Anvarova, Mo'tabar Hasanova hamda Mohidil Abdullaevanning "Raqqos yaproqlar" she'riy kitoblaridir. Bugungi davr bolalar she'riyati va bolalar she'riyatining davomi deya e'tirof etilgan ushbu kitoblardagi yuqoridagi maqsadlarga xizmat qiluvchi hajv elementlari, ulardagi shakliy va mazmuniy izlanishlarni tahlilga tortish o'rinli. Zero bugungi bolalar adabiyotining yosh vakillari bolalarga qanday asarlar taqdim etishayotgani, ulardagi obrazlar va shakliy izlanishlar tadqiq etilishi har tomonlama qiziq. Hajviy asarlarda jamiyatdagi illatlarni, yomon xulqli kimsalarning kirdikorlarini yaqqol fosh etish uchun voqealar bo'rttirib ko'rsatiladi, mubolag'a, fantaziya, sifatlash, o'xshatish, qarshilantirish kabi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalaniladi [4]. Ushbu uch to'plamdan joy olgan she'rlarning hajviy xususiyatlari, ulardagi hajviy obrazlarda yangilanish kuzatiladimi kabi savollarga tahlillar orqali javob topish mumkin bo'ladi.

Zulfira No'monovanning "Osmonning fanori" nomli kitobi 2015-yil chop etilgan. Kitobga tanlangan nom bolalarni osmondagi o'ning yana bir xususiyatini bilan tanishtiradi: endi oy osmonning fanori, tunlarni yorituvchi chiroq o'laroq ularning ko'z oldida gavdalanadi. Fanor so'zning mumtoz qo'llanishi ham bolalarga yangicha tasavvurlar beradi. Og'zaki nutqda ularni «fanar» tarzida ishlatuvchi kichikintoylar endi so'zni to'g'ri qo'llay boshlaydilar. Shu nomli va boshqa she'rlarda muallifning shakliy izlanishlari

yaqqol ko'zga tashlanadi. Oddiy, sodda qofiyalarga "boy" bolalar she'riyatidagi muallif qo'llaydigan "shirmoyga – chaygan", "bunchalar – g'unchalab", "davrani – aylanib" singari yangi qofiyalar ana o'sha shakliy izlanishlarning ilk ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Falsafadagi shakl va mazmun birligini inobatga olgan holda mazmuniy yangilanishlarni ham tahlilga tortish va bolalar adabiyotida milliy-madaniy va ijtimoiy-ma'rifiy tajribalar ifodasi bugungi yoshlar ijodida qay darajada ekanligini aniqlash adabiyot uchun muhim masala sanaladi.

To'plamdan o'rin olgan navbatdagi "Yaproqcha" nomli she'r biroz zaifroq. "Aql bovar qilmaydi" birikmasining o'rni almashib, "bovar qilmaydi aql" tarzida qofiya talabi bilan keltiriladi. Yakun puxta emas, anglashilgan mazmunda ham ravonlik yo'q. Ammo g'unchalab – bunchalar singari original qofiyalar kishini quvontiradi. Shoirning hamon izlanishda ekanini eslatib turadi. Odatda, bolalar uchun oson qofiyalardan foydalanib she'r yozadilar. Yo'q, ayni damda bolalar texnika-texnologiya zamonida yashab turib o'rganayotganlari oldida biroz qiyin qofiyalar hech narsa emas. Endi ularga murakkabroq tushunchalarni ham o'rgatish kerak va bu yo'lda adabiyot karvonboshi bo'lishi lozim. Soddarroq, osonroq deya ularni jiddiy asarlarni hazm qila olmaydigan "dangasa" qilib qo'yish also yaramaydi. Shunday ekan, mana shu katta ishlar yosh ijodkorlarning jajji qadamlaridan boshlangani ham ancha durust. Shakliy izlanishlar mazmuniy rivojlanishlarga zamin bo'lishiga umid qilish mumkin.

"Shodlik sasi" she'ri butun she'r. U tonggi go'zal umid kuyi bilan boshlanadi:

Quyosh tongning ostonasida

Umid bilan eshigin qoqar...

("Osmonning fanori", 9)

Derazadan esa oppoq libosli kun jilmayib boqadi, demak, kun, tong bitta uyda yashar ekan-da o'ylay boshlaydi bola. Keyingi paytlarda bolada fantastik, bolalarcha ulkan tasavvurni shakllantirish adabiyotda kam uchraydi, bunga ikkinchi darajali masala sifatida qarash avj oldi. Lekin bola tasavvuri bilan bola, uni boyitish lozim. Qanday? Shu singari she'rlar, ularning tahlillari orqali. She'rdagi quyidagi misralar ham g'oyat ahamiyatli:

Gullar yuzin yuvganda shabnam,

Quyosh ko'rar o'zining aksin.

("Osmonning fanori", 9)

Aslida, shabnamda quyosh butunicha akslanmaydi. Shunday ekan, bu misralar xatomi? Axir, quyosh o'zini mitti shabnamda qanday qilib butunligicha ko'rsin? Yo'q, aksincha, shabnamda quyoshning zarralari, nurlarini ko'rishimiz mumkin. Butunni qism orqali ifodalash, zarrada borliqni ko'rish, tasavvufiy ma'no kasb etadi. Jahonga mashhur va maktab darsliklari orqali tanish bo'lgan "Kichkina shahzoda", "Qutbdagi gunafsha" asarlari yoki jadid bobolarimiz bolalar uchun yozgan "O'quv kitob(i)"dagi hikoyalar katta mazmunni yashirmaganmi? Bolalar adabiyoti aynan mana shunday teranlik kasb etishi kerak emasmi aslida? Ayniqsa, bugun. Bolalarga osonlik, murakkablikni yengishni shakl yordamida ta'minlash mumkin. Ammo mazmun-mohiyat chuqur bo'lishi shart, tagdor va teranligi bilan bolaning yodida qolishi kerak. Bola bugun u she'rlarning mohiyatini anglamas, lekin xotirasiga muhrlangan she'rni keyinchalik, ongi o'sib, boshqa nigoh bilan qaragach, albatta, tushunib yetadi. Yuqorida ham ta'kidlanganidek, bolalar adabiyoti namunalari mumtoz adabiyotga xos xususiyatlar, tasavvufga xos xususiyatlar aks etishi bu juda katta yutuq. Aslida, adabiyot shunday bo'lishi ham kerak, ayniqsa bugun bolalar adabiyoti deyarli fojiga

aylanib qolgan bir paytda. Sababi bugun umumadabiyotda ham bir qancha asar namunalari borki ularda tasavvufiy mazmunni ko'rish mumkin. Shu jihatdan bolalar adabiyotiga ham mana shu xususiyatning kirib kelishi anchayin zafarli qadam bo'ladi. "Shodlik sasi" she'ri tamoman ovoza qurilgan, unda ovoz elementlari ko'p uchraydi: bulbulning sayrashi, yaproqlar shiviri, tongning raqsi... Bu she'rni sarlavha (sas)dan kelib chiqib tahlil qilishga yordam beradi. Sababi she'r tahlilidan uning nomi alohida ahamiyat kasb etadi.

"Qaltis o'yin" she'ri didaktik xarakterda deyish mumkin. She'rda qora bulutlarning tongdan boshlab to'polon qilayotgani tasvirlanadi:

Tongda qora bulutlar

O'ynashar berkinmashoch.

Kalla solib bir-birin

Qilishar burnin pachoq.

(«Osmonning fanori», 15)

Jonlantirish Zulfira ijodida yetakchi o'rin tutadi, qolaversa, u majozdan ham unumli foydalanadi. Ya'ni uning yozganlarida masalga xos xususiyatlar aks etadi. Ma'lumki, masal – majoziy xarakterga ega bo'lib, nasriy yoki she'riy shaklda yoziladi. Uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa-buyumlardan iborat. Bular ramziy-majoziy ma'noda qo'llanib, insonlar fe'l-atvoridagi turli xususiyatlarga ishora tarzida keladi. Masalning asosiy xususiyati shundaki, u to'liq ma'noda tarbiyaviy maqsadga yo'naltiriladi [3].

Zulfiraning she'rlari majoziy-ramziy xarakterga ega ekani va ularning aksariyati tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani uchun ham uni masalga yaqin deb aytish mumkin. U yozgan she'rlarda qahramonlar asosan bolalar emas, balki tabiat hodisalari, atrofdagi yaproqlar, daraxtlar, narsa-buyumlar, mana shu xususiyati bilan uni "tabiat kuychisi" desa bo'ladi. She'r davomida qaltis o'yin tabiat hodisalariga ko'chib boradi.

"Kungaboqar" nomli she'rda bolalar havas qilish kerakligini o'rganishadi. Emishki, kungaboqarga "o'zlari marjon tishli bo'lsa ham jo'xorilar havas qilishar ekan". Hatto ularning ko'ngli uzun sochli bo'lsalar ham to'lmayotgan emish. Havas qilishning chegarasi bo'lmaydi, insonda go'zallikka, yaxshilikka ehtiyoj bor va uni qondirishda havas muhim o'rin tutadi. Yaxshi tasvir, ammo birinchi band tahriralab, kungaboqarga qarata "yo'q sira kam-u ko'sting" deyish tushunarsiz. Kam-u ko'stlariga qaramay, bolalar adabiyotiga yangi bir sahifa ochishga intilayotgan ushbu ijod namunalari tahlilga tortilishi, bolalar "iste'moli" ga arzilimi yoki yo'qligi keng muhokama qilinishi kerak, albatta.

Zulfira No'monova ijodida hajviy she'rlar kam. Muallif ko'proq bolalar xayoloti bilan ishlaydi. Ko'p o'ynoqlik qilmaydi, bolalarga nimadir o'rgatishga harakat qiladi. Tabiat tasvirlari bilan she'rlarini, bolalar tasavvurini ham boyitadi. Ularning tasavvur sarhadlarini kengaytirishga urinadi. Uning she'rlaridagi qahramonlar: yaproqlar, chaqmoq, bulutlar, yomg'ir, bolalar, ba'zan narsa-buyumlar. Ijod namunalari asosan jonlantirish, o'xshatish, intoq, sifatlash kabi she'riy san'atlardan foydalanadi. Hajviy she'rlarining aksariyati didaktik xarakterga ega. Zulfiraning ijodidagi ayrim shakliy va mazmuniy izlanishlarni keltirib o'tdik. Bolalar adabiyoti mazmun yangilanishiga muhtoj. Bunga Zulfiraning ijodi ham misol bo'la oladi. Mavzular tor, keng ko'lamlil emas. Yuqorida "Tush" mavzusida keltirilgan bo'lsa, osmonning eshigi ochilishi, qishda derazaga rasm yoki dastxat chizilish holati ko'plab ijodkorlar ijodida uchraydigan tasvirlar. Shakliy izlanishlarga kelsak, ular mazmunga ta'sir etmasligi, ya'ni salbiy ta'sir etmasligi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаева Р. Эртақлар устида ишлаш. – Т.: Тил ва адабиёт таълими. 2009.
2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. II том. – Тошкент: Фан, 1979.

3. Адашбоев Т., Ражабов Д. Сатрлардан таралган меҳр. – Тошкент. “Турон замон зиё”. 2017.
4. Аҳмедов С., Қосимов Б., Қўчқоров Р., Ризаев Ш. Адабиёт. Умумий ўрта таълим мактабларининг 5-синфи учун дарслик. II қисм. Тошкент: – Шарқ, 2015.
5. Аҳмедов С., Қўчқоров Р., Ризаев Ш. Адабиёт. Умумий ўрта таълим мактабларининг 6-синфи учун дарслик-мажмуа. –Тошкент: Маънавият, 2017.
6. Баракаев Р. Абдулла Авлониё ва ўзбек болалар адабиёти. — Тошкент: Фан, 2004.
7. Кехо J., Fisher N. Ong qudrati – bolalar xizmatida. – Toshkent: Davr Press, 2017, –B. 38–39.
8. Q.Mamiraliyev. Some reviews on the mutation of genres in Uzbek poetry. International journal for innovative engineering and management research. ISSN 2456 – 5083. Vol 10 Issue03, Feb2021. www.ijiemr.org
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, –B. 301–302.



Камола ЗИЯЕВА,

Анджон авлат университети ўқитувчиси

Email: kzziyayeva@mail.ru

Анджон давлат университети доценти Ф.Хасанова тақризи асосида

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK JOKES

Annotation

Today, the consistent study and understanding of humor as a linguistic reality plays an important role in the field of cultural linguistics. Humor is a prerequisite for communication, but it is not sufficiently described. This article expresses necessities of researching English and Uzbek jokes from point of linguacultural view, due to intercultural competences and problems with understanding the meaning of jokes during the conversations

Keywords: jokes, linguocultural analysis, word games, ethnic jokes, sarcastic jokes, alogisms.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ШУТКОВ

Аннотация

Сегодня последовательное изучение и понимание юмора как языковой реальности играет важную роль в области лингвокультурологии. Юмор - необходимое условие общения, но он недостаточно описан. В данной статье выражается необходимость исследования шуток на английском и узбекском языках с точки зрения лингвокультурологии из-за межкультурных компетенций и проблем с пониманием смысла шуток во время разговоров.

Ключевые слова: анекдоты, лингвокультурный анализ, словесные игры, этнические анекдоты, саркастические анекдоты, алогизмы.

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ҲАЗИЛЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАҲЛИЛИ

Аннотация

Бугунги кунда ҳазилни лингвистик воқелик сифатида изчил тадқиқ қилиш ва англаш лингвокультурология кесимида муҳим ўрин эгалламоқда. Ҳазил бу – мулоқотнинг зарурий шарты, бироқ у етарли даражада тавсиф қилинмаган. Шу боисдан, ушбу мақола инглиз ва ўзбек тилларида маданиятлараро мулоқот ва суҳбатлар жараёнида ҳазилларни тушуниш билан юзага келадиган муаммолар сабабли, лингвомаданий нуқтаи назардан тадқиқ қилиш заруриятини ёритади.

Калит сўзлар: ҳазиллар, лингвомаданий таҳлил, сўз ўйинлари, этник ҳазиллар, кинояли ҳазиллар, алогизмлар.

Кириш. Ҳозирги кунимизда мамлакатимиз тараққиёти йўлида хорижий давлатлар билан алоқалар ўрнатилиши, турли ҳамкорликларнинг амалга оширилиши, барча соҳалардаги алоқалар, ижтимоий тармоқларда халқаро сўзлашувлар тилшунослар зиммасига улкан масъулият юклайди. Шу сабабдан ҳам давлатимиз раҳбари томонидан таълим соҳасига улкан эътибор қаратилмоқда. Республикаимизда фаолият олиб бораётган барча таълим муассасаларининг ривожланиши ва жаҳон талабларига жавоб бериши йўлида ислохотлар амалга оширилмоқда. Ҳурматли Президентимиз таъкидлаганларидек: Ҳаммамизга аёнки, тараққиётнинг тамал тоши ҳам, мамлакатни қудратли, миллатни буюк қиладиган куч ҳам бу – илм-фан, таълим ва тарбиядир. Эртанги кунимиз, Ватанимизнинг ёруғ истиқболи, биринчи навбатда, таълим тизими ва фарзандларимизга бераётган тарбиямиз билан чамбарчас боғлиқ.

Шу жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномалари ва 2017 йил 7 февраль кунини Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони, «Ёшларга оид Давлат дастури», янги таҳрирдаги «Таълим тўғрисида»ги Қонуни, Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 октябрдаги «Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида»ги ЎРҚ-576-сонли қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги «Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-6097-сон

Фармонлари илм-фанни ривожлантиришга қўйилган муҳим қадамдир.

Кундалик мулоқотнинг кўплаб қирралари нафақат тарихда, балки бугунги кунда ҳам чуқур ўрганиб келинади. Маълумки, дунёдаги барча тиллар тўхтовсиз равишда янгиланиб ва сайқалланиб боради. Янги технологияларнинг яратилиши, улар билан боғлиқ сўзлар ва ҳаракатлар, фақат бир тилга эмас, балки бошқа тилларга ҳам таъсир этади. Айниқса, интернетнинг ривожланиши ва халқаро мулоқотлар тилларнинг бир-бирига таъсирини орттирди. Ижтимоий тармоқдаги турли мулоқотлар юқоридаги билдирилган фикрларнинг яққол далилидир. Бугунги кунда ҳазилни лингвистик воқелик сифатида изчил тадқиқ қилиш ва англаш лингвокультурология кесимида муҳим ўрин эгалламоқда. Ҳазил бу – мулоқотнинг зарурий шарты, бироқ у етарли даражада тавсиф қилинмаган. Ҳазилнинг турли дискурсларда кўриб чиқилишига қарамай, унинг лингвомаданий аҳамияти, мулоқотда қўлланилиши замонавий тилшуносликда тўла ўрганилмаган. Тилшунослик назарияси каби, маданиятлараро мулоқотда ҳам ҳазилларни тушунмаслик оқибатида юзага келадиган суҳбатдаги англашилмовчиликлар ечими долзарб бўлиб қолмоқда. Ҳеч кимга сир эмаски, ҳар бир халқ ва миллатнинг ўзига хос бўлган иборалари, жумлалари ва албатта, фақатгина ўша миллат тушунадиган ҳазиллари мавжуд. Бир тилнинг бошқа тилга таржимаси, унда сўз таржимасигина бўлиб қолмай, балки маъно таржимаси, яъни ҳазил мазмунини ўзгартирмай ўз маъносида сақлаб қолиш муаммоларини тилшуносликда кўриб чиқилишини

ва самарали усуллардан фойдаланган холда ечим излашни тақозо этади.

Дунё миқёсида кенг тарқалаётган инглиз тили тилшунослар томонидан тинимсиз ва турли соҳаларда таҳлил ва тадқиқ қилинаётганига қарамай, унинг хали ўрганилмаган қирралари талайгина. Инглиз ва ўзбек тиллари орасида нафақат фонетик ёки грамматик фарқлар мавжуд, булардан ташқари маданиятлардаги тафовутлар суҳбат жараёнига бевосита таъсир этади.

Инглиз тилининг тарқалиши, шу тилнинг эгаси бўлмиш халқнинг бетақдор хазилларини ҳам дунёга ёйди. Бу эса инглиз халқининг маданияти ва руҳиятини англашга ёрдам берди. Ваҳоланки, бу хазиллар турли маданиятлар соҳиблари бўлмиш бошқа миллатлар томонидан ўз маъносидаги каби баҳоланавермайди. Инглиз халқи қанчалар жиддий бўлмасин, уларнинг ҳаётга нисбатан ҳазиломуз қарашлари сезиларли даражада юқори. Бу ҳақда немис ёзувчиси Жан Пол шундай ёзади: “Жиддий халқнинг ҳазилга бўлган кучли ва таъсирли иштиёқи мавжуд” [1].

Инглиз миллати унинг жиддий кўринишидан хулоса чиқарган холда хазилни тушунмасликда гумонланишни ўзига нисбатан ҳақорат деб ҳисоблайди.

“Бошқа миллатлар таъсирчан ва заиф, инглизлар эса кўп нарсани ҳазил ўрнида қабул қилади ва уларни фақатгина ҳазилдан йироқ деб ҳисоблаш чинакамига ҳафа қилади” деб ўз фикрларини билдиради инглиз юморист-ёзувчиси Ж. Микеш[2].

Шу сабабдан ҳам уларни англаш инглиз тилини тўлиқ ўзлаштирмаган одам учун бир қанча қийинчиликларни туғдиради.

Инглиз хазиллари турли сўз ўйинлари, кўп маъноли сўзлар иштирокидаги хазиллар ва паронимлар, яъни бир ҳарф ёки товуш билан фарқ қилувчи сўзлар ишлатилиши натижасида ҳосил бўладиган хазилларни ўз ичига олади. Масалан:

Help! We are sinking.

What are you thinking about?

Юқоридаги жумлада “sinking” сўзи “thinking” сўзи билан адаштириш натижасида ҳазил ҳосил бўлмоқда.

Инглиз тилидаги адабиётларни таржима қилиш ва уни маъносига ўзгартириш қиритмаган холда воқеликни борича ўқувчига етказиб бера олиш тилшунос ёки таржимондан улкан маҳорат талаб қилади. “Ўзга тилдаги хазилларни англаб етиш миллатнинг феъл-атвори билан узвий боғлиқ” [3].

Инглиз хазилларининг ўзига хос жиҳатларидан яна бири шуки, улар ҳатто ўз камчиликлари ва ҳатолари устидан ҳам куладилар. Шунга ўхшаш мисоллардан бири Елизаветта II нинг АҚШ га ташрифи давомида содир бўлган. Минбар ва микрофон қироличанинг бўйига нисбатан баланд ўрнатилгани сабаб, конгресс иштирокчиларига унинг фақат бош кийимигина кўринади. Кейинги ташрифда шуни назарда тутиб қиролича ўз нутқини куйидаги сўзлар билан бошлайди.

Dear gentlemen, I hope you can see me now. (Хурматли жаноблар! Умид қиламанки энди мени кўряпсиз)

Ушбу сўзлардан кейин иштирокчилар ҳандон отиб кулдилар [6].

Хазилларнинг кундалик ҳаётда ишлатилгани кенг тарқалган бўлиб унда суҳбатдошлар охириги сўзни ишлатишга ва суҳбатдошини боши берк кўчага қиритишга уринадилар. Бунда хазил қилувчи ва ҳазил қилинаётган одам бу сўзларни қандай қўллаши ва қабул қилиши муҳим[7].

Хазиллар “яхши” ва “қалтис” турларга бўлиниб, яхши хазиллар кайфиятни кўтаради. Масалан:

Лондон метросида кучли сел вақтида йўловчилар оғохлантирилди:

Temple Station is closed because of unprecedented behavior of the passengers. They refused to leave the station because of the rain. (Темпл бекати йўловчиларнинг тартибсиз ҳаракатлари сабаб ёпилди. Чунки улар сел сабаб бекатни тарк этишни рад этдилар)

Қалтис ҳазил бошқаларнинг бахтсизлиги устидан кулади[8]. Масалан:

There are some Ken Bigley Christmas crackers available. They're the same as normal Christmas crackers except you don't get a hat. (Сотувга бир қанча Кен Бигли пакилдоқлари чиқарилган. Улар ҳар доимгидек пакилдоқлар, фақат қалпоқсиз)

Кен Бигли Эронда ишловчи инглиз бўлиб, 2004 йилда асирга олинади, қочибга уринганда тугилади ва боши танидан жудо этилади [4].

Аксарият инглиз хазиллари маълум бир гуруҳларда бирлашади. Улар куйидагилар:

ethnic slurs – миллатнинг маданияти ва феъл-атворини ифодаловчи этник хазиллар. Масалан:

“Америкалик турист Лондон бўйлаб сайрбон билан кўчаларни кезмоқда. Сизларнинг мамлакатингизда ҳаммаси кичик ва тор – деди турист – агар мана шу бино бизнинг мамлакатда бўлганда ўн баробар баланд бўлар эди – бир бинони кўрсатиб.

Гапингиз тўғри – жавоб берди сайрбон – бу ақли заифлар шифохонаси”

dry humour – кинояли хазиллар, бунда ниқоб остида мазах назарда тугилади. Масалан:

“Талаба профессордан марузадан чиқиб кетиш учун ижозат сўрамоқда. Унга жавобан профессор жуда жиддий оҳангда “I am sure it'll break my heart, but you may leave”, яъни “Аминманки, бу менинг кўнглимни вайрон қилади, лекин кетишингиз мумкин – деб жавоб берди.

shaggy-dog stories – қулгу алогизмларга асосланган хазиллар. Масалан:

“Инглиз лорди жўнаб кетиш арафасида, хизматкор ундан сўради: “Жаноб, агар хоним сизнинг ёнингизга мени юборадиган бўлса сизни қаердан излаш керак эмаслигини айтинг”.

banana-skin humour – енгил хазиллар. Масалан:

“What did the tie say to the hat? – You go on a head, I will hang around!” (Бўйинбоғ қалпоққа нима деди? – (Сен бошга чиқ, мен шу атрофда бўламан) ёхуд “Why is the letter T like an island? – Because it's in the middle of water (нега Т ҳарфи оролга ўхшайди? – (Чунки у сувнинг ўртасида) [9].

Ўзбек халқи қадимдан ҳазил-мутойибани ҳуш кўриши билан ажралиб туради. Аскиячилик, турли хил латифалар, ҳажвиялар ва қизиқчилик санъати бунинг яққол далилидир. Ўзаро суҳбат жараёнларида оила аъзолари, дўстлар, кўнни-қўшнилар, ҳамкасблар ва ҳатто бегоналар ҳам шахсиятга тегмайдиган дўстона ҳазил қиладилар. Ўзбек халқининг ўзига хос маданияти унинг шу камтарона хазилларида ҳам ўз аксини топади. Мамлакатимизда амалга оширилаётган қатор ислохотлар бугунги кунда давлатимизнинг жаҳон миқёсида ўз ўрнини эгаллашини кўзда туттади.

Хулоса ўрнида шуни айтиб ўтиш керакки, инглиз ва ўзбек тилларида хазилларнинг лингвумаданий таҳлили долзарб ҳисобланиб, бунда турли ташкилотлар ўртасидаги дўстона суҳбатлар, қолаверса, ижтимоий тармоқларда амалга оширилаётган суҳбатларда хазилларни тушуниш уларни ўрганиш назарда тугилади. Бир қарашда бу эътиборга моликдек кўринмасда, хазилни тушунмаслик, яъни ижобий маънода қўлланилган хазилни англамаслик суҳбат жараёнида турли салбий оқибатларни олиб келиши мумкин. Суҳбатдошлар томонидан тўғри танланган

эквивалент жумлалар, яъни маълум бир халқ маданиятига муҳимдир.
хос бўлган ҳазиллар орқали фикрини тушунтириш жуда

АДАБИЁТЛАР

1. Жан-Поль. Эстетик тайёргарлик мактаби/ Жан-Поль. – М.: Санъат, 1981. – 448 б.
2. Микеш, Ж. чет эллик бўлиш. Шекспир ва мен. Энг кулгили / Ж. Микеш. – М.: 2007. – 316 б.
3. Горностаева А.А. Ирония как компонент английского стиля коммуникации. –М.: Изд-во Маска(Литкон), 2013.
4. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М. : Слово, 2008. – 624 б
5. Askildson, L. (2005). Effects of humor in the language classroom: Humor as a pedagogical tool in theory and practice. Arizona Working Papers in SLAT,
6. Bell, N. D. (2009). Learning about and through humor in the second language classroom. Language Teaching Research, Bryant, G. A., & Tree, J. E. F. (2005). Is there an ironic tone of voice? Language and speech Monaghan & J.E. Goodman (Eds.), A cultural approach to interpersonal communication: Essential readings Malden, MA: Blackwell Publishing
7. Ritchie, G. (2004). The Linguistic Analysis of Jokes. Routledge, London
8. Stark, J., Binsted, K., and Bergen, B. (2005). Disjunctive selection for one-line jokes. In Maybury, M. T., Stock, O., and Wahlster, W., editors, Proceedings of First International Conference on Intelligent Technologies
9. for Interactive Entertainment, volume 3814 of Lecture Notes in Computer Science, pages 174-182. Springer.



Bakhrombek IBRATOV,
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti o'qituvchisi
Email: b.ibratov1977@mail.ru

O'zMU dotsenti, f.f.n. I.K.O'sarov taqrizi ostida

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ONOMASTIKA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada dastlab turdosh va atoqli otlarning bir-biridan farqlovchi jihatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, atoqli otlarning o'ziga xos xususiyatlari keltirib o'tilgan va onomastika fanining bir nechta turlari to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zlar: so'z, atoqli ot, turdosh ot, onomastika, onomastika fani, onomastika fanining turlari

PRINCIPLES OF ONOMASTICS IN MODERN LINGUISTICS

Abstract

This article first discusses the differences between common nouns and call nouns. It also lists the characteristics of the famous noun and provides information on several types of onomastics.

Keywords: word, nickname, cognate, onomastics, onomastics, types of onomastics.

ПРИНЦИПЫ ОНОМАСТИКИ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В этой статье сначала обсуждаются различия между существительными нарицательными и именными существительными. Он также перечисляет характеристики известного существительного и предоставляет информацию о нескольких типах ономастики.

Ключевые слова: слово, прозвище, родственное слово, ономастика, ономастика, виды ономастики.

Kirish. So'zlar va frazeologik iboralar umumiy nom bilan leksik birliklar yoki so'z belgilari deb nomlanadi. Inson so'z belgilaridan haqiqatni o'z qarashlarini ifodalash uchun foydalaniladi. So'z belgilari insonning kuchni tejash, mulokotning qulayligiga intilish natijasi xisoblanadi: agar biror shaxsning e'tiborini ma'lum buyumga qaratmoqchi bo'lsa xar safar uni shu buyumning oldiga olib kelib uni kursatish shart emas. Predmedga bunday ko'rsatishni so'z bilan almashtirish mumkin (yoki bir nechta so'zlar bilan).

Shu bois so'z belgilari o'z shakli va ma'nosiga ega, so'z belgilari shakli ikki xil: tovush (fonetik) va yozuv (grafik). Bu ayrim tovushlar va grafik belgilar (xarflar)ning shartli ifodasi bo'lib, bir butunlik sifatida qabul qilinadi. So'z belgisining formal tomoni yaqqol ko'rinadi va lingvistlar xamda tarjimonlar eng avvalo shular bilan ishlaydilar.

So'z belgisining mazmuni esa u aloqador bo'lib kelib chiquvchi predmetlar va tushunchalar bilan belgilanadi. Agar so'z belgisining mazmuni bir qadar noma'lum bo'lsa, uni aniqlash oson emas, chunki bu belgilar shartli bo'lib, ular predmetga turlicha ishora qilishi mumkin.

So'z belgisining shakli va mazmunining o'zaro aloqasi tilshunoslikda nominatsiya atamasi bilan nomlanadi. Nominatsiya tavsifiga ko'ra predmetlarning nomlari ikkiga bo'linadi: turdosh va atoqli. Turdosh otlar o'zaro o'xshash bo'lgan bir qator ko'p buyumlarni anglatadi. Nutqda ular mazkur guruxdagi qandaydir bir aloxida buyumga, yoki muayyan turdagi barcha buyumlarga taaluqli bo'lishi mumkin (masalan, kema, bola, muassasa, gazeta). Boshqa turdosh otlar haqida tilshunoslikda ular tasniflovchi nominatsiyaga ega deb aytiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turdosh ot predmetlar sinfini atashi mumkin yoki mazkur sinf ichidagi aloxida predmetni anglatishi mumkin.

Biroq bir buyumni o'xshash buyumlardan muloqot sharoitidan qat'iy nazar va qo'shimcha aniqlovchilarni qo'llamasdan ajratish zarurati tug'iladi. Bunday xolatda mazkur predmetga boshqa o'xshash predmetni nomlash

mumkin bo'lmagan aloxida nom berish mumkin. Bunday nom atoqli deyiladi. Atoqli otlar predmetni individual, aloxida belgilash uchun muloqot sharoitiga nisbatlamagan xolda va qo'shimcha aniqlovchilarni qo'llamasdan ishlatiladi. Atoqli otlar individuallashtiruvchi funksiyani bajaradi.

Atoqli otlar to'g'ri (dastlabki) va ko'chma (ikkilamchi) nominativ funksiyani farqlash lozim. To'g'ridan – to'g'ri nominativ funksiyada atoqli otlar u individual tartibda qo'yilgan predmetni ko'rsatishga xizmat qiladi. Ko'chma nominativ funksiya atoqli otlar nomini boshqa tushunchaga ko'chiradi, va shu bois u bir qator obyektlarga xususiyat qo'shishi mumkin buladi. Nominativ ko'chirish orqali atoqli otlarni turdosh otga aylantirish mumkin.

Atoqli ot bilan ataluvchi predmet nom egasi yoki referent bo'ladi. Odamlar, xayvonlar, muassasalar, kompaniyalar, geografik va astronomik obyektlar, kemalar va boshqa turli buyumlar atokli otlar referentlari bo'lishi mumkin.

Atoqli otlarga shuningdek, kitoblar, filmlar, boshqa badiiy va san'at asarlarining nomlarini ham kiritish mumkin. Shuni qayd etish muhimki, atoqli otlar muayyan darajada tavsiflovchi nomlash ham xos. Chunki ular predmetni unga o'xshash predmetlar sinfidan ajratib ko'rsatadi, demak, o'z ichida mazkur sinfga ishorani yaqqol bo'lmagan xolatda ifodalaydi. Shunday qilib, Bobik, Qoplon, Sharik laqablarining xar biri muayyan bir itga tegishli, biroq ular it laqablari bo'lganligi bois aynan ushbu atoqli otni turdosh otlarga ham o'tkazish mumkin: bobik, barbos, sharik so'zlari individuallashtiruvchi kuchini yo'qotadi va umuman istalgan itni ko'rsatishi mumkin.

Aloxida nom qo'yishga loyiq buyumlar shunchalik ko'pki, atoqli otlar tildagi leksik doiralardan chetda turgandek tuyuladi. Tilshunos E. Pulgram, qayd etganidek "men o'zimga har bir insonning ismini faqat bilish o'rnida, bilib olishga qiziq olmayman, chunki juda ko'p ismlar mening xotiramni og'irlashtirib yuboradilar» [1].

Xuddi shu tarzda mavjud bo'lgan barcha geografik obyektlar, kompaniyalar va boshqalar nomini bilish mumkin emas. Biroq har bir shaxs xoxlaydimi, xoxlamaydimi bir qancha shaxslar, hayvonlar va boshqa jonli jonsiz predmetlarning nomi bilan tanishishiga to'g'ri keladi. Bu nomlar bilan ular til egalaringi qaysidir doirasiga yoki mulqot sohasiga ma'lum ekanligini anglaydilar.

Yuqorida qayd etilganidek, atoqli otlar XX asrda ko'plab rus va xorijiy davlatlar tadqiqotchilarining tadqiqot obyektiga aylandi. 1978-yilda Krakovda XIII Xalkaro onomastik kongress bo'lib o'tdi, uning mavzusi — "Atoqli otlar va turdosh otlar" bo'lgan. Unda atoqli otlarning xususiyatlari, ularning turdosh otlardan keskin farqlari muhokama qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'plab olimlar tomonidan turli qarma-qarshi nazariyalar ilgari surilgan bo'lib, atoqli otlar turli tomondan va turli aspektlarda o'rganilgan. Ba'zi mualliflar atoqli otlar turdosh otlardan nima bilan farqlanishini aniqlashga urindilar. Ular tomondan mazkur masalada butun boshli nazariyalar yaratilgan. Masalan, o'zining kitobida atoqli otlarning xususiyatlari va ular to'g'risidagi ta'limotni ko'rib chiqqan A. V. Superanskayaning fikricha atoqli ot va turdosh otini farqlashga imkon beruvchi uch belgi mavjud va ular quyidagilardan iborat:

Ism individual obyektga beriladi, sinfga kiruvchi barcha individlarga xos belgiga ega.

Atoqli ot bilan nomlanganda predmet xar doim aniq belgilangan, cheklangan bo'ladi;

Tushuncha bilan bevosita bog'liq bo'lmagan atoqli ot til darajasida aniq va bir ma'noli qismga ega emas. [2]

O'zining keyingi ishlarida ayni muallif atoqli ot va atoqli bo'lmagan turli ismlar o'rtasidagi farqni yanada aniqlashtirgan. Tadqiqotchi fikricha asosiy xususiyat umumiy obyektlar sinfi bilan munosabatning borligi va alohida obyekt bilan bevosita aloqaning yoqligida ifodalanadi. "Atoqli otlarning asosiy xususiyati — ularning tushuncha bilan aloqaning yoqligi, yagona, aniq obyekt bilan uzviy aloqada ekanligidir". [3]

Mashhur Ukrain onomatologi Yu. A. Karpenko o'z diqqatini turdosh va atoqli otlar o'rtasidagi moxiyat va funksional jihatdan farqlarga, shuningdek til xususiyatlariga qaratgan. Tadqiqotchi fikricha, muammoga funksional yondashuvning o'zi kamlik qiladi, xususan, turdosh otlarda umumlashtirish (klassifikatsiya) funksiyasini, atoqli otlarda esa individallashtirish funksiyasini qayd etib o'tishning o'zi kifoya emas. Bundan tashqari, uning ta'kidlashicha funksiya — mohiyat emas, mohiyatning namoyon bo'lishidir. Atoqli va turdosh otlarning funksional farqlari shubhasiz mavjud bo'lib, biroq ular umumlashtirish yoki individallashtirish yo'nalishidan emas, balki ajratish-birlashtirish yo'nalishidan boradilar.

V. D. Bondaletov: ham ayni yo'nalishdagi fikrlarni qo'llab quvvatlab "Atoqli otlar bir turdagi obyektlarni ajratadi, turdosh otlar esa ularni birlashtiradi" [4] deb fikr bildirib o'tgan. IO. A. Karpenko atoqli otlarni differensial, turdosh otlarni tasniflovchi deb nomlashni taklif etgan. Tadqiqotchi fikricha ko'p hollarda, ayniqsa, toponimlar va antroponimlarda, differensial funksiya asosiy o'rin tutadi. Muallif umuman olganda, atoqli otlar funksiyasining yarim funktsionalligi fikrini qo'llab quvvatlaydi (xuddi turdosh otlar kabi), va ularda identifikatsiya qiluvchi, estetik va boshqa bir qator funksiyalarni belgilaydi. Atoqli va atoqli bo'lmagan otlarni farqlashning asosiy me'yori Yu. A. Karpenko fikricha, quyidagidagicha: bir predmetning nomi atoqli ot, bir qator predmetlarni nomlash — turdosh otdir. Fikr yuritishda turdosh otga tasavvur ismlariga xos tushuncha mos keladi. Umuman olganda, tadqiqotchi tilshunos A. A. Reformatskiy tomonidan bildirilgan: Atoqli otlar, eng avvalo, nominativ funksiyani bajaradi - muayyan predmetlarni nomlaydi; turdosh otlar -

semasiologik funksiyani bajaradi — ular predmetni nomlabgina qolmay u to'g'risida tushuncha ifodalaydi.

V. D. Bondaletova "Rus onomastikasi" ishida asosiy nazariyalar va tadqiqotlarning qisqa tahlilidan so'ng, atoqli otlarning tilshunoslikdagi maqomi xususida so'z yuritadi. Uning asosiy tezislarni quyidagicha ifodalash mumkin:

Atoqli otlar ko'p hollarda tilning so'z birliklari bo'lib, tilshunoslikning tugallangan obyekti sifatida ko'rilishi lozim. Atoqli otlar tilning kommunikativ emas, nominativ birligiga oid bo'lib, dunyodagi ko'plab sinflarda aniq bir ot so'z turkumi sinfiga kiradi (substantiv ismlar).

Atoqli otning o'ziga xos xususiyati til darajasida ham ularni "umumiy" ko'rib chiqishda, shuningdek, nutq jarayonida muayyan kontekstlarda va vaziyatlarda yaqqol ko'rinadi. Atoqli otning uziga xos xususiyati uning til jihatdan tuzilmaviy va funksional xossasida namoyon bo'ladi. Funksional doirada atoqli otning o'ziga xos xususiyati quyidagi asosiy funksiyalarni ajratib ko'rsatishga imkon berdi: nominativ, identifikatsiyalovchi, differentsiyalovchi. Ikkilamchi sifatida: ijtimoiy, xissiy, akkumulyativ, estetik, stilistiklarni ajratib ko'rsatish mumkin. Onimlar sinfining sanab o'tilgan xususiyatlari, albatta atoqli otning o'ziga xos xususiyatiga doir barcha masalalar mohiyatini ochmaydi. Turli onomastik tadqiqotlarda atoqli otlarni tavsiflovchi ko'plab boshqa xususiyatlar ham keltiriladi.

Tahlil va natijalar. Barcha tadqiqotchilar atoqli otning o'ziga xos xususiyati uning ma'nosida ifodalanadi deb hisoblaydilar, biroq uni sharhlashda fikrlar bo'linib ketadi. Bir guruh olimlar atoqli otning o'ziga xos xususiyati ma'noning zaiflashuvi, ayrim hollarda esa umuman mavjud emasligida deb hisoblaydilar. Bundan atoqli otlarni oddiy bo'sh belgilar sifatida qabul qilish kelib chiqadi. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar atoqli otning o'ziga xos xususiyati ularning alohida aniqligini belgilovchi uning "gipertrofiyalashgan nominativligida (nomlashida)" ko'radilar. Ko'plab tadqiqotchilar til birligi sifatida atoqli otlar ma'nosining murakkabligi, dialektikligini e'tirof etadilar (aksarariyat hollarda so'zlarning). Zamonaviy so'z nazariyasida so'zning ma'nosi - ham tinglovchi ham so'zlovchi tomonidan deyarli bir xil tushuniladigan so'z mazmuni tushuniladi va o'z ichiga quyidagi uch turdagi munosabatni qamrab oladi:

Denotativ - so'zning predmetga munosabati;

Signifikativ - tushunchaga munosabat;

Tuzilmaviy - so'z ma'nosining, umuman so'zning bu tildagi boshqa so'zlarga munosabati.

Onomastika (grekcha onomastika — "nom berish san'ati") — atoqli otlarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi [5]. N. V. Podolskaya o'zining "Rus onomastika terminologiyasi" ("Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii") [6] asarida onomastika faning bir nechta turlarini ajratib ko'rsatgan. Ular quyidagilar:

She'riy onomastika — badiiy asarlardagi barcha atoqli otlarni o'rganuvchi onomastika bo'limi: ularni yaratish printsiplari, usuli, matnda o'zini tutishi, kitobxon tomonidan qabul qilinishi; shuningdek, muallif dunyoqarashi va estetik yo'nalishlaridir.

Amaliy onomastika — shaklni, urg'u, talaffuz, transkripsiya, orfografiya, atoqli otlarning turlanishi qoidalari, shuningdek otonimik xosilalarning normativ modellarini (otasining ismi, axolini turar joyiga ko'ra nomlash, toponimlardan kelib chiqqan sifatlar va boshq.) belgilash amaliyoti bilan bog'liq onomastik tadqiqotlarning alohida yo'nalishi. Onomastik tadqiqotlarning bu yo'nalishida amaliy toponimika, amaliy antroponimika va boshqa turlar ajratiladi.

Regional (hududiy) onomastika — muayyan hudud, maxalliy onomastik tuzilma bilan bog'liq onomastik tadqiqot yo'nalishidir. Bunday tadqiqotlar odatda onimik makon sohalaridan biri: toponimlar, antroponimlar, astronomiyalarga doir bo'ladi. Bu turdagi tadqiqotlar maqsadi bu xuddagi nomlar

o'ziga xos xususiyatini aniqlash va bu nomlarning (yoki ismlarning turlarini) qo'shni va\yoki uzoq xududlar bilan bog'liqligi tadqiq etiladi.

Nazariy onomastika — onimik tizimlarning rivojlanishi va faoliyati umumiy qoidalarini belgilashga, onimik universalliklarni belgilashga qaratilgan onomastik tadqiqotlar.

Onomastika tilshunoslikning bir qismi xisoblanadi. Tilshunoslik chegaralaridan chetga chiqish onomastika uchun majburiy bo'lgan uning ekstralingvistik komponentlari xisobidan amalga oshiriladi.

Yopiq jamoalar onimik tizimlarining belgilangan nomlari faqat mazkur jamoa a'zolari tomonidan qabul qilinadigan va boshqa shaxslar uchun har doim ham tushunarli bo'lmagan keng doiradagi ijtimoiy, mafkuraviy, biografik va boshqa xodisalar sifatida mustahkam bog'laydi. Shu jihatdan Superanskaya A. V. Atoli otlarni terminlar bilan, onomastikani esa fan sifatida terminologiya bilan bog'laydi. A. A. Reformatskiyning "Slavyan lingvistik terminologiyasi (1962) asariga asoslanib, u [7]: "Termin har doim qaysidir bir terminologiyaning a'zosi bo'lib, uning doirasida u atoli nom kabi bir ma'noli xisoblanadi, va ular muayyan jamiyat yutug'i bo'lib, uning ichida faqat uning obyektiv-nominativ aloqasigina emas, balki u bilan aloqador tushuncha ham tushunarli bo'ladi. Biroq termin mazmunini tushunish uchun butun nazariyani tushunish kerak bo'lganidek, jamoadagi biror-bir nomni tushunish uchun mazkur jamoaning tarixi va nomlanayotgan obyektning boshqalar bilan aloqasini bilish talab etiladi. Ism asosida muayyan obraz, har bir xalq uchun uchun individual bo'lgan nomlash usuli yotadi.

Jonli so'zlashuv nutqida ismlar alohida bir xalq, millatga xos turmush, an'analar, madaniyat, din, turmushdagi din, dunyoqarash va boshqalarga bog'liq.

Onomastika an'anaviy tarzda atoli nomga ega obyektlar toifasidan kelib chiqqan holda bo'limlarga bo'linadi: antroponimika insonlar nomini o'rganadi, toponimika — geografik obyektlar nomini o'rganadi, zoonimika — hayvonlarning laqablarini, astronimika — osmon jismlari nomini o'rganadi va boshq. Onomastika atoli otlarni reationimlarga (mavjud bo'lgan yoki hozirda mavjud obyektning nomlari) va mifonimlarga (afsonalarda, ertaklarda, epopeya va boshqalarda o'ylab topilgan ob'yektlarning nomlari).

Taniqli nomshunos A.V.Superanskaya atrofida real va noreal (xayoliy) obyektlarni ifoda etadigan atoli otlarni

onomastik ko'lam (onomastik majmua) tushunchasi ostida yoritar ekan, bu majmua tarkibiga kiradigan 19 tip atoli otlarni keltirgan[8].

Ozarbayjon tilshunosi A.M.Gurbanov "Muasiz ozarbayjan zdebi tili" kitobida leksikologiyaning maxsus bo'limlaridan birini "onomalokiya" (onomastika) tashkil qiladi, deb hisoblaydi hamda onomastik birliklarni "onomastik vohidlar" deb yuritadi hamda ushbu vohidlarni tashkil etadigan atoli otlarning 7 guruhi antroponimlar, etnonimlar, toponimlar, gidronimlar, zoonimlar, kosmonimlar, ktematonimlar haqida fikr yuritadi [9]. U boshqa asarlarida ham mana shu onomastik bo'limlarni izohlagan [10]. Albatta, ushbu muallifning onomastik birlikni tashkil qiluvchi nomlarning tiplari va chegaralarini belgilashi noto'liq bo'lib, atoli otning barcha ko'rinishlarini qamrab olmaydi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ismlarning paydo bo'lish tarixi va nomlash sabablari, ularning qaysidir bir onimlar sinfidan turishi, onimlarning shakli va tavsifiga ko'ra bir sinfdan boshqasiga o'tishi, xududiy va til jihatdan taqsimlanishi, nutqda qo'llanilishi va badiiy matnlarda atoli otlarni yaratish onomastikaning tadqiqot ob'ektini tashkil etadi. Ma'lumki, har qanday fan o'zining tadqiq ob'ektiga ega bo'lishi kerak. Yuqoridagi gapimizdan ma'lum bo'ladiki, onomastikaning tadqiq ob'ekti tildagi har qanday atoli ot tiplari ekan. Yana shu narsa ham ma'lumki, tildagi lugaviy-ma'noviy guruhlar va leksemalarning tiplarini muayyan lisoniy birliklar tashkil qiladi. Mana shu lisoniy birliklar tilshunoslikda muayyan soha va yo'nalishning tadqiq ob'ekti hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilshunosligining fonetika bo'limi fonemalarni, leksikologiya bo'limi leksemalarni, semasiologiya leksemalarning ma'nolarini, morfologiya bo'limi morfemalarni, so'z yasalishi bo'limi tilda so'z yasalishining usul va tiplarini, sintaksis bo'limi esa sintagmalar, gap, matnni, lingvopoetika esa til vositalarining badiiy qiymatini tadqiq qiladi va boshqalar.

Xo'sh, onomastika ham tilshunoslik sohasi sifatida mana shunday birliklarga egami? Ha, ega.

Onomastika o'rganadigan til birliklari onim, ya'ni atoli otning ko'rinishi va tiplaridir. Bular antroponim, toponim, zoonim, fitonim, gosmonim, teonim va boshqalardir. Keltirilgan terminlar onomastik birliklarning tiplarini umumiy nomlaydi. Aslida, bu onomastik birliklarning har biri bir qator mikroonomastik birliklar majmuyidan tashkil topgan.

ADABIYOTLAR

1. Pulgram E. Theory of names. Berkeley. 1954, p. 26.
2. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. -М., 1973. Б.46.
3. Суперанская А.В. Структура имени собственного - М.: Наука, 1969. Б.32.
4. Бондалетов В. Д. Ономастика и социоллингвистика. / В.Д. Бондалетов. // Антропонимика. -М., Наука, 1970. Б.19.
5. Караулов 1998: 279.
6. Н. В. Подольская "Рус ономастика терминологии" ("Словаре русской ономастической терминологии")
7. А. А. Реформатский "Славян лингвистик терминологияси (1962)
8. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. М.: Наука,
9. 1973. С. 144-145.
10. Гурбанов А. М. Азербайжан эдэби дили. Баку: Масриф 1985. 249-272-бетлар.
11. Гурбанов А.М. Азербайжан ономастикаси мэсэллэри. Баку.



Durdona KAMILOVA,
Customs Committee of the Republic of Uzbekistan
Senior Lecturer, Department of Uzbek and Foreign Languages, Customs Institute
Email: durdona8324@mail.ru

Under the review of Ph.D., Associate Professor IK Osarov

LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF THE TERMS “BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP” IN ENGLISH AND UZBEK

Abstract

This article discusses the lexicography of business and entrepreneurship terms in English and Uzbek. In addition, it is informed that compiling a dictionary, studying its practical and theoretical aspects on a large scale is one of the current fields of linguistics.

Keywords: lexicography, dictionary, business, entrepreneurship, terminology.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ «БИЗНЕС И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО» НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ

Аннотация

В этой статье рассматривается лексикография бизнес-терминов на английском и узбекском языках. Кроме того, сообщается, что составление словаря, крупномасштабное изучение его практических и теоретических аспектов - одно из актуальных направлений лингвистики.

Ключевые слова: лексикография, словарь, бизнес, предпринимательство, терминология.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA “BIZNES VA TADBIRKORLIK” ATAMALARINING LEKSIKOGRAFIK TAHLILI

Аннотация

Ушбу мақолада инглиз ва ўзбек тилларидаги бизнес ва тадбиркорликка оид терминлар лексикографияси муҳокама қилинган. Шунингдек, лўғат тузиш, унинг амалий ва назарий жиҳатларини кенг қўламда ўрганиш тилшуношликнинг долзарб соҳаларидан бири эканлиги тўғрисида сўз боради.

Калит сўзлар: лексикография, лўғат, бизнес, тадбиркорлик, термин.

Introduction. It is known that the concepts of business and entrepreneurship are a relatively new concept, and this field is evolving day by day. Therefore, there is a great need to study the terms related to entrepreneurship and business.

In recent years, dictionaries have studied not only in practice, but also its theoretical directions, subjects and comparative analyzes of lexicography in different languages have become popular in linguistics. For this reason, compiling a dictionary, studying its practical and theoretical aspects on a large scale has become one of the current fields of linguistics.

Literature review. Although compiling a dictionary can be a daunting task, interest in the field has been at a high level since ancient times. “The names of great people who have contributed to the development of lexicography will be honored forever. It is enough to mention the name of our ancestor Mahmud Kashgari for a bright proof of this. His work “Devonu lug'atit turk”, which is dedicated to the analysis of Turkic languages, created almost 1000 years ago and it is a unique treasure of all Turkish people. The name of Mahmud Kashgari is forever engraved in the pages of history”[1].

As we have seen, the first example of a dictionary is “Devonu lugatit turk”. After the first samples were created, creating a dictionary was formed gradually. When we speak about the lexicography of the East, the role of our compatriots Alisher Navoi, Mahmud Zamakhshari, Muhammad Yaqub Chingiy, Muhammad Riza Khoksor, who made a great contribution to its development, is also invaluable.

From Russian linguists A.A. Navikov, P.N. Denisov, B.V. Morkovkin contributed to the development of theoretical lexicography with their scientific and practical work. Practical

lexicography of Western languages has also risen to a new level in the last century. Suffice it to mention here the productive and high-quality dictionaries of English such as Oxford, Webster; French: La Rousse; German: Duden, Langenscheidt; Russian publishing houses. The opportunities are given for the creation and publication of theoretically based, practically goal-oriented dictionaries.

So, in our opinion, the period of publishing dictionaries has passed that are not focused on a specific goal, the quantitative and qualitative aspects of the words are not scientifically based and are limited only by the word of “nature” and ability of the compiler. It should be noted that in the lexicography of developed countries, especially in the lexical practice of America, England, France, Spain, Italy, Russia and Germany, a unique systematic system of dictionaries has been created. [2]

Research methodology. English is widely spoken and interpreted as an international language, it has been widely studied in English linguistics, especially in terms of business and entrepreneurship, not only by English scholars, but also by linguists of other nations. In terms of lexicography, a number of monolingual, bilingual and multilingual dictionaries about business and entrepreneurship have been compiled. The works of foreign linguists play a significant role in this work. As an example, among the dictionaries “The Oxford Interpretive Dictionary” has a special value in terms of business and entrepreneurship. Author I.M. Asadchi has compiled a complete list of business and entrepreneurship terms in English for the first time and it contains more than 4,000 sectoral concepts. Another such work is “General Business and Entrepreneurship English Terminology Dictionary”. “It

describes clearly and fully the commonly used business and entrepreneurship terminology in English and some special cases of its use. In addition, the dictionary contains examples of lexicophraseological compatibility with repetitive phrases, as well as many examples"[3].

In addition to the above, among the English lexicographical works on the relationship of business and entrepreneurship, the dictionary "English-Russian Dictionary of Economics and Finance" is distinguished by a number of its features. "A.V. Anikina, was able to compile a theoretical and practical economics, as well as the financial sector (accounting, civil and commercial law, taxes, stock market, insurance, etc.)" in the dictionary which contains 75,000 words and phrases [3].

B. Moshkantseva's "Russian-English Financial and Economic Dictionary" and A.V. Dudarova's "Business and Entrepreneurship English for special purposes" dictionaries also contain terms related to English business and entrepreneurship.

D.E. Lewis's "Instant Business and Entrepreneurship Dictionary" represents studied sectoral terms, and it contains 3,200 words, phrases and abbreviations. In addition, D.E. Lewis reveals established and new trends in existing terminological education in English in the example of a review of business and entrepreneurship terms.

In addition, the book "International Business and Enterprise Dictionary in nine languages - Internacia komerca-ekonomika vortaro en nau lingvoj: English, Esperanto, Deutsch, Español, Français, Italiano, Nederlands, Português, Svensk" is one of the most influential dictionaries and it contains international terms related to entrepreneurship in nine languages. F. Munniksmá has interpreted 2812 terms specific to business and entrepreneurship in all of the above recognized languages, and includes dictionary commentaries[4].

Analysis and results. Currently, many of the terms used in the fields are represented in D. Adam's "Longman dictionary of business English with additional material by David Arnold" and Ya. Marcus's dictionaries "Economics and Business A-Z: Glossary". Over the last twenty years, lexicography has expanded, which in turn has led to an increase in the volume of terminological units.

In addition to the above dictionaries of foreign linguists, there are also dictionaries containing a number of industry and business-related terminology which compiled by English linguists. "New Oxford Business and Entrepreneurship English Dictionary for Learners of English" and "Longman Business Dictionary" have been compiled by Pearson Publishing. "The dictionary covers terminological units as a dictionary of terms and differences in meaning, use of complex words, and differences in English and American pronunciation (more than 30,000); as well as "Cambridge Business and Entrepreneurship English Dictionary" is new English dictionary that includes more than 35,000 business

and entrepreneurship words and phrases".[5] One of the first dictionaries which includes the classification and interpretation of terms in business and entrepreneurship documents is "Terminology of documentation" and the dictionary created specifically for UNESCO and devoted to small business terminology previously discussed in international documents.

A.E. Brancha's "Multi-lingual Dictionary of Commercial, International Trade and Shipping Terms" covers a range of terms related to international trade and shipping. Anon's "Key Words in International Trade" provides a clear modern business terminology in the five major languages of European trade, which is a convenient form of providing terms and a system of interconnections[5].

It is known that Uzbek terminology is gradually developing after independence. Due to the great attention and wide opportunities paid to science in our country, today Uzbek linguists are working in a number of fields. The terms which is lexicographically studied is especially important. The reason is that dictionaries have been compiled on terms related to many fields. Especially in the field of lexicography, the number of the terms of business and entrepreneurship in the Uzbek language are significant. Our linguists have compiled many dictionaries based on the lexical state of the language. We will consider this below.

Zayniddin Mamarasulov's "Economics Glossary" contains about 7,000 terms related to economics, mainly business and entrepreneurship. In this dictionary, the scholar not only gives definitions of terms, but also gives explanations to many concepts. For this reason, this dictionary was widely used and one of the reasons for enriching the lexicography of the Uzbek language.

As an additional source to the above statement, it should be noted that N.A. Husanov and R.Sh. Khujajulova's "Dictionary of Business Dialogue and Academic Writings" contains many examples of business terms in Uzbek linguistics. In addition, the dictionary contains explanations and comments respectively. In addition, Z. Zoirov's "Explanatory Dictionary of Terms and Concepts of Economics" is a dictionary that includes many industry-specific terms which are related to business and entrepreneurship. R. Doniyorov's "General terms, dictionary and abbreviations of the entrepreneur" has great importance for research in this field, as well as for Uzbek linguistics.

Conclusion. We can conclude from the above statements that today, with the development of business and entrepreneurship, the analysis of concepts and terms in this field is becoming increasingly popular. As we have seen above in the example of English and Uzbek dictionaries, many dictionaries have been compiled in this field. These results are unique to recent times, and as science progresses and linguistics develops, many voluminous dictionaries will be formed that could compile these types of terms.

REFERENCES

1. Рустамий С. "Девону луғати-т-турк" даги лингвистик хусусиятлар.
2. Арипова Гулноза. "Lexicographical analysis of national music terms".
3. Литягина. Э.А. "Английская и испанская бизнес-терминология в сопоставительном аспекте: словообразовательные модели и социокультурные особенности.
4. Munniksmá, F. International business dictionary in nine languages = Internacia komerca-ekonomika vortaro en nau lingvoj: English, Esperanto, Deutsch, Español, Français, Italiano, Nederlands, Português, Svensk / F. Munniksmá, Venture A., Carlen E. – Vászón: Kluwer Deventer, 1974. – 535 p.
5. Литягина. Э. А. "Английская и испанская бизнес-терминология в сопоставительном аспекте: словообразовательные модели и социокультурные особенности.



УДК: 39(=512.133):811.111'25

Раъно КАСИМОВА,

*Бухоро давлат университети докторанти (DSc),
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент,
E-mail: ranokasimova77@mail.ru*

ф.ф.д. (DSc), профессор Жўраева М.М. тақризи асосида

CORRELATION OF PSYCHOLOGY WITH LITERARY CRITICISM AND TRANSLATION STUDIES

Abstract

The article discusses the essence of the term “psychology”, psychological approaches and their influence on literature and literary criticism, psychology of literature and its classification, interrelation of psychology, literary criticism and translation studies.

Keywords: psychological approaches, literary criticism, psychology of literature.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПСИХОЛОГИИ С ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕМ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕМ

Аннотация

В статье рассматривается сущность термина “психология”, психологические подходы, влияние психологических подходов на литературу и литературный критицизм, классификация литературной психологии, взаимоотношения психологии с литературоведением и переводоведением.

Ключевые слова: психологические подходы, литературный критицизм, психология литературы.

ПСИХОЛОГИЯ, АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИК УЗВИЙЛИГИ

Аннотация

Мақолада “психология” термини мазмун-моҳияти, психологик ёндашувлар, уларнинг адабиётга, адабий танқидчиликка таъсири, адабиёт психологияси таснифи, психология фанининг адабиётшунослик ва таржимашунослик соҳалари билан ўзаро боғлиқлиги хусусида фикр юритилган.

Калит сўзлар: психологик ёндашувлар, адабий танқидчилик, адабиёт психологияси.

Кириш. XX аср жаҳон адабиёти асарларида амалга оширилган у ёки бу фаолиятни “ким бажарди?” деб эмас, “нега бажарди?” деган саволга жавоб тарзидаги ғоялар илгари сурилгани кузатилади. Адабиётшунослар формал/эстетик ёндашув билан замонавий адабиётшуносликнинг асосий масалалари орасидаги чекловлар ва номуаносибликлар туфайли шундай ғояларни қўллашга киришибди. Натижада, замонавий адабиётшунослик “Санъат санъат учун” ғоясидан йироқлашиб, кўпроқ тафтиш қилишга ёндашган ҳамда тарбиявий аҳамият касб эта бошлаган. Асосий эътибор шакл ва тузилишдан кўра қаҳрамонга, унинг мотивациясига йўналтирилган. Шахсга эътиборнинг кучайиши оқибатида XIX аср охирида юзага келган психологик ёндашув XX асрда янада тараққий этиб, турли баҳс-мунозараларга сабаб бўлган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили (Literature review). Инсон хулқ-атвори, ўй-фикрлари, мотивацияси масалалари жиҳатидан психология ва адабиётнинг инсон ҳаётида ўрни бекиёс. Кўплаб олимлар психологияга турлича таъриф беришган. Картоно “Психология – инсон хулқ-атвори тўғрисидаги фан таҳлили [7]”, деб таъкидлаган бўлса, Р.Уллек ва О.Уорренлар “Психология кенг маънода инсоннинг ҳам ташқи хатти-ҳаракатларини ҳам ички хис-туйғуларини, хулқ-атворини илмий ўрганишдан иборат. Шунингдек, бадий асарда психологик тамойилларни қўллаб, инсон ҳаёти феномени, воқеа ва ҳодисалар тадқиқида ҳам психологиядан фойдаланиш мумкин. Баъзи адабиётшунослар учун эса психология воқеликни тўғри англамасликка, кузатувларни ўткирлашувига ҳамда ханузгача номаълум намуналарга дуч келишига (кашф этилмаган йўللарга тушиб олишига) имконият яратди. Бироқ психология ўзи яратувчанликка тайёргарлик холос, психологик ҳақиқат эса, қисқача

айтганда, асар изчиллигини ривожлантирсагина бадий қиймат касб этади, яъни санъат ҳисобланади, деган фикрни илгари суришган [6]. Демак, психология кенг ва тор маъноларда қўлланилиб, инсоннинг ҳам ташқи ҳам ички хатти-ҳаракатлари, хиссиётларини билдиради.

Абдулла Қодирийнинг “Меҳробдан чаён” асарининг яратилиш тарихига назар солсак, ёзувчи асарни ёзишга тараддуланиб, унинг барча жиҳатларини, ҳаётий ва уйдирма қаҳрамонлар, воқеалар изчиллиги, ҳаттоки асар якунида қаҳрамонларнинг тақдирини ҳам инобатга олгани аёнлашади. Бироқ асарда тарихий ҳақиқатга асосланган воқеаларни бошлаш муаллифни чуқур ўйлантирганини ёзувчининг ўғли Ҳабибулло Қодирийнинг куйидаги фикрларидан билиб олиш мумкин:

“Меҳробдан чаён”ни ёзишга тайёрландим. Ҳамма нарса тахт: романнинг шакли, қаҳрамонлари, воқеалари, асарнинг қандай хотималаниши кўз олдимдан давра олиб ўтиб туради. Аммо ишни қаердан, нимадан бошлаш, даврага қандай кириб бориш масаласи мени ўйлатар, қийнар эди, -деган эдилар дадам бир вақт, оилавий ўтиришда туш тўғрисида суҳбат бўлганда, - бир кун туш кўрдим [2].

Кўриниб турибдики, Р.Уллек ва О.Уорренлар таъкидлаганидек, психологик ҳақиқатнинг бадий қиймат касб этиши мақсадида асар изчиллигини ривожлантириш ҳар бир ёзувчини қийнайди ва ўйлантиради.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Адабиёт инсон ўй-фикрлари маҳсули бўлиб, муаллиф турмуш тарзи, уни ўраб турган муҳитдан таъсирланиши мумкин. Кўплаб инсонлар бадий асарларни инсон ҳаётининг кўзгуси деб ҳисоблашади. Бошқача қилиб айтганда, бадий асарларда муаллифлар томонидан инсон фаолияти билан боғлиқ хиссиётлар,

кўрган-кечирганлари ва ижтимоий ҳаётда дуч келиши мумкин бўлган ҳолатлар ҳикоя қилинади.

Адабий санъат ёзувчи ифода воситаларининг психологик фонини билиш билан аниқланади. Ифода воситалари асар ёзилаётган пайтда муаллифнинг ҳиссиётлари таъсири натижасида юзага келади. Ёзувчи ҳиссиёти эса уни ўраб турган атроф-муҳит, вазият ва унинг индивидуал тажрибаси асосида шаклланади. Психология ҳар доим инсон ҳаёти билан боғлиқ, уни инсон ҳаётидан ажратиб бўлмайди. Л.Г.Герин психологияда инсоннинг кейинги ҳаётини ҳаракатга келтирувчи асосий нарса мотивация эканлигини тушунтиради ва тавсифлайди. Инсон ўзи кутган ҳаётга эришиш ва уни давом эттириши учун мотивация жуда муҳим. Ҳар бир эришилган ютуқ мотивация туфайли амалга ошади [4].

Инсон ҳаёти жуда мураккаб бўлса-да, тушунарли. Ҳар бир киши ўз психологиясига таяниб, дуч келган муаммоларни тушуниши, уларни бартараф этиши ёки жуда мураккаб жараёнларни енгиллаштириши мумкин. Психология инсон онгида муаммони тақдир эмас, мушкулот (челенж) сифатида тан олинишини шакллантиради. Инсон ҳаётида рўй берадиган муаммолар тасаввур қилинганидек, мураккаб эмас. Барча муаммолар позитив ёндашилгандагина ечим топади. Мана шундай вазиятларда психология ижобий фикрлаш тарзини шакллантиришда муҳим роль ўйнайди.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results).

Психология сингари адабиёт, айниқса, роман ҳам инсон ҳаёти билан бевосита алоқадор. Роман муаллиф ифодаси ва рағбатлантириш ҳисси бўлиб, ҳаёт кадр-қийматини ўзида мужассамлаштирган бадиий асардир. Роман ҳаётний муносабатларга эга. Одатда, ёзувчилар ўз асарларида ҳис-туйғуларни ифодалаш учун ҳаётний воқеаларни асосий ғоя сифатида қабул қилишади. Ўзбек романи А.Қодирий ҳам ўзининг “Меҳробдан чаён” асари воқеаларини ривожлантиришда ҳаётний, яъни ўтмиш воқеаларига, тарихга таянганини таъкидлайди: Албатта, мен бу сўнги марғуб қаҳрамонларни ўзбек тарихининг ҳазми кўтарган қадар ўз ҳолича олишқа тиришдим. Уларнинг хон ва уламога қарши исёни табиий – шаръийдир. Чунки шундан ортго сохта бўлиши устига китобнинг кадрини ҳам тушураётган эди. Шу икки синф курашини тасвир қилиш воситасида хон ҳарамлари, хотинлари, қирқ қизлар, тарихий ва этнографиявий лавҳалар, ўзбек ҳаёти, қизиқчилиги, танқидчилиги, ўзбек хотин-қизлари орасидаги истеъдод, шоирлар, азкиячилик ва бошқа яна қўб нуқталарни қамраб олинди [1;5].

Роман ҳаётнинг акси ёки кўзгуси бўлиб, психология асар билан ўзаро чамбарчас боғлиқдир. Инсон психологияси орқали асардаги воқеа, хабар, характеристика ва бошқа элементларни чуқурроқ англаш мумкин. Шунингдек, психология характер хатти-ҳаракатларининг сабабларини, инсон хулқ-атвори ва мотивацияси асосини очиб беради.

Адабиёт ва психология ўртасида жуда яқин муносабат мавжуд. Кохеннинг таъкидлашича, “psychology helps to clarify some literary problems, and Literature presents insights to psychology”, яъни психология баъзи адабий муаммоларни ойдинлаштиришга кўмаклашса, адабиёт психологияга ғоялар беради [7]. Чуқур тушунчага эга бўлиш учун адабиётни турли ёндашувлар, жумладан, психологик ёндашувлар ёрдамида ўрганиш мумкин. Психологнинг шахсиятни тушуниш ва тасвирлаш услуби ёзувчи, драматург ва бошқа ижодкорларнинг интуитив тасаввурлари билан қўллаб-қувватланиши адабиёт ва психология ўртасида ўзаро муносабат мавжудлигини исботлайди.

Психологик ёндашув замонавий психологиянинг ҳам адабиётга ҳам адабий танқидчиликка таъсирини намоён этади. Зигмунд Фрейднинг психоаналитик назарияси хоҳиш-истак, онгсизлик ва репрессия сингари янги ёки мунозарали соҳаларни ўрганиш орқали инсон хулқ-атвори ҳақидаги тасаввурларимизни ўзгартирса, тил ва рамзларнинг онгсиз кўркув ёки хоҳишни акс эттириш қобилиятини намоён этиши ҳақидаги тушунчаларимизни кенгайтиради.

Психологик танқидчилик бир нечта ёндашувларга эга бўлиб, одатда 3та ёндашувдан биттаси ёки бир нечтаси бир вақтнинг ўзида қўлланилиши мумкин:

Ижодкорнинг ижодини ўрганиш, унинг табиати қандай ва у ақлий нормаларга лойиқми;

Муайян ижодкорни психологик жиҳатдан ўрганиш, яъни ёзувчи биографиясининг унинг хулқ-атвори таъсири ёки уни руҳлантириши;

Психологик усуллардан фойдаланган ҳолда бадиий қаҳрамонлар таҳлили [7].

Психологик ёндашув бадиий асар мазмунини сезиларли даражада оширишга олиб келади. Психология ва унинг бадиий адабиётдаги ўрнини муҳокама қилиб, муаллиф тасаввурини ўрганади. Барча бадиий асарлар маълум маънода тажрибага асосланган ва ҳар қандай ёзувчи ўз тажрибалари сабаб ҳиссий муаммолар қуршовида қолиши мумкин. Бадиий асарни маълум даражада тушуниш, уни таҳлил қилишда психологик усулларнинг ҳаммаси ҳам қўл келавермайди. Адабиёт инсон руҳи билан боғлиқ бир қанча ҳодисаларни қамраб олади. Ёзувчи ҳодисани бадиий асардаги персонажлар орқали акс эттиради. Бу эса адабиётни психологик назариялар ёрдамида таҳлил қилишга имкон беради, улар инсон ҳаётини реал ҳаётдан топади.

Адабиётшунослар адабиёт психологиясига турлича таърифларни келтиришади. Масалан, араб адабиёти профессори Сангиду “адабиёт психологияси инсон ҳаётининг баъзи воқеаларини уйдирма қаҳрамонлар ёки ҳатто фактик персонажлар томонидан ижро этилишини ўз ичига олган бадиий асарларни кузатадиган фан сифатида таърифланади”, дея шарҳласа, Р.Уэллек ва О.Уорренлар тадқиқот субъектига кўра адабиёт психологияси турлича изоҳланиши мумкин, деб ҳисоблаб, қуйидагиларни санаб ўтишади:

Муаллиф психологиясини индивид сифатида ўрганадиган адабиёт психологияси. Ёзувчи шахс, уни хоҳиш-истак ва ҳиссиётларидан ажратиб бўлмайди. Ўз иштиёқи ва ҳиссиётларига асосланиб бадиий асарлар яратиши мумкин.

Ижодий жараённи ўрганадиган адабиёт психологияси. Бунда ишнинг яхлит бадиий асарга айланиш жараёни назарда тутилади.

Психология турлари ва принципларининг бадиий асарда қўлланилишини ўрганадиган адабиёт психологияси. Психологик мавзулар ва ҳолатларнинг бадиий асар қаҳрамонларида ишлатилишига эътибор қаратилади.

Бадиий асарнинг ўқувчига таъсирини ўрганадиган адабиёт психологияси. Бадиий асарнинг ўқувчи ҳаёти ва ўй-фикрларига таъсири инobatга олинади [6].

Адабиёт санъат асаридир. Ҳар бир муаллифнинг ўзига хос услуби ноёб ва такрорланмас бадиий асарлар яратилишига асос бўлади. Абдулла Қодирий асарларининг ўқимишлилигини таъминлаб келган ғоялар, тарихий фактлар ва қизиқарли воқеаларнинг бадиий тасвири мазмун-моҳиятини англаб етиш учун ўқувчи ёзувчининг китобларини мутолаа қилади ва ўз психологиясига таяниб иш кўради. Ёзувчи услубининг тушунарлилиги, замон ва макон тасвирлари ҳам реципиентнинг асосий ғояни ва керакли маълумотни илғаб олишига замин яратади.

Абдулла Қодирий ўзининг “Меҳробдан чаён” романида кўплаб бадий тасвир воситаларидан қаҳрамон руҳий кечинмаларини ифодалаш мақсадида фойдаланади.

Асар аслиятидаги қаҳрамонларнинг юриш-туриши, руҳияти, атроф-муҳитга муносабатига алоқадор психологик ҳолатларни ўзга тил реципиентига ишонарли қилиб ўгириш жараёни психологиянинг нафақат адабиётшунослик, балки таржимашунослик соҳалари билан ўзаро боғлиқлигини намоён этади.

А.Қодирий “Меҳробдан чаён” асаридаги психологик ҳолат тасвирини “Ғариб кўнгли” номли фаслда кузатишимиз мумкин. Ёзувчи Тойир аканинг тутун билан қорайган хужрасини ҳаққоний ифодалаб, китобхон кўз ўнгида ушбу хужра тасвирини гавдалантиради. Шундан кейингина воқеаларни ривожлантириб, Тойир аканинг кўнгли синиқлиги, ўқинчи ва ҳасратини баён этади:

Тойир ака қозикдаги тутунни очиб тўрт-бешта нон, бир ҳович қаттақўрғон мағиз олиб, кичкина барқашчага солди. Барқашни Анвар олдиға келтириб, узр айтди:

– Камбағалчилик, тақсир, олдингизга дастурхон ёзолмадик... [1].

Тойир аканинг биргина “камбағалчилик, тақсир, олдингизга дастурхон ёзолмадик...” камтарона гапи орқали унинг психологик ҳолати аёнлашади. Худди шу ҳолатни асарнинг инглиз тили таржимасида кўриб чиқиб, таҳлил қиламиз.

Tair removed from a peg hammered into the wall, small knot, has taken out from some flat cakes, a handful of Kurgan raisins and put all it on a tray.

– Poverty, your favour, – He said in an apologising voice, putting the tray before Anvar.

– There is no treatment worth you... [3].

Мутаржим асар қаҳрамонлари психологиясини тушуниш учун энг аввало ёзувчи психологиясини ва у

кўзлаган мақсадни англашга, сўнг амалга оширадиган таржимасида мана шу мақсадни ёритиб беришга киришади. Тойир аканинг хужраси тасвири орқали унинг камбағаллигига, руҳий ҳолатига ишора қилинса-да, ўзбек халқининг меҳмондорчилиги ва меҳмонга ҳурмат муносабати, меҳмонни ранжитмаслик учун борини меҳмон олдиға қўйиб, кўнглини хушнуд қилиши ҳам кўрсатилади. Мутаржимлар мана шу мақсадни Тойир аканинг узр сўраб “Poverty, your favour, – He said in an apologising voice”, деб айтган гаплари билан ифодалаб, ўзбек халқига хос мулозамат кўрсатиш, “тақсир” деб қилинган мурожаатни “your favour” тарзида ўгириш орқали ўзбек маданияти хусусиятларини очиб беришган.

Хулоса ва тақлифлар (Conclusion/Recommendations). Умуман олганда, психология тор ва кенг маъноларда қўлланилиб, инсон ички ва ташқи хатти-ҳаракатларини билдиради. Психологик ёндашувлар замонавий психологиянинг ҳам адабиётга ҳам адабий танқидчиликка таъсирини намоён этиб, ёзувчи ижодини, унинг психологиясини, у яратган бадий қаҳрамонларни таҳлил қилишда фойдаланилган. Шунингдек, адабиёт психологиясига турлича таърифлар келтирилган ҳамда муаллиф психологияси, ижодий жараён, психология турлари ва принципларининг бадий асарда қўлланилиши, асарнинг ўқувчига таъсирини ўрганадиган адабиёт психологияси тарзида таснифланган. Таржима асарларига талабнинг ошиб бориши, психология фанининг адабиётшунослик ва таржимашунослик соҳалари билан ўзаро боғлиқлигини исботлайди, чунки бунда асар аслиятидаги қаҳрамонларнинг юриш-туриши, руҳияти, атроф-муҳитга муносабатига алоқадор психологик ҳолатларни ўзга тил реципиентига ишонарли қилиб ўгириш таржимондан муаллиф психологиясини чуқур англаш заруратини туғдирган.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 18 майдаги 376-сон “Жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига ҳамда ўзбек адабиёти дурдоналарини чет тилларига таржима қилиш ва нашр этиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори https://lex.uz/pages/forpda.aspx?lact_id=3743182
2. Абдулла Қодирий. Меҳробдан чаён (Худоёрхон ва муншилари ҳаётдан тарихий рўмон). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 149 б.
3. Андреев А.Н. Целостный анализ литературного произведения: учеб.пособие для студ.вузов. – Минск: Электронная книга БГУ, 2003. –143с.
4. Барабаш О.В. Психологизм как конструктивный компонент поэтики романа Л. Н. Толстого «Анна Каренина»: дис. ... канд. филол. Наук. – М.:МГУ, 2008. – 208 с.
5. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon (Xudoyorxon va munshilari hayotidan tarixiy roman. H.Qodiriy. “Mehrobdan chayon” haqida). – Toshkent: Navro`z, 2019. – 288 б.
6. Abdulla Qodiriy. The Scorpion from the Altar: Novel. Translators: I.M.Tukhtasinov, U.R.Yoldoshev, A.A.Khamidov. – T.: “Mashhur-Press”, 2019. – 272 p.
7. Guerin, W. L., Labor, E., Lee, M., Reesman, J.C., & Willingham, J.R. A handbook of critical approaches to literature. – New York: Oxford University Press. Guerin, 2005. – 412 p.
8. Hurlock, B.Elizabeth. Personality Development. – New York: McGraw-Hill Book Company, 1974. – 520 p.
9. Rene Wellek and Austin Warren. Theory of Literature. Third edition. – New York: A Harvest Book. 1956. – 362 p.
10. www.ziyouz.com kutubxonasi Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – B. 242.
11. <http://repository.unas.ac.id/1587/1/Diktat%2C%20Psychology%20of%20Literature%20%281%29.pdf> Sylvie Meiliana. Psychology of Literature – 96 p.



Александр КОРЗУН,
старший преподаватель НУУЗ им. Мирзо Улугбека
E-mail: Korzun2007@bk.ru

На основании рецензии д.ф.н., и.о. профессора Камиловой С.Э.

ARTISTIC FEATURES OF THE DRAMA OF KHAN DIN "DO NOT SWING THE TREE ..."

Abstract

The article is devoted to the analysis of the artistic features of the drama pamphlet in two acts "Do not rock the tree ..." of the famous writer, translator, honored art worker of Kazakhstan Khan Din. The article deals with the meaning of certain symbols, the figurative system, the problems, the nature of the conflict, the genre features and the ideological significance of the drama.

Key words: drama, pamphlet, war, parallel, ideology, irony, contrast, tree, water, fire, hare, tiger, crane, globe, North, South, Korean Peninsula.

«ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДРАМЫ ХАН ДИНА «НЕ СТОИТ РАСКАЧИВАТЬ ДЕРЕВО...»

Аннотация

Статья посвящена анализу художественных особенностей драмы-памфлета в 2-х действиях «Не стоит раскачивать дерево...» известного писателя, переводчика, заслуженного деятеля искусств Казахстана Хан Дина. В статье рассматривается значение некоторых символов, образная система, проблематика, характер конфликта, жанровые особенности и идейное значение драмы.

Ключевые слова: драма, памфлет, война, параллель, идеология, ирония, контраст, дерево, вода, огонь, заяц, тигр, журавль, глобус, Север, Юг, Корейский полуостров.

XAN DINING DRAMASINING BADDIY XUSUSIYATLARI «DARAHATNI TUSHUNSHGA ARZI EMAS...»

Аннотация

Maqolada atoqli yozuvchi, tarjimon, Qozog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Xan Dinning "Daraxtni silkitmaslik kerak..." nomli 2 pardali risola-dramasining badiiy xususiyatlari tahliliga bag'ishlangan. Maqolada dramaning ayrim ramzlarning ma'nosi, obrazli tizimi, muammolari, konflikt mohiyati, janr xususiyatlari va g'oyaviy mazmuni o'rganiladi.

Kalit so'zlar: drama, pamflet, urush, parallel, mafkura, kinoya, kontrast, yog'och, suv, olov, quyon, yo'lbars, turna, globus, Shimoliy, Janubiy, Koreya yarim oroli.

Хан Дин – один из выдающихся драматургов второй половины XX века, в своих произведениях он писал о проблемах своего многострадального народа, задавал вопросы и находил ответы. Полное имя писателя Хан Ди Ён и будучи северокорейцем, он был услышан и оценён в Южной Корее, где ещё в 1991 году была представлена его пьеса «Не стоит раскачивать дерево...», а в 1992 году в Сеуле данное произведение получило и свою несомненно заслуженную награду.

Драма-памфлет этого замечательного человека, искренне любившего Корею и не желающего проводить 38-ю параллель для своей исторической родины, посвящена одной из самых трагических и кровавых страниц в истории Корейского полуострова XX века – войне в Корее. Войне, которая не просто исковеркала и опалила своим огнём судьбы миллионов людей, но насильно поделила единый народ, объединённый великой историей, языком, культурой на два политических лагеря.

Как нам известно из истории, вооружённый конфликт между Севером и Югом Кореи длился с 25 июня 1950 по 27 июля 1953 года. Впрочем, официального окончания войны так и не было объявлено. Подогреваемая и провоцируемая извне она началась как гражданская война, но быстро разрослась до международного противостояния, в которое было втянуто много стран из полярных лагерей социализма и империализма. Корейский полуостров стал удобной площадкой для сведения политических счётов и для борьбы за идеологическое влияние на международной арене. Тогда весь мир затаив дыхание следил за судьбой Кореи, но мало кто из западных обывателей по-настоящему задумывался о

судьбе жителей этой страны. Мог ли сытый и довольный жизнью западный человек, понять весь ужас сложившейся ситуации, когда северному брату пришлось идти с оружием в руках на южного брата? Когда рвались родственные связи, когда семьи теряли отца, мужа, брата, сына. Когда в огнях артиллерийских залпов стиралась сама история объединённого ещё в древности государства. Никто в мире, кроме самих корейцев, не в состоянии прочувствовать эту боль, это ощущение раздвоенности, а ведь в Корее с глубоких времён была философия единого целого государства, воплощённого ещё в VI веке н. э., то есть тогда, когда многих стран, разжигших войну в Корее, просто не существовало. Поэтому и нет ничего удивительного в том, что именно этнический кореец смог с такой художественной силой и болью за свой народ описать те трагические события.

Хан Дин реалистично показывает насколько страшна для корейского народа была та война, насколько глубокой оказалась искусственно созданная пропасть между людьми, испокон века жившими вместе на этой земле. Обратимся к тексту самой пьесы. Это глубоко трагическое произведение с глубинным подтекстом, изобилующее символами, характерными для корейской литературы.

Действие разворачивается на берегу моря, в 1953 году, то есть тогда, когда война уже почти заканчивается, до Корейского соглашения о перемирии осталось примерно месяца два. Первое что бросается в глаза, это дерево, автор описывает его довольно неоднозначно: оно мощное, с раскидистыми, но корявыми ветками и со скудной листвой. Это первый символ. Дерево – это

Y. Stepanov esa konseptning mental jihatlarini ochishga harakat qilgan edi. Ammo shunga qaramasdan o'tgan asrning o'rtalarigacha konsept tushunchasi alohida termin sifatida qabul qilinmadi. Faqatgina XX asrning 80-yillaridagina konsept tushunchasi ongimizda aks etadigan jarayonlarni ifodalovchi birlik sifatida paydo bo'ldi. Bu davrgacha esa konsept termini tushuncha so'ziga sinonim tarzda ishlatilgan. Bugun esa konsept atamasining tushuncha ifodalaydigan mazmundan ancha keng holda qo'llanilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Konseptlar esa o'z tasvirlash obektidan kelib chiqqan holda ma'lum bir ma'noviy guruhlariga birlashadi.

Barcha konseptlarni quyidagicha mavzuviy guruhlarga bo'lish mumkin:

Dunyo konseptroferasi: vaqt, sana, tong, tun, vatan kabilar.

Tabiat konseptroferasi: gullar, o'simliklar, daraxtlar, suv, olov, tuproq kabilar.

Inson xususiyatlari konseptroferasi: aqllilik, ahmoqlik, qarilik, bilimdonlik, go'zallik, yoshlik kabilar.

Ma'naviy konseptlar: vijdon, haqiqat, adolat kabilar.
Ijtimoiy tushuncha va munosabatlar konseptroferasi: ozodlik, do'stlik va urush kabilar.

Emotsional konseptlar: baxt, xursandchilik, quvonch, qayg'u.

Ilmiy bilimlar konseptosferasi: falsafa, filologiya, matematika, biologiya, fizika kabilar.

San'at konseptosferasi: arxitektura, xattotlik, raqs, musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik kabilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Biz ushbu kichik tadqiqotimizda dunyo konseptosferasiga mansub "vaqt" konseptining o'zbek tilida ifodalaydigan birliklar xususida fikr yuritimiz.

"Vaqt" so'zi arab tilidan olingan bo'lib "payt", "mahal", "zamon" degan ma'nolarni anglatadi [2]. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa vaqtga nisbatan quyidagi ta'rif beriladi: VAQT fa [zamon, vaqt \ muddati; on; mavsum]

1. Yuz berib turuvchi voqea-hodisa, narsalarning asrlar, yillar, soatlar, minutlar va shu kabilar bilan o'lchanadigan davomiyligi, shunday o'lchov belgisiga ega bo'lgan obyektiv hodisa. Vaqt g'oyat imillab o'tardi. Hamma xavotirlanib bezovta bo'la boshladi. K. Yashin, Hamza. Lekin vaqt o'z ishini qildi — oyni g'arb ufqidan tortib kirib ketdi. Demak, tong otdi. M. Ismoilij, Farg'ona tong otkuncha.

2. Shu obyektiv hodisaning minut, soat, kun, yil va shu kabilar bilan almashinuvidagi oralig'i, qismi, bo'lagi. Bayramlardagina kiyadigan, boshqa vaqtlarda chamadonida avaylab saqlaydigan oq surp ko'ylagini kiydi. S. Karomatov, Oltin qum. Biz bularning yoshida o'qishni bilardik. Bo'sh vaqtlarni jamoat ishiga sarflardik. O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. Otabek keyingi vaqtlarda savdoga yurishni tark qilib qo'ygani uchun, Hasanali ishsiz qolgan. A. Qodiriy, O'tkan kunlar.

3. Soat, kun, oy, yil va shu kabilarning uzluksiz izchil almashuvida biror maqsad uchun belgilangan yoki biror maqsad uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan muddat oralig'i; fursat. Vaqtning qo'ldan bermoq. Vaqtdan yutmoq. Vaqtdan to'g'ri foydalanmoq. Vaqtning ketdi — naqding ketdi. Maqol. Uning ovozi eshitib, qo'ni-qo'shnilar yig'ila boshlashdi. Vaqtning boy berish mumkin emasdi. K. Yashin, Hamza. ..boshingizni ikki silshi uchun, albatta, vaqt yetgandir, deb

o'ylayman. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. Vaqt o'tdi, biz ozchilikimiz. K. Yashin. Hamza. Vaqtningiz bo'lsa, birpas gaplashaylik. S. Ahmad, Yulduz.

4. Vaqtning biror narsa, ish-mashg'ulot uchun belgilangan, ajratilgan bo'lagi; muddat. Masalani to'g'ri yechdi-yu, oqqa ko'chirayotganida, vaqti tugab qoldi. O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. Tanaffus vaqtida hamma mukofotlanganlarni, mukofotlanganlar esa bir-birlarini tabriklab, zal va foyelar g'ovur bo'lib ketdi. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. Suhbatimiz shu yerga yetganda.. soqchi kirib, vaqtlarning tugadi, deya ogohlantirib qo'ydi. X. To'xtaboev, Shirin qovunlar mamlakati.

5. Obyektiv o'tuvchi vaqtning ma'lum ijtimoiy hodisa, holatlar bilan bog'liq, ular bilan kechgan bo'lagi; zamon, davr. Quldorlik vaqtida. Mo'g'ullar hukmronligi vaqtida. Chor hukumat vaqtidagi qulligingni o'ylasang. Hamza.

6. Obyektiv tarzda kechuvchi zamon, davrning, kishi hayotining ma'lum, aniq bir bo'lagi, nuqtasi, oralig'i. Vaqt kech bo'lib qoldi. Bolalik vaqti. Yoshlik vaqti. Yoz vaqti. Namoz vaqti. Ertalab Qo'qondan chiqsa, asr vaqtlarida Marg'ilonga kiradir.. A. Qodiriy O'tkan kunlar. Vaqt peshindan o'tgan, ko'k yuzida quyosh charaqlab turardi. S. Karomatov, Oltin qum. ..qizlik vaqtida Nuri ularning kulbasiga juda oz chiqar edi. Oybek, Tanlangan asarlar.

7. fls. Borliqning, makon kabi, obyektiv real shakli, materiyaning yashash shakllaridan biri. Nisbiylik nazariyasi — materiya mavjud bo'ladigan fazo va vaqt nazariyasidir. «Fan va turmush».

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Ayni vaqt(da) 1) shu vaqtda, hozir(da), hozirning o'zida. Ayni vaqtda konsert davom etyapti; 2) shu bilan birga. Jurnalistika shu qadar ommaviy, ayni vaqtda, shu qadar yoqimli ishki, shu kasbning sohiblari doimo yurtning fikri-zikrida yashaydilar. X. Yodgorov, Hayot o'lqinlari. U birov bilan shaxmat o'ynar va, ayni vaqtda, yigirmaga yaqin odamni og'ziga qaratib, kuldirib o'tirar edi. A. Qahhor, Quyushqon. Aksar vaqt Ko'pincha. Avaz.. yozda.. bog'-hovliga chiqib ketar, ko'llarga borib, baliq ovlar, aksar vaqti ijod bilan band bo'lar edi. S. Siyoev, Yorug'lik. Ba'zi vaqt Ba'zi-ba'zida, ba'zan. Ba'zi vaqt shularni o'ylab qolaman. Besh vaqt namoz Kuniga besh marta o'qiladigan namoz (farzlardan biri). Besh vaqt namozni kanda qilmasdan o'qiydi, ixlos bilan ro'za tutadi. Oybek, Tanlangan asarlar. Bir vaqt 1) ayn. bir vaqtlar. Uning o'zi bir vaqt Rustamni yaxshi ko'rardi. O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol; 2) o'ylamagan, xayolga kelmagan, bilmagan bir vaqtda. Bir vaqt eshikdan ikki o'spirin kirib keldi. «Guldasta». Bir vaqt munday qarasa, uni chaqirayotgan Oqila buvi emas, jigarrang paltoli chiroyli qiz ekan. O'. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. Bir vaqt Majid qulog'i tepasida Fayzi otaning ovozi eshitib, boshini ko'tardi. «Guldasta». Bir vaqtlar O'tgan vaqtlarda, ilgari (lari). Bir vaqtlar erkak zotini telba qilishga qodir bo'lgan bu ohu ko'zlariga, hamon bichimi buzilmagan qaddi-qomatiga tikilgan, miq etmay o'tiraverdi. K. Yashin, Hamza. Bir vaqtlar jo'r bo'lib o'tli yoshlikka, Yurardim hech so'nmas tilagim bilan. A.Oripov, Yillar armoni. Bir vaqti kelib ayn. vaqti kelib. Bu qishloqda o'sadigan bolalar bir vaqti kelib, ehtimol, bizning ko'p ishlarimizdan kulishar. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. Vaqti kelib Vaqti yetganda, taqozo vaqti yetib (yetganda). Vaqti kelib, bu odamga nima uchun «inobatlik» sifati berilgani kishilarning esidan chiqib ketadi. A. Qahhor, Asarlar. Shunday yangi xil o'simliklarni yaratish mumkinki, ular, vaqti kelib, ovqat xillarini ko'paytiradi. Izohli lug'atda vaqt so'zining deyarli barcha ma'nolari misollar asosida keltirilganini ko'rish mumkin. Demak, “vaqt” tushunchasi kognitiv va lingvistik jihatdan voqea-hodisaning kechgan zamoni hamda vaqt o'lchovlarini bildiradi.

O'zbek tilida vaqt ma'nosini ifodalovchi birliklar xilma-xil bo'lib, ularni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Vaqt ma'nosini bildiruvchi leksemalar

Birikmalar

Iboralar

Matnlar

O'zbek tilida vaqt tushunchasi zamon, payt, lahza, on, fursat kabi leksemalar bilan ham sinonim tarzda qo'llanadi. Ularning har birida “vaqt” konseptining bir tomoni aks etadi:

PAYT 1. Muayyan vaqt, fursat, on. Tush payti. O'q otilgan payt. - Elmurod ..ovliga qarab yurdi. Shu payt Fotimaning shovqinlab gapirgani eshitildi. P. Tursun, O'qituvchi. 2. Muayyan sharoit bilan bog'liq bo'lgan davr, zamon. Zargarov: Jonim! Paytnozik, xotin-qizlar masalasi chirsillab turibdi — bekorga nobud bo'lib ketaman. A. Qahhor, Og'riq tishlar.

3. Biror ishni amalga oshirish uchun qulay fursat, imkoniyat. Paytni qo'ldanbermoq. Payti kelganda aytmq. - Paytdan foydalangan Ashir mahram avvaldantayyorlab qo'yilgan tilxat va arizalarni yosh xo'janing oldiga qo'ydi. J. Sharipov, Xorazm.; Men payt poylab, qochishni mo'ljallab borardim. H. Axmar, Kim haq? Bundan ko'rinadiki, payt leksemasi “vaqt” tushunchasi ifodalagan barcha ma'nolari bilan deyarli sinonimlik hosil qilib, nutqda uning o'rnida bemalol almashinib qo'llaniladi.

Shu o'rinda “vaqt” konseptini ifodalashda foydalaniladigan numerativ so'zlar haqida ham to'xtalib o'tmoqchimiz. Numerativ so'zlar uzoq davrlardan beri qo'llanilib kelinmoqda. Hatto, qadimda o'lchov birliklari shakllanmagan davrlarda ham odamlar o'z hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ma'lum predmet nomlarini o'lchov birliklari sifatida ishlatganlar [1: 5]. Jumladan, “vaqt” tushunchasini ham ifodalashda bir qancha numerativ so'zlar mavjud. N. Jiyanova vaqtga oid numerativlarni quyidagicha tasniflaydi:

a) yilni ifodalovchi numerativ so'zlar;

b) fasllarni ifodalovchi numerativ so'zlar;

c) oylarni ifodalovchi numerativ so'zlar;

d) kunlarni ifodalovchi numerativ so'zlar;

e) soat, minut, sekund ma'nosini ifodalovchi numerativ so'zlar;

f) og'zaki nutqqa xos bo'lgan numerativ so'zlar[1].

Bu tasnifga kiruvchi barcha numerativ so'zlar, xususan, bahor, yoz, kuz, qish, sentyabr, noyabr, dushanba, seshanba, payshanba, juma, daqiqa, bozor kabi leksik birliklar “vaqt” tushunchasining o'lchov bilan bog'liq paytlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu so'zlar hozirgi kunimizda faol uchraydi, shuningdek, eski o'zbek adabiy tili, xususan, Bobur davrida ham iste'molda bo'lgan numerativlar anchagina:

Seshanba. Bu so'z ham fors tiliga mansub bo'lib, „uchinchi shanba“ degan ma'noni anglatadi. Seshanba hafta kunlaridan birining nomidir. „Boburnoma“ning qirq to'qqiz o'rnida uchraydi. Seshanba kechasi, safar oyining yigirma yettisida hazrat Xoja Ubaydulloning «Volidiya» risolasini nazm qilmoq xotirim'ga kechti [3].

O'zbek tilida vaqtning ifodalovchi birliklarning ikkinchisini birikmalar tashkil qiladi. Ma'lumki, birikmalar ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi. Ular ma'lum grammatik vositlar yordamida ham, balki faqatgina ohang yordamida ham o'zaro bog'lanishi mumkin. Masalan: yorqin rang, daraxtning bargi, uyga qaytmoq kabilar. Tilimizda VAQT ma'nosini ifodalaydigan juda ko'p birikmalar mavjud bo'lib, ular bevosita yozma va og'zaki nutqimizda keng foydalaniladi. Jumladan, bomdod payti, shom payti, ertadan keyin, qovun pishig'i, quyosh tikkaga ko'tarilguncha, kecha va kunduz kabi birikmalar o'zbek tilida so'zlashuvchilar nutqida faol qo'llanilib, ular ham “vaqt” konseptining turli holatlarini ifodalaydi. Shuningdek, o'tkan yoz, bulturgi bahor, o'sha sana, o'tgan

yili, o'sha payt, kechagi soat, yarim kecha, qoq tush, kech kuz kabi birikmalar ham muayyan vaqtni aniq ifodalash uchun xizmat qiladi. Misol uchun:

Kech kuz edi, men seni ko'rdim,

Derazamdan boqardi birov.

U sen eding, o, dehqon yurtim,

Turar eding yalangto'sh, yayov.

Iboralar har qanday tilning boyligini, go'zalligini o'zida aks ettiruvchi birliklar hisoblanadi. Ular yordamida tilimizdagi ma'lum tushunchalar, so'zlar obrzali ifodalanadi. "Vaqt" konseptining ifodalanishida ham iboralarning o'z o'rnini bor. Xususan, ikki dunyoda ham (hech qachon) eldan burun, elburutdan (vaqtdan oldin), kuni bitdi, kuni tugadi (o'ladigan vaqti keldi), "hash-pash" deguncha (juda qisqa muddatda), ko'z ochib yunguncha (qisqa vaqtda) kabi iboralarning vaqt ma'nosini bildiruvchi so'zlar, birikmalar o'rnida qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin.

Ma'lum bir badiiy asarda yoki og'zaki nutqimizda uchraydigan mikromatnlar ham ma'lum vaqtni ifodalash uchun xizmat qilishi mumkin. Yana „Boburnoma“ dan olingan misolga murojaat qilamiz:

Bikramjit hindukim, Guvaliyar raajasi edi, yuz yildin ko'prak Guvaliyar viloyatida otalari saltanat qilib edilar. Iskandar Guvaliyarni olur maslahatig'a necha yil Agrada o'lturdi. So'ngra Ibrohim zamonida A'zam Humoyun Servaniy necha mahal bajidd urushti, oxir sulh bila olib, Shamsobodni anga berdi [3].

Bu matn uchta gapning o'zaro qo'shiluvidan sodir bo'lgan. Yaxlit holda nuqt so'zlanayotgan paytdan oldingi zamon, vaqt tasvirlangan. Undagi necha yil, so'ngra, oxir kabi vaqt ma'nosini bildiruvchi so'zlar gaplarni o'zaro bog'lash bilan birgalikda, yana zamon ma'nosini yana-da kuchliroq ifodalanishiga sabab bo'lgan. Bunday misollar zamonaviy matnlar va og'zaki nutqimizda ham juda ko'p uchraydi.

O'zbek tilida "vaqt" konseptining ifodalanishi bo'yicha amalga oshirilgan kichik tadqiqotimiz asosida xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, "vaqt" tushunchasi alohida konsept sifatida o'zbek til egalari lisonida shakllangan bo'lib, uni ifodalashda o'z va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar, so'z birikmalari, ibora hamda mikromatnlar faol qo'llanadi. "Vaqt" konseptining ifodalovchi lingvistik birliklar milliy-mental xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Jiyanova N. Boburnomadagi numerativ so'zlar. – Toshkent:Tafakkur, 2012.
2. Ulug'bek Sulton. As-sultan. – Toshkent: Hilol nashr, 2011.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
4. Аскольдов С.А. Концепт и слово. Статья. Опубликована в книге: Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. - М.: Academia, 1997. - С. 267-279.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2006 - 2008. 214 – 215 бетлар
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. – Т.: 2006. – 532-б.
7. <https://ok.ru/abdullaori/topic/62732807607602>



To'lg'anoy MAMATQULOVA,
O'zDSMI o'qituvchisi.
E-mail: mohimmamatqulova@gmail.com

Taqrizchi t.f.d.dots. I.Ostonoqulov

ABOUT THE ETHYMOLOGICAL AND TERMINOLOGICAL MEANING OF THE WORD "SONG"

Annotation

The article describes in chronological order the song, which is one of the genres of Uzbek singing, and how the etymological and terminological meanings of the word are used in literary and historical sources. The first appearance of this term in the Devoni lugati Kashgari Turkic is given by Alisher Navoi in his work.

Key words: song, terminology, work, weight, poem, etymology, analysis, poem.

ОБ ЭТИМОЛОГИЧЕСКОЕ И ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЕ СЛОВА "ПЕСНЯ"

Аннотации

В статье в хронологическом порядке описывается термин песня, являющаяся одним из жанров узбекского пения, и как этимологические и терминологические значения слова используются в литературных и исторических источниках. Первое появление этого термина в тюрке показываем произведениями Махмуда Кашгари «Девону лугатит-турк» и Алишер Навои.

Ключевые слова: песня, терминология, произведение, вес, стихотворение, этимология, анализ, ода.

"QO'SHIQ" ISTILOHINING ETIMOLOGIK VA TERMINOLOGIK MAZMUNIGA DOIR

Annotatsiya

Maqolada o'zbek ashula san'ati janrlaridan biri bo'lgan qo'shiq va bu so'zning etimologik va istilohiy ma'nolari adabiy va tarixiy manbalarda qanday ishlatilganligi xronologik tarzda yoritib berilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida ushbu terminning ilk bor paydo bo'lishi va Alisher Navoiy asarida ham ushbu terminning qo'llaganini misollar bilan keltirib o'tganmiz.

Kalit so'zlar: qo'shiq, terminologiya, asar, vazn, she'r, etimologiya, tahlil, qasida.

So'ngi yillarda tilshunoslarda terminologiya muam-molariga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Ushbu fanning ko'p o'lchovliligi, o'ziga xosligi va amaliy ahamiyati bu sohadagi tadqiqotlarning yanada qiziqarli bo'lishiga turtki berdi. Hozirgi bosqichda o'zbek tili lug'at tarkibining asosini turli-tuman terminologik tizimlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek tilshunosligida, xususan, uning terminologiyasida ko'plab dissertatsiya va ilmiy ishlar yuzaga keldi. Bop maqolalarning e'lon qilinganligi bilan bu yo'nalishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan so'nggi o'tgan vaqt davomida tilshunoslikning boshqa bo'limlari kabi terminologiyada ham ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilganligi bilan bir qatorda hali tadqiqatlab soharalarining ko'pligini ham kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunda yurtimizda san'at sohasidagi, jumladan, qo'shiq, folklor, teatr, musiqa va kinoga oid terminlarni o'rganish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu masalada tilshunos olimlar bilan bir qatorda yetuk shoir va yozuvchilarimizning ham jiddiy fikrlari mavjudligi e'tiborga loyiqdir.[1]

Inson kundalik hayotida, do'stlar davrasida, oila bag'rida ko'cha-ko'yda yurganida juda ko'p so'zlar, gaplar, iboralarni o'z ongi va tili oraqli qo'llaydi, lekin aksariyat odamlar bu terminlarning aslida qanday ma'noda qo'llanilishi, qayerdan kelib chiqqanligi, qaysi manbalarda qo'llangani bular haqida deyarli hech kim to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydi. Ma'lum bir sohaga tegishli ba'zi xos so'zlarni soha mutaxassislari bilishi zarurligini esa ta'kidlab o'tish ham lozim emasdir. Shu ma'noda san'at ahli va san'atshunoslar uchun qiziqarli bo'lgan terminlardan biri qo'shiq termini etimologiyasi masalasini tahlil qilib chiqmoqchimiz. "Qo'shiq" so'zi oddiy kishilar nutqida ashula, musiqiy asar, kuyga solinib aytiladigan she'rlar ma'nosida qo'llansa,

ashulachilar, musiqa arboblari nutqida vokal janridagi san'at asari sifatida ishlatiladi. O'zbek tilidagi qo'shiq so'zi qo'shmoq fe'lidan yasalgan bo'lib, "qo'sh" va "-iq" komponentlaridan hosil qilingan. Biror bir she'riy matn so'zlaridagi harf va tovushlarni bir biriga ulab, qo'shib talaffuz etish orqali hosil qilingan audiomatn qo'shiq deb ataladi. Boshqacha aytganda kuyga, ohangga solib ijro etilgan nazmiy matn ashula yoki qo'shiq deb ataladi.

O'zbek tilida ashula, yalla, xirgoyi (xirgohiy) so'zlari qo'shiq so'ziga sinonim sifatida ham qo'llanadi. Shu ma'noda ashula so'zi qadimiymi yoki qo'shiq so'zi degan masalani hal etish uchun qo'shiq terminining tarixi va etimologiyasi xususida fikr yuritimiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Biz eng avvalo, qo'shiq termini bilan qo'shiqchilik an'alarining paydo bo'lishini bir-biridan farqlab olishimiz kerak. Hofiz va tarixchi olim professor Hojiakbar Hamidov o'zining "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik tarixi" kitobida "Avesto" matnlari marosimiy ijro doirasida va unga quloq tutgan jamoa uchun badiiy idrok nuqtayi nazaridan ham o'ziga xos qo'shiqlar bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tgan. Aytish lozimki, "Avesto" matnlari ayni qo'shiq sifatida maxsus qiroat shakllariga bo'ysundirilgan. Qiyosan shuni ta'kidlash lozimki, Qur'oni Karimning ham yetti xil qiroat usuli mavjud bo'lgan. Qadimgi O'rta Osiyo va boshqa Sharq xalqlarida "Avesto" gacha bo'lgan davrda ham qo'shiqchilik san'ati mavjud bo'lgan"[2]. Qadimgi qo'shiqchilik san'ati janrlari va shakllari rang-barang bo'lib ular ijtimoiy turmush, xalq an'analari hamda marosimlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyo xalqlari qo'shiqchilik madaniyati, asosan, madhiya, alla, yig'i (marsiya), harbiy chaqiriqlar, ibodat qo'shiqlari, tantanali bayram qo'shiqlari tarzida namoyon bo'lgan. Yunonlar O'rta Osiyo qo'shiqchilik san'ati juda

qadimiy ekanligini alohida ta'kidlashgan. Qadimgi davrlarda qo'shiq san'at turi juda kerakli, ahamiyatli bo'lgan qo'shiqchilar, eng avvalo, shoh va davlat ayonlariga atab madhiyalar bitgan va eng qiziqarlisi, xomilador ayollarning to'lg'oq paytidagi og'riqni pasaytirish uchun ham qo'shiq ijro etgan. Keyingi davrlarda esa marosim va kasbga oid qo'shiqlar ham yaratish a'anasi shakllangan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

“Qo'shiq” termini ilk bor Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'ati turk” asarida “qo'shug'” (she'r, qasida, qo'shiq) ma'nosida qo'llangan. Asarda shunday keltiriladi:

Turkan qatun qutina

Tegur mendin tabg'uchi.

Achg'il sezmin tabg'uchi

Otnur jani tabug'.

Malika (shoh) xotinga mendan maqtov, qasida (qo'shiq) etkur va xodimingiz yangi xizmat bilan yo'llanadi deb ayt [3].

Mazkur to'rtlikda kelgan qo'shiq so'zi “qasida, olqish” ma'nosini ifodalagan va to'rtlikning ma'nosidan sezilib turibdiki, oshiq o'z malikasiga ishqiy qasida bitib unga yo'llamoqda. Mahmud Qoshg'ariydan so'ng ushbu atamani Yusuf xos Hojib o'zining “Qutadg'u bilig” asarining she'riy muqaddimasida ham qo'llagan, mazkur so'z “she'r, nazm” ma'nosida qo'llanilgan:

Bu turkcha qo'shuqlar tuzattim senga

O'qurda unutm, dua qil menga [4].

(Senga atab bu turkcha qo'shiqlarni tuzdim, o'qish chog'ida meni unutma va duo qil.) Ushbu misralar bilan muallif o'zining asarini turkcha qo'shiqlardan tuzganligini ta'kidlamog'da. Shu o'rinda har ikki asarda qo'llanilgan ushbu so'zlar deyarli bir-biriga yaqin so'zlar ma'nosida kelyotganligiga yana bir ishonch hosil qilib olishimiz mumkin. Asarning birida qasida ma'nosida kelsa, ikkinchisida she'r ma'nosida qo'llanilmoqda. Yusuf xos Hojib davrida yashagan Kaykovus ham o'zining “Qobusnoma” asarida aynan qo'shiq termini ma'nosini beruvchi “surud” so'zini qo'llagan. U yozadi: “... Shul vajhdin bu fanning ustodlari san'atga shundog' tartib bermishlarki, avval podshohlar majlisi uchun xisravona dostonlar tuzmishlar, undan so'ng vaznsiz bir og'ir yo'l tuzmishlarki, uni ikki surud (ashula, qo'shiq) bila aytsa bo'lur va unga og'ir yo'l, deb ot qo'ymishlar” [5].

Turkiy adabiy til asoschilaridan biri Alisher Navoiy o'z asarlarida qo'shiq temini ko'p o'rinlarda qo'llagan. Navoiy boshqa yozuvchilardan farqli o'laroq qo'shiq terminini bir necha asarlarida izohlab, uning keng ma'noga ega ekanligiga e'tibor qaratgan. Buyuk alloma o'zining “Mezon ul-avzon” asarida ushbu atama ta'rifini ham keltirib o'tadi: “Yana turk ulusi bitaxis chig'atoy xalqi aro shoyi avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bila yasab majolisida ayturlar. Biri “tuyug'”durkim ikki baytda muqarrardur va say qilurlarkim, tajnis aytulg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur. Yana “qo'shuq”durkim, arg'ushtak usulida shoyidur va ba'zi advor kutubida o'q usul zikr bo'libdur va ul surud a'robining teva surar hudilari vazni bila madidi musammani solimda voqe bo'lur aning asli bu navdurkim,

Vahki ul oy hasrati, dardi bog'i furqati

Ham erur jonimg'a o't, ham hayotim ofati. [6]

Ushbu fikrlari bilan Navoiy mazkur misralarni yigitlar ramali musammani mahzuf vazniga solib muloyim qilib tabliq qilsa ya'ni kuylasa bo'ladi, deb ta'riflab o'tgan.

Mana shu tahlillardan ko'rib turibdiki, har bir so'zning ma'nosini ochish uchun Navoiy maxsus baytlar ijod qilgan. Bundan tashqari, Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida ushbu atamaning ta'rifini keltirib o'tgan bo'lsa, “Hayrat ul-abror” dostonida qo'shiq termini alohida she'riy bahrni ifodalishiga ham e'tibor qaratgan:

Anglamayin so'zda tuyuq bahrini,

Qaysi tuyuq, balki qo'shuq bahrini. [7]

Ya'ni, shoir so'z san'atida tuyuq va qo'shiq bahrlari farqini bilmay turib, odamlarga manzur asar yarata olmaydi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” asarida ham bu vazn ya'ni qo'shuq ko'ngil oladigan vazn deb ta'riflab o'tadi:

Qilgil ey arami jan necha tartay intizar,

Qildi hajring natavan qildi shavqing beqarar

Bu vazn turk arasida qoshuqqa mavzumdur.

Urg'ushtak bitarda bu vazn taqsim qilurlar.[8]

Mumtoz adabiyotimiz manbalari ichida to'rt tuyuq ko'rinishida, yana qo'shuq ko'rinishida bo'lishi mumkinligi eslatib o'tilgan.[8] Q.Sodiqov o'zining “Ilk va o'rta asrlar turkiy matnlari nomlarining izohli lug'ati” kitobida aynan qo'shiq atamasi ta'rif Britaniya muzeyida saqlanayotgan bir turkiy qo'lyozmada ham mavjudligini keltirib o'tadi. Fanda qo'shuq (hozirgi imlodagi qo'shiq) so'zlashish etimologiyasi haqida ham fikrlar bildirilgan. Ko'pchilik bu so'zning o'zagini “biriktirmoq” ma'nosidagi qo'sh-ug' fe'lga bog'laydi. “Qo'sh” so'zi yer haydovchi ho'kiz bilan omoq qo'shilishini bildiradi degan fikrlar ham bor. Ta'kidlash lozimki, qo'shuq so'zining o'zagi etilgan ma'nolarining birortasiga bog'lanmaydi. Yasalishi: o'zagi qo'sh- bo'lib, -(u)q – ot yasovchi qo'shimcha;u otdan emas, fe'ldan ot yasaydi. Shunday ekan bu so'z o'zining “yer haydovchi xo'kizga” bog'lanuvi o'rinli emas. So'zning qo'sh- o'zagi “biriktirmoq” ma'nosida ham emas, u she'r to'qimoq ma'nosidadir (Masalan, bir shoir boshqa bir shoir haqida xazil qilib “Menman Yo'ldosh Sulaymon, so'zni so'zga ulayman” deb uning monologini to'qiganligi ham bejiz emas).

Bu ma'no qadimgi turkiy tilda amal qilgan. “She'r to'qimoq” iborasini “Devoni lug'ati turk”da ham uchratamiz: ол йыр кошды – u she'r yozdi [8]. Hozirgi o'zbek tilida bu so'z жир shaklida uchraydi: qiz bola borgan (tushgan) joyida jirini jirlab ketsin (ashulasini aytib yursin, ya'ni shod yashasin) ma'nosida qo'llangan. Demak biz manbalardan qayd etilgan misollardan hozirgi qo'shuq atamasi tarixan qo'sh-fe'lining “qo'shmoq, biriktirmoq” semasidan emas, “she'r, ashula to'qimoq” semasidan yasalganini bilishimiz mumkin. Mahmud Qoshg'ariy o'z devonida bir ma'noli so'zning turli shakllarini qo'llaganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Chunki Qoshg'ariy qo'shuq so'zini ba'zi o'rinlarda yir va yana ba'zi joylarda kor(-kyr)shaklida namoyon qiladi. Kog(-kug) so'zini ikki ma'noda qo'llaydi: 1) she'r, she'r turi, she'riy o'lchov, nazm; 2) kuy, ohang, ashula. Alloma kuy ohang ma'nosini bildiruvchi kog (-kug) so'zini quyidagi to'rtligida keltirib o'tadi:

Koglar qamug' tuzildi,

Yishiq idish tizildi.

Sensiz ozum uz aldi,

Kelgil, amul oynalim.

(Kuylar bari tuzildi, May idishlar tizildi. Sensiz ko'nglim barqarordir, Kelgin, hotirjam bo'lib o'ynaylik) [3]. Mahmud Qoshg'ariy kogla- fe'lini izohlar ekan, uning “kuylamoq, ashula aytmoq” ma'nosida ekanligini ta'kidlaydi. Er kogladi – kishi kuyladi, ashula aytdi. Ushbu misoldagi kogla fe'li “qo'shiq, ashula” ma'nosidagi kog dan yasalgan. Alisher Navoiy esa ushbu fe'lni “ohang” ma'nosida qo'llagan Keyinchalik esa til taraqqiyoti davrida ushbu kog fe'li kuy so'ziga aylangan[8].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tilshunos olim SH. Rahmatullayevning “O'zbek tilining etimologik lug'ati” da “Qo'shiq” ga quyidagicha ta'rif beriladi:

“Qo'shiq “ashula”. Ko'cha tomonda childirma va qo'shiq eshitildi (Parda Tursin). Qadimgi turkiy tilda “birlashtir –” ma'nosini anglatuvchi qosh- fe'lidan -(u)g' qo'shimchasi bilan yasalgan bu ot asli “she'r, qasida” ma'nosini anglatgan, ma'no taraqqiyoti natijasida “ashula qilib aytiladigan she'r”, umuman, “ashula” ma'nosi yuzaga kelgan; eski o'zbek tilida bu so'z oxiridagi g' undoshi q undoshiga

almashgan; keyinchalik, ikkinchi bo'g'indagi u unlisi i unlisiga almashgan: qosh- + ug'= qoshug'> qoshuq> qoshiq" [9].

Qo'shiq terminini o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izohi beriladi:

QO'SHIQ 1. Keng ma'noda she'riy-musiqiy janr; ashula. Lirik qo'shiq. She'riy qo'shiq. Xalq qo'shiqlari. Qo'shiq aytmoq. Qo'shiq bastalamoq. – Unda alla, qo'shiq bor. Issiq bag'ir va ishq bor (Gulchehra Jo'rayeva), Yaxshi kuy va qo'shiq insonga xush kayfiyat bag'ishlaydi (Gazetadan).

2. Lapar, terma[10].

“O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da ham o'qiyimiz: “QO'SHIQ – keng ma'noda she'riy musiqiy janr; vokal musiqaning eng ommalashgan, ko'proq band shakliga asoslangan turi, shuningdek, kuylashga mo'ljallab to'qilgan she'riy asarlarning umumiy ifodasi. Xalq ijodiga mansub, bastakor va kompozitorlar yaratgan, ommabop musiqa yo'nalishidagi qo'shiqlar farqlanadi. Kelib chiqishi, janri va mazmuniga qarab marosim qo'shiqlari va ommaviy qo'shiq, shahar, dehqon, bolalar, maishiy, harbiy, lirik, raqs va boshqa qo'shiqlarga ajratiladi. Qo'shiqlar kuyi, diapazoni ixchamligi, musiqa rivoji (yoki band-naqarot) shakliga asoslanganligi,

ohanglar tizimida so'z va kuy intonatsiyalari, mushtarakligi she'riy matndagi g'oyaviy-emotsional mazmun rivojining umumiy tarzda ifodalanishi bilan ajralib turadi” [11].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tahlilga tortilgan qo'shiq termini turkiy so'zdan kelib chiqqani va u ilk bor Qoshg'ariy o'z asarida qo'llaganini, terminning asl ma'nosi she'r, qasida, madh, olqish ma'nolarini ifodalashini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bizga ma'lum bo'ldiki, qo'shiq termini Bobur, Alisher Navoiy asarlarida ham mukammal darajada qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin qo'shiqchilik san'ati esa qo'shiq terminidan ancha oldin paydo bo'lgan. Qo'shiq termini orqali biz nafaqat, bu so'zning etimologiyasini, shu bilan birga qo'shiqchilik an'alarining ham paydo bo'lishini e'tiborga olishimiz kerak. Qo'shiq qadimdan inson ongini o'zgartiruvchi, orom beruvchi va zavqlantiruvchi, hatto tug'ruq jarayonida ham ayollarga dalda bo'luvchi orom manbai hisoblangan. Qo'shiqlar to'g'risida o'nlab ashulalarning mavjudligi (“Qo'shig'im bor, qo'shig'im”, “Qo'shiq aytсам”, “Qo'shiqlarim, siz uchun xijolatlik emasman”) so'z, kuy va ijro birligidan yaralgan san'at asarlari doimo insonga hamroh ekanligini yodimizga solib turadi.

АДАБИЁТЛАР

1. Вохидов Э. Сўз латофати. –Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2014. 5-б
2. Ҳамидов Ҳ. Ўзбек анҳанавий кўшиқчилик тарихи. –Тошкент.: “Ўқитувчи”, 1996. 11-б.
3. Қошғарий, Маҳмуд. Девони луғат ит турк. – Тошкент.: 1963. “Фанлар академияси”, 357-б. 220-б.
4. Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент.: “Юлдузча”, 1996. 58-б.
5. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент.: “Истиклол”, 1994. 161-б.
6. Алишер Навоий. Мезонул-авзон. – Тошкент.: “Фан” 1991. 92-б.
7. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент.: “Фан” 1991. 65-б.
8. Содиков К. Илк ва ўрта асрлар туркий матнлари номларининг изоҳли луғати. – Тошкент.: 2001. 22-б. 25-б.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: “Университет”. 2003. III. III 590, 591-б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Тошкент.: 2006, 419, 420-б.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти. –332, 333-б.



Юлия МАТЕНОВА,
Доцент ТГПУ, к.ф.н.
E-mail: matenova.julia@gmail.com

На основе рецензии к.ф.н., доцента ТГПУ им. Низами Магдиевой С.С.

MADANIY TRANSFER NAZARIYASI MASALASIGA

Annotatsiya

Ushbu maqolada «madaniy transfer» kontseptsiyasining ta'rihi berilgan, uning kelib chiqishi, adabiyotlarning o'zaro ta'sirlari tizimidagi funktsiyasi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, madaniy transferning an'anaviy taqqoslashdan farqlash ham keltirilgan. Maqola yakunida madaniy almashinuv – har doim ikki tomonlama va ijodiy jarayon ekanligi haqida xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: madaniy transfer, adabiy o'zaro ta'sirlar, qarama-qarshilik, taqqoslash, diahroniya.

ON THE QUESTION OF THE THEORY OF CULTURAL TRANSFER

Abstract

This article defines the concept of "cultural transfer", examines its origins, function in the system of literary interactions. The differentiation of cultural transfer from traditional comparative studies is also given. In conclusion, it is concluded that cultural exchange is always a two-way and creative process.

Keywords: cultural transfer, literary interactions, opposition, comparative studies, diachrony.

К ВОПРОСУ О ТЕОРИИ КУЛЬТУРНОГО ТРАНСФЕРА

Аннотация

В данной статье даётся определение понятию «культурный трансфер», рассматриваются его истоки, функция в системе литературных взаимодействий. Также приводится дифференциация культурного трансфера от традиционной компаративистики. В завершении делается вывод о том, что культурный обмен – это всегда двусторонний и творческий процесс.

Ключевые слова: культурный трансфер, литературные взаимодействия, оппозиция, компаративистика, диахрония.

Введение. С середины 1980-х годов изучение межкультурного взаимодействия обусловило рождение теории культурного трансфера. У ее истоков стоят французские исследователи М. Эспань и М. Вернер, а поводом для появления теории послужили рукописи Г. Гейне, находящиеся во Франции. Работа с рукописями привела к следующим наблюдениям и умозаключениям: немецкий поэт стал значительным явлением французской культуры и есть основания говорить о французской германистике как «модели франко-немецкого культурного пространства»[7].

Анализ литературы по данной теме. Разработке теории культурного трансфера посвящено фундаментальное исследование И.Н. Лагутиной, основная задача которого – определить, «как появляется и осуществляется у литературного текста новая культурная функция, какие факторы способствуют тому, чтобы он органично включился в “чужой” для него культурный (а не только литературный) процесс» [6].

Концепция «культурного трансфера», получившая широкий резонанс в мировом научном сообществе, была апробирована в ряде исследований, статей, публикаций; ей были посвящены многочисленные конференции мирового и регионального уровней. Большой интерес представляют материалы конференции «Цивилизационно-культурное пограничье как генератор становления мировой культуры / литературы», на которой главный акцент был поставлен «на вечной нестабильности и динамичности культурного/литературного процесса как его имманентного свойства, что соответствует современной теории открытых систем»[10]. В своем докладе «Цивилизационно-культурное пограничье – универсальная константа, энергетический источник и средство самостроения мирового историко-культурного

процесса / мировой литературы» В.Б. Земсков выводит концепт цивилизационно-культурного пограничья в историческую динамику в Большое Время становления, которое ученый определяет «не в категориях бинарного, дихотомического кода, а в категориях синергетики, для которой главные принципы – не ставшее, а становящееся, не статика, а движение, не завершенность, а переходные формы. Ученый концептуализирует цивилизационно-культурное пограничье, установив «принцип динамического нелинейного процесса по множественным путям, а тем самым устранив любой принцип центризма, и разделяя, соответственно, идею И.Г. Гердера о существовании множества культур; понимание С.М. Бахтиным универсальной взаимосвязи граница – пограничье – культура; идеи А.И. Веселовского о том, что культура состоит из «неразрешимо смешанных» явлений; идеи Лотмана (прежде любого текста был другой текст) и о легитимности «неадекватного» (т. е. трансформированного) «перевода» (т. е. адаптации феноменов одной культуры в другом контексте), опираясь на современное развитие этих идей в «культурном трансфере» о том, что любой контекст изначально является «нечистым», «смешанным», «покрещенным»; взяв за основу самостроения мирового историко-культурного процесса постоянное изменение, пересечения, перекрещивания контекстов, их взаимодействие, мы увидим этот процесс как сплошную сеть погранично-трансграничных (в Большом времени) взаимодействий и трансформаций»[3].

Новым этапом в развитии научной стратегии культурного трансфера представляется международная конференция «Культурный трансфер на перекрестках Центральной Азии: до, во время и после Великого шелкового пути», проходившая в Самарканде 12-14

сентября 2013 г., по результатам которой был издан сборник статей[5].

Во введении «Теория “культурного трансфера” в приложении к Центральной Азии», авторами которого выступила группа ученых из разных стран (Ш. Мустафаев, М. Эспань, С. Горшенина, К. Рапэн, А. Бердимурадов, Ф. Гренэ), раскрывается целесообразность проведения конференции подобного масштаба и направления в условиях Центральной Азии, которая «представляет собой идеальную “контактную зону” в “длительном времени”. Здесь константно, но согласно различным сценариям, происходили и происходят семантические изменения смысла отдельных элементов разных “сталкивающихся” культур, их переформулировки, последовательные многочисленные “переводы”, все более отдаляющиеся от оригинала с тем, чтобы создать новые тексты, образы, практики или артефакты»[8]. В ходе исследовательской работы была отмечена весьма важная мысль, что анализ культурного трансфера предполагает процесс, во время которого элемент одной культуры, «пройдя через “плавильный котел”» (термин М. Эспаня – Ю.М.), образуют из гетерогенных оригинальных составляющих новые гомогенные структуры...»[8]. Примечательно, что при этом акцент ставится на «динамике трансформаций в процессе трансфера, напрямую зависящей от потребностей «принимающей» культуры, ее готовности к восприимчивости»[8]. Таким образом, решающим фактором для трансфера является не потребность в экспорте, а готовность к импорту.

Насколько многовекторной и разнообразной была тематика Среднеазиатской конференции, можно судить, к примеру, по докладам, представленным участниками конференции: Евгений Абдуллаев, «“Авеста” Хосрова Ануширвана: случай трансфера платоновской философии?»; Сергей Абашин, «Узбекская кухня в России: трансфер культурного “чужого”». Как видим, совершенно разные аспекты (философский, культурологический) могут выступать под одним знаменателем культурного трансфера, что свидетельствует об универсальном характере данного методологического направления.

Успешным результатом научного испытания для культурного трансфера можно признать коллективную монографию «Сибирь как поле межкультурных взаимодействий: литература, антропология, историография, этнология», изданную в 2021 году и представившую совершенно «свежий» материал по проблеме[9]. Этот научный труд явился результатом многолетнего сотрудничества между Институтом мировой литературы РАН и Лабораторией экселанс «Культурный трансфер» (labex TransferS) Национального центра научных исследований Франции (ответственные с русской и французской сторон – Е.Е. Дмитриева и Мишель Эспань).

Методология исследования. В качестве методологической базы была использована теория культурного трансфера, «которая делает особый акцент на понимании культуры и ее истории не как смены жестких парадигм, но как непрекращающегося движения, взаимообмена, когда «чужеродные» вкрапления и имбрикации составляют тот своеобразный фундамент, из которого формируется национальная идентичность»[9].

Анализ и результаты. Исходным посылом к разработке теории культурного трансфера, по мнению исследователя, Е.Е. Дмитриевой, стал вопрос, заинтересовавший М. Эспаня, историка культуры и собственно автора термина «культурный трансфер»: как интерпретация немецкой философии, предложенная

французскому читателю Генрихом Гейне, пришла в столкновение с уже имевшимися во Франции представлениями о немецкой культуре и немецкой философии [2]. Е.Е. Дмитриева выделяет основные интенции своего исследования, отразившие ключевые положения теории культурного трансфера: она говорит о генезисе метода культурного трансфера в западно-европейской литературной критике, о контекстах его применения, о том, что метод «культурного трансфера» был создан как своего рода оппозиция традиционной компаративистике. В частности, раскрывая специфику культурного трансфера, Дмитриева пишет, что компаративизму с его постулатом об индивидуальности каждой культуры теория культурного трансфера противопоставляет не только типологическое изучение нескольких культур, но также и изучение имбрикаций, вкраплений, трансформаций, которые при всяком соприкосновении культур проявляются равно в культуре воздействующей и культуре принимающей[2].

Концепция Лагутиной выстраивается на основании того, что текст воспринимается как некий «культурный перекресток», где «скрещиваются, завершаются и начинаются пути в разные пласты культуры, которые под воздействием этого текста становятся иными <...> Таким образом, литературный текст рассматривается как некая порождающая новый смысл единица <...> “Порождающая” особенность текста выступает особенно ярко <...> когда он имеет внутри себя нечто “чуждое”, воспринятое из “другой” культуры, и поэтому обладает особой потенциальной силой. <...> включенный в чужой культурный контекст, этот текст, с одной стороны, получает новый смысл, обрастает новыми ассоциациями и приобретает новые функции, а с другой – каким-то образом меняет новую культуру <...> Возникает бесконечная последовательность культурных смыслов, трансформаций, переносов, новых метафоров и символов, новых идей и мотивов и т. д. Понятие “перекрестка культур” становится при таком подходе культурной универсалией, помогающей исследовать своеобразие литературного текста как социокультурного феномена»[2].

Обращаясь к работе Мишеля Эспаня «Французско-немецкие культурные трансферы»[11], Лагутина отмечает: «Научное исследование, посвященное культурному ареалу как таковому, во всей совокупности его внутренних стратификаций, позволяет понять механизмы функционирования культуры более точно, чем традиционные дисциплины гуманитарных или социальных наук»[6].

Таким образом, И.Н. Лагутина, констатируя факт актуальности «культурного трансфера» как новационного методологического подхода в изучении межкультурных отношений и связей, справедливо резюмирует: «исследователи понимают необходимость создания иного (нетрадиционного) сравнительного литературоведения, способного выразить особенность нового подхода к литературному тексту – внутренне подвижной структуре, способной полностью развернуть свой смысл только “на перекрестке” культуры»[6].

В 2014 году в Золотом зале Европейского университета Мишель Эспань прочитал лекцию «Что такое культурный трансфер?», основное содержание которой получило освещение на сайте Respublic.ru. О. Якушенко, автор статьи на базе лекции французского исследователя, изложила основные параметры научной концепции культурного трансфера[12]. Главное, о чем пишет Якушенко со ссылкой на М. Эспаня, это то, что «обмен – это всегда двусторонний и творческий процесс». О. Якушенко отмечает сравнительный аспект, который

обнаруживается при рассмотрении культурного трансфера как преимущественно новационного подхода: «Сторонники изучения культурных трансферов предлагают заменить компаративистику как поиск различий и сходств изучением форм культурного смешения, взаимопроникновения и гибридизации»[12].

Весьма важной мыслью, по мнению О. Якушенко, является признание Мишелем Эспанем того, что «изучение контекста отправляющей и принимающей сторон важно осуществлять в диахронии, поскольку в разные эпохи актуализируются разные контексты и этот процесс не происходит одновременно в культурных зонах, между которыми происходит трансфер»[12].

Заключение. Ключевым положением в теории культурного трансфера является предпочтение понятия «культурные зоны» и отрицание понятий «нация» и «страна». Каждая культурная зона, по мнению М. Эспаня, также «является результатом смешения различных культурных элементов, в ней есть части, более или менее подверженные влиянию трансферов»[12].

На рубеже XX и XXI веков выходит работа французской исследовательницы Паскаль Казановы «Мировая республика литературы». Говоря о литературе, автор использует, со ссылкой на Генри Джеймса, красноречивую метафору: литература – это «ковёр, а узор на ковре становится видимым, если подобрать к нему ключ»[4].

П. Казанова продолжает вслед за П. Валери: «Литературные произведения никогда не бывают продуктом национальной среды, их формирует соперничество культур (всегда отрицаемое) и литературная борьба, всегда межнациональная»[4]. Речь идет не о том соперничестве, которое разъединяет, а о том соперничестве, которое есть «основа объединения». Далее, цитируя П. Валери, П. Казанова пишет, что ««интенсивность культурной производительности и количество распространяемых идей», пользуясь выражением Валери, зависят не только от литературы как таковой, но и от сотрудничества писателей, музыкантов и художников, иными словами, от совмещения разного рода творческих капиталов, что приводит к взаимообогащению»[4].

Безусловно, культурный диалог в полиэтническом контексте начался задолго до XIX века, когда на него обратил внимание Гёте. Европейские научные школы и направления XIX века (компаративисты, сторонники теории заимствования) обратили внимание на древнюю словесность, находя в ней множество пересечений, культурную многослойность западных, византийских, восточных элементов, сливавшихся в единое целое. Однако как сфера гуманитарного знания межкультурный диалог, стартуя в XIX веке, становится мировой литературоведческой проблемой именно в XX веке, не теряя острой злободневности по сей день.

ЛИТЕРАТУРА

1. Веселовский А.Н. Историческая поэтика / Вступ. ст. И.К. Горского; сост., коммент. В.В. Мочаловой. Москва: Высшая школа, 1989. 404 с.
2. Дмитриева Е.Е. Теория культурного трансфера и компаративный метод в гуманитарных исследованиях: оппозиция или преемственность? // Вопросы литературы. 2011. № 4. Июль-август. С. 302–313.
3. Земсков В.Б. Цивилизационно-культурное пограничье – универсальная константа, энергетический источник и средство самостроения мирового историко-культурного процесса / мировой литературы // Материалы конф. «Цивилизационно-культурное пограничье как генератор становления мировой культуры / литературы». Москва, 4–6 июня 2012 г. URL: <http://www.nrgumis.ru/articles/335/>
4. Казанова П. Мировая республика литературы / Пер. с франц. М. Кожевникова, М. Летарова-Гистер. Москва: Изд-во им. Сабашниковых, 2004. 413 с.
5. Культурный трансфер на перекрестках Центральной Азии: до, во время и после Великого шелкового пути. Париж-Самарканд: МИЦАИ, 2013 г. 312 с.
6. Лагутина И.Н. Россия и Германия на перекрестке культур: Культурный трансфер в системе русско-немецких литературных взаимодействий конца XVIII – первой трети XX века. Москва: Наука, 2008. 342 с.
7. Лобачева Д.В. Культурный трансфер: определение, структура, роль в системе литературных взаимодействий // Вестник Томского гос. пед. ун-та. 2010. Вып. 8. С. 24.
8. Мустафаев Ш., Эспань М., Горшенина С., Рапэн К., Бердимуратов А., Гренэ Ф. Введение. Теория «Культурного трансфера» в приложении к Центральной Азии // Культурный трансфер... Указ изд. URL: https://www.academia.edu/24064158/Transfers_Samarkand_BD
9. Сибирь как поле межкультурных взаимодействий: литература, антропология, историография, этнология / Под ред. Е.Е. Дмитриевой, П.В. Алексеева, М. Эспаня. Москва: ИМЛИ РАН; Азбуковник, 2021. 496 с.
10. Стеценко Е.А. Вступительное слово // Материалы конф. «Цивилизационно-культурное пограничье как генератор становления мировой культуры / литературы». Москва, 4–6 июня 2012 г. URL: <http://www.nrgumis.ru/articles/335/>
11. Эспань М. История цивилизаций как культурный трансфер / Пер. с франц.; под общ. ред. Е.Е. Дмитриевой; вступ. ст. Е.Е. Дмитриевой. Москва: Новое литературное обозрение, 2018. 816 с.
12. Якушенко О. Мишель Эспань. Что такое культурный трансфер? Лекция, прочитанная 26 мая 2014 года в Европейском университете. СПб., 2014. URL: <http://slon.ru/calendar/event/1109349/>



Zukhra MAKHAMADALIYEVA

Teacher of the National University of Uzbekistan

Email: m_zukhra.uzb@mail.ru

Under the review of Ph.D., Associate Professor I.K.Osarov

THEORY OF PHRASEOLOGY IN MODERN ENGLISH

Abstract

The article deals with the necessity of studying phraseology as an aspect of linguistics, namely, phraseological units that give speech a special expressiveness, imagery, accuracy and brightness and make it possible to understand the originality of a particular language. The article analyses the classification of English phraseological units by their origin.

Keywords: phraseology, phraseological unit, phraseological combination, phraseological unity, phraseological fusion, loanword.

ТЕОРИЯ ФРАЗЕОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются некоторые аспекты фразеологии как раздела лингвистики и ее единиц, известных как фразеологические или устойчивые выражения. Их использование делает речь яркой, выразительной и красочной, помогает понять природу языка. В статье также анализируется классификация английских устойчивых выражений по их происхождению.

Ключевые слова: фразеология, фразеологическая единица (ФЕ), фразеологическое сочетание, фразеологическое единство и фразеологическое сращение, заимствование.

ZAMONAVIY INGLIZ TILIDA FRASEOLOGIYA NAZARIYASI

Annotatsiya

Maqolada frazeologiya tilshunoslikning bir jihati sifatida tahlil qilingan, asosan nutqqa o'ziga xos ekspressivlik, obrazlilik, aniqlik va yorqinlik beradigan va ma'lum bir tilning o'ziga xosligini tushunishga imkon beradigan frazeologik birliklarni o'rganish zarurati haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada ingliz frazeologik birliklarining kelib chiqishi bo'yicha tasnifi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, frazeologik birlikma, so'z.

Introduction. Phraseological units that "form the communicative component in teaching a foreign language, transmit emotional aesthetic information, reflect the identity of the language and expand the professional and regional outlook" [4].

It is known that the term "phraseology", derived from the Greek words phrasis (speech turnover) and logos (teaching), denotes a section of linguistics that is devoted to the study of the phraseological composition of the language, namely: the semantic, morphological and stylistic properties of phraseological units. It is also a set of phraseological units inherent in a particular language, any writer or literary work [5]. This area of linguistics deals with the study of the stability and semantic structure of phraseological units, their consistency, origin and basic functions.

Phraseologism, or phraseological unit - stable in composition and structure, lexically indivisible and integral in meaning, a phrase that performs the function of a separate lexeme (vocabulary unit). Phraseologism is used as a whole that is not subject to further decomposition and usually does not allow the rearrangement of its parts. Phraseological units are introduced into speech ready-made, reproduced in it as something pre-built and made available to the speaker on an equal footing with a separate word. The semantic fusion of phraseological units can vary within a fairly wide range: from the non-deducibility of the meaning of a phraseological unit from its constituent words in phraseological adhesions (idioms) to phraseological combinations with a meaning arising from the meanings of its components[2].

Literature review. The general trend in modern English is the increased use of such units. They constitute an essential part of the general vocabulary of the English

language, so they should not be considered only as a separate part of it, which may or may not be used. PU problems have been developed in sufficient detail in Russian linguistics, while some difficulties in identifying them in practice are noted.

In addition, it should be noted that this theory is insufficiently developed in foreign science, which is confirmed by the absence in the English language of a name for this area of linguistics, as well as by the use of the term "set expression" instead of "phraseological unit" (they are understood as synonymous) and the use of the concept "idiom" (idiom).

"Бадиий адабиётда намоён бўлувчи реал-тарихий замон, макон ҳамда инсонни идрок этиш жараёни секинлик билан, мураккаб кечмоқда. Макон ва замоннинг алоҳида хусусиятлари, шунга алоқадор ҳолатда, жанр йўналишлари ва бадиий ифодалашнинг реал жиҳатлари инсоният қўлга киритган тарихий тараққиёт босқичлари билан боғлиқ ҳолда ўрганилмоқда"[1].

"Авантюр роман дунёси авантюр замон билан бошқарилади. Бу замон йил, ой, соат, дақиқалар билан эмас, "бир куни", "ўша куни", "бирдан", "шу пайт", "кутилмағанада" каби авантюр замон бирликлари билан ўлчанади"[2].

Аслида устоз олимлар назарда тутган бу қарашлар узоқ даврлар мобайнида яратилиб келган асарлар, йирик романлар, улардаги хронотип унсурларни ўрганишни назарда тутган бўлса-да, бу тушунчалар ниҳоятда долзарблиги боис бугунги замонавий адабиётга ҳам мос келади, деб ҳисоблаймиз.

- **Тадқиқот методологияси (Research Methodology).** Бадиий адабиётда инсоннинг моҳиятини англаш, унинг ҳис-туйғу ва кечинмаларини ифодалаш бош омилардан биридир. Шундай экан, инсон руҳий олами тасвири адабиётда эскирмайдиган, муҳим масала бўлиб қолаверади.

Замонавий адабиётда инсон руҳиятини тасвирлаш муаммоси тобора кенг кўлам касб этиб бормоқда. Инсон барча жонзотлардан азиз-у муқаррам қилиб яратилган экан, унинг маънавий, руҳий қиёфаси доимо энг эътиборли ўринларда туради. Шу сабабли ҳам инсоннинг маънавий, руҳий қиёфаси тасвири бадиий адабиётнинг муҳим омили сифатида эътироф этишимиз мумкин.

Ҳозирги ўзбек адабиётида бола образи акс эттирилган асарлар кўплаб топилади. Уларда бола характери турли макон, замонда, турлича шароитда гавдалантирилади. Яъни, замон, ижтимоий шароит бола образини тасвирлашда муҳим омилардан бири бўлиб хизмат қилади.

"Алвидо болалик" асари Тоҳир Малик ижодига алоҳида ўрин тутади. Асардаги асосий мавзу – ҳеч ким жиноятчи бўлиб туғилмайди, болани атроф-муҳит, жамиятдаги турли иллатлар жиноятчига айлантиради. Бу ҳақда адибнинг ўзи шундай дейди: "Мен ўсмирлар ва ёшларнинг жиноят кўчасига кириб қолаётганлигига бефарқ қараб туролмайман. Болалар ахлоқ тузатиш калонияларига ҳар борганимда юрагим эзилади. Озод, эркин яшаб, ўқиб, ҳунар ўрганадиган болалар бу ерга қандай тушиб қолдилар?! Наҳот жиноят олами уларга жозибали кўринса?! Мен жиноят оламини "Шайтанат", яъни шайтонлар етовидидаги зулмкорлар мамлакати деб

атаб, “Эҳтиёт бўлинг, жигарларим, бу кўчага якин йўламанг, боши берк бу кўчанинг адоғида фақатгина азобли, хорли ўлим топасиз”, – демок ниятида ёздим. Ёзганларимни огоҳлантириш деб қабул қилишларини истардим”, – дейди.

Дарҳақиқат, “Алвидо болалик” асари қаҳрамонларидан бири Қамариддин 14-15 ёшларга кирган ўсмир бола ҳаётнинг шафқатсиз зарбаларига эрта дучор бўлади. Ачинарлиси шундаки, унинг бу аччиқ қисматиға ўзи эмас, балки унинг қачонлардир ташлаб кетган отаси, бевафо, тайинсиз онаси сабабчи эди. Боланинг қалбида биринчи бор болалар уйида пастга уришлар, ҳақоратларга нисбатан исён уйғонади. Бу исён секин-секин ғазабга, ғазаб эса бора-бора нафратга айланади. Кўчада болалар уйида ўсаётган болаларни танийдиган одамлар уларни урушиб ҳайдаганда, ота-онаси бор бўлган тенгдошлари ирганиб четга итарганда ич-ичидан одамларга нисбатан нафрати ўсаверади ва бир куни онасининг ёнига келиб турадиган “амаки”ни ўлдириб қўйганини ўзи билмай қолади...

Зеро, келажакда яхши бир мутаҳандис, яхши бир шифокор ёки ўқитувчи бўлиши мумкин бўлган бир бола ўзгалар, тўғрироғи, катталар айби билан панжара ортида вояга етади. Ўсиб келаётган болани ниҳолга ўхшатадилар. Ниҳолга сув қуйиб туриш қанчалар зарур бўлса, болага ҳам меҳр, муҳаббат, яхши тарбия бериш ниҳоятда зарур. Бола – ўсмир олами катта эътибор талаб қилувчи кучдир. Улар табиатдаги, жамиятдаги ҳар бир ҳодисадан ўзига хос хулосалар чиқарадилар. Агар унинг бу хулосаси нотўғри бўлса, албатта, катталар томонидан тўғриланади. Ўсмирлик даврида бола маслаҳатга, дўстга, ширин сўзга доимо муҳтож бўлади. Агар у ширин сўз ва дўстликни ўз яқинларидан тополмаса, уни бегоналардан, кўчадан излайди.

Боланинг табиатида туғилган исён вақт ўтиши билан улғайиб боради. Ёзувчи мана шу кўрсаткич орқали замоннинг бола характери, унинг дунёқарашига таъсирини кўрсатади. Яъни бола кичик ёшида ундаги исён ҳали нафратга айланмаган, руҳиятида ортга қайтиш учун йўл бор эди. Аммо, унинг руҳиятини даволаш, уни тўғри йўлга солиш учун бирорга ҳам мураббий бўлмайди. Тарбия қилиши керак бўлган одамларнинг (отаси, онаси, етимхона тарбиячилари, кўчадаги қўшнилари) ё ўзлари тарбияга муҳтож, ё ортиқча уринишни истамас, ёки лоқайд эдилар. Бу орада вақт ўтади, ёзувчи вақтнинг ўтаётганини айнан рақамлар билан келтириб ўтирмайди (У.Жўрақулов таъбири). Бола улғайиб, етимхонадан чиқади ва онаси яшайдиган уйга боради. Мана шу сюжет орқали ёзувчи замон фонини чизиб беради. Айни вақтда китобхон ҳам вақт ўтаётганини сюжет орқали, боланинг қарашини, фикрларини ўзгаргани орқали билиб олади. Бола дастлаб онасини, одамларни ёмон кўрмасди. Улғайгани сари унга одамларнинг муносабатини англай бошлайди, англаган сари норозилик, исён, нафрат туйғулари ҳам улғайиб борди. Ўз-ўзидан аёнки, замон шакли бу ерда образ характеридаги эврилишларни юзага келтирди.

Психологлар ўсмирликни “...қарама-қаршилиқларга бой давр”, “кризислар (бухронлар), таназзуллар даври” деб ҳам атайдилар.

“Алвидо болалик” асари қаҳрамони Қамариддин тушкунлик руҳияти таъсирида аламзадалиқ туйғусига бўйсунди. У ҳеч қачон кўрмаган отаси ҳамда олифта, бепарво ва бевафо онасидан меҳр, эътибор топмагач, кўчага, безори ва чўнтакесарлар тўдасига бориб қўшилади. У шунчаки киссавурлик билан чекланмайди, чунки унинг қалбида кўмилиб ётган алам, нафрат одамлардан қасос олишга ундайверади. Натижада, қотилликка қўл уриб, қолган ҳаётини ҳам барбод қилади.

Шу ўринда боланинг махсус қамоқ мактабида ўқиётганида мактабнинг улар учун асло очилмайдиган катта, оғир, жигаранг дарвозаси тўғрисидаги ўриндиққа ўтириб ҳаёл сургандаги гапларини келтираман: “Ҳозир кўлимга милтиқ бериб бериб қўйишса-ю, дарвозадан отам билан онам кириб келса, шартта отардим. Ана ундан кейин ўзимни ҳам отиб юборишса майли. Йўқ, аввал суд бўлиши керак. Судда гапиришим керак. Боласини ташлаб кетган ота-онанинг жазоси шу, дейман. Тирик етимлар, ҳаммангиз аблаҳ ота-онангизни топиб отиб юборинг. Ёлғон гаплар тўқиб, уларни бир-бирингизга мактаб, яхши одам қилиб кўрсатманг, аямай отиб ташланг, дейман. Тирик етимларга милтиқ беришлар, дейман! Ана шундан кейин мени отишса ҳам майли!”[3]. Қамариддин шундай ўйлагани билан онасини ўлдирмайди. Қандайдир номаълум бўлган ички бир куч уни онага қўл кўтаришдан тўхтатиб туради. Аммо, бир куни уйига кўчадан ширакайф бўлиб келган болани онасининг ёнида ўтирган “отасининг дўсти”ни ўлдириб қўйишдан ҳеч қандай куч тўхтата олмайди.

Ҳеч бир фожиа асло тасодифан юз бермайди. Тасодифан бўлиб кўринган фожиа – бу сиртдан кўринган тайёр тасвирдир. Шу тасвирнинг пайдо бўлиши (юз бериши) учун эса узоқ тайёргарлик жараёни кечади. Фалсафада сабаб ва натижа тушунчаси бўлгани сингари бадий асарда ҳам ҳодисанинг юз бериш сабаби ва натижаси бадий ҳақиқат сифатида келтирилиши керак. Ёзувчи бу ўринда фожиа (натижа)га олиб келган ҳолат(сабаб)ни босқичма-босқич ёритиб беради. Яъни замон фони яққол кўриниб туради. Демак, замон энди сюжет чизиги билан барабар ҳаракатланади. Сюжет чизигидан қаҳрамоннинг улғайгани, фикрлаши ўзгаргани, энди аввалгидай ёлғиз эмаслиги, яъни атрофида ўзига ўхшаган “дордан қочган” болалар борлигини билиб оламиз. Қамариддин ёмон хулқли онасининг ёнида, уни мунтазам камситган жамият ичида ўқик кўнгли билан ёлғиз эди. Уни тинглайдиган ва англайдиган одам йўқлиги боис кўчада безори ва ўғри болалар билан тез топишиб олди. Бу тўдада энди у ёлғиз эмасди, “ўзига ўхшаган ёлғизлар” олами айни муддао бўлди. Кейинги воқеалар жиноят олами чиркинликларини гавдалантириш билан давом эттирилади. Боланинг руҳиятидаги таназзул ҳуруж чўққисидан ўтиб бўлди. Энди уни тарбиялаш ҳар қимнинг ҳам кўлидан келавермайди. Қалбидаги одамларга бўлган нафрат, кимдандир аламини олишга бўлган ёвуз интилиш аллақачон унинг ўзлигига айланиб қолди. Ниҳоят, уйга келди, онаси билан ўтирган “амаки”ни ўлдирди. Достоевский Раскольников қотилликни амалга ошириши учун қаҳрамонни узоқ вақт тайёрлайди, бунда қаҳрамон руҳан ўз-ўзини тайёрлайди. Раскольников кўп иккиланади, кўп бора журъат қилолмайди. Аммо Қамариддинда ўзини ўзи руҳан тайёрлашга, иккиланишга, журъат қилолмасликка ҳожат йўқ эди. Уни жамиятнинг ўзи, атрофидаги одамларнинг ўзи тайёрлаб қўяди. Замон фонидан юз беражак фожианинг сабаб ва натижаси ёритилади, далилланади.

Юкорида қаҳрамон тилидан келтирилган нутқда унинг қандай руҳият билан шаклланишини илғаш қийин эмас. Ёзувчи ана шундай оғир руҳий ҳолатни ёритади ҳамда шу ҳолатнинг шаклланишига сабаб бўлган омилларни ҳам бадий асослаб келтиради. Замон шакли бола образини ёритишда икки асосий вазифани бажаради: 1. Замон бола характери ни ёритишга хизмат қилган, яъни боланинг руҳиятидаги ўзгаришлар вақт ўтиши билан, йиллар давомида шаклланади. 2. Замон асар сюжети чизигига мос равишда намоён бўлади. Бу иккала ҳолатда ҳам замон тушунчаси асосий фон вазифасини бажариб, характер, образлар ва сюжет тасвирида ҳам замон ранги

хиралашмайди. Китобхон вақт ўтаётганини ҳис қилиб туради.

Бола ўзи билиб-билмай атрофдаги одамларга тақлид қилиб яшайди. У бошқалар билан бўлган ўзаро муносабатда ўзини англай бошлайди. Ўзининг кимгадир керакли ё кераксиз эканлигини ана шу муносабатлар найжасида тушуниб етади. Ёзувчи Тоҳир Малик бугунги замон боласи учун нақадар долзарб бўлган йирик муаммони қаламга олиб, ёритганки, унда болалар табиатида ҳар лаҳзада юз бериши мумкин бўлган руҳий

таназзулдан огоҳ этади. Айни замонда ҳам жамиятда ёлғиз қолиб, виртуал оламдан дўст ва шерик излаётган болалар бани башариятни ҳушёр бўлишга ундамоғи даркор. Умуман олганда, ёзувчи Тоҳир Маликнинг “Алвидо болалик” асари ўсмир болалар характери, уларнинг табиатидаги оғир руҳий кечинмаларни ёрқин тасвирлаб берган, қаҳрамон ва замон ходисасини уйғун ифодалай олган, жамиятда ёшларнинг руҳий тарбияси нақадар муҳим эканини образли кўрсата олган асардир.

АДАБИЁТЛАР

1. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975, стр. 234-235.
2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Т.: Ғ.Ғулом НМИУ, 2015. – Б. 92.
3. Тоҳир Малик. Алвидо болалик. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2019.
4. Тоҳир Малик. Қуёшингиз ботмасин. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2017.
5. Тоҳир Малик. Умидимиз юлдузлари. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2016.



Моҳидил ТУРАХОДЖАЕВА,

Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти

E-mail: turaxojayeva89@mail.ru

АДУ доценти в/б., ф.ф.ф.д. Эгамназарова Д.Ш. тақризи остида

CHARACTERISTICS OF FORMATION OF BOTANICAL LEXEMES THROUGH THE METHOD OF AFFIXATION

Abstract

The lexical layer of plant names is an integral part of the linguistic picture of the world, reflecting the economic and cultural activities of the people, the value system of the national linguocultural community, and their worldview. This article analyzes the structural-derivation laws of plant names in English, in particular, the specific nature of affixation, which is one of the main methods in the formation of lexemes of this group. Conclusions from the analysis of suffixal and prefixal morphemes used in the formation of plant names on the basis of structural-semantic and distributive, as well as frequency criteria can be used in lexicology, in particular in the field of onomastics and compiling terminological dictionaries.

Keywords: plant names, nomination laws, derivation, affixation, suffix, prefix, artificial word.

ХАРАКТЕРИСТИКИ ОБРАЗОВАНИЯ ЛЕКСЕМ РАСТЕНИЕВОДСТВА МЕТОДОМ АФИКСАЦИИ

Аннотация

Лексический слой растениеводства – неотъемлемая часть лингвистической картины мира, отражающая экономическую и культурную деятельность людей, систему ценностей национального лингвокультурного сообщества и их мировоззрение. В статье анализируются закономерности структурного происхождения названий растений в английском языке, в частности, специфика аффиксации, которая является одним из основных методов формирования лексем данной группы. Выводы полученные на основе структурно-семантического и дистрибутивного анализа суффиксальных и префиксальных морфем при образовании названий растений, а также частотной критерия, могут быть использованы в лексикологии, в частности в области ономастики и составлении терминологических словарей.

Ключевые слова: названия растений, законы номинации, деривация, аффиксация, суффикс, префикс, производное слово.

ЎСИМЛИКШУНОСЛИККА ОИД ЛЕКСЕМАЛАРНИНГ АФИКСАЦИЯ УСУЛИ ОРҚАЛИ ЯСАЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ

Аннотация

Ўсимликшунослик лексик қатлами олам лисоний манзарасининг ажралмас қисми бўлиб, халқнинг иқтисодий ва маданий фаолиятини, миллий лингвомаданий ҳамжамиятнинг қадриятлар тизимини, ва дунёқарашини акс эттиради. Ушбу мақолада ўсимлик номларининг инглиз тилида структур-деривацион қонуниятлари, хусусан, ушбу гуруҳ лексемалари шаклланишида асосий усулларида бири бўлмиш аффиксациянинг ўзига хос табиати таҳлил қилинган. Ўсимлик номларини ҳосил қилишда қўлланилувчи суффиксал ва префиксал морфемаларнинг структур-семантик ва дистрибутив, шунингдек, частоталик мезони асосида ўтказилган таҳлили натижаларидан олинган хулосалардан лексикология, хусусан, ономастика соҳасида ва терминологик лўғатлар тузишда фойдаланиш мумкин.

Калит сўзлар: ўсимлик номлари, номинация қонуниятлари, деривация, аффиксация, суффикс, префикс, ясама сўз.

Кириш (Introduction). Тилга номинатив ёндашув реалаяларнинг табиати билан эмас, балки номинация усули билан фарқ қилувчи турли хил мураккабликдаги структуравий шаклланишларни тавсифлаш учун ягона шарт-шароитларни яратишга имкон беради. Структур-деривацион таҳлил мувофиқ тарзда атамаларнинг шаклланишидаги номинатив механизмини очиб берувчи ва уларнинг мотивлашуви тамойилларини аниқловчи мезонларни белгилаб беради [1]. Ҳар қандай номинатив моделнинг вариативлик тамойили у ёки бу лексик-семантик гуруҳларни шаклланиши учун қўлланилувчи сўз ясовчи воситаларининг серқирра табиати туфайли юзага келади. Маълумки, ўсимлик номларининг семантик тузилшини ифодалашда қўлланилувчи усуллари аниқлаш ушбу гуруҳ лексемаларнинг морфологик хоссаларига кўра турларини тизимлаштириш имконини беради [2].

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). Сўзларнинг ҳосилавийлик хусусиятига кўра муносабати масаласи лексик материал структур таҳлилининг энг долзарб муаммоларидан биридир. Айрим тилшуносларнинг фикрича, “сўзнинг

морфем таҳлили биринчи навбатда улар ўртасидаги ҳосилавийлик муносабатларини аниқлашга қаратилиши даркор” [3].

Тузилишига кўра инглиз тилида мавжуд ўсимлик номлари туб, ясама, қўшма ва сўз бирикмаси шакли асосида ҳосил бўлган лексемалардан иборатдираа [4]. Туб ўсимлик номлари ушбу лексик қатламда энг фаол ва микдорий жиҳатдан катта гуруҳ ҳисобланиб, кенг тарқалган ўсимликшунослик лексемаларининг ясалиши жараёнидаги муҳим бўғинни ташкил этади.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Тадқиқот ишимиз учун олинган ўсимликшунослик лексемаларининг 24% қисми туб сўзлар бўлиб, уларга қуйидаги мисолларни келтириш мумкин: elm «қарағай», adonis «адонис», gye «жавдар», vetch «хашаки нўхат», heath «арчагул», colza «рапс», rice «гуруч», bent «дала ўти», rose «атиргул», rush «қўға», wheat «бўғдой», beech «қора қайин», spurge «сутлама», leek «қўқ пиёз», fern «қирққулоқ», thyme «тимьян», pine «қарағай», dill «укроп», bean «ловия», hop «кулмок», swede «брюква (шолғомсимон сабзавот)», ash «шумтол»,

spruce «қорақарағай», garlic «саримсоқ», lettuce «сутчўп», palm «пальма», beet «қизилча», cornel «кизил» [5] ва х.к.

Барча ясама лексемалар абстракт ва агентив префикс ва суффикслар ёрдамида шаклланган бўлиб, префикслар орқали ҳосил бўлганлари илмий ва халқ селекциясида суффиксал морфем таркибга эга бўлганлари сингари кенг тарқалган эмас. Сўзларнинг айрим қисмларига аниқ морфологик ажралиш, бошқаларига эса – шартли ажралиш хос [6]. Аффиксал морфема деганда биз, одатда қабул қилинганидек, сўз шакли ичида ажралиб турувчи, сўзнинг қолган бошқа қисмлари маъносини ўзгартирувчи, аффиксга нисбатан база деб аталувчи, сўзнинг бошида ёки охирида жойлашувига қараб префикс ёки суффикс деб аталувчи морфемаларни тушунамиз [7]. Таҳлил қилинаётган сўзларда ўзак морфемаси ўзак асосига тўлиқ мос келганлиги сабабли қайта ажралишга учрамайди, ўз ичига ҳеч қандай аффиксларни олмайди, тилининг жорий ҳолатига нисбатан фарқлиниб туради ва биз уларни соддагина қилиб ўзак деб атаймиз [7]. Аффиксал морфемаларни изчиллик билан ажратиш, ўсимликшунослик лексикаси шаклланишининг қуйидаги префиксал ва суффиксал рўйхатини ажратиш кўрсатишимиз мумкин:

а) суффиксал морфемалар: -aceous, -ant, -al, -ar, -ate, -ed, -ia, -let, -ous, -ule, -y.

б) префиксал морфемалар: a-, ac-, amphi-, ana-, ar-, apo-, bi-, circum-, con-, de-, di-, dif-, e-, el-, endo-, epi-, ex-, hetero-, homo-, huro-, in-, mono-, ob-, peri-, poly-, re-, suf-, sym-, tri-, uni-.

Айтиб ўтиш жоизки, ушбу аффиксал морфемаларнинг махсулдорлик даражаси ҳар-хил бўлиб, лисонда жуда нотекис иерархик табиатга эга. От билан ифодаланган таянч компонентлар учун энг кенг тарқалган суффикс -er ҳисобланади: stopper, creeper, climber, slipper ва х.к.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results).

Кўплаб тадқиқотчилар ушбу суффикс орқали от сўз туркуми шаклланишига эътибор қаратиб, бу усулни бошқаларидан сермахсуллиги билан ажралиб туришини таъкидлайдилар. Хусусан, О.Д. Мешковнинг фикрича -er суффикси қуйидаги хусусиятлари билан устунликка эгадир [8]:

1) ҳар қандай феъл ўзагидан лексема ясаш потенциали;

2) семантик сифмининг ниҳоятда кнг эканлиги билан;

3) бирварақайига одам, ҳайвон, моддий ва номоддий тушунча маъноларини ўзида акс эттира олиши потенциали билан.

Г.Марчанд ҳам ушбу қўшимча орқали ҳосил бўлган сўзларда қуйидаги семантик белгиларни ажратиш кўрсатади [9]:

1) муайян иш-ҳаракат бажарувчиси;

2) ҳайвонот дунёси;

3) муайян жараён билан тавсифланган объект;

4) иш-ҳаракатнинг номоддий ташувчиси;

5) кийим-кечак;

6) иш-ҳаракатни амалга ошириш макони.

Тадқиқотимиз объекти нуктаи назаридан, -er суффикси орқали ҳосил бўлган ўсимлик номлари “иш-ҳаракатни бажарувчиси” семантик белгисига эгадир: creeper – ўрмалаб ўсувчи, climber – чирмашиб ўсувчи;

Демак, -er суффикси барча амалдаги қўшимчаларнинг энг махсулдори бўлиб, от ва феъл сўз туркумига онд сўзлардан жуда кўплаб ўсимлик номларини ҳосил қилиши билан ажралиб туради: cucumber «бодринг», amber «қизилпойча», aster «астра», creeper «ўрмалаб ўсувчи», elder «ольха», dittander «ерқалампир», lavender «лаванда», alder «ольха», oleaster

«зайтун меваси», lacticifer «млечник», pepper «қалампир» ва х.к.

Келтирилган мисоллардан англашиладики, мазкур суффикс шаффоф мотивацияга эга эмаслиги билан ажралиб туради.

Шунингдек, ушбу гуруҳ таркибига кирувчи отларни ясашда -у қўшимчасининг қўлланилиши анча кенг тарқалган: hickory, mercury, tansy, withy.

Демак, -у суффикси инглиз тилида ўсимлик номлари учун самарали сўз ясовчи воситалардан бири ҳисобланади. Ушбу қўшимча бир вақтнинг ўзида аниқ отлар билан бирикиб, нисбий сифатларни, мавҳум отлар билан бирикиб эса аслий сифат шаклидаги ўсимлик номларини ҳосил қилади [4,98]: honey «қашқарбеда», nickory «пекан», centaury «бўтақўз», bryony «бриония», tansy «оддий дастарбош», agrimony «аломатчой», ivy «печак», celery «сельдерей», timothy «ажрикбош», holly «падуб (найзабарг дарахт тури)», daisy «дасторгул», betony «буквица (ялпизлар оиласига кирувчи ўт)», ebony «хурмо», dittany «шунг» chicory «цикорий», savory «жамбил», barley «арпа», parsley «петрушка», poppy «лолоқизғалдоқ», pansy «капалақгул» [5].

“-age” суффиксал морфемаси одатда ижтимоий мавқени билдирувчи отларга бириктирилади ва уларга мавҳум уюшган маънони беради. Ушбу суффикс орқали ҳосил бўлган ўсимлик номлари кўп тарқалган эмас: cabbage «карам», lovage «любистик (петрушканинг бир нави)», borage «ходан» [5];

-en қўшимчасини фақат бир бўғинли сифатларга бириктириш мумкин. Асоси от сўз туркуми ҳисобланмиш -en қўшимчаси билан тугайдиган феълларга келсак, улар ушбу қўшимчали ўсимлик номларидан анча олдин шаклланган. Ушбу турдаги ўсимлик номлари ҳам жуда кам учрайди: aspen «тоғтерак», bracken «қирққулоқ», linden «жўка дарахти»;

-et суффикси эса кичрайтирув-эркалов семантик белгисига эга бўлиб, кўпинча ўсимликнинг хажм мотивацион белгисига ишора қилади ҳамда бошқа суффикслар орасида ҳосилавий имкониятларининг энг куйи кўрсаткичлари билан ажралиб туради: millet «тариқ», rennet «ширдон», espargcet «эспарцет», burnet «кровохлебка (атиргуллар оиласига мансуб ўсимлик)» [11].

Яна бир қизик ҳолат шуки, сўз ясалишининг аффикация усули ярим аффикслар, яъни префикс ёки суффикс вазифасини тўлиқ лексик маънога эга бўлган бирликлар бажариб қилиши мумкин. Масалан, ўсимликларнинг жинс хусусиятларини кўрсатиш учун he/she кишилик олмошларининг қўлланилиш ҳоллари [12]: he-oak, she-oak. Бундан ташқари, қўшма сўзларнинг ҳосил қилинишида -leaved (баргли, барг хусусиятига ишора) аффиксоидининг қўлланилиши ҳам кенг тарқалган: sharp-leaved.

Ўсимлик номларининг таркибий компонентларидан ҳисобланмиш адъектив бирликларнинг ҳосил қилинишида энг кўп қўлланилувчи суффикслар қуйидагилар эканлиги маълум бўлди:

-ible (қобилиятига эга) - edible (еса бўладиган, овқатга ишлатса бўладиган);

-like (қаби, ўхшаш) - berry-like (резаворга ўхшаган), tree-like (дарахтга ўхшаган);

-ly (Хусусиятига эга) - prickly (тиконли, санчиладиган);

-less (таркибида мавжуд бўлмаган, ...сиз)- leafless (баргсиз).

Қуйидаги сифат ясовчи қўшимчалар ҳам қўлланилиш частотасига кўра жуда кенг тарқалган бўлиб, «маълум белги-хусусиятга эга эканлик» семантик

белгисини ифодалайди ва синонимик қаторни ташкил этади :

-ate: umbellate (соябонсимон), prostrate (судралиб ўсувчи), maculate (олачипор), trifoliolate (уч баргли)[11];

-al: perennial (кўп йиллик), ornamental (декоратив), (coastal қирғоқбўйи), tropical (тропик)[11];

-eous: arboreous (дарахтсимон)[11].

Шунингдек, ўсимликларнинг ареал хусусиятлари, яъни ўсиш ўрни, келиб чиқиш маконига ишора бериш учун қуйидаги суффиксал морфемали адекват бирликлардан фойдаланилади:

-i(a)n: Indian, Asian, Peruvian, Australian;

-ese: Chinese, Japanese;

-(a)n: Mexican, American, African;

-ic: Asiatic, Pacific;

-ern: eastern, western.

Бундан ташқари, ўсимлик номинациялари таркибий тузилмаларида аниқловчи вазифасида қолланилувчи ҳозирги (-ing) ва ўтган замон сифатдоши (-ed суффиксал морфемаси ёки нотўғри феълларнинг ўзак ўзгарган ўтган замон сифатдоши шакли) кўшимчалари ҳам адъектив бирликлар қаторига киради. Ушбу вазиятда ҳозирги замон сифатдоши “иш-ҳаракатнинг бажарувчиси” семантик белгисига, ўтган замон сифатдоши эса “муайян иш-ҳаракат таъсири остида қолган” семантик белгисига эга ҳисобланади: spreading, falling, whistling, shooting; crested, netted, seeded, flooded.

Ўсимликшуносликка оид ясама сўзлар қатламининг диққатга сазовор хусусиятларидан яна бири шуки, кўплаб суффиксал морфемалар бир-бири билан синонимик муносабатга киришиши мумкин. Суффиксал морфемаларнинг синонимлигини аниқлаш учун уларни энг аввало грамматик алоқасининг умумийлиги бўйича гуруҳларга бирлаштириб, суффиксал морфемаларни структур-семантик таҳлили амалга оширилди. Ўз таркибида суффиксал морфемаларга эга 201 та инглиз тили сифатларидан 174 та сўз-атамалар ўнта морфема -aceous; -ag; -ate; -ed; -ent; -ive; -id; -ous; -y ёрдамида ҳосил қилинган. Уларнинг ҳаммаси айнан битта қисмининг кўрсаткичи ва сифат умумий маъносига эга бўлиб, кейинги тартиб позициясида қўлланилади. Сўзда улар от ва феъл ўзаклар билан қўшилади.

-al; -ag; -ate; -ed; -ent; -ous; -y морфемалари кўп маънолидир. Уларнинг семантикаси умум қўлланиладиган лексикадан илмий лексикага ўтишда янги хусусиятлар билан тўлди [13].

Сўз таркибидаги морфемалар кетма-кетлигининг ички тузилишини аффиксларнинг анча аҳамиятга эга бўлган сўз таркибидаги префиксал морфемаларга мурожаат қилмасдан тасвирлаш нотўлиқ ва бир томонлама бўлиб қоларди. Морфемаларнинг сўз таркибидаги уюштирилишида ўзакка нисбатан препозитив ҳолатда бўлган префиксал морфема суффиксал морфема каби ёрдамчи ҳисобланади, сўзни безайди ва маълум маъноларни ифодаловчиси ҳисобланади [14]. Тадқиқ қилинаётган сифатларнинг структур-семантик таҳлили кўрсатдики, препозитив морфемаларнинг турли сўз шакллари ичидаги ўзак билан структур алоқалари бир хил эмас. Латин тилидан келиб чиққан сифатларнинг қуйидаги турлари мавжуд [14]:

1. Препозитив морфема эркин содда ёки мураккаб ўзак, яъни негиз ва суффиксал морфемаларга ажраладиган ўзак билан бирга қўшилади. Бу ҳолда префиксал морфема ўз навбатида тилда мустақил сўз маъносида ишлатилиши мумкин бўлган ўзақдан осонгина ажралади [15]. Бундай сифатлар 28 та эканлиги маълум бўлди, уларнинг таркибига 13 та префиксал морфемалар киради. Улар, қоидага биноан, бир хил маъноли, ўзақлар билан формал-семантик ва фонологик умумийлик асосида боғланган

ҳамда тадқиқ қилинаётган илмий услубнинг сўз-атамаларини ҳосил қилишнинг воситаларидан бири сифатида хизмат қилади.

2. Кейинги структур тип препозитив морфемани мустақил бўлмаган негиз билан боғланган бирикмасидан иборат. Ўсимликшунослик терминологик майдони сифатлари орасида сўзлар жуфтлиги учраб, уларда ad-, bi-, con-, de-, ex-, ge-, per-, pro- препозитив морфемалари номустақил негизлар билан бириктиб, шунга қарамадан ўз оппозицияларида семантик жиҳатдан осон ажралиб туради. Масалан:

adnate – connate; decumbent – procumbent;

biennial – perennial; extrorse – introrse – retrorse.

Бундан ташқари, bi-, con-, de-, ex-, in-, ge- морфемалари терминологик сифатлар таркибида эркин ёки комплекс негизлар билан бирикма ҳолида учрайдилар: bilabial recurved extipulate convolute depressedinflated

Per-, pro- препозитив морфемалари эркин негизлар бирикмасида учрамайди, ad- эса ас- ёки ар- янги вариантда учрайди. Биринчи структур тип сифатларининг ажралиши эътирозга ўрин қолдирмайдиган бўлса, иккинчи структуртип сифатлари мунтазам ўзаро муносабатдор, тузилиши жиҳатидан ва аффиксал ёки ўзак морфемалари жиҳатидан умумий бир хил ҳосилалар қаторига кирганлиги асосида ажралдилар.

Шундай қилиб, ad-, bi-, con-, de-, in-, ge-, re- препозитив морфемаларини эркин негизлар бирикмасида ишлатилиши ва оппозицияларда маъно ажратувчилик вазифасининг сақлаб қолиниши бундай структур типлар тилда қарор топган моделлар сифатида мавжуддир, деб тахмин қилишга имкон беради ва юқорида санаб ўтилган препозитив морфемалар уларда префиксал морфемалар мавқеини сақлаб қолади.

Бу иккита типдан ташқари қисмларга ажралмайдиган incised, included, inserted каби сифатлар ҳам учради. Ҳозирги инглиз тилида cised, cluded, sserted сингари ўзақлар мавжуд эмас. Тадқиқ қилинаётган матнларда бу сўз шакллари қиёслаш мумкин бўлган ҳосилалар учрамади. Натижада биз шундай хулосага келдикки, бу сўзларда in- юкلامаси префиксал морфемалик мавқеини йўқотиб бўлган [16].

Юнон тилидан олинган сифатларнинг морфема таркиби ҳам эътиборга арзийди. Улар орасида, латин тилидагилар орасида бўлгани каби, препозитив морфема ўзақдан осонгина чегараланадиган структур тип ажралиб чиқди. Бундай сўзлар ҳаммаси бўлиб 20 та, уларда 14 та препозитив морфемалар учрайди, уларнинг частоталиги ҳам латин тилидан келиб чиққан осон ажраладиган префиксал морфемалар каби юқори эмас.

А.М. Вельштейн маъноси эркин бўлган peri-, mono-, hetero-, homo- типдаги морфемаларни ўзақлиларга киритади [17,57]. Агар шу ҳолатдан келиб чиқадиган бўлсак, яъни биз ясама сўзлар билан эмас, мураккаб сўзлар билан муносабатда бўламиз. Бу юкلامаларнинг диахроник пландаги таҳлили улар турли этимологик манбаларга эга эканлигини кўрсатди. Юнон тилида маълум мустақил маъноли сўз туркумлари (равишлар ва сифатлар) билан бир қаторда уларнинг ёрдамчи сўзлар (предлоглар) кўринишида грамматик омонимлари ҳамда олд қўшимча кўринишидаги морфологик омонимлари мавжуд эди. Қуйида тақдим қилинаётган жадвалдан кўриниб турибдики, фақат а-морфемаси грамматик омонимларга эга эмас эди ва у ҳозирги инглиз тилига “ўзак кўрсатаётган нарсанинг йўқлиги” маъноси билан олд қўшимча кўринишида ўтди. Mono-, poly-, sym-(syn) префиксал морфемалари ўз ибтидосини мустақил маъноли сўз туркумларидан олади ва ҳозирги инглиз тилининг илмий услубига сўзларнинг

компонентлари сифатида ўтиб, ўз семантикасини тўлиқ сақлаб қолди [18]. Бошқа препозитив морфемаларга келадиган бўлсак, улар манба-тилда олд қўшимчалар сифатида фаолият кўрсатиб, ёрдамчи ва асосий сўзлар орасида омонимли шаклларга эга эдилар. Бу шакллардан қайси бири ҳозирги илмий терминология таркибига кирганлигини айтиш қийин. Бу масала алоҳида тадқиқотни талаб қилади.

Роман ва инглиз-саксон тилларидан келиб чиққан сифатлар учун префиксал морфемаларнинг бўлиши типик эмас. Ажратиб олинган ядрога биз учун юнон ва латин тилларидан келиб чиққан *di-*, *de-*, *ex-*, *ig* (г ўзак олдида *in* нинг фонологик варианты) префиксалморфемалар билан бор- йўғи тўртта сўз учради [19].

Префиксал морфемалар шунингдек латин, инглиз-саксон ва роман тилларидан келиб чиққан отлар учун ҳам хос эмас [19].

Юнон тилидан келиб чиққан отларнинг морфема таркиби бошқа сўзларнинг морфема таркибидан фарқ қилади. Уларнинг таркибида ўша префиксал морфемалар: *aro-*, *en-*, *endo-*, *eri-*, *exo-*, *huro-*, *micro-*, *peri-*, *sup-* учради, бироқ, улардан фақат иккитаси – *endo-*, *eri-* эркин ўзаклар билан *endosperm epidermis* сўзларида қўшилиб кетади.

endo-, *exo-*, *huro-*, *sup-* морфемалари ҳозирги инглиз тилида мустақил мавжуд бўлмаган ўзаклар билан қўшилиб кетади, бироқ улар манба тилнинг бўлагини ифодалайдилар. Ана шундай қисмлар юнон тилидаги

carpos дан *carp* ҳозирги инглизча *carpus*; юнонча *kotyledon* дан *cotyl*, ҳозирги инглизча *cotyledon*; юнонча *anthos* дан *anth*, ҳозирги инглизча *anther*. Масалан: *pericarp* – мева эти (уруғни ёки данакни ўраб турувчи қатлам), *hurocotyl* – уруғпалласимон бўғин, *perianth* – гулхонани ўраб турувчи қатлам [20].

Хулоса ва тақлифлар (Conclusion/Recommendations). Таҳлил натижасида аниқландики, инглиз тилига ўзлаштирилган сўзлар кўпчилигининг морфема таркибига мазкур тагтил учун типик ва айни вақтда умум қўлланиладиган лексикага хос бўлган аффиксал морфемалар киради. Улар сўз таркибида эркин ва боғланганлари билан ўзаро муносабатда бўладилар. Энг частотали аффиксал морфемалар кўп маъноликдир. Сўз таркибида негизлар билан ўзаро боғланиб, уларга қўшимча маъно берадилар, айни пайтда улар маълум сўз туркумига тегишлилик кўрсаткичлари ҳамдир. Уларнинг илмий ва умум қўлланиладиган сўзлардаги семантикасини ва вазифасини қиёслаш орқали маълум бўлдики, сўзлар лексик-грамматик сатҳида терминосистема ва умум қўлланиладиган лексиканинг мазкур вазифаси билан қисман мос келади, бироқ халқ селекциясида уларнинг торайишга мойиллиги бор, илмий услубда эса аффиксал морфемаларнинг семантикаси янги тавсифлар билан тўлиб, кенгайишга мойиллиги мавжуддир.

АДАБИЁТЛАР

1. Берестнева А. В. Названия экзотических растений в английском и русском языках: структурно-словообразовательный и номинативно-мотивационный аспекты: дисс.... канд. филол. наук. – Майкоп, 2008.
2. Немченко В.Н. Современный русский язык. Словообразование. / В.Н.Немченко. – М.: Высш.школа, 1984.- С.99
3. Кубрякова, Е.С. Что такое словообразование. / Е.С.Кубрякова.-М.:Наука, 1965. – С.4
4. Ягумова Н. Ш. Фитонимическое пространство в языковой картине мира: словообразовательный и мотивационный аспекты (на материале английского и адыгейского языков) // Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – 2008. – С.14
5. Oxford learner`s dictionary online [https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/]
6. Хакимова Г. Г. Сопоставительный анализ структурных характеристик английских и башкирских лекарственных фитонимов // Вестник Башкирского университета. – 2014. – Т. 19. – №. 2. – С.23
7. Ахманова О.С. Основы компонентного анализа/О.С. Ахманова: Изд-во МГУ, 1969.–С.61
8. Мешков О.Д. Словообразование современного английского языка/О.Д. Мешков.-М.:Наука, 1976. -С. 58-60
9. Marchand H. The Categories and Types of Present-day English Word formation.—University of Alabama, 1966.- P.274
10. Oxford learner`s dictionary online [https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/]
11. Merriam-Webster dictionary online [https://www.merriam-webster.com/]
12. Фаненшталь Е. В., Хаматнурова Э. М. Семантические закономерности образования фитонимов и зоонимов // XIX Всероссийская студенческая научно-практическая конференция Нижневартковского государственного университета. – 2017. – С. 721-725.
13. Хакимова Г. Г. Сопоставительный анализ структурных характеристик английских и башкирских лекарственных фитонимов // Вестник Башкирского университета. – 2014. – Т. 19. – №. 2. – С.43
14. Miller D. G. English lexicogenesis. – OUP: Oxford, 2014. – P.46
15. Dixon R. M. W. Making new words: Morphological derivation in English. – Oxford University Press, USA, 2014. – P.124
16. Allen A., Cornwell J. A New English Grammar, with very copious exercises, and a systematic view of the formation and derivation of words. – Simpkin, Marshall & Company, 1841. – P.76
17. Вельштейн А. М. Разграничение составных терминов и свободных словосочетаний // Вопросы методики и лингвистики. М. – 1980. – С.57
18. Van Gelderen E. Valency changes in the history of English // Journal of Historical Linguistics. – 2011. – Т. 1. – №. 1. – С. 106-143.
19. Irion A. L. Language structure, the learning of language, and the derivation of words // Psychological reports. – 1966. – Т. 19. – №. 3. – С. 765-766.
20. Smith A. W. A gardener's handbook of plant names: their meanings and origins. – Courier Corporation, 1997. – P.59-78



Iqbol O'RAZOVA,

Alisher Navoiy nomidagi TDO 'TAU tayanch doktranti
E-mail: orazovaiqbola@gmail.com

Filologiya fanlari doktrori, professor Z.Islamov taqrizi asosida

“MUHABBATNOMA” ASARIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR STATISTIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarida ishlatilgan frazemalar statistikasi tahlil ostiga olingan. Asardan ajratib olingan frazemalar sinxron holatiga ko'ra guruhlariga bo'linib izohlangan. Leksik qayta shakllanishning bir necha ko'rinishlari sanab o'tilgan. Frazeologizmlar struktur jihatdan ikki, uch, to'rt komponentli frazemalarga ajratilib tahlil qilingan va xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: frazema, arxaik frazemalar, leksema, leksik qayta shakllanish, statistika, ot, fe'l, ravish, sifat, vazn.

STATISTICS OF PHRASEOLOGISM IN THE WORK "MUHABBATNOMA"

Abstract

This article analyzes the statistics of phrases used in Khorezmi's work "Muhabbatnoma". Phrases taken from the work are interpreted in groups according to their synchronous state. There are, also, listed several forms of lexical transformation. Phraseologisms are structurally divided into two-, three-, and four-component phrases, and conclusions are drawn.

Keywords: phrase, archaic phrase, lexeme, lexical transformation, statistics, noun, verb, form, quality, weight.

СТАТИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ "МУХАББАТНОМА"

Аннотация

В статье анализируется статистика фраз, использованных в произведении Хорезми «Мухаббатнома». Фразы из произведения интерпретируются группами по синхронности. Перечислено несколько форм лексической трансформации. Фразеологизмы структурно разделены на двух-, трех- и четырехкомпонентные словосочетания, сделаны выводы.

Ключевые слова: фраза, архаическая фраза, лексема, лексическая трансформация, статистика, существительное, глагол, прилагательное, наречие, размер.

Kirish (Introduction). XIV asrda yashab, turkiy va forsiy tilda ijod etgan shoirlardan biri Xorazmiydir. Bizga uning, asosan, o'zbek, qisman tojik tilida bitilgan birgina «Muhabbatnoma» asari etib kelgan. Tarjimai holi haqida ham shu asardagi ma'lumotlardan boshqa ma'lumotga ega emasmiz. «Muhabbatnoma»da shoirning o'zi qayd etishicha, Oltin O'rda xoni Jonibekxonning Sirdaryo muzofotidagi hukmdorlaridan biri Muhammad Xojabek forsiy tilda she'rlar yozib, mashhur bo'lgan Xorazmiydan: «Bu qish mening yonimda yurib, bizning tilda (ya'ni turkiyda) bir kitob yozsang», — deb iltimos qiladi. «Muhabbatnoma» shu tariqa milodiy 1353-yili dunyoga keladi.

«Muhabbatnoma» o'zbek mumtoz adabiyotidagi noma janrining ilk yorqin namunasi. Asar faqat nomalar yig'indisi emas, unda g'azal, qit'a, fard kabi kichik lirik janrlarga xos namunalar ham mavjud. Lekin asardagi o'n bir noma asar tuzilishining bosh xususiyatini belgilaydi. Shoir shundan kelib chiqib «noma» so'zini asar nomiga ham chiqargan. Asarning ikki nusxasi mavjud bo'lib, milodiy 1508-1509-yillarda arab yozuvi asosidagi turkiy alifboda ko'chirilgan nusxasi nisbatan to'laroq - jami 473 baytdan iborat. Asarning ikkala nusxasi ham Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). M.Hakimovning qayd etishicha, XIV –XV asrlarda yashagan shoir va adiblar ijodida maqol, matal, ibora, ta'bir va hikmatli so'zlarga qiziqish juda kuchli edi. Chunki bu davrda eski o'zbek tili xalq ommasining jonli tili asosida rivojlandi,

boyidi. Ayni vaqtda bu tildagi adabiyotning rivojlanib borishi o'zbek shoirlarining xalq og'zaki ijodiga ko'proq murojaat qilishlari va undan foydalanishlari uchun keng yo'l ochib berdi. Endi o'zbek shoirlari o'z xalqining qadimiy og'zaki badiiy merosiga turli-tuman darajada murojaat eta boshladilar. Og'zaki ijoddagi syujetlarni, obrazlarni olib, qayta ishladilar, xalq qo'shiqlari usulida g'azallar bitdilar, xalq maqollari va iboralarni o'z asarlarida zo'r mahorat bilan qo'lladilar yoki ularning mazmunini butun she'rga, to'rtliklarga, bayt va misralarga singdirib yubordilar [2]. Ayni shu davrda yashab ijod qilgan Xorazmiyning “Muhabbatnoma” dostoni badiiy tilida ham xalqona belgilar o'z aksini topgan, ayniqsa, asardagi obrazlilikni ta'minlashda, voqelikni jozibali va ta'sirli ifodalashda, fikrning teranligi va ekspressivligini oshirishda frazemalardan unumli foydalanilganining guvohi bo'lish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Dostonning turkiy tilda yozilgan qismi leksik jihatdan tahlil qilinganda asarda qo'llangan frazeologizmlarning umumiy soni 63tani tashkil qildi. Ularning 1tasi (jahonni oting tutmoq) besh o'rinda, 1tasi (tanimda jon borincha) to'rt o'rinda, 2tasi (olamni o'rtamoq, yer o'pmoq) uch o'rinda, 5tasi (besar-u poy, boshtin-oyoqqa, ko'zga ilmaslik, oti qolmoq, qiyomatlar qo'pmoq) ikki o'rinda takror qo'llangan bo'lsa (9ta frazeologizm takror holda uchraydi.), qolgan 38tasi esa bir o'rinda ishlatilgan. Demak, dostonidagi frazeologizmlarning umumiy statistikasi 47tani tashkil qiladi.

t/r	Frazemalar	Misoli	Beti
1.	aqli boshidan ketmoq	Xorazmiyning ketib aqli boshidan, Turur tik surati, yo'q jon ichinda.	15
2.	besar-u poy	Falak ishqing yo'linda besar-u poy,	17, 33

		Isirg'ang donasi — Zuhra, yuzung — oy.	
3.	bosh ko'turman	Tanim borincha sendin yuz jovurman, Eshiking tuproqindin bosh ko'turman	32
4.	boshtin-oyoqqa	Latofat mulkida sultonsen, ey jon, Qamuq boshtin-oyoqqa jonsen, ey jon.	17, 18
5.	domingizdin qutulmas	Vale ko'ngul qutulmas domingizdin, Qamuq shakkar tomar dashnomingizdin	34
6.	ichinda jon yo'q	Xorazmiyning ketib aqli boshidin, Turur tik surati, yo'q jon ichinda.	15
7.	jahonni oting tutmoq	Oshar yeldin sening yilganda oting, Quyosh yangliq jahonni tutti oting	14, 16, 16,19, 26
8.	jahonni tutmoq	Qilichtek til bila tuttum jahonni, Qanoat mulki ichra podshomen.	39
9.	jona kelmoq.	Umur mehnat bila poyona keldi, Ko'ngul javrung alindin jona keldi.	34
10.	jondin ketmaslik	Muhabbat nori jondin ketmadi hech, Qo'lum sim olmangizg'a yetmadi hech.	16
11.	Ko'ngli kuymoq	Kuyar ko'nglum saboning ul ishidin, Nechukkim kuysa xirmanlar yashindin.	24
12.	Ko'ngli qutulmoq	Bo'loli aysh-u ishrat peshalardin, Qutulsun ko'nglumiz andeshalardin.	25
13.	ko'ngli tortmoq	Kishining poklarg'a ko'ngli tortar, Husn xudpok domanliqtin ortar.	33
14.	Ko'ngul parvona bo'lmoq	Bo'yun sundum bu yo'lda ming balog'a, Ko'ngul parvona bo'ldi ul yulog'a.	26
15.	Ko'ngul tilamas	Ko'ngul sensiz tilamas tanda jonni, Ko'rar yuzungda Xorazmiy jahonni.	33
16.	Ko'ngulni bermas,	Bu kun ming jon bila kimki ko'ngulni, Sango bermas, taninda jon yo'q, ey jon.	20
17.	Ko'ngulni bog'lamoq	Saloyin o'zumi o'zga diyora, Ko'ngulni bog'lag'oyin o'zga yora	34
18.	ko'ngulni olmoq	Jamoling madhidin ofoq to'ldi, Sango olmoq ko'ngulni xatm bo'ldi.	32
19.	Ko'ngulning qoni qaynamoq	Ko'ngulning qoni qaynab, barcha toshqay, Ko'zumning yoshidin kavsar buloshqay.	17
20.	ko'zda uchqonin	Visolingning bu kun shukrin qilurman, Xayoling ko'zda uchqonin bilurman.	33
21.	ko'zga ilmaslik	Ko'ngul ikki jahonni ko'zga ilmas, Sening ishqing umring hosili bas.	29, 32
22.	Ko'zumni yoqtu qilmoq	Qachon qilg'ay ko'zumni yoqtu ul oy, Erur yuzi quyoshtek olamoroy.	18
23.	kun tug'masa	Agar kun tug'masa ham yoqtu qilg'ay, Yuzung nuri bu dunyoning saroyin.	12
24.	mot bo'lmoq	Seni ko'rgan o'zindin yot bo'lur, Ruhungni ko'rsa ming shah mot bo'lur.	20
25.	O'zindin yot bo'lmoq	Seni ko'rgan o'zindin yot bo'lur, Ruhungni ko'rsa ming shah mot bo'lur.	20
26.	ofoq to'lmoq	Jamoling madhidin ofoq to'ldi, Sango olmoq ko'ngulni xatm bo'ldi.	32
27.	Og'zi ochilmoq	Ochilsa la'lingiz shakkar sochilur, Ko'rib gulg'unchaning og'zi ochilur.	19
28.	olamni o'rtamoq	Sening ishqing kamandi bizni tortar, Jamoling ravnaqi olamni o'rtar.	25, 26, 27
29.	olamni tutmoq	Muhabbat nardini ko'plardin uttung, Shakartek til bila olamni tuttung	11
30.	oti qolmoq	Sening ishqingda Xorazmiy yo'qoldi, Valekin yer yuzinda oti qoldi.	25, 39
31.	qamching uchindin qon tommoq	Ulus tuttung qamuq aqling kuchindin, Cherikta qon tomar qamching uchindin.	14
32.	qiyomatlar qo'pmoq	O'tursang o'lturur fitna, ketar g'am, Agar qo'psang qiyomatlar qo'por ham.	26, 28
33.	qo'l sunmoq	Aningdek yerga qo'l sundi ilikkim, Yiroqtin boqmag'o imkon yo'q, ey jon.	20

34.	qonim bog'ishlamoq	Bog'ishlasang qonim sultonsen oxir, Ko'zumga nur tanimga jonsen oxir.	34
35.	qurbon bo'lmoq	Yuzungda ko'r'dum, ey jon, bayram oyin, Munung shukronasi qurbon bo'loyin.	12
36.	Shukur qilmoq	Visolingning bu kun shukrin qilurman, Xayoling ko'zda uchqonin bilurman	33
37.	Tanim borincha	Tanim borincha sendin yuz jovurman, Eshiking tuproqindin bosh ko'turman	32
38.	tanimda jon borincha	Tirik bo'lung shaho davron borincha, Qulunguzmen tanimda jon borincha	28, 29, 29, 34
39.	tik surati turmoq	Xorazmiyning ketib aqli boshidin, Turur tik surati, yo'q jon ichinda.	15
40.	Ulus tutmoq	Ulus tuttung qamuq aqling kuchindin, Cherikta qon tomar qamching uchindin.	14
41.	xatm bo'lmoq.	Jamoling madhidin ofoq to'ldi, Sango olmoq ko'ngulni xatm bo'ldi.	32
42.	xiraddin ozdurmog	Xiraddin ozdurur g'amzang xumori, Yangoqlaring Xalilulloh nori.	24
43.	ko'z'din yiroq tutmoq.	Jahonni ezgu oting tutti mutlaq, Yamon ko'z'din yiroq tutsun seni haq.	16
44.	yelga bermog	Gar Aflotun sening ishqingda tushsa, Berur yelga qamuq tadbir-u royin.	12
45.	yer o'p'mog	Qabul qildim, yer o'ptum, aydim: «Ey shoh, Eshiking, tuprog'i — davlatli dargoh.	11, 14, 17
46.	yuz evurmog	Evurmen yuz nechakim kelsa mehnat, Jafa sizdin, tag'i bizdin muhabbat	35
47.	yuz jovurmog	Tanim borincha sendin yuz jovurman, Eshiking tuproqindin bosh ko'turman	32

Tahlilga tortilgan frazeologizmlarni sinxron holatiga, ya'ni hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanish holatiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

Hozirda leksik o'zgarishsiz qo'llanuvchi frazeologizmlar. Bunday frazemalarning morfologik tarkibi o'zgarishga uchrasa-da, ya'ni eski o'zbek tilida qo'llangan grammatik shakllar jonli tilda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi varianti bilan almashgan holda qo'llansa-da, leksik tarkibi saqlanib qolgan bo'ladi. Bu guruhga mansub iboralar dostonida 19ta bo'lib, ular quyidagilar: Bosh ko'turmaslik-, boshtin-oyoqqa, domingizdin qutulmas, ichinda jon yo'q, ko'ngli tortmoq, ko'ngul tilamaslik, ko'ngulni bermaslik, ko'ngulni bog'lamoq, ko'ngulni olmoq, ko'zga ilmaslik, mot bo'lmoq, og'zi ochilmoq, olamni o'rtamoq, olamni tutmoq, oti qolmoq, qamching uchindin qon tommoq, qiyomatlar qo'p'mog, qurbon bo'lmoq, shukur qilmoq. Bu iboralarning leksik jihatdan o'zgarishsiz yetib kelgani sababi sifatida iboralar tarkibini shakllantirgan leksikaning, asosan, o'z qatlamga mansubligini ko'rsatish mumkin. Qolaversa, bu iboralarning katta qismi ikki komponentli frazemalardir. Shaklan qisqa frazeologizmlarning nutqda faol qo'llanishi ham iboralarning tilda yashovchanligini ta'minlagan bo'lishi mumkin.

Hozirda leksik o'zgarish bilan qo'llanuvchi frazemalar. A.Mamatov bunday frazemalarni "leksik qayta shakllangan frazemalar" deb nomlaydi va bu o'zgarishlarning nolisoniy va lisoniy omillarini sanab o'tadi [3]. Frazemalar tarkibidagi komponentlar ifodalagan tushuncha yoki voqeahodisaning eskirishi natijasi leksik qayta shakllanish nolisoniy omil sanaladi. Tildagi an'analarning o'zgarishi, frazeologizm asosida yotuvchi obrazni yana-da jonlantirish yoki rivojlantirish ta'sirida yuz beradigan leksik qayta shakllanish lisoniy omil sanaladi va dostonida qo'llangan ayrim frazemalar obrazlilikni oshirish maqsadida leksik qayta

shakllangan: jona kelmoq-bo'g'ziga kelmoq, ko'ngli kuymoq-yuragi yonmoq. Bunday frazeologik birliklar 19tani tashkil qilib, ular quyidagilar: Aqli boshidin ketmoq- aqli boshidan uchdi., jahonni oting tutmoq, jahonni tutmoq -dong'i olamni tutmoq, jona kelmoq-bo'g'ziga kelmoq, ko'ngli kuymoq-yuragi yonmoq, ko'ngli qutulmoq, o'zindin yot bo'lmoq – o'zini yo'qotmoq, ofoq to'lmoq-dunyo to'lmoq, qo'l sundi-qo'l uzatmoq, qonim bog'ishlamoq- qonidan kechmoq, tanim borincha, tanimda jon borincha-joni borincha, tik surati turmoq-tik surati qolmoq, xiraddin ozdurmog-aqlan ozdurmog, ko'z'din yiroq tutmoq-ko'z'dan yashirmog, yelga bermog-yelga sovurmog, yuz evurmog, yuz jovurmog- yuz o'g'irmog, ko'ngulning qoni qaynab- qoni qaynab.

Hozirda arxaiklashgan frazemalar. Bu guruhga jonli tilda qo'llanmaydigan yoki qo'llanishi kamaygan tarixiy frazemalar mansub bo'lib, ular 9 tani tashkil qiladi: Besar-u poy (sargardon), jondin ketmadi (o'chmadi, yo'qolmadi), ko'ngul parvona bo'lmoq (sevmoq), ko'zda uchqonin (ko'z oldidan ketmaslik), ko'zumni yoqtu qilmoq, kun tug'masa (tong otmasa), ulus tutmoq (boshqarmog), xatm bo'lmoq (mukammal egallamoq), yer o'p'mog (ta'zim qilmoq). Ularning eskirishiga frazemalarning shakllanishida muhim rol o'ynagan urf-odat va an'ananing maishiy hayotdan chiqib ketishi, olam yaralishi haqidagi qarashlarning o'zgarishi, sabab bo'lgan. Masalan, yer o'p'mog iborasi negizida yuqori mansabdagi amaldor yoki hukmdorga hurmat ko'rsatish odati yotadi. Oddiy aholi yoki kichik amaldorlar hukmdor qarshisida yer o'pib ta'zim qilish orqali unga qaram ekanligi, bo'ysunishini ifodalagan. Keyinchalik bu jumla frazeologizm sifatida shakllangan, ammo odatning eskirishi frazeologizmning ise'moldan chiqishiga olib kelgan. Ulus tutmoq, xatm bo'lmoq, kun tug'masa iboralarida ham ayni holat kuzatilgan.

Ushbu statistik ma'lumotlar diagrammada quyidagi ko'rsatkichlarni ifodalaydi.



Leksik qayta shakllangan frazemalardagi o'zgarishlarni shartli ravishda quyidagi ko'rinishlarda guruhlash mumkin:

1. Frazema tarkibidagi komponentning tushib qolishi. Ya'ni frazeologik ellipsis hodisasini A.Mamatov o'z tadqiqotlarida tashqi shaklni takomillashtiruvchi vosita deb hisoblaydi [3]. Sh.Balli esa "ellipsisni frazeologik shakllanishning usullaridan biri",- deb qaragan" [6]. Bizningcha, dostonda qo'llangan frazemalarning bugungi tilda ellipsisga uchrashiga til egasining nutqiy ixchamlikka intilishi sabab bo'lgan. Chunki bugungi kunda qo'llanadigan joni boricha iborasiga qaraganda "Muhabbatnomada" kelgan tanimda jon borincha frazemasida obrazlilik kuchliroq. Qolaversa, Sh.Balling fikriga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, frazeologik ellipsis sinonimik frazemalar shakllanishiga turtki ham bo'ladi. Masalan: ko'ngulning qoni qaynab- qoni qaynamoq, tanimda jon borincha-joni boricha.

2. Frazema tarkibiga yangi leksemaning qo'shilishi. E.Umarov matnda frazemalar bilan birga qo'llanuvchi leksemalarni hamroh so'zlar deb nomlaydi [5]. Olimning fikricha, o'zgaruvchan hamroh so'z va frazeologizm o'rtasidagi leksik-grammatik aloqaning yemirilishi, uning leksik tarkibiga kirib qolishi natijasida yangi ibora paydo bo'lishi mumkin. Ya'ni frazemaning ayrim hamroh so'zlar bilan tez-tez yonma-yon kelishi shu leksemaning ibora tarkibida yaxlitlanishiga sabab bo'ladi. Dostonda qo'llangan ayrim iboralar bugungi kunda shunday o'zgarishga uchraganining guvohi bo'lishimiz mumkin: olamni tutmoq-dong'i olamni tutmoq

3. Frazema tarkibidagi leksemaning almashishi. Tilning rivojlanish bosqichida ibora tarkibidagi ayrim komponent voqelikni faol ifodalovchi boshqa leksema bilan almashishi mumkin va bu kabi o'zgarish sababli frazeologizmlarning tildagi yashovchanligi ortadi. Dostonda ishlatilgan aksariyat frazemalar tarkibidagi o'zgarish ham leksik almashish natijasida ro'y bergan. Masalan: yelga bermoq- yelga sovrmoq, yuz evurmoq, yuz jovurman- yuz o'girmoq


Dostonda qo'llangan frazeologizmlarni strukturual xususiyatiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin.

Ikki komponentli frazeologizmlar. Asarda bunday frazemalardan faol foydalanilgan bo'lib, ular 36tani tashkil qiladi. Morfologik jihatdan, asosan, ot+fe'l qolipidagi frazeologizmlar faol qo'llanilgan: M: ofoq to'lmoq, qo'l sundi, qonin bog'ishlamoq. Bunga fe'lning o'zgaruvchan xususiyatini sabab sifatida keltirish mumkin, chunki fe'l o'rni bilan tuslanishi va qofiya talab qilgan o'rinda turli vazifa shakllarida qo'llanishi mumkin. Qolaversa, o'zbek tilidagi gap qurilishi ham fe'l frazemalarning faol qo'llanishiga turtki bo'lgan. Shuningdek, ot+ot, ot+ravish qolipli frazeologizmlar ham uchraydi. Masalan: boshdin oyoq, tanim borincha.

Uch komponentli frazeologizmlar . Dostonda bunday iboralar 10 tani tashkil qiladi. Ular orasida ot+ot+fe'l qolipli iboralar faol ishlatilgan bo'lsa, ot+sifat+fe'l, ot+ot+modal so'z, ot++ot+ravish qolipli iboralar kamroq miqdorda uchraydi. M: Aqli boshidin ketmoq, jahonni oting tutmoq.

To'rt komponentli frazeologizm. Asarda to'rt tarkibli ibora bir o'rinda qo'llangan bo'lib, ot+ot+ot+fe'l qolipidadir. M: qamching uchindin qon tommoq.

Frazemalarning tarkibiga ko'ra statistikasi



Ikki komponentli frazeologizmlarning faol qo'llanishini "Muhabbatnoma" asarining vazni bilan bog'lash mumkin. Chunki asar aruzning hazaji musaddasi mahzuf (yoki maqsur) bahrida yozilgan bo'lib, shoir fikrini bayon qilish jarayonida vazni saqlash uchun shaklan qisqa frazemalarni qo'llagan. Qolaversa, olim M.Vafoeva ham to'rt va undan

ortiq komponentli frazemalar tilimizda nisbatan kam ekanligini qayd etib o'tgan [4].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). "Muhabbatnoma" da qo'llangan frazeologizmlar chastotasi 63 tani, frazeologizmlar statistikasi esa 47tani tashkil qiladi;

-asarda qo'llangan frazeologizmlarning katta qismi, ya'ni 38tasi, aynan yoki leksik o'zgarish bilan bugungi jonli nutqda faol ishlatilmoqda;

-leksik qayta shakllangan frazemalarda, asosan, so'z almashinish hodisa ustunlik qiladi;

-struktur jihatdan ikki komponentli frazeologizmlar dostonida faol ishlatilgan, uch va to'rt komponentli iboralar kamroq uchraydi. Buni doston vazni bilan bog'lash mumkin;

-dostonida tarkibiga ko'ra ot+fe'l qolipi bilan shakllangan frazeologizmlar ustunlik qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Xorazmiy "Muhabbatnoma". Kitobda: Muborak maktublar. — T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987. 296 bet.
2. Hakimov M. Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi. —Toshkent, FAN. 1979.
3. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Filol.f.d...dis.avroref. —Toshkent, 2000.
4. Vafoyeva M. O'zbek tilidagi frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili.
5. Умаров Э.А. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов словарь "Хазойин-ул-маоний" Алишера Навои. Автореф. Дисс... канд.фолл.наукю. —Л., 1968. С. 17.
6. Балли Ш. Французская стилистика. —Изд-во иностранной литературы. 1981.



Shakhnoza SHOKIROVA,
Teacher of Andijan State University
Email: sh.shokirova@mail.ru

Based on the review of Ph.D., Associate Professor I.K Osarov

FUNCTIONAL AND SEMANTIC TYPES OF "PLEASE" SPEECH ACTS

Annotation

The article provides a theoretical and practical analysis of the study of functional and semantic types of speech act. In addition, a brief description of the main features of the speech act is discussed.

Key words: speech act, please, speech act, linguistics, functional-semantic types.

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ВИДЫ РЕЧЕВЫХ ДЕЙСТВИЙ «ПОЖАЛУЙСТА»

Аннотация

В статье дается теоретический и практический анализ изучения функциональных и смысловых типов речевого акта. Обсуждается также краткое описание основных особенностей речевого акта.

Ключевые слова: речевой акт, пожалуйста, речевой акт, языкознание, функционально-смысловые типы.

ИЛТИМОС НУТҚ АКТИНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ВА СЕМАНТИК ТУРЛАРИ

Аннотация

Ушбу мақолада илтимос нутқ актининг функционал ва семантик турларини ўрганишни назарий ва амалий таҳлили келтирилган. Шунингдек, нутқ актининг асосий хусусиятларининг қисқача таърифи ҳақида муҳокама қилинган.

Калит сўзлар: нутқ акти, илтимос нутқ акти, лингвистика, функционал ва семантик турлар.

Introduction. Speech acts have a plan of expression - various linguistic means and a plan of content, characterized by a certain set of illocutionary fillings. Examples show that the speech act of request has various pragmatic properties that communicants take into account when achieving communicative goals in argumentative discourse. When pronouncing a speech act of request, the communicants each time express certain intentions (intentions). It is important for communicants to understand the pragmatic meaning of the speech act of request for successful communication.

Research methodology. The analysis of examples made it possible to single out the following functional and semantic varieties of speech acts of request.

1) A request-supplication is based on the presupposition of the addressee's lack of desire to perform an action, as well as a strong motivation to induce one.

Context from the novel by S. Maugham "The Moon and Sixpence". In this context, the main character Doris begs her husband to let her leave, since due to the circumstances she can no longer continue to live with him.

- I think I've persuaded her to go away. And I've applied for a transfer.- That wouldn't help. She'll be there always...I know it's I who am to blame now. I'm a silly, hysterical woman. I thought I get over it. I can't, and now I never shall. I've brought it all on myself.'m willing to take the consequences; if you say I must stay here,'ll stay, but if I stay I shall die. I beseech you to let me go[3].

Context from the work of A. Haley "Final Diagnosis". In the given example, Vivian begs his beloved Mike not to visit her for a week so that he can decide about their future relationship.

- For my sake, darling, stay out for a week and think everything over.- But it isn't for your sake, Vivian. It is just some damn silly, stupid idea might have got out of a fourth-rate sentimental novel.- Only for a week, Mike dear. Just one week, that's all.

Mike - No! [2]

2) An invitation request expresses interest in the addressee's arrival at a specific place.

Context from the work of A. Haley "Final Diagnosis".

O'Donnel - Harry I want a meeting this afternoon. Let's try to get half a dozen of the senior people on staff. We'll meet here, if that's convenient, and I'd like you to be here too. [2]

2.Orden Brown - I'd like you to come with me to Eustace Swayne's. It's all right you're invited. O'Donnel - Yes, I'll be glad to come. [2]

3) Request instruction - a set of rules for the implementation of certain activities. In a request-instruction, the speaker asks for the performance of an action, offering a certain algorithm, how to proceed when performing it.

Context from the play "The Importance of Being Serious."

-I am engaged to be married to Mr.Worthing, mamma. Bracknell - Come here. Sit down. Sit down immediately. Hesitation of any kind is a sign of mental decay in the young, of physical weakness in the old. (Turns to Jack) You will clearly understand that all communication between yourself and my daughter must cease immediately from this moment. On this point, as indeed on all points, I am firm[5].

4) Request for clarification aims to find out any information, to give great importance to something. For example, clarify a number of clauses of the agreement, information, conclusions, procedure, etc.

Context from the play "The Importance of Being Serious."

Bracknell - To be born, or at any rate bred, in a hand-bag, seems to me to display a contempt for the ordinary decencies of family life that reminds one of the worst excesses of the French Revolution. And I presume you know what that unfortunate movement led to.- May I ask you then what you would advise me to do? I need hardly say I would do anything in the world to ensure Gwendolen's happiness[5].

5) Speech act request-advice is a directive speech act, the illocutionary purpose of which is to induce an optional, but expedient, in the speaker's opinion, action.

Contexts from the novel "Final Diagnosis".

1. O'Donnell - Joe, I think you should quit people at these meetings. Joe Pearson - I don't see why anybody has to get in temper. [2]

O'Donnell - I was thinking of maybe some bright young fellow who could relieve you of some duties. Joe Pearson - I don't need another pathologist. O'Donnell - Why, Joe.Pearson - Because there's not enough work for two qualified men I can handle all the pathology myself - without any help. O'Donnell - I'd think it over if I were you.

Joe Pearson - There's nothing to think over. [2]

Dr.Coleman - I'll do your work.Go on kid, leave it to me. Why don't you go up with your wife?

John Alexandr -Thanks all the same, but I think I'll stay. [2]

6) Apology request may include an excuse and an explanation of the state of affairs, or an agreement with the prosecution. There is also the concept of formal speech acts of apology request - Excuse me, what time is it now? and deep sincere contextual forms.

Context from the play "The Importance of Being Serious."

- Gwendolen is always refusing people. I think it is most ill-natured of her.- Oh! As far as she is concerned, we are engaged. Her mother is perfectly unbearable. In any case, she is a monster, I beg you pardon, Algy, I suppose I shouldn't talk about your own aunt in that way before you [5].

7) A request-complaint is laden with reproaches, protests, demands.

Context from the novel "Murder Alphabetically". In this context, the British police detain on suspicion of a crime, without reliable facts, a German by origin, who believes that unreasonable claims have been made against him on the sole grounds that he is a foreigner. He complains, asks to believe, protests and demands at the same time, while resorting to reduced vocabulary to emotionally influence opponents.

Ascher - What do you want with me? I have not do nothing. It is a shame and scandal to bring me here.You are swine, how dare you?

Inspector - That'll do Ascher. Pull yourself together. I'm not charging you with anything yet. And you're not bound to make a statement unless you like. On the other hand, if you are not concerned in the murder of your wife...-I did not kill her... You are god-damned English pigs - all against me. I never kill her - never. [1]

8) A request for a favor - a directive speech act, the purpose of which is to induce the addressee to provide a service or assistance.

Context from Mary Clarke's novel "All through the night."

- Just do me a favour. I've been making some calls about the. Already I've found out that they are known to be con artist. They've just never been arrested - yet! Give me till Christmas to prove that Bessie didn't write that will, and even though it looks like she signed it, I bet if she did, she never knew what she was signing.- Oh, there's no way to prove that. [7]

A special case - request (marriage proposal) - an event when one person in a secret conversation asks another to conclude a marriage between them and create a family.

Context from the play "The Importance of Being Serious."

-Gwendolen, will you marry me?

Gwendolen - Of course I will, darling. [5]

In addition to the functional and semantic characteristics, speech acts of the request have tonal-genre

dimensions, which are usually determined by the author's remarks (request-joke, request-irony, request-reproach, request-threat, etc.).

Context from the novel "Murder Alphabetically".

Cust- Well, good-bye, Miss Lily. Good-bye.- Well, don't say good-bye as though you were going away for ever (laughed Lily). [1]

The author's remark - laughed, indicates that in this context there is a request-joke. At the same time, the saying Don't say good-bye, depending on the modus relations of the communicants, can be multifaceted and include such modal shades as discontent, irony, remark, reproach, etc.

10) Request-petition has its own speech patterns. These types of requests are used mainly in writing - in the form of a statement, petition, report, and in which such turns of speech are used as: for one's assistance - просить о помощи; one's appeal - обращаться с просьбой; a favour - просить об одолжении; a permission - просить разрешения smb's pardon - просить извинения; for advice - просить совета; smb's indulgence - просить снисхождения; with smb. for smb -просить за кого-либо; for a leave - просить отпуск and etc.

This type of speech act of request, as a rule, is part of a written argumentative discourse with an alleged or probable addressee.

An example from the work of S. Stein "The Magician". In this context, there is a part of the statement of schoolchildren to the board of trustees with a request to help avoid conflict with teachers at school.

"We are addressing this appeal to the parents of this community to help us, because the teachers can't. It is a fact of life in many communities throughout the country that the teachers have no control over the divided situation. The really good ones give up and go elsewhere. The majority of teachers are afraid and do nothing..." [6]

Analysis and results. The analysis of contexts shows that the speech acts of the request are status-marked, that is, depending on the social, age and other differences in the status of the communicants, the speech acts of the request are divided into statements with descending or ascending characteristics, namely: directives and requests.

Frequent statements in which there is a convergence of the categories of request and demand (No smoking; Switch off the light; Water the flowers; Keep off the grass; Keep quiet!; Silence, please; Attention, please and etc.) Such statements, as a rule, are aimed at performing actions that correspond to objective reality and are necessary in a certain situation. At the same time, such speech acts contain signs of a request.

Also indicative are such situationally related statements that can acquire the meanings of a request:

«The train is leaving in 5 minutes!» (request for hurrying),

«It's getting cold» (variant – request for closing windows), 's getting dark (request for turning on the light) and etc.

Examples show that in an effort to realize their communicative goal and get the desired result, communicants should be able to choose certain functional and semantic varieties of the speech act of request, which would allow the most successful implementation of communicative intentions. In a way, the control of the speech behavior of the communication partner in general, and the speech act of the request in particular, is one of the leading factors in the realization of discursive goals.

Conclusion. Thus, various varieties of the speech act of request within the framework of a rhetorical strategy in argumentative discourse are aimed at controlling the mind of the listener, who is persuaded to make a decision: execute /

not execute an action; agree / disagree with the point of view in accordance with the communicative goal of the proponent.

LITERATURA

1. Christie A. Selected Detective Prose / A. Christie. - M: Raduga Publishers, 1989. - 400 p.
2. Hailey, A. The Final Diagnosis / A. Hailey. - M.: Просвещение, 1978, - 171 p.
3. Maugham, S. Selected Short Stories / S. Maugham- M.: Менеджер, 1996, - 352 p.
4. Mortimer, J. Rumpole Omnibus - Bungay: Pinguim Books, 1983, - 560 p.
5. Wilde, O. Selections / O. Wilde - M.: Изд. Прогресс, 1979, - 394 p.
6. Stein, S. The Magician. - N.Y.: Dell, 1972. - 301 p.
7. Clark, M.H. All through the night. - N.Y.: Star Books, 1998. - 206 p.
8. Stone, I. The Agony and the Ecstasy. - N.Y.:signet Books, 1961. - 774 p.
9. Cartland, B. The Mysterious Maid. - N.Y.: Bantam Books,1977. - 165 p.



Маҳмуджон ШОНИЁЗОВ,
ТДИУ Аниқ ва умумий фанлар кафедраси доценти
E-mail: mshoniyofov@mail.ru

ЎзМУ профессори, филол. ф.д. Раҳмонов Н.А. тақризи асосида

ПИРИ OF FAZLI NAMANGONIY

Abstract

This article examines the literary environment of Kokand during the reign of Amir Umar Khan on the grounds of the sources. The careers and titles given to poets and scholars have been determined. The information about Khislat Eshan Mawlavi was scientifically analyzed on the basis of sources. The teacher of Fazli Namangani, the Malikushshuaro of his time, has been identified.

Keywords: manuscript, lithography, complex, eshan, tora, khoja eshan, ma'zumi a'zam, sheikhul islam, literary environment, tazkira.

ПИРИ ФАЗЛИ НАМАНГОНИ

Аннотация

В данной статье исследуется литературная среда Коканда на основе источников времен Амира Умархана. Определены карьеры и звания, присвоенные поэтам и ученым. Информация о Хислат Эшан Мавлави была научно проанализирована на основе источников. Был определен наставник Фазли Намангани, который был Маликуш («царем») поэтов своего времени.

Ключевые слова: рукопись, литография, комплекс, эшан, тора, ходжа эшан, великий из великих, шейхул ислам (должность), литературная среда, тазкира.

ФАЗЛИЙ НАМАНГОНИЙНИНГ ПИРИ

Аннотация

Бу мақолада Қўқон адабий муҳитининг амир Умархон даври манбалар асосида ўрганилган. Шоирлари ва олимларга берилган мансаб ва унвонлар аниқланган. Хислат Эшон Мавлавий ҳақидаги маълумотлар манбалар асосида илмий таҳлил қилинди. Ўз даврининг Маликушшуароси бўлган Фазлий Намангонийнинг устози аниқланган.

Калит сўзлар: қўлёзма, тошбосма, мажмуа, эшон, тўра, хўжа эшон, маъзуми аъзам, шайхул ислом, адабий муҳити, тазкира.

Кириш (Introduction). Мусулмон шаркида подшоҳлар уламолар ва истеъдодли шоирларни қадрлаб уларга юксак эҳтиром кўрсатган ҳамда турли мансаб, унвонлар жорий қилган. Жумладан, Қўқон хони амир Умархон (1810-1822) ҳам давлат бошқарувида эшон, тўра, хўжа эшон, маъзуми аъзам ва шайхулислом, хожа калон, қози калон, қози аскар унвонларини бир қатор олим ва шоирларга берган. Бу давр шоирлари ва адабий ҳаёти ҳақида Миён Бузрук Солиҳов жуда ўринли ва асосли равишда ўзининг илмий қарашларини илгари суради.

“Воқеа, Амири Умар даврида янгидан борлик кўрсатган бир адабий оқим бор эди. Эскидан оқиб келган адабиётнинг сочиқ ҳолда бўлган шоирларини Амири Умар тўплаб адабиётнинг бир даража ўсишига бонс бўлиб кўринади. Амири Умарнинг ўзи ҳам шоир эди [1]”.

Дастлаб, айниқса тарих саҳнида маълум ва машҳур олим, шоир, йирик сиёсатчи Адога (Султонхон тўра Ахрорий) хўжа калон, шайхул ислом унвонларини тақдим этди. Амир Умархон Адодан ташқари яна иккита уламони шайхул исломлик унвони билан тақдирлаган. Улар Зокирхўжа Эшон Намангоний ва Хислат Эшон Мавлавийдир.

Бу давр адабий муҳити ҳақида адабиётшунос олим Бахтиёр Файзуллоев қуйидагича фикр юритади:

“ XIX асрнинг биринчи ярмида татаббунавислик энг ривожланган адабий муҳит Қўқон бўлиб, маснӯ татаббунавислик ҳам у ерда кучли эди. Зеро, унга Қўқон хонлари, шоирлар Амирий, ундан сўнг ўғли Хон бевосита раҳбарлик қилган[2]”.

Демак, сарой атрофидаги шоирлар сиёсий хушёрлик бўлиш билан бирга яхши бир мактаб ва устоз

қўрган бўлиши керак. Акс ҳолда адабий жараён талабларига жавоб бера олмайди.

-Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). Қўқон адабий муҳитини тадқиқ қилиш Мустақиллик йилларида адабиётшунос олимларнинг диққат марказида бўлди. Академик А.П. Қаюмовнинг “Қўқон адабий муҳити”, Пўлотжон Домулла Қайюмийнинг “Тазкираи Қайюмий” асарларида Қўқон шоирларининг бир қанчаси зикр қилинган. Натижада зикр қилинган шоирлар ижодини қўлёзмалар билан қиёсий ўрганишга эҳтиёж туғулди.

-Тақиқот методологияси (Research Methodology). “Мажмуаи шоирон”даги шоирлар ижодини қўёзма ҳамда тошбосма манбалар асосида ўрганиш адабиётшунослик ва матншуносликда муҳим аҳамиятга эга. Хусусан, турли чалкашликларга ойдинлик киритади.

- Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). “Мажмуаи шоирон”нинг кириш қисмидаги шоирлар рўхатида Фазлий Хислат Эшон Мавлавийни:

Ва гар Хислат аз кишвари Кошғар,
Ба гуфтори аз нутқ резад гуҳар.
Аз он шаҳар дилро пардохта,
Ба даргоҳи султон ватан сохта[3].
Маъноси:

Сўзларидан гавҳар сочувчи Хислат Кошғар шаҳридан. У шаҳридан (Кошғар) қалби ором топти ва Қўқонни ватан қилди, деб таърифу тавсиф қилган.

Хислат Эшон Мавлавий ҳақида Пўлотжон Қайюмий қуйидагича фикр юритади:

“Бу шоир асли уйғурлардан бўлиб, Қашқар шаҳридан. Хўқанд шаҳарига 19-нчи аср бошларида

келиб тўхтаб Қатоғон даҳасида боғ-жой этиб мутаваттан бўлиб қолмишдир. Бу киши тўғрисида Фазлий тубандагича маснавий айтадур. Номи тўғрисида бирор сўз йўқ. Маснавий будур” [4].

Маснавий:

Эрур Хислат ул Кошғар шоири,
Ки тўтию булбулни улдур бири.

Мазоминлари барча таҳсин эрур,
Хатодин муарро бори чин эрур.

Бўлуб шеърли султонга табиати,
Итоат эрур шоҳига нияти.

Кўнгил ришгасин Кошғардин узуб,
Бу Хўқанд аро истиколат тузуб.

Баройи амири фалак иктидор,
Дуогўйлиғ айлади ихтиёр.

Этиб анда чун сийят доройи даҳр,
Бўлуб тахти фармонида етти шаҳр.

Эрур бу ғазал ул хирад пешадин,
Фараҳ топти, Фазлий, бу андешадин[5].

Фазлий мазкур маснавийни Хислатнинг “ўйнамоқ” радифли етти байтлик ғазалидан олдин келтирган. Маснавий матнини “Тазкираи Қайюмий”даги нашри билан “Мажмуаи шоирон” асарининг мукаммал қўлёзма нусхаси №7510 ни солиштирганимизда 3-4 байтлари тушиб қолгани маълум бўлди. Лекин Юқоридаги маснавий Пўлотжон Қайюмийнинг фикрларини тасдиқлайди. Яъни маснавийнинг 3-4 байтлари тушиб қоласа ҳам умумий мазмуни йўқолмаган.

“Тазкираи Қайюмий”даги Хислатнинг ўзбекча “ўйнамоқ” радифли ғазалининг асл матни ва тошбосма нусхалари билан кийслаганимизда баъзи ўзгаришга учраган сўзлар ҳамда тушиб қолган байтлар аниқланди.

Чобукум қилса ҳавас майдонда чавгон ўйнамоқ,
Бош ушлаб гўйдек мен истарам жон ўйнамоқ.

Фикри зулфи кўнглим ичра солди юз ташвишким,
Ул сабабдиндур менга мундоқ паришон ўйнамоқ.

Боғбон, тутғил ғанимат сарв ила гул суҳбатин-
Ким, эмас ул сарву гулрух бирла осон ўйнамоқ.

Ёзғали қилки қазо авроқи руҳсориға хат,
Дуди оҳим бошлади кўк сори чандон ўйнамоқ.

Қилмади минг аҳддин бирга вафо ул бевафо,
Эмди билдим дилраболар бирла ялгон ўйнамоқ.

Эй кўнгил, дилдордин кўз тутма улфат негаким,
Мумкин эрмасдур парилар бирла инсон ўйнамоқ.

Нози тиғи бирла бисмил этгач ул котил мени,
Мор менга, Хислат, кўйида ҳар ён ўйнамоқ [6].

Юқоридаги ғазал “Тазкираи Қайюмий”да нашр қилинган матни ва асл матн тафовутлари матлабнинг иккинчи мисрасидаги “гўйдек” сўзи “кўйдек” шаклда ёзилган. Матннинг маъно ва мазмунига қарасак “кўйдек” яъни, кўча эмас, балки “гўйдек” коптоқ, тўпга тўғри келади. Чунки инсоннинг бошини ушлаши кўчага эмас кўпроқ тўпга ўхшаши ишончлироқ. “Тазкираи Қайюмий”да 3-4 байтлар йўқ ҳамда 5-байтнинг биринчи мисраси аслида “Қилмади минг аҳддин бирга вафо ул

бевафо,” тарзида берилган. Нашр матнда “Қилмадинг минг аҳддин бирга вафо эй, нозанин,” шаклида ёзилган. Ғазалнинг олтинчи байти иккинчи мисрасида “Мумкин” сўзи “Мушкин” тарзида нашр қилинган. “Мушкин” сўзи мумтоз адабиётда “қаро” рангни билдиради ва ғазалнинг маъносига зиддир. Мушкин сўзини, яъни “қора” рангни кўйиб ўқисак маъноси: “Қаро эрмасдур парилар бирла инсон ўйнамоқ” жуда хунук маъно чиқди. Сўз аслига мувофиқ ўқилгандаги ҳолат жозибадор “Мумкин эрмасдур парилар бирла инсон ўйнамоқ”. Ғазал мактабсининг охириги мисраси аслда “Мор менга, Хислат, кўйида ҳар ён ўйнамоқ.” нашрда “Борму мунча, Хислат, ул кўйида ҳар ён ўйнамоқ”. келган. Мактабнинг биринчи байтини эътиборга олсак “Борму” эмас, балки “Мор” яъни, “илон” қотил тиғидан боши кесилган чала жон, жон таслим қилаётган одам жон талвасасида ўзини ҳар тамонга уради. Байтнинг биринчи мисрасидаги “бисмил” сўзи сўйилган маъносини билдириб, одамнинг бошини кесиб кўйиб юборилса жони чиққунча ўзини ҳар томонга уриши образли ифода қилинган. Биринчи мисрадаги “котил” иккинчи мисрадаги “мор”га ўхшатирилган шоир бу ерда ўта бераҳм ёрни назарда тутмоқда.

Фазлий Хислат Эшон Мавлавийнинг “аст” радифли 14 байтлик ғазалидан олдин 24 байтлик маснавий келтиради ҳамда Аллоҳнинг 99 исми сифатига байт, яъни шеър ёзганини таъкидлаган. Мазкур маснавийнинг 13-14 байтида:

Надорат ба шеър хато рағбати,
Ки оройд аз назм худ санъати.
Вале майли назм буд гоҳ-гоҳ,
Ба кайфият зикри номи Илоҳ [7].

Маъноси:

Шеър айтишда хатоси йўқ эди.
Ўз шеърига санъати билан оро берарди,
Бирок шеър айтишга гоҳ-гоҳида майли бўлганда,
Худонинг номидан бошларди.

Фазлий тазкиранинг бошқа бир ўрнида ҳам Хислат Эшон Мавлавий иктидорига диққат қаратади.

Мазоминлари барча таҳсин эрур,
Хатодин муарро бори чин эрур [8].

Унинг шеърлари гўзал ва хатодан холилигини завку шавк билан қаламга олади. Фазлий Хислат Эшон Мавлавийга алоҳида эҳтиром кўрсатади ва унинг хизматида бўлиб ҳамда илм ўрганганини айтади.

Ман аз хидматаш илму фан ёфтам,
Ба дин гуна файзи суҳан ёфтам.
Би хон дарс онжоки доно шави,
Ба кун жаҳд шоядки мулло шави.

Маъноси:

Мен хизматида илму фан ўргандим, ранг-баранг маънодор сўзларнинг файзини диндан топдим. У ерда дарс ўқисанг доно бўласан. Шоядки, ҳаракат қилсанг мулло бўласан.

“Мажмуаи шоирон” тазкирасида Фазлий Адони кўп ўринда тилга тариқат пири сифатида келтирса-да, лекин шоир сифатида баҳо беради, аммо Хислат Эшон Мавлавийни пирим, устозим деб эътироф этади.

Чи гўйам ман аз Хислат Мавлавий,

Бузург аст дар олами маънавий.
Бувад жомий дафтар ҳолу қол,
Азизи жаҳон пири соҳиб камол.

Маъноси:

Маънавий оламнинг улуғларидан, Хислат Мавлавий ҳақида нима ҳам дейардим. Жаҳоннинг азизи, етук пири, унда шарияту тариқат илимлари мужассам.

Бундан ташқари, унинг пир сифатида мусулмон маънавий оламининг етакчи устозларидан бири эканлигини исботлайди. Диний-тавассуфий қарашларини бадият орқали очишга ҳаракат қилади. Унинг ипак каби

юмшоқлиги, шон-шарафи бутун дунёга етди. Унинг фармонида еттита шаҳар бўйсунди, деб таъриф тавсиф қилган. Фазлий ҳеч бир шоирга бундай баҳога бермаган.

Бу даврни чуқур ўрган адабиётшунос олим Эргашалаи Шодиевнинг “XIX аср хўжанд шоирлари ижодида зуллисонаинлик анъаналари (Ўзбек-Тожик адабий алоқалари тарихидан) [9]” мавзусидаги докторлик диссертациясида Фазлий Намангоний ҳақида қўп маълумотлар бор, лекин устози ким ва қайси мактаб вакили эканлиги ёритилмаган. Фазлий Намангоний қўлзма асарлари ва ўша даври тарихини манбалар асосида тадқиқ қилган муаррих Шодмонов Воҳидовнинг “Қўқон хонлигида тарихнавислик” монографиясида ўша давр илм фани ва адабий муҳитига бир бўлими бағишланган [10]”. Қўқон хонлигидаги мутасаввиф пирлар ҳақида баъзи маълумотлар манбалар учрайди, лекин Хислат Эшон Мавлавий тўғрисида фақат “Мажмуаи шоирон” тазкирасида келтирилган, холос. Фазлий

Намангонийнинг ижоди алоҳида йирик монографик режа асосида ўрганилмаган. Шу сабабдан ҳам унинг устози ҳақида маълумот адабиётимиз тарихи учун муҳим саналади.

- Хулоса ва тақлифлар (Conclusion/ Recommendations). Хуллас, Ўша давр тазкира ва қўлзма баёзларини ҳамда адабий манбаларини тадқиқ қилиш жараёнида Хислат ижодига тегишли бўлган маълумотлар топилиши мумкин. Қўлимиздаги маълумотлар асосида Хислат тариқатнинг нақишбандий сулуқига мансублиги аниқ. Мақом ва мартабада ҳам пешвога ўхшайди, лекин ҳозирча унинг ижодига тўлиқ ойдинлик киритишнинг иложи йўқ. Мутасаввиф сифатидаги даражаси ҳақида ҳам ҳеч нарса ёзилмаган. Фазлий Хислат Эшон Мавлавийни пири ва устози сифатида эътироф этган. Хислат ҳақидаги манбаларнинг топилиши Ўзбек мумтоз адабиёти ва Қўқон хонлиги ҳақидаги илмий изланиш ва янгиликларга алоҳида бир ҳисса қўшади.

АДАБИЁТЛАР

1. Мьён Вузрык. Орта-Асба ва Ўзбек әдәбијәти та'рихиға умуи қараş. Тошкент: Өзнәsr, 1930.-74-бет.
2. Фойзуллоев Б.Б. филолгия фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Ўзбек шеъриятида татаббуъ тарихи ва маҳорати масалалари. Тошкент.- 2002, 150 бет.
3. Фазлий Намангоний «Мажмуаи шоирон» ЎзРФАШИ қўлзмалар институти фонди. №7510 қўлзма, 8а - варақ, [7. 18- а-б, 19- а варақлар].
4. Пўлотжон Домулла Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. –Т.: “ЎзРФА қўлзмалар институти тахрир-нашриёт бўлими”, 289. - бет.
5. Фазлий Намангоний «Мажмуаи шоирон» ЎзРФАШИ қўлзмалар институти фонди. №7510 қўлзма, 230-а-б варақлар.
6. Фазлий Намангоний «Мажмуаи шоирон»нинг тошбасма нусхаси. –Т.: «Ильн», 1900 .- 319-320- бетлар.
7. Фазлий Намангоний «Мажмуаи шоирон». (Тузувчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Маҳмуд Ҳасаний). –Т.: “ФАН”, 2018.- 185-186 бетлар.
8. Шодиев Э. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. XIX аср Хўжанд шоирлари ижодида зуллисонаинлик анъаналари (Ўзбек-Тожик адабий алоқалари тарихидан). Ленинобод – Тошкент.- 1971, 445 бет.
9. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик. Тошкент.- 2010, 111- бет.



Акмал Юлдашев,

*Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети доценти
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
E-mail: akmal1909@mail.ru*

ЎзДЖТУ доценти, ф.ф.н. Қўлдошев А.М. тақризи асосида

CONCEPTUAL DERIVATION AS A SECONDARY INTERPRETATION PHENOMENON

Abstract

The article deals with the conceptual derivation as a result of secondary interpretation. Propositional and metonymic cognitive models that define the semantic of derived words. Subjectivity of secondary interpretation is reflected in the fact that the formation of a new sense of derived words may involve the selection of a particular conceptual content represented by an original linguistic unit that personal names with figurative meaning is compared or different conceptual characteristics of a particular conceptual content. The peculiarities of their functioning in a discourse are illustrated.

Key words: secondary interpretation, metonymical cognitive model, conceptual derivation, discourse.

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ДЕРИВАЦИЯ КАК ФЕНОМЕН ВТОРИЧНОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация

В статье рассматривается концептуальная деривация как результат вторичной интерпретации. Пропозиционные и метонимические когнитивные модели, определяющие семантику производных слов. Субъективность вторичной интерпретации отражается в том факте, что формирование нового смысла производных слов может включать выбор определенного концептуального содержания, представленного исходной лингвистической единицей, которую сравнивают личные имена с переносным значением, или различные концептуальные характеристики конкретного концептуального содержания. Проиллюстрированы особенности их функционирования в дискурсе.

Ключевые слова: вторичная интерпретация, метонимическая когнитивная модель, концептуальная деривация, дискурс.

КОНЦЕПТУАЛ ДЕРИВАЦИЯ ИККИЛАМЧИ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ҲОДИСАСИ СИФАТИДА

Аннотация

Мақолада концептуал деривация иккиламчи интерпретация ҳосиласи сифатида кўриб чиқилган. Таҳлилга олинган сўзларнинг семантикасини аниқлайдиган концептуал метонимия модели асосида кўриб чиқилган. Иккиламчи интерпретациянинг субъективлиги шундан далolat берадики, ҳосила сўзларнинг янги маъносини шакллантириш, образли маънога эга бўлган антропонимлар қисланадиган асл лисоний бирлик томонидан ифодаланган маълум бир концептуал таркибни танлаши ёки маълум бир концептларнинг турли концептуал хусусиятларини ўз ичига олиши мумкин. Уларнинг моҳияти дискурс орқали очиб берилган.

Калит сўзлар: иккиламчи интерпретация, метонимик когнитив модел, концептуал деривация, дискурс.

Кириш. Тил тизими ва инсоннинг нутқий фаолиятини ҳар томонлама тадқиқ қилиш, уларга ҳос белги-хусусиятларни батафсил ёритиш учун тилшуносликнинг турли йўналишларини бириктирадиган, уларнинг барчаси учун бир хилда таянч нукта хизматини ўтайдиган умумлашган таҳлил тизимини топиш олимлар олдидаги долзарб масала саналади. Бу каби таҳлил тизими хусусида Бодуен де Куртенэ тилда рухий ва ижтимоий далиллар ҳаракатда бўлиши сабабли тилшунослик учун ёрдамчи фан сифатида дастлабки ўринда психологияни ва ундан кейин инсонларнинг жамиятдаги муносабатлари ҳақидаги фан – социологияни танлайди [5].

Асосий эътиборини тил фалсафасини ўрганишга қаратган В.фон Гумбольдт инсоннинг оламни идрок этишида тил ва тафаккур муносабати, тилнинг тафаккурга таъсири ҳақидаги қарашларни илгари сурган, шунингдек, фанга “халқ тили – халқ руҳидир” [12] деган серкирра тушунчани олиб кирган эди. Мазкур фалсафий қараш негизида ХХ асрнинг сўнгги чорагига келиб тилшунослик фанида когнитив ёндашув назариясига асос солинди.

Тил ва тафаккур муносабати масаласининг фалсафа, тилшунослик ва психология фанлари доирасида батафсил муҳокама қилиниши когнитив тилшунослик тараққиёти учун мустаҳкам замин яратди. Когнитив тилшунослик мажмуавий тадқиқот майдони бўлиб, у тилшунослик ва психологиядан ташқари сунъий

интеллект назарияси, психолингвистика, нейролингвистика каби йўналишларига оид илмий ёндашувларни ҳам умумлаштиради.

Инсон борлиқдаги нарса ва ҳодисаларни асосан тил орқали идрок этади, хотирасида сақлайди ва уни концептуал тизимга жойлайди. Н.Н.Болдырев таъкидлаганидек, ҳар бир инсон ўз концептуал тизимга эга бўлади. Масалан, тикувчининг концептуал тизимдан мато тури, газлама, тикилаётган кийим шим, костюм, кўйлак, нимча, ўлчам, тикув машинаси каби тил бирликлар ўрин олса, ўқитувчининг дарс, меъёрий хужжатлар, журнал, дарс режаси ва жадвали, баҳолар қайдномаси, рейтинг дафтarchаси каби тил бирликлар концептуал тизимни ҳосил қилади. Ҳар икки ижтимоий қатлам вакилларининг концептуал тизими касбига нисбатан бир-бирдан тубдан фарқ қилади.

Оламни билиш жараёнида, яъни уни концептуаллаштириш ва категориялаштиришда баҳо муносабати муҳим ўрин тутди. Н.Н.Болдырев таъбири билан айтганда, бу жараёнда эгалланган билимлар интерпретацияси, иккиламчи концептуаллаштириш ҳамда муносабат, баҳолаш, қадриятлар, стереотиплар каби тизимлар доирасидаги иккиламчи категориялаштириш муҳим аҳамиятга эга [8]. Аниқроқ айтадиган бўлсак, инсон оламни идрок этар экан, албатта, бу жараёнда эгалланаётган билимни унғача бўлган билимлар билан

ўзаро қиёслайди. Қиёс асосида онгда янги концепт шаклланади. Бундай ҳолат, айниқса, маъноси кўчимга учраган тил бирликларида яққол ўз аксини топади.

Инсон нутқ актида тил бирликлар маъносини тайёр шакл сифатида қўлламайди [6], Е.С.Кубрякова таъбири билан айтганда, “инсон тайёр лисоний либосга тафаккурни кийгизиб қўймайди” [14], аксинча, ўз фикрини шакллантириб, унга мос келадиган тил бирликларини танлайди ва унинг ижросини ҳар бир аниқ нутқ фаолияти жараёнида таъминлайди.

Концептуал деривация хусусида сўз юритишдан аввал концепт ҳақида қисқача фикр ва мулоҳазалар юритиш ўринли ҳисобланади. Хусусан, Е.С.Кубрякова концептнинг онг ва рухий имкониятлар ҳамда инсон билими, тажрибасини акс эттирувчи тафаккур бирлиги эканлиги ҳақида фикр юритади. Унинг фикрича, концептуал тизим фикр юритиш ҳамда инсон руҳиятида воқелик қиёфасини акс эттирувчи тузилмадир, хотира ментал лексиконининг фаол мазмун бирлиги, тафаккурнинг концептуал тизими, бутун олам тасвири инсон руҳида акс этади [13].

Концепт борлиқнинг турли аспектида ўзида акс эттириш имкониятига эга бўлган онг тузилмаси бўлиб, тўлиқ мазмун касб этувчи ва бошқа кичик бўлақларга бўлинмайдиган, яъни ички қатламнинг элементар томонини ифодаловчи тафаккур бирлиги ҳамда индивиднинг ташқи олам ҳақидаги билган, ўйлаган, тасаввур маълумотлари йиғиндисидир. Концептнинг шаклланиши бевосита тил билан боғлиқ эмас, у образлар, рамзлар, схемаларни ифодалаб, ментал идрок этишда юзага келади.

Лингвокультурологик бирлик сифатида С.Г.Воркачев концептни тилда ўз ифодасини топган ва этномаданий ўзига хосликка эга бўлган жамоавий билим бирлиги сифатида таърифласа, [11] З.Д.Попова ва И.А.Стернин концепт шахс ва жамият когнитив фаолияти натижасини ўзида акс эттирган ва ифодаланаётган предмет ёки ҳодиса тўғрисида комплекс, энциклопедик маълумот берувчи ички структурага эга бўлган, инсон тафаккур қодининг асосий бирлиги бўлган дискрет ментал ҳодиса эканлигини таъкидлайдилар [15].

Концепт билан қиёсланганда тушунча анча содда структурага эга. Тушунча структурада мазмун асосий ўринни эгаллайди, концепт структурасида ифодадаги барча компонентлар ҳам мавжуд бўлавермайди. Концепт эмоционал, экспрессив, баҳо гардиши билан ўралган. Концептлар эмоция, симпатия, антипатия, ҳамда баъзан турли хил фикрларнинг тўқнашув предметидир.

Фикримизча, тушунча тил бирлигининг мазмун-моҳиятини белгилайди, масалан: ўзбек тилидаги бешик – чақалоқни белаб ва тебратиб ухлатиш учун тол ёки тут ёғочидан ясалган йўрға оёқли махсус мослама; тебратма беланчак [ЎТИЛ I, 2006: 245] лексемаси орқали инсон тафаккурида чақалоқ ухлаши учун махсус мослама, яъни бешик ҳақида умумий тушунча пайдо бўлади. Агар биз бешикни концепт сифатида баҳоласак, унинг ассоциатив маънолари инобатга олинади. Масалан: ақиқа, алла, базм, бешиктўй, бешикка солар, бешиккуда, бешиксоз, бешиксўпок, бешикчи, буви, ёстик, келинчак, кўзмунчоқ, куй, кўрпача, қалампир, маросим, она, ракс, сарпо, сумак, тарик, тувак, уста, фарзанд, чақалоқ каби. Мазкур ассоциатив маънолар бешик лексемасининг луғавий маъносида ўз аксини топмаган. Демак, тушунча асосий маънони англатади, концепт ассоциатив маънога эга бўлиши билан фарқланади ҳамда ушбу ассоциатив маъно концептнинг концептуал майдони саналади.

Тадқиқот давомида К.С.Кубрякова Т.Клауснер, У.Крофт, Н.Н.Болдыревлар [13, 17, 9] томонидан концептга берилган “концепт – бу инсон тафаккурининг

оператив бирлиги ёки тизимли билим кванти” таърифига таянилади. Негаки концепт инсоннинг ташқи олами идрок этишида фаол ҳаракатланиб, унинг онгида ментал равишда намоён бўладиган бирликдир. Бу жиҳатдан тил бирликлари, жумладан, кўчма маъноли тил бирликларининг концептуал таҳлил қилиниши ҳар жиҳатдан лозим ва мақсадга мувофиқ. Шу ўринда А.Абдуазизовнинг “...сўзларни турли гуруҳларга ажратиб, маъноларини “семантик майдон”ларда таҳлил қилиш ва ўз навбатида уларни алоҳида концептлар сифатида қараш лозим” [1] деган фикри ўринлидир. Сўз ясалишига когнитив ёндашув орқали муаммонинг тўлақонли тадқиқ этилиши тил ҳодисалари ортида яширинган когнитив механизмлар моҳиятини чуқурроқ очиб беришга яқиндан ёрдам беради.

Ж.Лакофф ва М.Жонсон концептнинг метафорик таҳлил усули ҳақида фикр юритиб, метафора образли схемаларнинг бир концептуал майдондан бошқасига ўтишини таъминловчи фундаментал когнитив операция вазифасини бажарувчи восита эканлигини қайд этдилар.

Инсоннинг эҳтиёжларига қараб, нарса ёки ҳодисаларнинг хусусиятлари ўзгартирилган шаклда берилган тушунчани шакллантирмасдан туриб, объектга ном бериш мумкин эмас. Белгиланган объектни танлаб, у ҳақида тушунчани шакллантириб, инсон ном беришнинг тегишли лисоний воситасини танлай бошлайди.

Тилшуносликда номинациянинг бирламчи ва иккиламчи хусусиятини очиб беришга бағишланган тадқиқотлар талайгина бўлиб бирламчи номинация “онгда акс эттирилган, илк бор ном вазифасини олган, тилдан ташқари кетма-кетлик қисмининг ўзаро боғлиқлигини” [16] назарда тутди. Бирок, иккиламчи бирламчи номинация янги номинатив вазифани бажаришда мавжуд тил бирликлари кўпроқ қўлланилади [4].

Ж. Фоконье ва М. Тернер кўп маъноли сўзларни яратишнинг концептуал механизмларини ўрганиб, қуйидагиларни таъкидлайдилар: “тил тўғридан-тўғри маъно яратмайди, аксинча у қандай яратилганлигини кўрсатади” [18]. У асосан концептуал даражада дастлабки концептларнинг ўзгариши туфайли яратилган. Ўзгаришларнинг йўналиши сўз билан ифодаланган, маъноси ўзгараётган концептнинг потенциал имкониятлари ва у билан ўзаро таъсир қиладиган концептнинг таъсири билан белгиланади [2].

Инсоннинг олами идрок этиш жараёнида воқеликнинг қайта англаниши натижасида индивид концептосферасида янги мураккаб когнитив жараёнлар амалга ошади. Бу жараёнлар концептуал деривация мақомини олади. Концептуал деривация аниқ концептлар ўртасида алоқа мавжуд эканлигини назарда тутган ҳолда асосий концепт ва унинг асосида пайдо бўлган концептларнинг ўзаро таъсирини таъминлайди. Концептуал деривация ҳосила сўзларда ўз аксини топади. Концептуал деривация назариясига асос солган Е.С.Кубрякованинг фикрича, инсон билимларининг ўзаро боғланиши маълум бир сўз ясалиш конструкциялари, сўз яшаш моделлари, механизмлари ва унинг семантикасига асосланади.

Шахс концептуал тизимининг ривожланишига ҳисса қўшадиган концептуал тизим, когнитив моделлар ва механизмлар орқали дастлабки билимларни интерпретация қилишнинг маълум бир усули натижасида янги маъно шаклланишини таъминлайдиган фикрлаш жараёни сифатида қаралади. Унинг намоён бўлишининг лисоний механизмлари бирламчи номинация, иккиламчи номинация, эвфемизация ва б. бўлиши мумкин [4, 10].

Н.Н.Болдырев олам ва билимнинг тилдаги интерпретациясини бирламчи ва иккиламчи

интерпретацияга бўлади. Бирламчи интерпретацияда инсон оламни идрок этишда борлиқдаги нарса ва ҳодисаларни маълум бир категорияларга жойлаштиради. Бу жараёнда тизимли мавзуй концептуал майдонлар шаклланади. Иккиламчи интерпретация эса юқорида айтиб ўтилган ҳолат натижаси ўларок, олам ҳақидаги билим, объект ва ҳодисалардир. Унинг натижаси оламнинг объект ва ҳодисаси ҳақида янги билим демакдир[8].

Иккиламчи интерпретация натижаси, аввал интерпретация қилинган объектлар ёки уларнинг индивидуал хусусиятлари вербаллашган бўлиб[8], бу иккиламчи концептуализация ва категоризация билан боғлиқ бўлган олам ҳақидаги янги билимлар ҳисобланади[3].

Иккиламчи интерпретация доирасида ҳосила сўзлар бой маълумотлар базаси сифатида эмас, балки катта ҳажмдаги қолиплаган маълумотларни сақловчи ва бу маълумотларга киришга имкон беради. Шунингдек, тил соҳибларига маълум билим тузилмаларини сўз ясаш конструкциялари билан боғлаш схемаларини, сўз шаклланишининг моделлаштириш механизмларини ва тил бирликларининг семантикасини ажратиш стратегиясини, янги маълумотларни қайта ишлаш тартибини таъминлайдиган муҳитдир[14]. Ҳосила сўзлар оламни билиш ва баҳолашда пайдо бўлган ҳамда турли характерга эга бўлган билимларни ўз ичига олган инсон концептуал тизимининг ривожланиш натижаси бўлган концептуал ассоциацияларни бирлаштириш ва вербаллаштириш имконини беради.

Концептуал деривация – маънонинг торайишида (specialization of meaning) масалан инглиз тилидаги deer – қадимги инглиз тилида (dēor) ҳар қандай тўрт оёқли ҳайвонни англатган бўлса ҳозирда шохли сутэмизувчилар оиласига мансуб кийик номини англатади. Ўрта инглиз тилида girl – лексемаси ҳар икки жинсдаги ёш болаларни англатган бўлса (Low German gör “child”), ҳозирда қиз бола маъносига эга. Маънонинг кенгайишида (generalization of meaning) инглиз тилидаги ёрдамчи феъллар to be, to have лексик маъноларидан ташқари замонлар тусланишида грамматик маъно ҳосил қилиши билан характерланади, Маънонинг ижобийлашувида (amelioration of meaning) қадимги инглиз тилида Queen – уй бекаси, рафиқа маъносини билдирган бўлса эндиликда давлат бошқарувида бўлган аёл маъносини англатади. Маънонинг салбийлашуви (rejection of meaning) қадимги инглиз тилида boog – қишлоқ аҳолиси, деҳқон маъносини англатган бўлса замонвий инглиз тилида қўпол ёки тарбияси оғир инсон маъносини англатади. Юқорида маънонинг торайиши, кенгайиши, салбийлашуви ҳамда ижобийлашуви асосида ҳосил бўлган маънолар иккиламчи интерпретация натижаси ҳисобланади.

Концептуал деривация – бу мавжуд концептлар ва концептуал тузилмаларга асосланган шахснинг концептуал тизимида янги билимлар структурасининг пайдо бўлишини таъминлайдиган билиш жараёни. Концептуал деривация жараёнида дастлабки тушунчалар концептуал

тузилмаларга бирлаштирилади, унинг таркибдаги дастлабки концептлар маълум концептуал хусусиятлар нуқтаи назаридан бир-бири билан мувофиқлаштирилган бўлиб кўринади. Когнитив фаолият жараёнида ҳосил бўлган концептлар, лисоний тасаввурга эга бўлиб, концептуал тизимнинг ажралмас қисмига айланиб, ўз навбатида, унинг кейинги тузилиши ва асл тузилмалар билан ҳосилавий алоқаларни сақлаб қолиш учун асос яратади. Бу жараённинг узлуксизлиги унинг тилда етарли даражада намоён бўлишини тақозо этади, шу билан бирга унинг ривожланиши ва асосий вазифаси – моддий воситаларнинг нисбатан чекланган тўплами билан ҳар хил маъноларни узатишда муҳимлиги таъкидланади.

Концептуал деривация жараёни концептларни концептуал тузилишга бирлаштириши ҳосила сўзнинг семантикаси асосида амалга оширилади. Турли фикрларни етказиш дастлабки билимларни интерпретация қилиш билан изоҳланади, яъни концептуал мазмун интерпретацияси инсон томонидан унинг эҳтиёжларига кўра танланадиган турли тавсифлар асосида амалга оширилиши мумкинлиги билан белгиланади. Буни мисол метонимик тарзда ифодаланадиган антропонимлар ортида кенг фонга оид билимлар бўлиши мумкин бўлиб, бу ҳол исмга эга инсоннинг фаолияти, юриши билан белгиланади. Унинг асосида шаклландиган маъно инсон хусусияти ҳақидаги у ёки бу тасаввурни танланиши мумкин. Мисол учун Альберт Эйнштейн (Albert Einstein) дунёда буюк олим ва юқори интеллектуал салоҳиятга эга инсон тарзида таърифланади. Go and ask Simon – he's the Einstein of the family жумласида ушбу оиладаги Simon исми боланинг Эйнштейн номи билан аталиши, унинг интеллектуал салоҳиятини белгилайди ёки The controls are really easy to operate, so you don't have to be an Einstein жумласида Эйнштейн номи салоҳият маъносида қўлланилган [LDELC 2006: 442].

Яна бир метонимик тарзда шаклландиган ҳосила маънодаги sandwich – бутерброд лексемаси, қиморвоз Lord Sandwich антропонимидан олинган. Ушбу қиморвоз қимор ўйини пайтида ўйинни тўхтатмаслик учун икки бўлак ноннинг орасига бир бўлак гўштни солиб олиб келишни сўрайди. [https://www.etymonline.com/word/sandwich] шу зайдда ушбу таом sandwich номи билан оммалашиб кетади.

Келтирилган мисоллардан кўринадики айнан концептуал деривация бошланғич билимни маълум бир интерпретация қилиш усули натижасида янги маъно шаклланишини таъминлайдиган когнитив жараён сифатида бошланғич концептлар ва концептуал тузилиш-ларнинг ривожланиш йўналишларини, ҳосила бирлик-ларнинг баҳолаш потенциаллини аниқлайди.

Турли тил бирликларини ҳосил қилувчи концептуал деривация шуни кўрсатадики, вербаллашмаган билимларни интерпретация қилиш жараёнининг ўзида янги категорияга киритиш мумкин. Яъни, концептуал деривацияни амалга ошириш, иккиламчи концептуализация иккиламчи категоризация билан бир вақтда содир бўлишини назарда тутади.

АДАБИЁТЛАР

1. Абдуазизов А. Тилшунослигимиз истиқболлари // Филология масалалари. – Т., 2011. – №3. – Б.22-25.
2. Бабина Л.В. Когнитивные основы вторичных явлений в языке и речи: Монография. Тамбов-Москва: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2003. – 264 с.
3. Бабина Л.В., Дементьева А.Г. Метонимические и метафонимические модели вторичной интерпретации (на примере фитонимов английского и русского языков) // IV International Forum on Cognitive Modeling, 11-18 September 2016, Lloret de Mar, Spain: Proceedings. Ростов н/Д: Фонд науки и образования, 2016. – С. 28-36.
4. Бабина О.В. Концептуальные основы словообразования // Когнитивные исследования языка Вып. IV. Концептуализация мира в языке: коллективная монография. М.: Институт языкознания РАН; Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г. Р. Державина, 2009. – С. 128-149.

5. Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Том II – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 391 с.
6. Болдырев Н.Н. Антропоцентрическая сущность языка в его функциях, единицах и категориях // Вопросы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2015. – № 1. – С.5-12.
7. Болдырев Н.Н. Интерпретация мира и знаний о мире в языке. // Когнитивные исследования языка. Вып. XIX. 2014. – С. 20-28.
8. Болдырев Н.Н. Категориальная система языка / Категоризация мира в языке / Когнитивные исследования языка X. – Москва-Тамбов, 2012. – С. 17-120.
9. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Введение в когнитивную лингвистику. – Тамбов: ФГБОУ ВПО Тамбовский государственный университет имени Г.Р.Державина, 2014. – 236 с.
10. Болдырев Н.Н. Оценочная метареферентация: проблемы изучения и описания // Когнитивные исследования языка Вып. V. Исследование познавательных процессов в языке. М.: Институт языкознания РАН; Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г. Р. Державина, 2009. – С. 43-51.
11. Воркачев С.Г. Методологические основания лингвоконцептологии // Аспекты метакоммуникативной деятельности. – Воронеж, 2002. Вып. 3 – С. 43.
12. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 397 с.
13. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Филологический ф-т МГУ им. М.В.Ломоносова, 1997. – 245 с.
14. Кубрякова Е.С. Язык и знание (на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира). – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с
15. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: Восток-Запад, 2007. – 314 с.
16. Уфимцева А.А. Лингвистическая сущность и аспекты номинации / А.А. Уфимцова, Э.С.Азнаурова, Е.С.Кубрякова, В.Н.Телия // Языковая номинация (Общие вопросы). Москва, Наука. 1977. – 359 с.
17. Clausner T.C., Croft W. Domains and images schemas. – Cognitive Linguistics, 1999. – Vol. 10. – № 1. – P. 2.
18. Fauconnier G. 2001. Polysemy and Conceptual Blending / Fauconnier G., Turner M. P.4. // www.wam.umd.edu/~mtrum/www.blending.html.
19. Longman Dictionary of English Language and Culture. New edition. – London: Pearson Longman, 2006. – 1620 p.
20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1 – жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.
21. <https://www.etymonline.com>